


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**



TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH”
FANIDAN**

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Ta'lim sohasi:

230000 - Iqtisod

Ta'lim yo'nalishlari:

5111000-Kasb ta'limi (5230600-Moliya, 5230700-Bank ishi, 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit), 5230600-Moliya, 5230700-Bank ishi, 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit, 5231200-Sug'urta ishi, 5231300-Pensiya ishi, 5231500-Baholash ishi, 5232000-Davlat budjetining g'azna ijrosi



TOSHKENT-2018/2019

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 201__ yil “___” _____dagi ___ -sonli buyrug‘i (buyruqning ___ -ilovasi) bilan tasdiqlangan “Soliqlar va soliqqa tortish” fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi Toshkent moliya instituti Kengashining 2018 yil “___” _____dagi “___” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

- Tuzuvchilar:**
- | | |
|---------------|--|
| Jo‘rayev A.S. | - TMI, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedra mudiri, i.f.d., professor |
| Bozorov F.O. | - TMI, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedra dotsenti, i.f.n. |
| Qiyosov Sh.U. | - TMI, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedra katta o‘qituvchisi |
- Taqrizchilar:**
- | | |
|-----------------|---|
| Xudoyqulov S.K. | - TDIU, “Moliya va soliqlar” kafedra mudiri, i.f.n., dotsent |
| Usmanova M.S. | - TMI, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedra dotsenti, i.f.n. |

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi kafedraning 201_ yil “___” _____dagi “___” – sonli majlisida muhokama etilib, fakultet Kengashida ko‘rib chiqishga tavsiya qilingan.

“Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi mudiri:

201_ yil “___” _____ **i.f.d., professor A.Jo'rayev**

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi Sug'urta fakultet Kengashining 201_ yil “___” _____dagi “___” – sonli majlisida muhokama etilib, institut o‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqishga tavsiya qilingan.

Sug'urta fakulteti dekani:

201_ yil “___” _____ **i.f.n., dotsent G'.Safarov**

Kelishildi:

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i

T.Baymurotov

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua

MUNDARIJASI

t/r	Nomlar	Betlar
1	O'quv materiallar	
2	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	
3	Glossariy	
4	Ilovalar:	
	-fan dasturi	
	-ishchi fan dasturi	
	-testlar	
	-tarqatma materiallar	
	-ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	

O'QUV MATERIALLAR

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

1-Mavzu: "Soliqlar va soliqqa tortish" fanining predmeti va o'rganish usullari

Reja:

- 1. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.**
- 2. Soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti va funksiyalari.**
- 3. Soliqlar va soliqqa tortish fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli.**

1. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Soliqlar va soliqqa tortish fanining boshqa fanlar singari o'ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o'qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi. Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq voqe'liklarini (harakatlarini) chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiiq etish yo'llarini o'rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq amaliyotidagi eng to'g'ri, eng mukammal va eng progressiv voqe'liklarni o'rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqe'liklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to'g'ri, ma'qul va ilg'or tajribalar olinib amaliyotga yo'l ko'rsatish uchun o'rgatiladi. Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo'l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo'ldan adashgan yo'lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o'zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo'ldan adashmaydi.

Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning zarurligi amaliyotda yo'ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo'yicha o'zgartishlarga yo'l qo'yimaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir. Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liqdir, uning maxsus bo'limi, ya'ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo'limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umumiy iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo'lganligi bois, soliqlar va soliqqa tortish fani ham moliya nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liq. Soliqlar va soliqqa tortish fanining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlarini o'rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani davlat budjeti fani bilan ham o'zaro bog'liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda budjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar

(daromadlar) bo'lmasa budget munosabatlarining o'zi bo'lmaydi. Bu fan chet mamlakatlar soliq tizimi, moliyaviy hisob, soliq qonunchiligi asoslari, soliqlarni prognoz qilish fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

2. Soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti va funksiyalari. Har qanday fan o'zining predmetiga, ya'ni izlanish ob'ektiga ega bo'ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo'lib kimyoviy moddalarning tarkibini o'rganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmini xarakteristikasi bo'lsa, soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti soliq munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama o'rganishdan iboratdir.

Fanning predmeti soliq voqe'liklari pul munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o'rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o'rtadagi munosabatni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, budgetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez - tez o'zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Bu yerda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi. Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo'ravonlik munosabati bo'lguday bo'lsa, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq ob'ektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday xuquqiy hujjatlarning ham kuchi etmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq ob'ektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning funktsiyalari soliq mutaxassisi va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo'l - yo'riqlar ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tadbiiq etishdan iboratdir. Demak, fanning asosiy funktsiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashdir.

3. Soliqlar va soliqqa tortish fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli. Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan soliqlar va soliqqa tortish fani davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi.

Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o'rganish - soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o'ynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo'lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda etakchilik, boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rganib chiqib, uni amaliyotga tadbiiq qilishni o'z zimmasiga oladi.

Soliq xizmati xodimlari o'zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning ob'ektiv zarurligiga, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo da Vinchi aytganidek: «Nazariya qo'mondon, amaliyot askarlardir» Nazariya amaliyotni to'g'ri yo'lga boshlovchi kompasdir. Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo'lishlari zarur.

Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis soliqlar va soliqqa tortish jarayonini o'rganishda va ularni hayotga to'g'ri hamda to'liq tadbiiq etishda adashmaydi. Shunday ekan bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o'zlarining ilmiy salohiyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-mavzu: O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar

Reja:

- 1. Umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar.**
- 2. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan yuridik va jismoniy shaxslar.**
- 3. Soliqlarning guruhlarga ajratilishi.**
- 4. To'g'ri va egri soliqlarning tarkibi va ularning budget daromadlaridagi ahamiyati.**
- 5. Yuridik va jismoniy shaxslar tulaydigan soliqlar va yig'imlar.**
- 6. Soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari.**
- 7. Xorijiy davlatlarda soliqlar asosida iqtisodiyotni tartibga solish nazariyasi va amaliyoti tahlili.**

1. Umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar. Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliqlar tizimi deb tushuniladi. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi xududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi hamda ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi moliya yili uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va davlat budjeti prognozi to'g'risidagi maxsus qarori asosida belgilangan normativlar bo'yicha tegishli mahalliy budgetlar o'rtasida taqsimlanadi.

7) davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar:

✚ yagona ijtimoiy to'lov;

✚ byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga fuqarolarning sug'urta badallari;

✚ davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar;

✚ Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

8) davlat boji;

9) bojxona to'lovlari;

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan umumdavlat soliqlari:

10) yagona soliq to'lovi;

11) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1) mol-mulk solig'i;

2) yer solig'i;

3) benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

4) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

5) yagona yer solig'i (soddalashtirilgan tartibdagi soliq).

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lovchisi bo'lib O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Mol-mulk solig'i va yer solig'i O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi.

Ushbu soliqlar stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'implar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi. Ushbu soliqlar va yig'implar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining butun hududida ayrim mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni umumiy, qat'iy stavkalarda belgilashi mumkin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalari soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'implarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan budjet bilan hisob-kitoblar hisobi budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobi hisobvaraqlarida mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar har bir turi bo'yicha yuritiladi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishi, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Mahalliy soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lanishining tasdig'i bo'lib amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank muassasasi yoki vakolatli organ bergan hujjat hisoblanadi.

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z budjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga va boshqa majburiy to'lovlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni, jumladan, sog'liqni saqlash, maorif, fan, mudofaa, xavfsizlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator shu kabi strategik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning budjeti ham soliqlari ham salmoqli bo'lishni talab etadi. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar respublika budjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi-yu, ajratma etmasa subventsiya yoki subsidiya beriladi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, ular budjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy xokimiyat organlari asosan fuqarolarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni, jumladan, maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ularning budjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos.

Shuning uchun ham mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki ular faqat shu hududning budjetiga tushadi va ulardan boshqa budjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy budjetlarning soliq va boshqa majburiy to'lovlari kam bo'lganligidan bu budjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani echishda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar beriladi. (masalan, qo'shilgan qiymat solig'idan, aksiz solig'idan va boshqalar).

2. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan yuridik va jismoniy shaxslar. O'zbekiston soliq tizimida soddalashtirilgan (ixchamlashtirilgan) soliq tizimiga o'tgan yuridik va jismoniy shaxslar ham mavjud bo'lib, ular quyidagi soliqlarni to'laydilar:

1) Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi to'lanishini nazarda tutuvchi soliq solish tizimi qo'llanilishi mumkin. Aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarayotgan, shuningdek foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshirayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar Soliq kodeksida (350-modda) belgilangan tartibda aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanuvchilar

uchun soliqlar va maxsus to'lovlar to'laganlari taqdirda yagona soliq to'lovi ularga tatbiq etilmaydi. Yagona soliq to'lovi to'lovchilarda import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini va qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash majburiyati ham saqlanib qoladi.

2) Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilish bundan mustasno), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qo'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, yer solig'i, boshqa mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar (mol-mulk solig'i, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im bundan mustasno) o'rniga budjetga 2007 yil 1 yanvarga qadar yalpi daromad solig'i to'lar edilar. 2007 yil 1 yanvardan boshlab esa savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini yalpi daromad va mol-mulk soliqlarining o'rniga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqsiz yagona soliq to'lovini to'lash rejimiga o'tkazildi.

3) Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari aksiz solig'ini va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilganlik uchun qo'shilgan qiymat solig'ini istisno etganda, amaldagi barcha umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar o'rniga o'zi etishtiradigan qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha yagona yer solig'ini to'laydilar. Yagona yer solig'ini to'lash tartibi va stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha soliq solishning o'zi belgilagan stavkalar bo'yicha soliqning qat'iy belgilangan summasini to'lashni nazarda tutuvchi alohida tartibini belgilashi mumkin.

5) Konchilik sanoati tarmoqlarining ayrim korxonalarini uchun qo'shimcha foyda solig'i to'lanishini nazarda tutadigan foydaning bir qismiga soliq solishning alohida tartibi joriy etilishi mumkin. Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar, uni to'lash tartibi va soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

6) Lotereyalarlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq o'rniga yalpi tushumdan yagona soliq to'lovini to'laydilar. Yalpi tushumdan yagona soliq to'lovi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

3. Soliqlarning guruhlariga ajratilishi. O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlarni ob'ekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha bir necha guruhlariga ajratib o'rganish mumkin.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar
2. Daromaddan olinadigan soliqlar
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona boji va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo‘yicha ilgaridek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o‘lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to‘lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlari kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig‘i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig‘i va yuridik (noqishloq xo‘jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin.

4. To‘g‘ri va egri soliqlarning tarkibi va ularning budget daromadlaridagi ahamiyati. Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to‘g‘ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linadi. To‘g‘ri soliqlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘laydi, ya‘ni soliqni huquqiy to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs bo‘ladi. To‘g‘ri soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklatish holati bu yerda bo‘lmaydi. Bu soliqlar tarkibiga barcha daromaddan to‘lanadigan soliqlar va mol-mulk (resurs) soliqlari kiradi.

To‘g‘ri soliqlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromaddan soliq to‘langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko‘p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi va oxir-oqibatda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi soliqlarning stavkalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog‘liqdir. Egri soliqlarni huquqiy to‘lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq og‘irligini haqiqatdan ham budgetga to‘lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste‘mol qiluvchilardir, ya‘ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste‘molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo‘shimcha ravishda qo‘yiladi. Egri soliqlarning ijobiy tomoni shundaki, ular respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo‘lishiga yordam beradi hamda inflyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etmaydi, ya‘ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi ilmiy asoslanmasdan oshirib yuborilsa bunday holatda korxonalar o‘z tovarlarini sotish qiyinchiligiga duch kelishlari mumkin.

Jahon soliq amaliyotida Davlat budjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri va egri soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan. AQShda budget daromadlari tarkibida

to'g'ri soliqlar salmog'ining 90 foizga yaqin bo'lishi bu mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Quyidagi 2.1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi budget amaliyotida to'g'ri soliqlarning tarkibi va undagi o'zgarishlar ko'rib chiqilgan.

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlarning o'rni¹(foizda)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				2018 yilda 2015 yilga nisbatan o'zgarishi, punktda
		2015	2016	2017	2018 (reja)	
1.	Davlat budjeti daromadlari – jami	100	100	100	100	X
2.	Shu jumladan: to'g'ri soliqlar	23,6	23,0	24,0	20,6	-3,0

Keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 2015-2018 yillar mobaynida to'g'ri soliqlarning mamlakat davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, xalqaro budget amaliyotida shakllangan tendentsiyalar nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, mazkur tendentsiyalarga muvofiq, bozor iqtisodiyoti sharoitida to'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i barqaror tarzda saqlab turilishi yoki o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi lozim.

Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji, benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliqlari kiradi.

2015-2018 yillar mabaynida egri soliqlarning O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida egri soliqlarning o'rni² (foizda)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				2018 yilda 2015 yilga nisbatan o'zgarishi, punktda
		2015	2016	2017	2018 (reja)	
1.	Davlat budjeti daromadlari – jami	100	100	100	100	X
2.	Shu jumladan: -egri soliqlar	52,9	55,1	54,6	53,7	+0,8

¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma'lumotlari asosida hisoblangan.

² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Mazkur tendentsiyaning mavjudligi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati nuqtai-nazaridan ijobiy hisoblanadi. Buning sababi shundaki, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo'yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi davlat budjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi barqaror daromad manbalarini budjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog'ini ta'minlashni taqozo qiladi.


Yuqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

Evropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi³.

5. Yuridik va jismoniy shaxslar tulaydigan soliqlar va yig'imlar. O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar va yig'imlarning hal qiluvchi asosiy qismini yuridik shaxslarning soliqlari va boshqa majburiy to'lovlari tashkil etadi. Yuridik shaxslar quyidagi umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar (1-chizma).

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro'yxatdan o'tgan (kodga ega) bo'lishlari shart.

³ Пансков В.П., Князев В.Г. Налоги и налогообложения. –М.: МЦФЕР, 2003. –с. 57-59.




2.1-chizma. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar⁴

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga

⁴ Soliq kodeksi asosida ishlab chiqildi.

binoan soliqaqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar yuridik va jismoniy shaxslarga bo'lingan. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar davlat budjeti daromadlarining 20-25 foizini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan-to'g'ri o'z daromadidan olinadi. Ular to'laydigan soliqlar va yig'imlar asosan budjetga naqd pul to'lash yo'li bilan o'tkaziladi (2.2-chizma).



2.2-chizma. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar

Jismoniy shaxslar davlat budjetiga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi:

- jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganligi uchun soliq;
- jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda daromadiga o'rnatilgan qat'iy stavkadagi soliq;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar.

6. Soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari. O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlarini orqali tartibga solib turiladi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o'rin olgan normalari soliq kodeksiga muvofiq bo'lishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq Kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo'llaniladi.

Soliq solish – yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat printsiplariga rioya etilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasining pul birligi-so'mda hisoblab chiqariladi.

Amaldagi soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar ko'yidagi huquqlarga egadirlar:

- soliq organlaridan soliq haqidagi qonun hujjatlari masalalari bo'yicha axborot va maslahatlar olish.

Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o'zlari ro'yxatdan o'tgan quyi Davlat soliq xizmati organlariga borib, budjet oldidagi o'z majburiyatlarini xatolarsiz bajarish maqsadida tegishli axborotlarni yoki maslaxatlarni bepul olish imkoniyatlariga ega.

- Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda va asoslarda soliq imtiyozlaridan foydalanish.

Soliq to'lovchilar nafaqat Soliq kodeksida balki, Vazirlar Mahkamasining yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qaror va Farmonlarida ko'zda tutilgan imtiyozlardan ham foydalanish huquqlariga egadirlar. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-sonli "Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqaruvchi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar belgilangan foyda solig'idan 20 foiz miqdorida imtiyozga egadirlar.

- Budjetga ortiqcha miqdorda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini qaytarish to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilish.

Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, gohida soliq to'lovchilarning o'zlari, gohida esa soliq idoralarining ongli xarakatlari tufayli soliqlar va yig'implardan ortiqcha to'lovlarni undirish amalga oshiriladi, ayniqsa, chorak yakuni yoki moliyaviy yil yakunlanayotgan vaqtda ayrim soliq turlaridan prognoz-rejalarni bajarish maqsadida korxonalarining bankdagi xisob raqamlaridan inkassa topshiriqnomasi orqali qonunchilikka zid ravishda majburiy undirish holatlari ko'p uchrashi mumkin. Budjetga ortiqcha undirilgan soliqlar 30 kun muddat ichida soliq to'lovchilarga qaytarilishi yoki boshqa soliqlar va yig'implardan qarzi mavjud bo'lgan holda o'sha qarzni qoplash imkoniyati paydo bo'ladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha budjet oldidagi o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlaridagi mavjud ma'lumotlar bilan tanishish.

Ushbu bandga muvofiq soliq to'lovchilar quyi soliq idoralariga berilgan soliq turlari bo'yicha belgilangan prognoz-reja va shu kabi xo'jalik va moliyaviy faoliyatlariga tegishli bo'lgan soliqqa tortish masalalari bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatlariga egadirlar.

- Soliq organlari o'tkazgan tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish, tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda soliq organiga o'zining yozma e'tirozlarini o'n kunlik muddat ichida taqdim etish.

Soliq to'lovchilar faoliyati soliq organlari tomonidan tekshirilganda aniqlangan xato va kamchiliklar, qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, hisoblangan moliyaviy jarimalar to'g'risida tuzilgan dalolatnoma korxonalar mansabdor shaxslariga (bosh hisobchisiga) tanishtirilishi shart. Tekshirish natijalarini korxonalar rahbariyati noxaq deb hisoblashi hamda e'tiroz bildirishi ham mumkin. Bunday holatda, soliq to'lovchi soliq idorasi rahbariyati nomiga yoxud yuqori soliq idoralariga yozma murojaat qilishlari mumkin. Soliq idoralarida ekspert komissiyasi tuzilgan bo'lib, ushbu komissiya tomonidan soliq to'lovchilarning yozma e'tirozlari bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi va natijasi arizachiga bildiriladi. Bunday holatda tekshirish natijasida

soliq to'lovchiga nisbatan qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda moliyaviy jarimalarni budjetga undirish to'xtatilmaydi.

- Soliq organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining hatti-harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish.

Soliq organlari o'zlariga berilgan vakolat doiralarida qabul qilgan qarorlari ayrim hollarda soliq to'lovchilarning e'tirozlarini keltirib chiqarishi mumkin yoki ular mansabdor shaxslarining xatti-xarakterlarini soliq to'lovchi qonunga zid deb hisoblashlari va ularga barham berish maqsadida yuqori soliq organlari (Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq qo'mitasi)ga yoxud sudga shikoyat bilan da'vo qilishlari mumkin. Bunday holat amaliyotda ba'zida uchraydi.

- Soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

Soliq to'lovchilar soliq hisob-kitobini quyi soliq idoralariga qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirgandan so'ng, xato va kamchiliklarni aniqlashsa uni qayta tuzatib darhol soliq idoralariga qayta soliq hisob-kitoblarini topshirishlari lozim bo'ladi. Aks holda, qonun oldida javob berishga to'g'ri keladi.

Soliq to'lovchilar Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar quyidagi majburiyatlarga egadirlar:

- belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish, pochta manzili o'zgargan taqdirda esa (notijorat tashkilotlar qayta ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda ham), bu haqda soliq organlarini o'n kunlik muddat ichida yozma ravishda xabardor etish.

Soliq to'lovchilar amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng, albatta quyi soliq idoralaridan ham ro'yxatdan o'tishi va tegishli ravishda soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR)ni olishi shart. STIR Davlat soliq qo'mitasi tomonidan markazlashgan tartibda ro'yxatga olinadi va soliq to'lovchilarga quyi soliq idoralari tomonidan etkaziladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tegishli summasini o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash.

Soliq to'lovchilar hisobot davrida hisoblangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida, to'liq miqdorda budjetga to'lab berishlari shart. Aksincha, soliq idoralari tomonidan o'z vaqtida budjetga o'tkazilmagan soliqlar va yig'implar summasiga nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,033 foiz miqdorida jarima (penya) hisoblanadi. Hisoblangan penya miqdori korxonaning sof foydasi hisobidan qoplanadi.

- Buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish.

Korxonada o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini yuritishda qonunchilik bilan belgilab berilgan hisob va buxgalteriya hisobi hujjatlarini yuritishga majburdir. Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish tegishli qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi.

- Moliyaviy hisobotni, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilar har bir soliq turi bo'yicha hisob-kitoblarini belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan soliq idoralariga taqdim etadi. Aks holda, korxonaga va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan moliyaviy va ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilarga soliq kodeksida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida yoki boshqa qonun xujjatlarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar ko'zda tutilgan holda, ular imtiyoz olish huquqini tasdiqlovchi tegishli qonun xujjatlarini quyi soliq idoralariga taqdim etishi shart. Imtiyoz huquqini tasdiqlovchi xujjat mavjud bo'lgandagina ular imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solish ob'ektlarining saqlanishi bilan bog'liq binolar va joylarga kirishiga ruxsat berish.

Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining tekshiruv rejasiga asosan Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilar faoliyati tekshirilganda korxonalar soliqqa tortish ob'ekti bilan bog'liq bo'lgan barcha ob'ektlarini ko'zdan kechirishga va bundan tashqari tekshirishga sharoit yaratib berishlari lozim. Aks holda, soliq idoralarining qonuniy talablari bajarilmagan hisoblanadi va ularga nisbatan qonunchilikda ko'zda tutilgan tegishli jazo choralari qo'llaniladi.

- Soliq organlarining soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish.

7. Xorijiy davlatlarda soliqlar asosida iqtisodiyotni tartibga solish nazariyasi va amaliyoti tahlili. Mazkur masalaga tegishli bo'lgan manbalarni tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan tartibga solinishi va uning shakllanishi turli bosqichlarda turlicha bo'lganligini qayd etib o'tishimiz zarur. Tadbirkorlar sinfi XVIII asrning ikkinchi yarimlaridanoq davlatning iqtisodiyotga aralashuvini ishbilarmonlik faoliyatiga to'sqinlik, deb qaraganlar. Bu davrda iqtisodiyotni erkinlashtirish g'oyasi, iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishini salbiy holat sifatida baholash keng tarqalgan edi. Bu g'oyalar A.Smitning "Xalqlarning boyishi sabablari va tabiati to'g'risida tadqiqotlar" asarida o'zining nazariy asosini topdi. Uning fikricha, iqtisodiyot o'zini-o'zi tartibga solish qobiliyatiga ega va uning negizida foydaga intilishdagi shaxsiy manfaat yotadi. A. Smit iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishini rad etadi, chunki

iqtisodiyotning rivojlanishi asosida bozor turadi va unga to'liq erkinlik berilishi zarur, deb hisoblaydi⁵.

A.Smitning izdoshlari D.Rikardo, J.Sey, J.Mill, A.Marshallar iqtisodiyotni o'zini-o'zi tartibga soluvchi tizim deb hisoblaydilar. Ular soliqlarni faqat byudjetni to'ldiruvchi vosita sifatida qarab, soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolini tan olmaganlar.

Amalga oshirilgan tahlillar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, hozirgi davrda davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning ikkita modelini ajratib ko'rsatsa bo'ladi. Bularning birinchisi keynschilik modeli, ikkinchisi esa neokonservativ model deb ataladi. Alohida qayd etish kerakki, iqtisodiyotni tartibga solish to'g'risida gap ketgan paytda J.M. Keyns (1883-1946 y.)ning bozor iqtisodiyoti haqidagi g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

J.Keynsning nazariyasining asosiy mazmuni uning "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936) nomli asarida bayon qilingan. Bunda muallif iqtisodiyotning rivojlanishidagi asosiy omil deb "samarali talab"ning mavjudligini ko'rsatadi. J.Keynsning fikricha, "samarali talab" ikkita tarkibiy qism (shaxsiy iste'mol va investitsiyalash) dan iboratdir⁶.

J.Keynsning nazariyasidan shunday xulosa kelib chiqadiki, aholining etarlicha bo'lmagan talabini investitsiya talabini oshirish bilan to'ldirish kerak. Investitsiya hajmining o'sishi mablag'lardan foydalanish natijasida olinadigan foyda miqdoriga va bank foizlari darajasiga bog'liqdir. Keltirilgan omillar bilan talab investitsiya talabini tartibga solish usullarini belgilaydi.

Keynschilar soliqqa tortishda progressivlik taraf-dorlaridir. Faol investitsiya siyosatini amalga oshirish soliq stavkalarini oshirish yo'li bilan milliy daromadni davlat foydasiga qayta taqsimlashni talab qiladi. Soliq ko'rinishida olingan pul resurslari soliq to'lovchilar tomonidan bankdan jamg'armalar sifatida foydalanilishi mumkin. Davlat esa xuddi shu narsadan investitsiya talabini kengaytirish va bandlikni oshirishda foydalanishi mumkin.

J.Keyns soliqlarni iqtisodiy tizimdagi "qayishqoqlik mexanizmi takomili" sifatida qaraydi. Uning nazariyasiga asosan o'sib boruvchi (progressiv) soliqlar iqtisodiyotning muvozanatlashganligiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy yuksalish davrida soliqqa tortiladigan daromad soliq daromadlariga nisbatan sekin o'sadi. Iqtisodiy inqirozda esa byudjetga soliq tushumlari daromad qisqarishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib, byudjetning daromadlari soliq stavkalari miqdoriga, shuningdek, o'sib boruvchi (progressiv) stavkalar bo'yicha soliq solinadigan daromad xajmlariga bog'liqdir.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkinki, keynschilik ta'limoti bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning yangicha yondoshuvining shakllanishiga asos bo'ldi. Bu ta'limotga qadar klassik ilmdagi davlatning aralashmasligi g'oyasi hukmron edi. Keyns

⁵ Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. -М.: "Финансы и статистика". 1993. стр. 62

⁶ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 125

nazariyasi esa iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi zarurligini isbotladi.

Biroq, XX asr 70-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab keynschilik nazariyasi jiddiy shubha ostiga olinib boshlandi. Bu davrga kelib, xorijiy mamlakatlarda krizislar yuz berayotgan edi. Davlat tomonidan tartibga solishning keynscha modeli ularni engib o'tishga qodir bo'lmay qoldi. Shu sababli iqtisodiyot davlat tomonidan tartibga solishning yangi modeliga muhtoj edi. Ana shunday yangi modelning nazariy asosi bo'lib iqtisodiyot nazariyasidagi neoklassiklar yo'nalishi: monetarizm va taklif iqtisodi xizmat qildi⁷.

“Taklif iqtisodi” nazariyasiga ko'ra, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun kapital jamg'arilishining qulay sharoitlari yaratilishi zarur. Ushbu maqsadda tadbirkorlarga soliqlar bo'yicha keng imtiyozlar joriy etilishi, shuningdek, inflyatsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Bu nazariya namoyondalari soliqlarning kamayishi daromadlarning ko'payishiga olib keladi, soliq solish bazasini kengaytiradi, deb qaraydilar.

Soliq undirishning eng yuqori va quyi chegaraviy stavkasini aniqlash murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Uning darajasi ko'pincha mamlakatdagi iqtisodiyotning holatiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy adabiyotlarda A.Laffer ta'limotiga asoslangan holda soliqlarning turli chegaraviy stavkasi keltiriladi. Uning darajasi 30 foizdan 60 foizgacha oraliqda o'zgarishi mumkinligi ta'kidlanadi⁸. Lekin aniq va ilmiy jihatdan asoslangan soliq stavkalarining yuqori va quyi chegaralari hamon mavjud emasdir.

Amaliyotdagi real ko'rsatkichlarga tayangan holda bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini soliqlar yordamida tartibga solish samarali amalga oshirilmoqda, degan fikrni bildirishimiz mumkin. Bu yerda soliq imtiyozlariga nisbatan alohida e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu boisdan soliq imtiyozlarining bir nechta guruhini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchi guruh soliq imtiyozlari mehnat vositalarining jadal amortizatsiyasiga taalluqli bo'lib, bunday imtiyozning qo'llanilishi korxonaning soliqqa tortiladigan foydasini kamaytiradi. Jadal amortizatsiya usullari mehnat vositalaridan foydalanishning dastlabki yillarida amortizatsiya qilinayotgan mulkni qaytadan tiklash uchun zarur bo'lgan mablag'ni to'plash imkonini beradi, shuningdek, foydadan undiriladigan soliqni kamaytiradi. Xorijiy mamlakatlarda amortizatsiyadan maqsadli foydalanish nazorat qilinadi va bu mablag'lardan ish haqi, dividendlar va boshqalarni to'lashga ruxsat etilmaydi. Jadal amortizatsiya Shvetsiya, Frantsiya, Ispaniya, Singapur, Syangan va boshqa mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda⁹.

⁷ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: “Кнорус”. 2004. стр 128

⁸ Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. //Учебное пособие. -М.: “Юрайт-Издат”. 2003. стр. 120

⁹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: “Кнорус”. 2004. стр 129

Ikkinchi guruh soliq imtiyozlari soliqqa tortiladigan daromaddan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishga ketgan sarf-xarajatlarni chiqarib tashlash bilan bog'liq. Ba'zi bir mamlakatlarda korporatsiya daromadidan investitsiya xarajatlarini to'liq yoki qisman (10-50 foiz) chiqarib tashlash amaliyoti qo'llanilmoqda. Shuningdek xuddi shu maqsadlar uchun investitsiya zahiralari tashkil qilishga ham ruxsat berilmoqda. Bunday soliq imtiyozlari Avstriya, Germaniya, Italiya, Frantsiya va boshqa mamlakatlarda qo'llanilmoqda. Bundan tashqari AQShda soliqqa tortiladigan daromaddan ilmiy-tadqiqot va loyihalashtirish ishlariga qilingan xarajatlarni chiqarib tashlash tartibi ham joriy etilgandir.

Uchinchi guruh soliq imtiyozlari investitsion soliq kreditining berilishi bilan bog'liqdir. Investitsion soliq kreditidan Shvetsiya, Ispaniya, Avstraliya va boshqa mamlakatlar amaliyotida foydalanib kelinmoqda.

To'rtinchi guruh soliq imtiyozlari soliqlar ta'tilini berish va soliq stavkasini pasaytirish bilan bog'liq imtiyozlardir. Ko'pincha bunday imtiyozlardan kichik korxonalar, yangi tashkil etilgan korporatsiyalar, shuningdek, muayyan rivojlanayotgan tarmoqlar va mintaqalar korxonalari foydalanadilar. Bunday imtiyozlar Gretsiya, Belgiya, Lyuksemburg, Italiya, Singapur kabi mamlakatlarda qo'llanilmoqda¹⁰.

Ta'kidlab o'tish lozimki, rivojlangan mamlakatlarda soliq siyosati xususiy kapitaldan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, mamlakatning iqtisodiyoti oqsayotgan mintaqalarni, shuningdek yangi yuksak texnologiyali ishlab chiqarishni investitsiyalashni davlatning soliqlar orqali rag'batlantirish amaliyoti mexa-nizmi yordamida amalga oshirilmoqda. Masalan, Germaniyada sharqiy va unga chegaradosh o'lkalarga investitsiya kirituvchi firmalar katta soliq imtiyozlariga egadilar. Po'lat quyish sanoati joylashgan o'lkalar soliq imtiyozlari bilan qo'llab-quvvatlanadi.¹¹

AQShda o'tgan asrning 80-yillarida o'tkazilgan soliq islohotlari korporatsiyalar faoliyati uchun yaxshi moliyaviy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan edi. Shu maqsadda korporatsiyalar daromadidan soliq stavkalari 46 dan 34 foizga kamaytirildi. Bundan tashqari, bu soliqda ko'p sonli soliq imtiyozlari bo'lib, investitsiya va ilmiy-tadqiqot ishlariga keng soliq imtiyozlari qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

AQSh uchun korporatsiyalar daromadlariga solinadigan soliqlarning bosqichli hisoblanishi va bir necha xil soliq stavkalarining amal qilishi xarakterlidir. Korporatsiyaning soliqqa tortiladigan birinchi 50 ming dollariga soliq 15 foiz stavkada qo'llaniladi. Keyingi 25 ming dollaridan soliq 25 foiz stavka bo'yicha undiriladi va soliqqa tortiladigan qolgan daromad summasiga nisbatan 34 foizli eng yuqori stavka qo'llaniladi¹².

¹⁰ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 125.

¹¹ Jo'rayev S. Soliqlar boshqaruv quroli.//Iqtisod va hisobot. 1994, 7-8 betlar.

¹² James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 123.

Korporatsiyalar daromadidan soliq, shuningdek, shtat byudjetiga ham to'lanadi. Bu soliq odatda belgilangan qat'iy stavkalarda undiriladi. AQShda korporatsiyalar daromadidan soliq stavkasi 18 dan 46 foizgacha atrofida tebranadi. Shunday qilib, soliqlarni bosqichli hisoblash kichik va o'rta firmalar uchun soliq og'irligini ma'lum darajada kamaytiradi.

O'tkazilgan islohotlar jarayonida fuqarolar daromadini soliqqa tortishda ham tub o'zgarishlar yuz berdi. 1986 yilga qadar AQShda fuqarolardan daromad solig'i 14 ta stavkada 11 dan 50 foizgacha miqdorda undirilgan edi. Keyinchalik uchta soliq stavkasi kiritildi (15; 28; 33). Bu stavkalar soliqqa tortiladigan daromad darajasiga bog'liq holda qo'llaniladi. Soliq stavkasining eng yuqori darajasi kamaytirilishidan tashqari, soliq imtiyozlarini qisqartirish orqali soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdori ham ko'paytirildi¹³.

Keyingi paytlarda ba'zi mamlakatlarda, masalan Frantsiyada, hukumat tomonidan belgilangan sohalarida tarmoq belgilariga qarab, ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlarini joriy etish amaliyoti qo'llanilmoqda. Masalan, imtiyozli stavkalar, investitsiyalarga chegirmalar, jadal amortizatsiya va hokazolar shular jumlasidandir.

Bu imtiyozlardan Frantsiyaning bir qancha etakchi tarmoqlari (avtomobilsozlik, aerokosmos, elektronika va boshqalar) foydalanmoqda. Biroq iqtisodiyotning ayrim sohalariga berilayotgan keng imtiyozlar boshqa sohalar uchun soliqqa tortishda juda og'ir sharoitlarni vujudga keltirib soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini buzmoqda. Bu, o'z navbatida, soliq to'lashdan qochish va boshqa turli su'iistemollik hollarini sodir etishga olib kelishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini soliqlar orqali tartibga solishning muqobil yo'nalishi ishbilarmonlik faolligining jonlanishiga ta'sir ko'rsatadi, soliqqa tortish bazasining rivojlanishiga olib keladi. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning ishlab chiqarish quvvatlari jadal su'ratlarda rivojlanmoqda. Bunday mamlakatlar uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan faol tartibga solish xosdir. Masalan, Turkiya, Xitoyda sezilarli darajadagi byudjet taqchilligiga qaramasdan, ustuvor sohalarni, byudjet tomonidan moliyalashtirish amaliyoti qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, bu davlatlar investitsiya hajmini oshirishga yo'naltirilgan soliq islohotlarini faol amalga oshirmoqda (xususiy firmalar daromad solig'i stavkalari kamaytirilmoqda, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi yangi tashkil etilgan korxonalariga 2-4 yilgacha soliq ta'tili berilmoqda)¹⁴.

Shunday qilib, xorijiy davlatlar uchun ishlab chiqarishni soliqlar yordamida faol tartibga solish xarakterlidir. Hozirgi paytda davlatning iqtisodiy sohalariga soliqlar vositasida ta'sir etishi jarayoni kuchayganligi sezilmoqda. Bunday aralashuv darajasi turli mamlakatlarda turlichadir.

¹³ James E. Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 125

¹⁴ Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: "ЮНИТИ". 2002. стр. 82

3-mavzu: Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

Reja:

- 1. Foyda solig'ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.**
- 2. Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliq bazasi.**
- 3. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar.**
- 4. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar.**
- 5. Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni budjetga to'lash muddatlari.**
- 6. Rivojlangan horijiy davlatlarda yuridik shaxslarning foydasini soliqqa tortishning o'ziga xosligi.**

1. Foyda solig'ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 1991 yilga qadar asosan dalat korxonalarini foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo'lgan qismini budjetga olib ketar edi. Qolgan mablag'lar esa korxonalar tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi.

Respublikamiz ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tishi tufayli mamlakatimiz xo'jalik turmushida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Natijada mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi, korxonalarining imkoniyatini oshishi, bozor infrastrukturasi rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarining avvalgi tizimi korxonalarining xo'jalik yuritish samaradorligini ta'minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to'sqinlik qila boshladi. Chunki, foydadan ajratma o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra faqat davlat korxonalarini foydasidan ajratilishi lozim edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992 yildan boshlab barcha turdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar "Daromad" solig'ini to'lashga o'tdilar.

O'zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtda daromad solig'ini olishga o'tish pul qadrsizlanishi tufayli ish xaqi o'sishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo'ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum xajmi kamaygani holda, ular o'z ishlab chiqarishlari yo'nalishini o'zgartirishga, foyda olmasalar ham juda kata miqdorda ishchilarga ish xaqi to'lashga majbur bo'ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida foyda bilan faoliyatlarini yakunlamasada daromad solig'ini ish xaqi fondidan belgilangan stavkada to'lashga majbur edilar.

1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-

moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

3.1-jadval

2014-2017 yillarda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining davlat budjeti daromadlaridagi salmog‘i¹⁵

Ko‘rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil (reja)	
	mlrd.so‘m	jami nis-n, %da	mlrd.so‘m	jami nis-n, %da	mlrd.so‘m	jami nis-n, %da	mlrd.so‘m	jami nis-n, %da
Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz - jami	36184,9	100	40505,8	100	44469,6	100	62229,5	100
To‘g‘ri soliqlar	8554,3	23,6	9338,5	23,0	10674,2	24,0	12805,4	20,6
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1284,8	3,6	1266	3,1	1291,1	2,9	2510,9	4,0

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining budjet daromadlaridagi salmog‘i kamayish tendentsiyasiga ega. Ya‘ni, uning salmog‘i yillar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, 2015 yilda jami daromadlarga nisbatan salmog‘i 3,6 foizni, 2016 yilda mos ravishda 3,1 foizni, 2017 yilda 2,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yilda 4,0 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Bu holat yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalarini yildan-yilga pasayib borayotganligi bilan izohlanadi. Daromadning ko‘p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o‘rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko‘rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

2. Soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq ob‘ekti va soliq bazasi. Soliq kodeksiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilari bo‘lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ammo soliqqa tortishning alohida tartibiga o‘tgan korxonalar, jumladan yagona soliq to‘loviga o‘tgan mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlari, yagona yer solig‘i to‘lovchi qishloq xo‘jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to‘lovchisi hisoblanishmaydi. Ular o‘zlari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to‘laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat‘iy stavkada soliq to‘lovchilar ham bu soliqni to‘lovchilari hisoblanishmaydi.

Yuridik shaxslar foyda solig‘i bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim iqtisodiyot tarmoq korxonalari budjet bilan hisob-kitoblarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin (misol uchun, energetika, neftgaz-xolding kabi tarmoq korxonalarida).

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2015-2018 yillaridagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tayyorlangan.

Soliqqa tortish maqsadida foydaga soliq to'lovchilarni rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb, O'zbekistonda ta'xis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig'iga tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari esa, faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromatlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

Rezidentlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchilar bo'lsa, norezidentlar faoliyati Respublikada vaqtinchalik harakterga ega bo'ladi.

Yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari bo'lishi uchun qo'yidagi shartlarga javob berishi kerak:

- ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi (qonunchilik bilan ta'qiqlangan faoliyatdan tashqari);

- o'zining mol-mulkiga ega bo'lishi;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;
- identifikatsion raqamga ega bo'lishi.
- mahalliy hokimiyat organlaridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar qayd etilgan shartlarga javob bersagina foyda solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Soliq kodeksining 127-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va norezidentlarining foydasi hamda rezident va norezidentlarning chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaidan soliq solinadigan daromadlar hisoblanadi.

3. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar. Soliq solinadigan baza esa jami daromad bilan chegirib tashlanadagan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi (Soliq kodeksining 128-moddasi).

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromatlari tarkibiga nimalar kirishini mukammal o'rganish zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

Yuridik shaxslarning jami daromatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va

aksiz solig'i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo'natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo'natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo'lgan haq summasi tushuniladi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar (xizmatlar) bo'yicha, shuningdek ob'ektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko'rsatilgan) va tasdiqlangan ishlarning (xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati daromadga qo'shiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizatsiya qilinganda, shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul topshirilganda soliq solish maqsadlari uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki tovarlar olingan baho asosida (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlanadi.

Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi. Jumladan:

- asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;
- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;

Bunga da'vo muddati o'tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar hamda sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar kiradi.

- talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;
- jami daromaddan ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rmini qoplash tarzida olingan daromadlar;
- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;
- undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarima va penyalari;

- valyuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi ijobiy farq;
- dividendlar va foizlar;
- royalti;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Solik kodeksiga ko'ra quyidagilar yuridik shaxs daromadi sifatida qaralmaydi:

- ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar;
- sotilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- budjetdan berilgan subsidiyalar;
- agar mablag'larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;
- olingan grantlar;
- sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;
- investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk;
- va boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan daromadlar.

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan aniqlanadi va qo'yidagi ketma-ketlikdagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.

$Y_{aF} = SST - IT$, bu yerda:

Y_{aF} -yalpi foyda, SST -sotishdan olingan sof tushum, IT -sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda.

$AFF = Y_{aF} - DX + BD - BZ$, bu yerda:

AFF -asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX -davr xarajatlari, BD -asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, BZ -asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

$UF = AFF + MD - MX$,

bunda: UF -umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MD -moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX -moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) soliq to'languncha olingan foyda.

$STF = UF + FP - F3$,

bunda: STF-solig to'laguncha olingan foyda; FP-favqulodda vaziyatdan olingan foyda; F3-favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

Yilning sof foydasi, korxonalar foyda solig'ini va undan keyin obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lagandan so'ng korxonaning o'zida qoladi.

Jami daromadlardan chegirmalar. Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlarning xaqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegiriladi. Soliq kodeksiga ko'ra (141-moddasi) xarajatlarning chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlarga moddiy xarajatlarning, mehnatga haq to'lash xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari hamda Soliq kodeksining 145-moddasida nazarda tutilgan boshqa xarajatlarning kiradi.

Soliq solinadigan bazaga kiritiladigan, ya'ni chegirilmaydigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;

- xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);

- xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratmalar bo'yicha belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlarning;

- nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;

- xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

- umumiy ovqatlanish korxonalarini yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash;

- yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;

- soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

- xodimlarga bepul ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan oziq-ovqatlar, tovarlar, mahsulotlar va boshqa qimmatliklar yoki soliq to'lovchining xodimlari uchun ishlar hamda xizmatlarni bajarish qiymati, ularga bepul beriladigan uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summalari);

- xodimlarga qo'shimcha berilgan ta'tillarga to'langan haq va ular yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalardan ortiqcha kompensatsiyalar, bundan noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan qo'shimcha ta'tillar uchun to'langan haq mustasno;

- xodimlarning ovqatlanishi, yo'l haqi, davolanishi uchun, davolanish va dam olishi uchun yo'llanmalar, ekskursiyalar va sayohatlar uchun, sport seksiyalari,

to'garaklari, klublaridagi mashg'ulotlarga, madaniy-tomosha, jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga borishi uchun, obunaga hamda xodimlarning shaxsiy foydalanishi uchun tovarlarga qilingan xarajatlarning o'rnini qoplash yoki to'lash va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;

– pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar;

– xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam (xodimning mehnatda jarohatlanishi yoki uning sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast etkazilishi yoxud xodim oila a'zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a'zolariga beriladigan moddiy yordam bundan mustasno);

– ishlab chiqarishda shikastlanganlik tufayli mehnat layoqatini yo'qotganlik munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlarisiz haqiqatdagi ish haqigacha to'lanadigan to'lovlar;

– ekologiya, sog'lomlashtirish hamda boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalariga, muassasalari va tashkilotlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga badallar kiritish;

– ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

– mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar;

– atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovlari;

– kredit shartnomasida muddatli qarzlarni uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar;

– bayram sanalari va muhim sanalar, jamoat faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag'batlantirish hisoblanadigan bir yo'la mukofotlar;

– sud chiqimlari;

– aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summalarning o'rnini qoplash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar;

– soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulkining (aktivlarining) chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar. Quyidagi zararlar bundan mustasno:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulknini bepul topshirishdan ko'rilgan zararlar,

b) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga

xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan zararlar;

v) uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar;

– xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagi sanksiyalar;

– davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha boshqaruvchi kompaniyalar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lash, shuningdek kompaniyalarning boshqa professional boshqaruvchilariga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar.

4. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar. Yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 1998 yilda 36 foizni tashkil etgani holda 2001 yilda 26 foizga tushgan. 2002 yilga esa 24 foiz, 2003 yilda 20 foiz, 2004 yilda 18 foiz, 2005 yilda 15 foiz, 2006 yilda 12 foiz va 2007 yilda 10 foiz, 2018 yildan boshlab 7.5 foiz qilib belgilangan.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida 2018 yilda yuridik shaxslarning foydasiga soliq stavkalari keltirilgan.

3.2-jadval

Yuridik shaxslar foydasiga solinadigina soliq stavkalari¹⁶

<i>N</i>	To'lovchilar	<i>Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Yuridik shaxslar (2-3-bandlarda nazarda tutilganlaridan tashqari)	14
2	Tijorat banklari	22
3	Rentabellik* darajasiga bog'liq holda mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari):	
	20 foizgacha	14
	20 foizdan yuqori	rentabellikning 20 foizlik darajasidan oshadigan foyda summasining 50 foizi**

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra norezident soliq to'lovchining daromadini chet elga o'tkazilayotganda 10 foiz miqdorida foydaga soliq undiriladi.

Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmasiz daromad manbaida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi:

- dividendlar va foizlardan – 10 foiz;

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qarori.

- sugʻurta mukofotlari, sugʻurtalash va qayta sugʻurtalash – 10 foiz;
- Oʻzbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar bilan Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiya va transport xizmati (fraxta daromadi) – 6 foiz;
- royalti, ijara daromadlari, xizmat koʻrsatish, shu jumladan boshqaruv xizmati, maslahatlar va boshqa daromadlar – 20 foiz.

Yuridik shaxslarga toʻlanadigan dividendlar va foizlar toʻlov manbaida 10 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortish maqsadida dividend deb, aktsiyalardan va boshqa xoʻjaliklar subʻektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlari tushuniladi.

Foizlarga esa depozit qoʻyilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qogʻozlardan olgan daromadlar kiradi.

Manbaida soliqqa tortilgan va dividend, foiz olgan norezident jami daromadidan tegishli tartibda belgilangan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda chegirma olish huquqiga ega boʻladi.

Soliq kodeksining 158-moddasiga koʻra yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻini toʻlashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

- ichki ishlar organlari huzuridagi qoʻriqlash boʻlinmalari.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻini toʻlashdan ozod qilinadi:

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati koʻrsatishdan, nogironlar uchun moʻljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni taʼmirlash hamda ularga xizmat koʻrsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yoʻlovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yoʻnalishli taksidan tashqari) yoʻlovchilarni tashish boʻyicha xizmatlar koʻrsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini taʼmirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

4) investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aktsiyalarini sotib olishga yoʻnaltiriladigan foydasi;

5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamgʻarib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablagʻlardan foydalanishdan olingan foydasi.

Soliq kodeksining 159-moddasiga koʻra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, sogʻlomlashtirish va xayriya jamgʻarmalari, madaniyat, xalq taʼlimi, sogʻliqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda;

2) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlari, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya taʼlim muassasalari qurilishiga yoʻnaltirilgan mablagʻlar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda;

3) asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda;

4) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing obʻekti qiymatining oʻrnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga.

Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida koʻrsatib oʻtilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan eʼtiboran, texnologik jihozlar boʻyicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan eʼtiboran uch yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan eʼtiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni toʻlash boʻyicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qoʻllanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

5) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari toʻlashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

6) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamgʻarmalarining mulkida boʻlgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamgʻarmalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yoʻnaltiriladigan ajratmalari summasiga.

5. Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni budjetga toʻlash muddatlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻini hisoblab chiqarish Soliq kodeksning 128-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻining hisob-kitobi, agar ushbu moddada boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan boʻlsa, davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari boʻyicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan Oʻzbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga Oʻzbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻining hisob-kitobida byudjetga toʻlanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda koʻrsatiladi. Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan

taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart.

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy to'lovlarni kiritish orqali to'laydilar, ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar bundan mustasno.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblangan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to'lovlarni to'lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to'laydi.

Haqiqiy olingan foydaga qarab hisoblangan soliq summasi (farqi) budjetga choraklik va yillik moliya hisoboti topshirish mo'ljallangan kungacha to'lanadi.

Ortiqcha to'langan soliq summasi kelgusi to'lovlarga o'tkaziladi yoki soliq to'lovchiga boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi bo'lmasa undan yozma ariza olgan kundan boshlab 30 kun ichida korxonaga qaytariladi.

Foydadan soliqni hisoblash va budjetga o'tkazish javobgarligi foydalaridan soliq to'lashni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar zimmasiga tushadi.

Dividend va foizlar to'lovchi yuridik shaxslar qo'yidagi shaklda soliq hisobini topshiradilar va to'lov amalga oshirilgan oydan keyingi oyning 5 kuni ichida soliq summasini budjetga o'tkazadi.

Dividend va foizlarga soliq hisobi¹⁷

Ko'rsatkichlar	To'lovchi ma'lumoti bo'yicha	Soliq inspeksiyasi ma'lumoti bo'yicha
Hisoblangan dividendlar va foizlar	2500	2500
Soliq stavkasi	10	10
Budjetga to'lashi lozim bo'lgan soliq summasi-jami	250	250

Daromadlarni manbaida to'lovchi yuridik shaxslar moliya yili tugashi bilan 30 kun ichida davlat soliq xizmati idoralariga hamda daromad olgan yuridik shaxslarga ularning talablari bo'yicha dalolatnoma topshiradilar. Unda shu shaxslarning ro'yxat raqamlari, nomlari, umumiy olingan daromad va jami to'langan soliq summasi hisobot yili uchun ko'rsatilgan bo'ladi.

6. Rivojlangan horijiy davlatlarda yuridik shaxslarning foydasini soliqqa tortishning o'ziga xosligi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ham yuridik shaxslar o'z faoliyatlari davomida ega bo'lgan daromadlaridan foyda solig'i to'lashadilar. Ushbu davlatlar soliq tizimida ham korxonalar olinadigan foyda solig'i alohida ahamiyatga ega bo'lib, mazkur soliqning ko'pgina umumiy hususiyatlarga egaligi bilan ayni paytda bir-biridan farq qilishini ham ta'kidlash lozim. Ushbu fikrni davom ettirgan holda quyida korxonalar daromadini soliqqa tortishning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini tahlilini keltiramiz (3.4-jadvala qarang).

Xorijiy davlatlarda korxonalardan olinadigan foyda solig'ining stavkalari miqdorlari*

t/r	Davlatlar	Foyda solig'i miqdori, foizda
1.	Yaponiya	37
2.	Italiya	36
3.	Ispaniya	35
4.	Niderlandiya	34,5
5.	Avstriya	34
6.	Frantsiya	33,3
7.	Buyuk britaniya	30
8.	Qozog'iston Respublikasi	30
9.	Germaniya Federativ Respublikasi	25
10.	Rossiya Federatsiyasi	24
11.	O'zbekiston Respublikasi	7,5

*Manbaa: IBFD. Publications. European Tax Handbook-2002. r. 59.

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, foyda solig'i stavkasi dunyoda iqtisodiy salohiyati bo'yicha faqat AQShdan keyingi o'rinda turgan Yaponiya mamlakatida 37 foizni yoki korxonalar moliyaviy natijasining 1/3 qismidan ko'pini tashkil etmoqda. Bu O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan soliq

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan ishlab chiqildi.

stavkasiga qaraganda esa 3 barobardan ham ko'pni tashkil etmoqda. Umuman olganda nomlari keltirilgan davlatlar ichida O'zbekistondan bir pog'ona oldin Rossiya Federatsiyasi bo'lib, undagi stavka ham bizdagiga qaraganda ikki barobar ko'p bo'lmoqda.

AQSh soliq tizmidagi foyda solig'ini tahlil etar ekanmiz, federal byudjeti daromadlarining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra uchinchi o'rinni korporatsiyalarning daromadalaridan olinadigan soliq egallaydi¹⁸.

3.5-jadval

AQShda korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqning soliq solish bazasi va stavkalari miqdori*

Soliqqa tortiladigan daromad, dollar	Soliq stavkasi, foizda
50 000gacha	15
50 000 - 75 000	25
75 000 – 100 000	34
100 000 – 335 000	39
335 000 – 10 000 000	34
10 000 000 – 15 000 000	35
15 000 000 – 18 333 333	38
18 333 333 dan yuqori	35

*Manbaa: Aleksandrov I. Nalogovie sistemi Rossii i zarubejnix stran. -M.: "Beratov-Press". 2002. Str. 121.

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq kichik biznes korxonalarini moliyaviy rag'batlantirish vazifasini o'taydi. Chunki, daromad hajmining o'sib borishi bilan soliq stavkalari ham oshib boradi.

AQShda korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliqni qo'llashga xos bo'lgan xususiyatlardan biri shundaki, bu erda dividendlar soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanmaydi. Ammo, dividendlarga nisbatan sezilarli darajada soliq imtiyozlari qo'llaniladi. Masalan, korporatsiyalarning daromadalaridan olinadigan soliq imtiyozlari ularning aksionerlik kapitalidagi salmog'idan kelib chiqqanholda, belgilangan. Xususan korporatsiyaning boshqa korporatsiya aksionerlik kapitalidagi salmog'i 80 foiz va undan ortiq bo'lsa, u holda korporatsiya oladigan dividend 100 foiz soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi. Agar bu ko'rsatkich 20 foiz va undan ortiq bo'lsa dividendlarning 80

¹⁸ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 120.

foizi, qolgan barcha boshqa holatlarda dividendlarning 70 foizi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi¹⁹.

AQShda korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq bazasini hisoblashda amortizatsiya ajratmalari, kredit bo'yicha foiz to'lovlari, fuqarolarga to'langan daromad soliqlari, mol-mulk solig'i, xayr-ehson maqsadlariga ajratilgan mablag'lar, sug'urta to'lovlari bilan ta'minlanmagan yo'qotish summolari va umidsiz qarzlari chegirib tashlanadi.

Shunisi xarakterliki, AQShda korporatsiyalarning yuqori foydasidan ham soliq olinadi. Mazkur soliq bo'yicha soliq bazasi amaldagi qonunchilikka ko'ra soliqqa tortishning imtiyozli shartlari belgilangan daromadlar majmuini o'z ichiga oladi. Bunda soliqqa tortilmaydigan daromad summasi 40 000 AQSh dollarin tashkil qiladi, daromad summasi 40 000 AQSh dollarga etishi bilan amaldagi stavka 20 foizga tushadi. O'zbekiston Respublikasida ham soliqqa tortishning imtiyozli sharoitlariga ega bo'lgan korxonalar mavjud, masalan, neft va gaz sanoatiga qarashli bir qator korxonalarini bunga misol qilish mumkin. Shuning uchun mazkur korxonalariga nisbatan yuqori foydadan olinadigan soliqlarni qo'llash masalasini ilmiy asosda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Germaniyada korporatsiyalar foydasiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar bor. Soliq stavkasi 25 foizni tashkil etadi. Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda foyda ikkiga bo'linadi; taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan²⁰.

Frantsiyada esa korxonalar foydasidan olinadigan soliq - bu korxonani barcha operatsiyalar yig'indisi bo'yicha olingan sof foydasidan undiriladi. Hozirgi kunda soliqning asosiy stavkasi 33.3 foiz bo'lib, ushbu soliq stavkasiga pasaytiruvchi koeffitsientlar qo'llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 42 foizdir.

Yaponiyada korporatsiyalar foydasiga soliqning stavkasi 37 foizni tashkil etadi. Ushbu soliqqa nisbatan ham pasaytiriluvchi koeffitsientlar qo'llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 48,8 foizni tashkil etadi²¹.

Kanadada korxonalar foyda solig'i stavkalari federatsiya stavkalari va provintsiyalar stavkalariga bo'linadi. Federatsiya stavkalari 28 foiz (sanoatni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchilar uchun 23 foiz), provintsiyalarda esa amal qiluvchi foyda solig'i stavkalari har bir hudud uchun alohida belgilangan.

Foyda solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlar asosan soliq stavkalarini pasaytirish orqali namoyon bo'ladi. 500 ming Kanada dollaridan ko'p investitsiyalarni jalb etgan kompaniyalar uchun 2 barobar pasaytirilgan soliq stavkalari amal qiladi.

Korporatsiya solig'i, ya'ni kompaniyalardan olinadigan foyda solig'i Buyuk Britaniyada 1965 yilda joriy qilingan. 1965 yilgacha ular jismoniy shaxslar bilan teng soliqqa tortilgan va bunga qo'shimcha 15 foizli foyda solig'ini to'laganlar²².

¹⁹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 123.

²⁰ James E. Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 121.

²¹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. Стр. 102.

²² Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004. p. 258.

Buyuk Britaniyada 1965 yildan 1973 yilgacha amal qilgan korporatsiya solig'ining klassik tizimi o'rniga imputatsion tizim deb ataluvchi (imputation system) korporatsiya solig'ini undirish tizimi vujudga keldi.

Korporatsiya solig'i rezident kompaniyalarning butun soliq yili davomida olgan foydalariga qo'llaniladi. Angliya soliq qonunchiligi "kompaniya" tushunchasiga quyidagilarni kiritadi: korporativ organlar, korporativ assotsiatsiyalar (o'rtoqliklardan tashqari).

Korporatsiya solig'i kompaniyalar foydasidan barcha ruxsat etilgan chegirmalarni ayirib tashlangandan so'ng undiriladi. Soliq stavkasi davlat byudjeti bilan birgalikda har yili tasdiqlanadi va kelgusi moliya yili daromadlariga qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda 30 foiz va 24 foiz (kichik biznes uchun) stavkalari amal qilmoqda. Korporatsiya solig'iga tortish 12 oydan oshmaydigan hisobot davridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Agar hisobot davri 2 moliya yiliga to'g'ri kelsa, kompaniya foydasi 2 qismga bo'linadi va har biriga mos moliya yilidagi soliq stavkasi qo'llaniladi. Odatda soliq hisobot davri tugagandan keyin 9 oy o'tgandan so'ng to'lanadi²³.

Imputatsion tizimga muvofiq, kompaniya olgan barcha foyda summasidan korporatsiya solig'ini to'laydi. Agar bu foyda aksionerlar o'rtasida taqsimlansa, u holda kompaniya tomonidan to'langan soliqning unga mos qismi aksionerlardan daromad solig'ini undirishda hisobga olinadi.

Imputatsion tizim 5 asosiy xususiyat bilan harakterlanadi:

- kompaniya (korporatsiya) solig'ini o'zining hamma foydasi (taqsimlangan va taqsimlanmagan)dan so'ng yagona stavkada to'laydi:

- dividendlar bo'yicha daromad solig'i manbada undirilmaydi.

- agar kompaniya dividend to'lasa, u holda u korporatsiya solig'i hisobiga oldindan to'lovni amalga oshirishi, ya'ni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan foyda summasiga hisoblangan korporatsiya solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'lashi kerak.

- Buyuk Britaniyada dividend oluvchi rezidentlarga foyda solig'ini to'lashda bo'nak to'lov summasiga chegirma qilishga ruxsat etiladi. Chegirma stavkasi shaxsiy daromad solig'ining asosiy stavkasiga bog'liq.

- hisobot davri tugaganda kompaniya tomonidan korporatsiya solig'i bo'yicha to'langan bo'nak to'lovlari korporatsiya solig'i hisobiga, majburiyatlardan chegirib tashlanadi.

Norezident korporatsiyalar, agar ular o'z filiallari yoki bo'limlari orqali Buyuk Britaniyada savdo-sotiqni amalga oshirsa, korporatsiya solig'iga tortiladilar. Norezident kompaniyalar (Buyuk Britaniyada o'z bo'limlari orqali savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan) quyidagilar bo'yicha korporatsiya solig'iga tortiladi:

- o'z bo'limlari orqali to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita amalga oshirilgan savdo-sotiqdan olingan daromadlar bo'yicha;

²³ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. Стр. 104.

• bu bo'limlar foydalanadigan mulkka egalik huquqidan yoki mulkdan olinadigan daromadlar bo'yicha;

• bo'limlar foydalanadigan aktivlardan olingan (kapital) sarmoya o'sishidan.

Norezident kompaniya Buyuk Britaniyada olingan, kapital o'sishdan olinadigan korporativ soliqqa tortilmaydigan har qanday daromaddan bazaviy stavkada foyda solig'iga tortiladi. Norezident kompaniya taqsimlangan foydadan korporatsiya solig'ining bo'nak to'lovlarini to'lamaydi.

Kompaniyalarning soliqqa tortiladigan foydasi kompaniyaning yalpi daromadidan hisobot soliq yilida qilingan, qonunchilik tomonidan ruxsat etilgan barcha harajatlarni chegirish yo'li bilan aniqlanadi. Chegirib tashlanishi uchun bu xarajatlar "joriy-xarajatlar" bandiga kirishi va tadbirkorlik faoliyatida to'liq foydalanishi shart.

Quyidagi harajatlar yalpi daromaddan chegirib tashlanadi:

1. Faoliyat bilan bog'liq joriy xarajatlar;

2. Ishlab chiqarish ehtiyojlardan kelib chiqib, ishchi va xizmatchilarni bo'shatishda to'lanadigan kompensatsion to'lovlar, kadrlarni texnik va malakaviy qayta tayyorlash harajatlari, mukofotlari va sovg'alar ko'rinishidagi to'lovlar;

3. Kompaniyaning moliyaviy masalalari bo'yicha yuridik maslahatlarga ketadigan harajatlar, buxgalteriya hisobi bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlar, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq transport harajatlari;

4. Litsenziya to'lovlari va shunga o'xshash to'lovlar, shuningdek kelgusida foyda olish bilan bog'liq to'lovlar, masalan: bir necha yildan so'ng hosil beradigan qishloq xo'jalik ekinlari uchun qilinadigan harajatlar;

5. Kompaniya hamkorlariga va xorijiy sheriklariga qilinadigan ko'ngil olish harakteridagi vakillik harajatlari (agar ular tadbirkorlik maqsadlarida qilinmasa) ma'lum chegarada; reklama harakteridagi sovg'alar (10 f.s. qiymatida oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlaridan tashqari); kompaniya mahsuloti namunalari ko'rinishidagi sovg'a harajatlari (har bir sovg'a oluvchi uchun sovg'a harajatlari 1 yilda 10 f.s. dan oshmasligi zarur) va boshqa xarajatlar.

Buyuk Britaniya kompaniyalari kapitalning o'sishidan soliqni ham to'laydilar. Norezident kompaniyalar bu soliqni to'lamaydilar²⁴.

Shveytsariyada korxonalar foydasiga solinadigan federal soliq progressiv soliq bo'lib, u uch darajali shkala bo'yicha undiriladi. Soliqqa tortiladigan foydaning 4,0 foizdan ko'p daromad keltiradigan qismidan 3,63 foiz miqdorida qo'shimcha soliq undiriladi. 4,84 foiz miqdoridagi ikkinchi qo'shimcha soliq foydaning 8,0 foizdan ko'p daromad keltiradigan qismidan undiriladi. Eng yuqori soliq stavkasi jamlama foydaning 9,8 foizidan oshishi mumkin emas²⁵.

Soliq bazasini aniqlash uchun umumiy daromaddan foyda olish bilan bog'liq bo'lgan barcha bevosita xarajatlar chegiriladi. Uskunalarni ishlatiladigan holatda saqlashga, ma'muriy personalning ish haqiga qilingan sarf-xarajatlar, hom ashyo

²⁴ Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. //Учебное пособие. -М.: "Юрайт-Издат". 2003. Стр. 108.

²⁵ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. Стр. 113.

qiymati, zaxira fondlarini yaratishga yo'naltirilgan transfertlar chegirilishi mumkin. Sarflar sotib olishdagi qiymat yoki bozordagi narx bo'yicha baholanadi. Soliq solish maqsadlari uchun qiymatning 1/3 qismi chegirilishi mumkin.

Federal soliqni qo'llanishi uchun zaralar etti yil oldinga o'tkazib chegiriladi. Kantonlar o'z qoidalarini belgilaydilar. Masalan, Jeneva kantonida kanton byudjetiga kiritib qo'yiladigan soliqni hisoblab chiqarish uchun muayyan hollarda zaralarni vaqtini cheklamagan holda oldinga o'tkazib chegirish ruxsat etilgan.

Demak rivojlangan industrial mamlakatlarda korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda. Chunonchi, ikkinchi jahon urushi arafasida mazkur soliq bo'yicha olingan tushum summasi AQSh federal byudjetiga jami soliq tushumlarining 50 foizga yaqin qismini tashkil qilar edi. 1955 yilga kelib bu ko'rsatkich 30 foizni, 1975 yilda 15 foizni, 1998 yilda esa 12 foizni tashkil qildi ²⁶. Mazkur soliqning davlat byudjeti daromadlari hajmidagi ahamiyatini pasayib borishi, asosan, ushbu soliq turiga nisbatan soliq imtiyozlarini doimiy ravishda qo'llanilayotganligi va soliq stavkalarini pasaytirib borilayotganligining oqibatidir.

²⁶ James E. Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 128.

4-mavzu: Soddalashtirilgan soliq tizimi

Reja:

- 4.1. Yagona soliq to'lovi.
- 4.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish.
- 4.3. Yagona yer solig'i.
- 4.4. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.
- 4.5. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda savdo va umumiy ovqatlanish hamda qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortishning ilg'or tajribalaridan foydalanish masalalari.

4.1. Yagona soliq to'lovi.

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotiga tadbir etilishi, uning iqtisodiy mohiyati. Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida" gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxonalar hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

2. Yagona soliq to'lovi, uning to'lovchilari va to'lovchilar tarkibiga kiritish mezonlari. Mikrofirmalar va kichik korxonalarini jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 2005 yilning 1 iyuldan boshlab O'zbekiston soliq tizimida kichik biznes subektlarining ba'zi toifalari uchun yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

U birxillashtirilgan bo‘lib, quyidagi majburiy to‘lovlarni to‘lash o‘rniga joriy qilingan:

- yagona soliq;
- budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi;
- Respublika yo‘l jamg‘armasi;
- Maktab ta‘limini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy ajratmalar.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek pensiya, yo‘l va maktab ta‘limini rivojlantirish jamg‘armalariga majburiy ajratmalar summalari alohida to‘lanmaydi.

Yagona soliq to‘lovi faqat kichik biznes sub‘ektlari - mikrofirmalar va kichik korxonalariga tatbiq etiladi.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar ro‘yxati 2007 yil 1 yanvardan boshlab kengaydi. Jumladan, ular tarkibiga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari (Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza – kontoralari va ularning xududiy bazalari bundan mustasno. Ular uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 8 iyundagi “Ixtisoslashtirilgan ulgurji baza – kontoralarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-374-son qarori bilan nazarda tutilgan soliq solish tartibi saqlab qolinadi); mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga tegishli bo‘lgan tayyorlov va ta‘minot – sotish tashkilotlari, brokerlik firmalari, komissiya shartnomasi (topshirig‘i) bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar; soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik shaxslar kiritildi.

2007 yil 1 yanvardan yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari hisoblangan alkogolli mahsulot ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lash huquqisiz, soliqlar va majburiy to‘lovlarni umumbelgilangan tartibda to‘lashga o‘tkazildi. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalariga yagona soliq to‘lovi tatbiq etilmaydi. Bundan tashqari Soliq kodeksining 350-moddasiga ko‘ra yagona yer solig‘ini to‘lovchilarga, qat‘iy belgilangan soliqni to‘lash nazarda tutilgan mikrofirma va kichik korxonalariga hamda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalariga ham yagona soliq to‘lovi tatbiq etilmaydi.

Soliqlar va majburiy to‘lovlarni umumbelgilangan tartibda to‘lovchilar hisoblangan xususiy amaliyot bilan shug‘ullanadigan notariuslar esa soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqisiz yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi “1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga o‘zgartirish va

qo‘shimchalar to‘g‘risida”gi PF-3305 sonli farmoniga ko‘ra 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab kichik biznes sub‘ektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar;
- xodimlarining o‘rtacha yillik soni:
 - ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan;
 - xizmat ko‘rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo‘lmagan tarmoqlarda 10 kishidan;
 - ulugurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;
- quyidagi tarmoqlarning o‘rtacha yillik xodimlari soni:
 - engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati 100 kishidan;
 - mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari 50 kishidan;
 - fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohasi (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan sohalar 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Kichik biznes sub‘ektlariga amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra tadbiq etiladigan soliq imtiyozlari va preferentsiyalar faqat yuqoridagi sanab o‘tilgan sub‘ektlarga taalluqli bo‘ladi.

U yoki bu korxonaning yuqorida aytilgan sub‘ektlar toifalarining birortasiga kiritilish mezonini bo‘lib xodimlarning yillik o‘rtacha soni, shu jumladan unitar (sho‘ba) korxonalarda, filiallarda va vakolatxonalarda ishlaydiganlar soni hisoblanadi.

3. Soliq ob‘ekti, yalpi tushum tarkibi va soliq bazasi. Yagona soliq to‘lovi ob‘ekti (soliq solinadigan aylanma) bo‘lib, yalpi tushum hisoblanadi.

Quyidagilar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo‘shilgan qiymat solig‘ini chegirgan holda (qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun) sotilishidan tushgan tushum summasi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotilishidan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

- qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyihalash-qidiruv va ilmiy-tadqiqot korxonalarini uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum summasi deganda o‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblangan yalpi tushum tushuniladi;

- lizing kompaniyalari uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum summasi deganda lizing bo‘yicha foizli daromadlar tushuniladi;

- vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun – ko‘rsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasi;

- tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun – realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

- lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum.

2) asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar.

Quyidagilar asosiy faoliyatdan boshqa daromadlarga kiritiladi:

a) undirilgan yoki qarzdor e'tirof etgan jarimalar, penyalalar hamda xo'jalik shartnomalarining shartlarini buzganlik uchun boshqa jazo turlari, shuningdek etkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha daromadlar;

b) hisobot yilida aniqlangan, o'tgan yillardagi daromadlari;

v) mikrofirm va kichik korxonalar huzuridagi oshxonalaridan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar singari bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'lanmagan operatsiyalardan boshqa daromadlar;

g) mikrofirm va kichik korxonaning asosiy fondlari va boshqa mol-mulkini sotishdan daromadlar;

d) kreditorlik va debitorlik qarzini qonun bilan belgilangan tartibda hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

e) tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholash.

Tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholash summasi mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishiga qarab soliq solinadigan yalpi tushumga kiritiladi;

j) tekin moliyaviy yordam, shu jumladan tekinga olingan mol-mulk;

z) boshqa operatsion daromadlar.

3) moliyaviy faoliyatdan daromadlar.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

a) olingan royalti;

b) O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingan daromadlar, aktsiyalar bo'yicha dividendlar hamda mikrofirm va kichik korxonaga tegishli bo'lgan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

v) mol-mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga berishdan daromad (marja);

g) chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi farqdan daromadlar.

d) qimmatli qog'ozlar, shu'ba korxonalar va hokazolarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar;

e) moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.

4) favqulodda daromadlar.

Tovarlar (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish) bepul berilganda soliq solish ob'ektiga ularning qiymati ham kiritiladi, bu qiymat ularni ishlab chiqarishga ketgan amaldagi xarajatlardan, mol-mulk bepul berilganda esa balansda qayd etilgan qoldiq qiymatdan kelib chiqib belgilanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan yalpi tushum hisoblab chiqilayotganda quyidagilar yalpi tushum sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aktsiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) budjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar;

9) aktsiyador – yuridik shaxsning o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda qo'shimcha aktsiyalarning qiymati yoki aktsiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish tariqasida olingan daromadlari;

10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik va topshiriq shartnomalari yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud o'zga ishonchli shaxs uchun amalga oshirilgan xarajatlarni qoplash hisobiga tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno);

12) ob'ekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki

tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish ob'ektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Soliq kodeksining 356-moddasiga ko'ra soliq solinadigan bazani aniqlash uchun yalpi tushum summasidan quyidagilar chegirib tashlanadi:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbaida umumiy asoslarda soliq solinadi;

4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot etkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatish (hisobdan chiqarish) natijasida olingan boshqa daromadlar.

Chegirmalardan tashqari soliq solinadigan baza quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari uchun:

- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

- benzin, dizel yoqilg'isi va gazning avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o'rtasidagi mahalliy budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan farq summasiga;

2) lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlari summasiga.

5) yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarini foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

6) yosh oilalar jumlasidan bo‘lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo‘yicha badallar to‘lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 10 foiziga.

4. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar. Yagona soliq to‘lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona soliq to‘lovi stavkalari 2017 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo‘lib, u quyidagicha tabaqalashtirilgan:

4.1-jadval

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari²⁷

<i>N</i>	<i>To‘lovchilar</i>	<i>Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarini, 2-7-bandlarda ko‘rsatib o‘tilganlaridan tashqari	5*
2	Bojxona rasmiylashtiruvchi bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3	Lombardlar	30
4	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo‘li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
5	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda ko‘rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan korxonalar	33**
6	Qimmatli qog‘ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
7	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg‘un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60%dan ko‘pni tashkil etadi)	30

**) lizing kompaniyalari uchun lizing beruvchining daromadiga nisbatan foizlarda (marja).*

****) haq (yalpi daromad) summasiga nisbatan foizlarda.*

Bundan tashqari, alohida toifadagi korxonalar jumlasiga kiruvchi loteriyalar o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar soliq solinadigan bazaga nisbatan 33 foiz miqdorida soliqqa tortiladilar.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qarori.

Quyidagi mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan to'liq ozod etiladi:

- Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

2005 yil 1 iyuldan boshlab yagona soliq to'lovini to'lovchilar hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalar qayidagi preferentsiyalar nazarda tutiladi:

1) ilgari kichik biznes sub'ektlariga yagona soliq bo'yicha berilgan imtiyozlardan foydalanish huquqi. Bu uni to'lashdan to'liq ozod qilishga nisbatan ham, soliq stavkasini pasaytirishga nisbatan ham belgilanadi;

2) yagona soliq to'lovini to'lash muddatini bir yilga kechiktirish, kechiktirilgan summani imtiyozli davr tugagandan keyin teng ulushlarda 12 oy davomida to'lash huquqi. Ushbu qoida faqat yangi tashkil etilayotgan (2005 yilning 1 iyulida va undan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan) mikrofirmalar va kichik korxonalar qayidagi tadbiriq etiladi.

3) qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga olingan yer maydonlari uchun budjetga ijara haqini to'lamaslik huquqi.

Soliq amaliyotiga yagona soliq to'lovining kiritilishi kichik biznes sub'ektlarini va mikrofirmalarni soliqqa tortish uslubiyatini yanada soddalashtirdi.

5. Soliq hisobini taqdim etish va soliqni budjetga to'lash muddatlari. Mikrofirma va kichik korxonalar, asosiy faoliyati bilan bir qatorda, boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ushbu faoliyat turlari bo'yicha ular alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning mazkur toifasi uchun qonunda nazarda tutilgan soliqlar, yig'implar va davlat maqsadli jamg'armalari hamda Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashlari shart.

Birinchi chorak, yarim yil va 9 oy yakunlari bo'yicha soliq to'lovchilar ro'yxatdan o'tish joyidagi tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida belgilangan shaklda yagona soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etadilar.

Mikrofirma va kichik korxonalar tarkibiga kirmaydigan korxonalar tomonidan – har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash har chorakda o'sib boruvchi yakun bilan hisobot choragidan keyingi oyning 25-kuniga qadar amalga oshiriladi.

6. Yagona soliq to'lovi bo'yicha to'lovni kechiktirish tartibi hamda uning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalar rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3620-son Farmoniga muvofiq yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalariga yagona soliq to‘lovini to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish tartibi belgilangan. To‘lashni kechiktirish yagona soliq to‘lovi bo‘yicha soliq majburiyatini to‘lash muddatini muayyan muddatga ko‘chirishni anglatadi.

To‘lash muddatini kechiktirish huquqini olish uchun korxonalar, yagona soliq to‘lovini to‘lashning birinchi muddati boshlanishiga ko‘pi bilan 15 kun qolganda, unga to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risida tegishli tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga belgilangan shaklda ariza topshiradi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risidagi arizani ariza kelib tushgan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida ko‘rib chiqadi, so‘ngra to‘lash muddatini kechiktirish yoki rad etish to‘g‘risida qaror chiqarib, korxonaning taqdim etilgan arizasiga qabul qilingan qaror natijasining tegishli belgisini qo‘yadi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining rad etish to‘g‘risidagi qarori quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin:

- to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risidagi ariza belgilangan shaklda taqdim etilmagan bo‘lsa;
- to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risidagi ariza belgilangan muddatdan keyin topshirilsa;
- korxonalar yagona soliq to‘lovining to‘lovchisi hisoblanmasa.

Yagona soliq to‘lovini to‘lash muddatini kechiktirish huquqini boshqa sabablarga ko‘ra rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Korxonalar arizada ko‘rsatilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi (haqqoniyligi) uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

To‘lash muddatini kechiktirish huquqi korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oyning 1-kunidan boshlab bir yilga beriladi.

Misol uchun, agar korxonalar davlat ro‘yxatidan 15 yoki 25 yanvarda o‘tkazilgan bo‘lsa, mazkur korxonalar soliqni to‘lash muddatini kechiktirish huquqi joriy yilning 1 yanvaridan keyingi yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan davrga beriladi.

Korxonalar xohishiga ko‘ra soliqni to‘lash muddatini kechiktirish huquqi uning yozma arizasiga asosan bir yildan kam bo‘lgan muddatga berilishi mumkin. Korxonalar to‘lash muddatini kechiktirish huquqi berilgan davrda boshqa soliq rejimiga o‘tganida, o‘tgan paytidan boshlab korxonalar to‘lash muddatini kechiktirish huquqidan mahrum bo‘ladi va unda qonunga muvofiq soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlar vujudga keladi.

To‘lash muddatini kechiktirish yoki muddati kechiktirilgan to‘lov summasini so‘ndirish huquqi berilgan davrda korxonalar tugatilsa, to‘lash muddati kechiktirilgan to‘lov summasi qonunda nazarda tutilgan tartibda to‘lanadi.

To‘lash muddatini kechiktirish huquqi berilgan korxonalar tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga belgilangan tartibda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kuniga qadar yagona soliq to‘lovining hisob-kitobini taqdim etadi. Bunda korxonalar yagona soliq to‘lovi hisob-kitobining o‘ngdagi yuqori burchagiga “O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-son Farmoniga muvofiq to'lash muddati kechiktirilgan" belgisini qo'yadi.

Agar to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish muddati chorak oxiriga qadar tugasa, ushbu davrlar uchun yagona soliq to'lovining summasini aniqlash uchun korxonalar davlat soliq xizmati organlariga yagona soliq to'lovi hisob-kitobining belgilangan shakli bo'yicha yagona soliq to'lovi bo'yicha ma'lumotnoma hisob-kitobni taqdim etadi.

Misol uchun, agar to'lash muddatini kechiktirish huquqining muddati 1 iyunda tugasa, korxonalar tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga aprel va may oylari uchun yagona soliq to'lovining ma'lumotnoma-hisob-kitobini taqdim etadi, iyun oyi uchun yagona soliq to'lovining hisob-kitobi esa 25 iyulga qadar taqdim etadi.

4.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish.

1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovining joriy etilishi. Ma'lumki, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini 2007 yil 1 yanvarga qadar budjetga to'lab kelgan yalpi daromadidan yalpi daromad solig'i, mol-mulk solig'i, tovarlar aylanmasidan Pensiya jamg'armasiga, Respublika Yo'l jamg'armasiga hamda Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlar to'lash o'rniga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjetining parametrlari to'g'risida"gi PQ-532-sonli qaroriga muvofiq 2007 yil 1 yanvardan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashga o'tkazildi.

2006 yil yakuni bo'yicha asosiy (profil) faoliyat turi savdo faoliyati (umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat) hisoblangan yuridik shaxslar belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovlari to'lashlari shart qilib belgilandi.

Shu bilan birga savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun:

- bojxona to'lovlari (bojxona bojlari va yig'implari, aksiz solig'i va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i);

- davlat bojlari;

- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakuni bo'yicha savdo (umumiy ovqatlanish) korxonasiga mansub bo'lmasa, kelgusi yil boshidan boshlab umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashga o'tishlari shart, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Yagona soliq to'lovi to'lashga o'tish savdo (umumiy ovqatlanish) korxonalarini umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashga o'tgan birinchi hisobot choragi uchun foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlarni

to'lamaydilar. Ishchilar sonidan qat'iy nazar ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari (shu jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar) yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchisini aniqlashda asosiy mezon bo'lib, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan korxonaning faoliyatining kodi hisoblanadi. Bunda korxonaning ixtisoslashishi XXTUT asosiy kodga to'g'ri kelishi kerak. Agar korxonaning faoliyati XXTUT kodiga to'g'ri kelmasa, o'z faoliyati kodini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistika organlarida qayta ro'yxatdan o'tkazishga va ushbu toifadagi korxonalar (faoliyati turlari) uchun belgilangan tegishli soliqlarni to'lashga majbur.

Yagona soliq to'lovida realizatsiya (tovaroborot) umumiy yillik hajmida tushum ulushi aksariyat qismini tashkil etgan faoliyat turi, asosiy (profil) faoliyati turi hisoblanadi.

Agar joriy yil yakuni bo'yicha realizatsiya (tovaroborot) ning umumiy yillik hajmida tushum ulushi faoliyati turlari bo'yicha bir xil miqdorni tashkil etsa, asosiy (profil) faoliyat turi o'tgan hisobot yil yakuni bo'yicha aniqlanadi.

Savdo (umumiy ovqatlanish) korxonalariga, soliq solish maqsadida, o'tgan hisobot yili yakuni bo'yicha asosiy (profil) faoliyat turi savdo faoliyati (umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyati) hisoblanadigan yuridik shaxslar kiradi.

Savdo faoliyati deganda - qayta sotish maqsadida xarid qilingan tovarlarni sotish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Quyidagilar savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

- o'zi ishlab chiqargan mahsulot hisoblanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;

- komissioner (ishonchli vakil) tomonidan komissiya (topshiriq) shartnomalari bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

- tayyorlov va ta'minot-sotish faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni is'temol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Yagona soliq to'lovini hisoblashda soliq solish ob'ekti bo'lib, aksariyat hollarda yalpi tushum hisoblanadi, lekin savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi tushum bo'lib tovarlar aylanmasi hisoblanadi. Bundan tashqari, savdo korxonalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatdan daromadlari va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi.

Shuningdek, yagona soliq to'lovi hisob-kitob bazasini aniqlashda tushumdan quyidagilar chegirib tashlanadi:

- a) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini;
- b) davlat subsidiyalarini;
- v) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

d) to'lov manbaida ushlab qolinishi lozim bo'lgan dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar;

e) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav kapitalini oshirishga yo'naltirishda aktsiyador qo'shimcha aktsiyalarining qiymati yoki aktsiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish tarzida olingan daromadlari;

j) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda. Mazkur daromadlar qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq shu davrdagi soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni o'tkazishni hisobga olgan holda soliqqa tortiladi.

z) olingan grantlar. Grant deganda – ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadni ko'zlagan, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun korxonaga davlat (hukumat), shuningdek nodavlat, xorijiy, xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ko'rsatiladigan tekin, gumanitar mablag'li yoki moddiy-texnik yordam tushuniladi. Grant mablag'lari qat'iy ravishda belgilangan maqsadlarga ishlatiladi.

i) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

k) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chegirmalar.

2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi stavkalari va soliqni hisoblash muddatlari. Yagona soliq to'lovi uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga muvofiq 2018 yildan boshlab savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun ishchilari sonidan qat'iy nazar yalpi tushumdan (tovar aylanmasi hajmidan) quyidagi stavkalarda yagona soliq to'lovi to'lash joriy qilindi:

2018 yilda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining stavkalari²⁸

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Umumiy ovqatlanish korxonalari	10
	ulardan:	
	umumiy ta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
2	CHakana savdo korxonalari, 3 va 4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari:	
2.1	quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1
2.2	Joylashgan joyidan qat'i nazar:	
	alkogolli mahsulot, tamaki mahsuloti, benzin, dizel yoqilg'i va suyultirilgan gaz realizatsiyasidan tovar oboroti bo'yicha	4
3	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5
4	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1
5	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari	4

Izoh:

Agar chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va yagona soliq to'lovining turli stavkalari belgilangan turli aholi punktlarida joylashgan bir necha savdo nuqtalariga ega bo'lsa, unda ular har bir savdo nuqtasi bo'yicha tovar oborotining alohida hisobini yuritishlari hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari lozim.

Agar savdo korxonalari, jumladan ulgurji va chakana dorixonalar, yagona soliq to'lovining turli stavkalari o'rnatilgan aholi punktlarida mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan bir necha savdo shahobchalariga ega bo'lsalar, ular har bir savdo shahobchasi bo'yicha tovarlar aylanmasini alohida-alohida hisobini yuritishlari va shu aholi punktlari uchun o'rnatilgan soliq stavkalari bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari shart.

Bunda savdo korxonalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatdan daromadlari va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlari savdo korxonasi davlat soliq xizmati

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekbrdagi PQ-3454-sonli qarori.

organlarida ro'yxatdan o'tgan joy uchun o'rnatilgan stavkasi bo'yicha yagona soliq to'lovini to'laydilar.

Agar savdo korxonalarini balansida qayd etilgan asosiy vositalarni ijaraga topshirsalar, ular ijaraga berilgan ushbu aktivlar qiymatidan umumbelgilangan tartibda mol-mulk solig'ini to'laydilar hamda ularga mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Savdo korxonalarini yagona soliq to'lovini mustaqil ravishda soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqadilar va budjetga to'laydilar.

Yagona soliq to'lovini hisob-kitobi ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot oydan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga belgilangan shaklda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash ortib boruvchi yakun bilan hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

4.3. Yagona yer solig'i.

1. Yagona yer solig'ining joriy etilishi va ahamiyati. 1999 yilda qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi "Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida"gi PF-2086-sonli Farmoniga muvofiq 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etildi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etilishi, o'z navbatida ularni quyidagi soliqlar va yig'imlarni to'lashdan ozod qildi:

- foyda solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yer solig'i;
- yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblangan qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona to'lovlari, davlat boji, litsenziya yig'imlari, budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek aksizosti mahsulotlarga aksiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi.

Yagona yer solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini

kuchaytirish, qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va bixillashtirishdan iboratdir.

Mazkur soliqning amalga kiritilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni tasarrufidagi yerlaridan yanada oqilona foydalanishga da'vat etadi, chunki har bir gektar yer maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'iy nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ining joriy etilishi soliqqa tortish tizimida uning amal qilishi jarayonini yanada takomillashtirishdan dalolat beradi. Soliqqa tortishning ushbu tizimi xo'jaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va to'lash borasidagi ishlarni keskin kamaytirdi. Ilgari qishloq xo'jalik korxonalarini o'nlab turdagi soliqlar va yig'imlarni to'lashardi. Agar ayrim soliq turlarining har oyda va har yilning har choragida to'lanishini hisobga oladigan bo'lsak, unda ayrim xo'jaliklar davlat soliq organlariga soliqlar bo'yicha 30 dan ortiq hisob-kitoblarni taqdim etishi, 1 yilda ana shuncha to'lov topshiriqnomalarini to'ldirishi kerak bo'lar edi. Endilikda esa xo'jaliklar 1 yilda 1 marta bir turdagi soliq summaini hisoblab chiqishadi.

2. Yagona yer solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti va soliq bazasi. Qishloq xo'jaligi tovari ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari yagona yer solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar – soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar tarkibiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

O'rmon va ovchilik xo'jaliklari hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanishmaydi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha mazkur faoliyat turidan yagona yer solig'ini to'laydilar va ular boshqa soliqqa tortish tizimini tanlash huquqiga ega emaslar.

Yagona yer solig'ini to'lovchi hisoblangan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona bojlari, davlat bojlari, litsenziya yig'implari, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni to'lashning amaldagi tartibi saqlanadi.

Agar yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo'yicha shu toifadagi to'lovchilar uchun amaldagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan soliqlarni to'lashga majburdirlar. Bunda, agar qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirsa, faoliyatning boshqa turlari bo'yicha (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun belgilangan soliqlar va yig'implar to'lanadigan savdo va umumiy ovqatlanishdan tashqari) ular faoliyatning mazkur turi uchun nazarda tutilgan yagona soliq to'lov yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yerlar ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganda ijaraga beruvchida ijaraga berilgan yerlar bo'yicha yagona yer solig'ini to'lash majburiyati saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi maydoni yagona yer solig'i solish ob'ekti hisoblanadi.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining normativ qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi. Agar normativ qiymat belgilanmagan bo'lsa, unda soliq solinadigan baza bo'lib qishloq xo'jaligi tovari ishlab chiqaruvchilarning soliq solinadigan yer uchastkalari maydoni hisoblanadi.

Soliq solinadigan qishloq xo'jaligi yer maydonlari, yer uchastkalarining joylashishi, tuproq boniteti va yer mulkining boshqa tavsiflari yer kadastri ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi.

3. Soliqdan imtiyozlar. Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari — yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

- yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar — yagona yer solig'i to'lovchilarga Soliq kodeks 282-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Kalendar yil soliq davridir.

4. Soliqni hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi. Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:
hisobot yilining 1 sentyabrigacha — yillik soliq summasining 30 foizi;
hisobot yilining 1 dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.

4.4. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

1. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar hisoblanadilar. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi qat'iy belgilangan soliqni to'lovchi jismoniy shaxslar soliq qonunchiligiga ko'ra ijtimoiy sug'urta badallarini, eksport-import operatsiyalarini bajarganda yagona bojxona to'lovi, savdo qilish huquqi uchun yig'imni, agarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda suv resurslaridan foydalanilsa, unda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni, bozorlarda faoliyatini amalga oshirishda savdo joyi uchun to'lov (patta)ni, davlat bojlarini to'laydilar.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat joyiga (viloyatlardagi shaharlar, tumanlar, shu jumladan qishloq joylarga) bog'liq ravishda belgilaydi.

Bunda faoliyatning turli xillari uchun tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tomonidan mahalliy sharoitlar va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda qat'iy belgilangan miqdorlarda daromad solig'i stavkalari belgilanishi mumkin.

Qat'iy belgilangan soliqning bazaviy stavkalari va yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq summasining hisob-kitobi uchun tuzatuvchi koeffitsientlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'ini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar har oyda, mustaqil ravishda faoliyat amalga oshiriladigan oyning 25-kunigacha to'laydilar.

Masalan, jismoniy shaxslar daromadidan qat'iy belgilangan soliq:

2017 yil yanvari uchun 2017 yilning 25 yanvariga qadar;

2017 yil fevrali uchun 2017 yilning 25 fevraliga qadar belgilab qo'yilgan.

Qat'iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmagan tadbirkor tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug'ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha daromad solig'ini belgilangan tartibda, ro'yxatga olish paytida mustaqil to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat'i-nazar bir oy uchun to'lanadi. Misol uchun, oyning boshida emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham to'liq oy uchun to'lanadi. 2018 yil 1 yanvardan yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkasi quyidagicha:

4.4-jadval

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan hug'ullanadigan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar)dan olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari²⁹

№	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)			
		Toshkent sh.	Nukus sh., viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Chakana savdo:				
	oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan	7,0	5,0	3,0	2,5
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	3,5	2,5	2,0	1,5
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	3,5	2,0	1,5	0,5
2	Maishiy xizmatlar	2,5	1,5	1,0	0,5
3	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil	2,0	1,5	1,0	0,5

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli Qaroridan olingan.

	qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish				
4	Boshqa faoliyat turlari	2,0	1,5	1,0	0,5
5	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:				
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	1,5			
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	2,0			
	12 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,0			
	12 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,5			

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekbrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi qaroriga asosan yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari quyidagicha o'rnatilgan.

4.5-jadval

Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalar³⁰

N	Faoliyat turi	To'lovchilar	Mazkur faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (birlig uchun eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)			
				Toshkent sh.	Nukus sh., viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash, dehqon (oziq-ovqat) bozorlarining avtoto'xtash joylarida avtotransport vositalarini vaqtincha saqlashdan tashqari	yuridik shaxslar	Egallagan maydon (1 kv.metr)	0,1	0,06	0,05	0,04
2	Bolalar o'yin avtomatlari	yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinlar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,5	1,0

Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan holatda bu hol soliqqa tortish ob'ektini yashirish sifatida qaraladi.

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroridan olingan.

Tadbirkor o'z faoliyatini muayyan oyga (oylarga) turli sabablar (oilaviy ahvoli, kasallik, vaqtincha boshqa yerga ketish va hokazo) bilan to'xtatgan hollarda, u faoliyatini to'xtatishgacha davlat soliq xizmati organlariga faoliyatni vaqtincha to'xtatishi haqida ariza taqdim etishi va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirishi kerak.

Hokimiyatlar tomonidan berilgan yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasi topshirilgandagina faoliyat vaqtincha to'xtatilgan deb hisoblanadi. Bunda tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirgandan keyin qat'iy belgilangan soliqni o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan oyda to'lashdan ozod etiladi.

Davlat soliq xizmati organlariga kelib tushgan ariza va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnoma majburiy tartibda, kelib tushgan kunida kelgan xat-xabarlar daftarida ro'yxatga olinishi kerak.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va daromadidan qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'laydigan jismoniy shaxslarga jami daromadni belgilash va undan tegishli chegirmalar qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq tatbiq etilmaydi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uyushmalar, ittifoqlar va shu kabilarga birlashish, ishlarni o'z transportida bajarishga doir fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda ushbu jismoniy shaxslar qat'iy soliqni belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Jismoniy shaxs:

- faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullansa, soliqni faoliyatning har bir turi uchun alohida to'laydi;

- tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan ishonchnoma bo'yicha transportda amalga oshirsa, ijaraga beruvchilar to'g'risida yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga axborot taqdim etishi kerak, unda ijaraga beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, shuningdek ijara to'lovining summasi va ijara muddati ko'rsatiladi. Mazkur axborot ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan ishonchnoma bo'yicha transportda faoliyatni amalga oshirishga qadar taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa tortish tartibi asosida soliqqa tortiladi.

Avtotransport vositalarini shu jumladan birlashmalar, uyushmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ijaraga topshiradigan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliqni jismoniy shaxslar uchun yo'lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish bo'yicha xizmatlarni amalga oshirishdan kelib chiqib belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

4.5. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda savdo va umumiy ovqatlanish hamda qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortishning ilg'or tajribalaridan foydalanish masalalari. Xorijiy davlatlar soliq tizimlari ko'pgina umumiy xususiyatlarga ega va ayni paytda bir-biridan farq ham qiladi. Ushbu davlatlarning soliq tizimi turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlar ta'sirida vujudga

kelgan. Mamlakatlarning soliq tizimi, soliqlarni undirish usullari, sohalari, turli darajadagi davlatlarning moliyaviy vakolatlaridan kelib chiqib soliq imtiyozlari bilan ajralib turadi. Xorijiy davlatlarda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan soliqlar turli darajadagi davlatlarning soliq-byudjet siyosatidan kelib chiqqan holda bir-biridan keskin farq qiladi. Bizga ma'lumki, AQSh, Angliya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning qayta ishlangan uslubi qo'llanilmoqda. Biz ushbu davlatlarning soliqlarni undirish uslubiyatiga qisqacha tixtalamiz.

AQShda savdo tashkilotlari foydasidan soliq to'laydilar. Korporatsiyalar foydasidan soliq 40ta shtatda undiriladi va soliq tushumining taxminan 7 foizini ta'minlaydi. Korporatsiyalar foydasidan soliqning federal byudjet daromadidagi hissasi so'nggi yillarda quyidagicha bo'lgan: 1960 yilda - 24 foiz, 1980 yilda – 13 foiz, 1986 yilda - 8.4 foiz, 1990 yilda – 10 foiz, 1998 yilda -11 foiz, 2004 yilda esa - 14 foiz³¹. Shuningdek, AQShda savdo korxonalarini sotish solig'ini to'laydilar (mahalliy soliq). Uning soliq tushumidagi hissasi dori-darmonlar bilan hisoblaganda 30 foizni tashkil etadi. Soliq stavkasi shtatlarga qarab o'zgaradi: to'rta eng katta shtatda 3 foiz (chakana narxdan), Vashingtonda esa eng yuqori stavka 6.5 foiz qo'llaniladi. Ko'pchilik shtatlarda esa 3.4 foizli³² stavkada joriy etilgan.

Buyuk Britaniyada savdo tashkilotlari korporativ soliq to'laydilar. Korporativ soliqni savdo korxonalarini chegirma va imtiyozlarni hisobga olgan holda, o'z daromadlari va kapitalning oshgan qismidan to'laydilar. Korporativ soliqning asosiy stavkasi 31 foizni tashkil qiladi. Savdo tashkilotlari, kichik korxonalar (yiliga 300000 funt sterlingdan yuqori bo'lmagan daromadga ega korxonalar) uchun pasaytirilgan stavka 21 foiz qo'llaniladi³³. Jami daromadi yiliga 300000 funt sterlingdan 1.5 mln.funt sterlinggacha bo'lgan kompaniyalar uchun ham imtiyozli stavkalar qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Savdo korxonalarini dastlabki faoliyatlarining birinchi yilida soliqqa tortiladigan foydani aniqlashda soliq bazasini 40 foizga kamaytirishlari mumkin.

Buyuk Britaniyada 1999 yildan boshlab korporativ soliqni hisoblashning yangi tizimi amal qilmoqda. Soliq to'lovchilar soliq to'lovlarini uch oylik muddatda amalga oshiradilar. 1999 yil apreldan korporativ soliqning asosiy stavkasi 30 foizgacha (savdo korxonalarini uchun 20 foizgacha) tushirildi. Hamda o'z foydasini hissadorlar o'rtasida tao'simlovchi kompaniyalar uchun byudjetga joriy to'lovlar bekor qilindi. Ayrim faoliyat turidagi kompaniyalar uchun soliqqa tortishning alohida tarkibi joriy qilindi.

Rossiya Federatsiyasida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini belgilangan daromaddan yagona soliq to'laydi. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib, soliq

³¹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 125.

³² Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: "ЮНИТИ". 2002. стр. 49

³³ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 81

to'lovchining belgilangan daromadi hisoblanadi. Soliq solish bazasi bo'lib me'yoriy belgilangan daromad, soliqqa tortish davrida hisobga olinadigan va faoliyatning mazkur turini xarakterlaydigan me'yoriy fizik ko'rsatkichlar hisoblanadi. Daromadlilik bazasi joylashgan joyi va tovar turiga qarab K1,K2,K3 koeffitsientlarga ajraladi. K2 – Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan belgilanadi. Soliq stavkasi 15 foiz qilib belgilangan³⁴. Soliqqa tortish davri har chorakda amalga oshirilib, hisobot oyidan keyingi oyning 25 sanasigacha to'lab boriladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning xorijiy davlatlar tajribasi haqiqatdan ham ancha murakkab jarayon. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, soliqqa tortishning chet el tajribasi respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tadbqiq etsa ijobiy jihatlari mavjud.

Globalashuv sharoitida jaxon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar tarmoqning jadal o'sishi mamlakatda iqtisodiyotning yuksalishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining soliqqa tortish tizimi yanada soddalashtirilishga qarab ketmoqda. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida soliqlar tabaqalashtirilgan bo'lib, o'rnatilgan soliqlar soliq ob'ektidan yoki daromad olish darajasidan kelib chiqib budjetga to'lanadi. Agrar sektorga ma'lum bir imtiyozlar hamda maxsus soliq rejimi qo'llaniladi va ular albatta ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu xususiyatlarga fasllar almashinuvi, tabiiy ob-havo sharoitlarini misol qilish mumkin. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to'laydigan soliqlar tarkibiga nazar tashlanganda, ularning turli mamlakatlar miqyosida soliq turlariga qarab soliqlarni tabaqalashganini ko'rish mumkin.

4.6-jadval

Ayrim rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jalik sub'ektlari to'laydigan asosiy soliq turlari

Soliq turlari	AQSh	Fransiya	Italiya	Buyuk Britaniya	Germaniya
Daromad solig'i	+	+	+	+	+
Korporativ soliq	+	+	+	+	+
Mol-mulk solig'i	-**	+	-	+	-**
Yer solig'i	+	+	-*	-	+
Mahalliy soliqlar (yer solig'idan tashqari)	+	+	+	+	+
QQS	-	+	+	+	+
Sotuvga soliq	+	-	-	-	-
Ijtimoiy to'lovlar	+	+	+	+	+

* - daromad solig'iga kiritilgan.

** - yer solig'iga kiritilgan.

³⁴ Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: "ЮНИТИ". 2002. стр. 49

Germaniya, Frantsiya, Italiyada qishloq xo‘jalik sub‘ektlari hisoblangan fermerlik kooperativlariga korporativ soliqni to‘lash bo‘yicha imtiyozlar keng tarqalgan. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to‘laydigan yer solig‘i boshqa yuridik shaxslarga nisbatan ancha past miqdorda belgilangan.

Gollandiyada bevosita qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnatga qobiliyatli aholining 4 foizigina ishlaydi. Bu davlatning xududi va aholisi O‘zbekiston bilan solishtirganda bir necha barobarga kam. Tabiiy sharoiti esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi uchun anchagina noqulay. Shunga qaramasdan ushbu mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Eksportning yillik hajmi taxminan 35 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi.

Jahonda samarali faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklari AQSh davlatida mukammal shakllangan deb atash mumkin. Buning asosiy sabablari, fermer xo‘jaliklariga yordam dasturlarini mablag‘ bilan ta‘minlashda federal xukumat etakchilikni o‘zida saqlab turganligi bilan izohlanadi.

5-mavzu: Qo‘shilgan qiymat solig‘i

Reja:

- 1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi.**
- 2. Soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq ob‘ekti va soliq stavkalari.**
- 3. Soliq imtiyozlari.**
- 4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartiblarining o‘ziga xos xususiyatlari.**
- 5. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini budjetga to‘lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari. Hisobvaraqa faktura va uni to‘ldirish tartibi.**
- 6. Import tovarlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartibi.**
- 7. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o‘zlashtirish masalalari.**

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlaridan biri – qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko‘p qirrali bilvosita soliqdir. Korxonada kundalik xo‘jalik faoliyatida mahsulot etkazib beruvchilardan tovar va xom-ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo‘shilgan qiymat yaratiladi.

Qo‘shilgan qiymat o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o‘rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma‘lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o‘tadi, bu bosqichlarning har birida qo‘shilgan qiymat yaratiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini davlat budjetining daromad qismiga jalb qilish g‘oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta frantsuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo‘shilgan qiymat solig‘i M.Lorening taklifidan so‘ng o‘tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo‘llanildi. Frantsiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i haqiqatda 1968 yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo‘shilgan qiymat solig‘i G‘arbiy Evropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy

asosi bo'lib, Evropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977 yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning ob'ekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, ko'pchilik hollarda, qo'shilgan qiymat solig'ini «Evropacha» soliq deb ham atashadi. Buning asosiy sabablari shundaki, birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i dunyoda birinchi marta Evropa davlati bo'lgan Frantsiyada joriy etildi; ikkinchidan, 1977 yilda qabul qilingan Direktivaga asosan qo'shilgan qiymat solig'i bir vaqtning o'zida Evropaning bir necha davlatlarida joriy etildi; uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Evropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Hozirgi vaqtda qo'shilgan qiymat solig'i Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat budjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'ringallaydi. Evropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.

Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zaro uyg'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovaroborotining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalariga to'g'ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o'rtasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg'unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga aksiz solig'i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo'shilgan qiymat solig'i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapdi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi

asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra 2018 yilda qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog'i 35,4 foizni, egri soliqlar tarkibida esa 65,9 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar qo'shilgan qiymat solig'ini budjet daromadlarining asosiy manbai ekanligini bildiradi.

2. Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliq stavkalari. Qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib, amaldagi qonun xujjatlariga asosan ushbu soliqni budjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

2) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno) hamda soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishmaydi.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan holda yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

Amaldagi Soliq kodeksining 198-moddasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'ining ob'ekti bo'lib, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi.

Tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda – yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya'ni yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag'i kelib tushishi davridan qat'iy nazar korxonaga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha budjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Soliq solinadigan import deganda esa – O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).

Tovarlar natural haq tarzida berilganda yoki kassa orqali o'z xodimlariga tannarx bahosidan past qilib sotilganda soliqqa tortiladigan oborot tovarlar (ish va

xizmatlar)ni ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti hisoblanmaydi:

1) soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o'z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan xarajatlar bundan mustasno);

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo'linmalar soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmasa, mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;

3) soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

4) garov qiymatiga ega bo'lgan qaytariladigan tarani, shu jumladan shisha idishni jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktda) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot etkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

5) yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisi) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqib ketganda), shu jumladan tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqib ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo'yicha sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkida bo'lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;

6) tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va ob'ektlarini bepul asosda berish;

7) banklarning mol-mulkni o'z filiallariga berishi;

8) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;

9) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;

10) ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

11) ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

12) ob'ekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplash.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotish oboroti hisoblanmaydi:

• soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o'z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish (yuridik shaxslardan

olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan xarajatlar bundan mustasno);

- bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;

- soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

- garov qiymatiga ega bo'lgan qaytariladigan tarani, shu jumladan shisha idishni jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktda) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot etkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

- tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va ob'ektlarini bepul asosda berish;

- banklarning mol-mulkni o'z filiallariga berishi;

- va boshqa qonunchilikda ko'zda tutilgan oborotlar.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992 yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996 yilda 17 foizni, 1997 yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999 yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo'llanildi. Faqat 3 ta band, ya'ni eksport, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga beriladigan mineral o'g'it va yoqilg'i moylash materiallari hamda diplomatik vakolatxonalar va unga tenglashtirilgan vakolotxonalar realizatsiya qilinadigan tovar (ish va xizmat)lar "0" stavkasi bo'yicha soliqqa tortildi. 15%li qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi esa un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug'doy kabi mahsulotlarga nisbatan belgilandi.

2000 yildan hozirgi kungacha soliq Kodeksiga ko'ra respublikamizda 20 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda. Umuman olganda "0" stavka deganda korxonalar ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, ya'ni "nol" ga teng degani.

Quyidagilarga "0" darajali stavka bo'yicha soliq solinadi:

1. Tovarlarini chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarini O'zbekiston Respublikasining bo'jxona hududidan bo'jxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq olib chiqish tovarlar eksportidir.

Soliq kodeksning 213-moddasiga muvofiq tovarlarning eksport qilinganligi tasdiqlanmagan taqdirda, mazkur tovarlarni realizatsiya qilish oborotiga belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarining eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi);

- tovarlarni eksport qilish rejimiga chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayin etilgan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi qayd belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo'yicha realizatsiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (topshiriq beruvchi) tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- soliq to'lovchi bilan vositachi yoki ishonchli vakil o'rtasidagi vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi);

- soliq to'lovchining topshirig'iga ko'ra (vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasiga muvofiq) eksportga tovarlar etkazib berishni amalga oshirayotgan shaxsning tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga etkazib berish uchun chet ellik shaxs bilan tuzilgan kontrakti (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi);

- tovarlarni eksport rejimiga chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasining ko'chirma nusxasi.

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar belgilangan tartibda tekshiruv o'tkazilayotganda nazorat qiluvchi organlarga ularning talabiga binoan taqdim etiladi.

2. Chet el tarafi o'zarolik printsipiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarining rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarining va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

3. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq «erkin muomalaga chiqarish» rejimiga joylashtiriladigan bo'lsa, belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

4. Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi:

- tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish. Tranzit yuklarni tashish jumlasiga yukning tranzitini amalga oshirish uchun chet ellik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar yoki xalqaro (idoralararo) transport bitimlari hamda bojxona organlarining mazkur tranzit yuklar haqiqatda olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risida belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet el tranzit yuklarini tashish va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi;

- yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochmani xalqaro yo'nalishda tashish. Agar jo'natish punkti yoki tayin etilgan punkt O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, xalqaro yo'nalishlarda tashish hisoblanadi.

5. Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo'linmalari tomonidan olinadigan ana shunday xizmatlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

2006 yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga etkazib beriladigan mineral o'g'itlar va yonilg'i-moylash materiallariga "0" stavka bekor qilindi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli "0" stavka qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning tannarxiga olib borilmasdan, hisobga kiritiladi.

Agarda hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan "0" stavkada hisoblanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qiymati jihatidan ko'p bo'lsa, u holda oshiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, unga belgilangan tartibda qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qoplash (ya'ni qaytarish) tartibi 2003 yil 13 maydagi hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va budjetga undiriladigan to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan (30-sonli bayonnoma) "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yuzaga kelgan manfiy farqni qoplash to'g'risida"gi Nizom asosida olib boriladi. Ushbu Nizom adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 6 iyunda 1246-son bilan tasdiqlangan.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha salbiy qoldiqni paydo bo‘lishi muammosi asosan mahsulotini eksport qiluvchi yirik korxonalarda kuzatiladi. Masalan: Olmaliq tog‘-kon metallurgiya kombinatining – 1 oylik ortiqcha to‘lovi 100 mln. so‘m, Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinatida – 200 mln. so‘m, Qabul Tekstaylz – O‘zbek qo‘shma korxonasi – 30 mln. so‘m (bu korxonada eksport jami sotilgan tovarlarning 90 foizni tashkil qiladi). Bu muammo “0” stavkada soliqqa tortish natijasida ortilgan mahsulotga qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanmasligini va olingan materiallarga qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olinishi oqibatida yuzaga keladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining vatani hisoblangan Fransiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha to‘rtta stavka amal qiladi, ya‘ni standart stavka, qisqartirilgan stavka, oraliq stavka va oshirilgan stavka.

Standart soliq stavkasi 19,6 foiz qilib belgilangan. Bu stavka o‘zgacha stavkalar qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan operatsiyalardan tashqari barcha operatsiyalarga nisbatan qo‘llaniladi. Pasaytirilgan stavka (2,2; 5,5%) oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘pchiligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun, kitoblar va dori-darmonlar uchun amal qiladi. Shunday pasaytirilgan stavka ayrim xizmat turlariga: turizm va mehmonxona xizmatlari, yuk va yo‘lovchi tashish, tomosha tadbirlari, korxonalarining xodimlariga beriladigan ovqatlarga tegishlidir. Oraliq stavka gaz, elektr, issiqsuv, ko‘mir, neft mahsulotlari, spirt, kofe kabi tovarlarni soliqqa tortish uchun qo‘llaniladi. Oshirilgan stavka (22,0%) ayrim mahsulot turlariga, jumladan, avtomobillar, kino-foto tovarlar, tamaki mahsulotlari, parfumeriya, qimmatbaho mo‘ynalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Buyuk Britaniyada qo‘shilgan qiymat solig‘ining uchta stavkasi amal qiladi: 0, 8,0 va 17,5 foiz. Nol darajasidagi soliq stavkasi tovarlarning 17 ta guruhiga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta‘minoti va kanalizatsiya, ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan kitoblar va qo‘llanmalar, yoqilg‘i va isitish, transport vositalari, xalqaro xizmatlar, kiyim-kechak va poyafzal, xayr-ehsonlarga nisbatan qo‘llaniladi. 8 foizli stavka ta‘minotning kommunal turlari borasidagi xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladi. 17,5 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlar)ning barcha boshqa turlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Ispaniya Qirolligi mamlakatida qo‘shilgan qiymat solig‘ining standart stavkasi 16 foizni tashkil etadi. Pasaytirilgan stavkalar, ya‘ni 0 foizli stavka – eksport bilan bog‘liq tovar va xizmatlar uchun; 4 foizli stavka – birinchi navbatdagi zarur tovarlar uchun (non, g‘alla, sut, tuxum, mevalar, sabzavotlar, kitoblar, gazetalar, dori-darmonlar, munitsipial uylar, nogironlar uchun mashinalar va h.k.); 7 foizli stavka – oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy qurilishi, transport, turizm uchun, 28 foizli stavka esa zeb-ziynat buyumlari va avtomobillar bo‘yicha belgilangan.

Rossiya Federasiyasida qo‘shilgan qiymat solig‘i 20 foiz, 10 foiz va 0 foizli qilib belgilangan. 0 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlarning) ayrim turlariga, 10

foizli stavka – oziq–ovqat va bolalar tovarlariga, 20 foizli stavka esa tovarlar (ish va xizmatlar)ning boshqa turlariga nisbatan qo‘llaniladi.³⁵

3.Soliq imtiyozlari. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko‘proq imtiyozlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular soliq kodeksida to‘rt guruhga bo‘lib berilgan. Ular:

- 1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);
- 2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda);
- 3) soliqdan ozod etiladigan sug‘urta xizmatlari (210-modda);
- 4) soliqdan ozod etiladigan import (211-modda).

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan quyidagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

– davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan, davlat boji va yig‘imlar undiriladigan xizmatlar;

– maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

– bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

– dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o‘tkazishga doir xizmatlari;

– protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko‘rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlarni ta‘mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo‘yicha xizmatlar;

– davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarning mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

– pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

– aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to‘lash bo‘yicha xizmatlari;

– budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining budjetdan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi xulosasi asosdir;

– shahar yo‘lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo‘l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashish xizmatlari.;

– oliy, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi

³⁵ Abduraxmonov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O‘quv qo‘llanmasi. –T.: TDIU nashr., 2003.

tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

- vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirilgan qimmatbaho metallar;

- chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;

- sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari.

- gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

- geologiya va topografiya ishlari;

- O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar;

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

- uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar;

- aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash;

- davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari;

- o'zi etishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti;

- ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;

- va boshqa qonun xujjatlarida nazarda tutilgan oborotlar.

Moliyaviy xizmatlarning quyidagi turlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan:

- to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar;

- milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar;

- qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar;

- akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

- pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar;

- chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;
- kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);
- forfeyting va faktoring operatsiyalari;
- lombard operatsiyalari (garovga qo‘yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);
- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining oboroti.
- va boshqa oborotlar.

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan sug‘urta xizmatlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

a) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;

b) qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantemalar;

v) sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri, syurveyer hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

g) qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari ulushining qayta sug‘urtalovchilar tomonidan to‘lanadigan to‘lovini;

d) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo‘yicha daromadlar;

e) sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko‘rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

j) qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug‘urta qildiruvchi tomonidan qayta sug‘urtalovchiga o‘tkazilgan foizlar;

z) hayotni sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

i) sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan sug‘urta rezervlari va sug‘urta fondlari mablag‘larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan, sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) etkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug‘urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod qilinadi:

a) sugʻurta toʻlovi (sugʻurta toʻvoni);

b) preventiv tadbirlar oʻtkazish uchun beriladigan mablagʻlar;

v) sugʻurta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sugʻurtalovchi toʻlaydigan mablagʻlar;

g) sugʻurta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablagʻlar.

Tovarlarni import qilishda quyidagi hollarda qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarining diplomatik va maʼmuriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning oʻzlari bilan birga yashayotgan oila aʼzolari shaxsiy foydalanishi uchun moʻljallangan tovarlar;

3) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik koʻmak koʻrsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) davlatlar, hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablagʻlari hisobidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari, shuningdek dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari ishlab chiqarish uchun olib kirilayotgan xom ashyo;

7) Oʻzbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan roʻyxat boʻyicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni etkazib berish texnologik asbob-uskunalarini etkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan boʻlsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan eʼtiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qoʻllanilgan butun davr uchun qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlash boʻyicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organi oʻrtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdigʻi mavjud boʻlgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish boʻyicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar oʻz ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xom ashyo, materiallar va yarim mahsulot.

4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartiblarining o‘ziga xos xususiyatlari. Soliq qonunchiligiga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblanishi soliq to‘lovchilarning olib borayotgan xo‘jalik operatsiyalariga bog‘liq ravishda soliqqa tortiladigan bazani aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Tovarlar sotilganda, ish va xizmatlar bajarilganda qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisoblanishi. Respublikamizda qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgandan buyon soliqni hisoblashning ikki turdagi usuli amal qilgan, ya‘ni ishlab chiqarilgan tovarlarni jo‘natish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha hisobga olish usuli yoki hisobvaraqa-faktura usuli hamda ulgurji va chakana savdo, vositachilik xizmati ko‘rsatish sohalarida hisobdan chiqarish usuli qo‘llanilgan. Bunda qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan baza narxlar farqi sifatida, ustama va mukofot xaqi summasi sifatida aniqlanib shu summadan soliq hisoblangan.

1992 yildan 1994 yilga qadar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanar edi. 1994 yildan ular budjetga qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i o‘rniga yalpi daromad solig‘i hamda mol-mulk solig‘ini to‘laydigan bo‘lishdi. Keyingi davrlarda soliq hisoblashning “yalpi foyda” (chegirish) usuli asta-sekin “hisobga olish-xisobvaraqa” usuliga aylanib bordi. Soliq kodeksi kuchga kirgandan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning “yalpi foyda” (chegirish) usuli faqat vositachilik va “O‘zdonmaxsulot” DAK tizimi tarkibiga kiradigan, birlamchi ishlovdan keyingi don, qo‘shimcha mahsulot va chiqindilarni sanoatdan donni qayta ishlashga sotishni amalga oshiradigan korxonalar uchun qo‘llaniladi. Boshqa holatlarda “hisobga olish hisob-faktura” usuli qo‘llaniladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblashning “hisobga olish hisob-faktura” usulining mohiyati shundaki, korxonada budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq miqdoridan shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sotib olingan xom-ashyo, materiallar uchun to‘langan soliq miqdorini chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. Chegirishga hisobot davrida hisob-faktura bilan qabul qilingan xom-ashyo, materiallar, shu jumladan import qilingan tovarlarga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qabul qilinadi.

Quyidagi shartlarni bajargan holda hisobga olish amalga oshiriladi:

- birinchidan, bu hisobot davrida tovar va xizmatlar xaqiqatda sotib olingan bo‘lishi kerak;

- ikkinchidan, ular bo‘yicha tovar etkazuvchidan hisob-faktura to‘ldirilgan bo‘lishi;

- uchinchidan, ular soliqqa tortiladigan faoliyatda ishlatilgan bo‘lishi kerak.

Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash. Korxonaning o‘z ehtiyoji uchun olingan asosiy vosita va nomoddiy aktivlari korxonaning buxgalteriya balansida mol etkazib beruvchiga to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi bilan birga yozilib kirim qilinadi. Agar balansdagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar sotilsa, u holda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha soliqqa tortish ob‘ekti bo‘lib, sotish bahosi bilan

qoldiq qiymat o'rtasidagi farq hisoblanadi. Bunda, agar korxonalar asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qoldiq qiymatida sotsa, u holda soliqqa tortiladigan ob'ekt bo'lmaydi va budjetga soliq to'lanmaydi. Shuningdek, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqaruvchi va uni oldi-sotti faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun qo'shilgan qiymat solig'i hisoblashning alohida tartibi mavjud.

Vositachilik xizmatlari ko'rsatilganda qo'shilgan qiymat solig'ining hisoblanishi. Vositachilik xizmatlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda "yalpi foyda" (chegirish) usuli qo'llaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, soliq baho farqi, ustama va mukofotlar sifatida olingan daromaddan hisoblanadi. Budjetga soliq to'lashda hisoblangan soliq summasi ushbu daromadni olishga sarflanadigan xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i summasiga kamaytiriladi. Demak, qo'shilgan qiymat solig'i summasini vositachilik korxonalari mukofotlar summasidan hisoblaydilar.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish. Umumdavlat soliqlarini to'lovchi korxonalarda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning amaldagi mexanizmi soliqni ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lgan yangidan yaratilgan qiymatdan to'lanishini ko'zda tutadi. Qo'shilgan qiymat ikki marotaba soliqqa tortilmaydi.

Respublikamizda 1998 yildan Soliq kodeksi joriy etilishi bilan birga hisobvara-q-fakturalar kiritilgan bo'lib, u kirimdagi soliq summasini hisobga olish uchun asosiy xujjat hisoblanadi. Ammo, amaliyotda bu tartib o'zining vazifasini to'laqonli bajara olmadi, chunki bu davrda budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi – etkazib beriladigan mahsulotga hisoblangan soliq summasi bilan bevosita ishlab chiqarishga sarflangan material resurslarga hisoblangan soliq summasi o'rtasidagi farqi sifatida aniqlanar edi. Bu tartibdagi hisoblash mexanizmi 1999 yilga qadar amaliyotda qo'llanilib kelindi va uning ayrim kamchiliklari mavjud edi. Jumladan:

- ishlab chiqarishga sarflangan paytda xom-ashyo va materiallarga hisoblangan soliq summasini budjet bilan hisob-kitobda chegirilishi – korxonalarining oborot mablag'larini cheklanishiga olib keldi;
- qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvara-q faktura asosida hisoblanish mexanizmi ishlamadi, chunki amalda hisobvara-q fakturada ko'rsatilgan soliq summasi budjetga hisobga olib borishda asos bo'lmadi;
- bunday hisoblash tartibi halqaro soliq amaliyotidagi qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tamoyillariga zid kelardi.

Ushbu holatlar tahlil qilinib 1999 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmi o'zgartirildi va halqaro amaliyotga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tamoyillariga moslashtirildi. Quyida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning taqqoslama usuli keltirilgan (5.1-jadval).

5.1-jadval

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning 1999 yildan joriy etilgan usulining taqqoslama tahlili (raqamlar shartli)

№	Ko‘rsatkichlar	1999 yilga qadar		1999 yildan keyin	
		Oborot	qo‘shilgan qiymat solig‘i	oborot	qo‘shilgan qiymat solig‘i
1.	Hisobot davrida sotib olingan xom-ashyo, materiallar	100	20	100	20
2.	Ishlab chiqarishga ishlatilgan xom-ashyo, materiallar	50	10	50	10
3.	Tovarlar (ish va xizmatlar)ni sotish oboroti, ya‘ni soliqqa tortiladigan oborot	200	40	200	40
4.	Budjetga hisoblangan soliq summasi	X	30 (40-10)	X	20 (40-20)

1999 yildan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning yangi tartibini joriy etilishi uni hisoblashning soddalashtirilgan mexanizmini qo‘llanilishiga olib keldi, ya‘ni hisobvaraqa faktura usulining ishlab ketishini ta‘minladi va bunda material resurslarining ishlab chiqarishga sarflanishidan qat‘iy nazar, hisobot davrida sotib olingan material resurslarga to‘langan soliq summasi hisobvaraqa faktura asosida budjet bilan hisob-kitobga olib boriladigan bo‘ldi. Bu tartibdagi hisoblash mexanizmi korxonalarining oborot mablag‘larini chetlanishini keskin kamaytiradi.

5. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini budjetga to‘lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari. Hisobvaraqa faktura va uni to‘ldirish tartibi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblarni korxonalar ortib boruvchi yakun bilan ro‘yxatdan o‘tgan joyidagi Davlat soliq idoralariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo‘yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddatida qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilari hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalar yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda taqdim etadi.

Soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitoblari bilan bir vaqtda hisobot davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha hisobvaraqa-fakturalar reestrini ham taqdim etadilar. Hisobvaraqa-fakturalar reestrining shakli davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Hisobotlarni o‘z vaqtida topshirmaslik korxonalar va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan Davlat soliq idoralari tomonidan moliyaviy va ma‘muriy jazo – choralarini qo‘llanilishiga olib keladi.

Korxonalar qo‘shilgan qiymat solig‘ini soliq hisobini topshirgan kundan kechiktirmay tegishli davrdagi haqiqiy sotish oborotidan kelib chiqib to‘laydi. Agar korxonalar hisoblangan soliq summasini budjetga o‘z vaqtida o‘tkazib bermasa, bunday holatda Davlat soliq idoralari mas‘ul xodimlari tomonidan hisoblangan

soliq sumasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun 0,033 foiz miqdorida penya (moliyaviy jazo) qo'llanilishiga olib keladi. Bunda korxonalar rahbariyatiga nisbatan ma'muriy chora qo'llanilmaydi.

1998 yil 1 yanvardan O'zbekistondagi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun, shu jumladan soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan korxonalar ham tovarlarni sotganda, ish va xizmatlar ko'rsatganda hisobvaraqa fakturani to'ldirishi qonun asosida shart qilib belgilandi.

Hisobvaraqa-faktura mahsulot etkazib beruvchi tomonidan tovarlarni yuklab jo'natilishi, ish va xizmatlar ko'rsatilishi sanasi (kuni)dan kechiktirmasdan yoziladi.

Hisobvaraqa-fakturada - uning tartib raqami va yozilgan sanasi, jo'natiladigan tovarlar bo'yicha shartnomalar raqami va sanasi hamda soliq to'lovchi va xaridorning nomi, manzili STIRi va shu kabi rekvizitlari ko'rsatiladi.

Jadvalli shaklni to'ldirishda quyidagilarni qayd etish kerak (6-ilova):

- 1-ustunda, tovarlar (ish va xizmatlar) nomi;
- 2-ustunda tovarlarning o'lchov birligi (dona, metr, kg, va xokazo);
- 3-ustunda yuklab jo'natiladigan tovarlarning miqdori yoki soni;
- 4-ustunda tovarlarning shartnoma bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'isiz narxi;
- 5-ustunda tovarlarning jami etkazib berish qiymati (qo'shilgan qiymat solig'isiz);
- 6-ustunda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi, agar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lsa chiziqcha tortib qo'yiladi;
- 7-ustunda jo'natilayotgan tovarlar bo'yicha tegishli stavkalariga ko'ra hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;
- 8-ustunda, jo'natilayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i bilan hisoblangan summasi.

Soliq kodeksiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar 6- va 7- ustunga "Qo'shilgan qiymat solig'i summasiz" degan shtampini qo'yishadi, agar shtamp bo'lmasa qo'lda yozib qo'yishadi va 8 ustunni to'ldirishmaydi.

Agarda korxonalar aksiz osti tovarlar ishlab chiqarsa unda hisobvaraqa-fakturaga qo'shimcha ustunlar kiritiladi va ushbu ustunlarda aksiz stavkasi va summasi aks ettiriladi (chunki aksiz summasi ham qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi).

Hisobvaraqa-faktura korxonalar rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolandi hamda muhr bilan tasdiqlandi.

Hisobvaraqa-faktura etkazib beruvchi korxonalar tomonidan 2 nusxada to'ldiriladi, 1-nusxasi xaridorga beriladi va u xaridorga qo'shilgan qiymat solig'i summasini belgilangan tartibda hisobga kiritish uchun huquq beradi, 2-nusxasi esa korxonaning o'zida qoladi.

Ta'kidlash joizki, bevosita aholiga pullik xizmatlar (ishlar)ni ko'rsatadigan korxonalar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishda kassa cheki yoki xizmatlar

ko'rsatilishi (ishlar bajarilishi)ni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar hisobvaraq-faktura hisoblanadi. Bunda bu hujjatlarda qo'shilgan qiymat solig'i ajralib turishi lozim.

O'z mahsulotlarini (tovarlarini, ishlarini, xizmatlarini) uzluksiz etkazib beradigan korxonalar bo'yicha hisobvaraq-fakturalar iste'molchilarga hisobvaraqni rasmiylashtirish bilan bir vaqtda, lekin bir oyda bir martadan kam bo'lmagan tarzda yoziladi. Bunda hisobvaraq-fakturalarning yozilishi mahsulot sotilgan hisobot davrida amalga oshiriladi.

Banklar uchun, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan operatsiyalar bajarilganda, hisobvaraq-faktura bo'lib mijoz shaxsiy hisobvaraq'idan ko'chirma hisoblanadi.

Lizing operatsiyalari bo'yicha lizing beruvchilar uchun hisobvaraq-faktura bo'lib lizing ob'ektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi hisoblanadi. Bunda tegishli hujjatlar (lizingning tarkibiy qismi hisoblanadigan lizing to'lovlari jadvali; hisobvaraq; lizing to'lovlarini to'lash bo'yicha lizing oluvchiga taqdim etiladigan bildiruvnoma va hokazo) bilan rasmiylashtiriladigan har bir lizing to'loviga qo'shimcha hisobvaraq-faktura yozilmaydi.

Agar lizing shartnomasi lizing beruvchiga qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutsa, bunda mazkur xizmatlarga belgilangan tartibda hisobvaraq-faktura yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda, hisobvaraq-faktura o'rniga birlamchi hujjat bo'lib quyidagi hujjatlar:

- sug'urta korxonalarini uchun - sug'urta polisi;
- sug'urta agentlari uchun - sug'urta polisi va shartnoma topshirig'i (agentlik bitimi);
- sug'urta brokerlari uchun - sug'urta polisi va shartnoma topshirig'i hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo'lda tashishlar, bank operatsiyalari, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) uzluksiz etkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar hisobot davrining oxirgi kunida bir marta hisobvaraq-faktura yozadi.

Agar ishlar bajaradigan korxonalarda buyurtmachiga imzo chekish uchun taqdim etiladigan, bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma - hisobvaraq-fakturada yoki hujjatda hisobvaraq-fakturaning belgilangan shaklida aks ettirilgan barcha majburiy rekvizitlar ushbu hujjatda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi ko'rsatilgan yoki qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmaganlar uchun "Qo'shilgan qiymat solig'isiz" yozuvi (shtampi) qo'yilgan holda mavjud bo'lsa, bunda mazkur hujjatlar hisobvaraq-fakturaga tenglashtiriladi va bunday korxonalar qo'shimcha ravishda hisobvaraq-faktura yozmasligi mumkin.

6. Import tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartibi. Import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bo'lib, tovarlarni import qiladigan yuridik shaxslar, shuningdek boj to'lamasdan o'z ehtiyojlari uchun me'yoridan ortiqcha tovarlar olib kiradigan

jismoniy shaxslar hisoblanadi (demak, jismoniy shaxslar ham bevosita qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lishi mumkin).

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan ob‘ekt bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O‘zbekiston hududiga import qilinadigan tovarlar hisoblanadi.

Tovar deganda iste‘molga mo‘ljallangan va qiymatga ega bo‘lgan barcha narsalar tushuniladi.

Import tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun asos bo‘lib, bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo‘yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aksiz solig‘i summasi (aksiz osti tovarlar bo‘yicha) kiritiladi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{QQS} = \frac{(IQTBO + BBS + AS) \times QQS_{ST}}{100} ;$$

Bu yerda:

S_{QQS} – qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi

$IQTBO$ – Import qilinadigan tovarlarning bojxona qiymati;

BBS – Bojxona boji summasi;

AS – aksiz solig‘i;

QQS_{ST} – qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i 20 foizli stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

- xorijiy diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar;

- jismoniy shaxslarning boj to‘lamasdan olib kirish me‘yorlar doirasida import qilinadigan tovarlar (tovarlarni olib kirish me‘yori Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori asosida belgilanadi);

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar yuz berganda olib kiriladigan tovarlar, shuningdek davlatlar, halqaro tashkilotlar tomonidan xayriya maqsadlarida olib kiriladigan tovarlar;

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga investitsiya dasturiga kiritilgan ustuvor ob‘ektlarni jihozlash uchun hamda hukumat kafolati bilan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalanadigan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun olib kiriladigan texnologik uskunalar;

- import bo‘yicha olib kelinadigan dori-darmonlar va tibbiy buyumlar;

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining ustav kapitaliga chet ellik investorlar tomonidan ulush sifatida olib kirilayotgan texnologik jihozlar;

- va boshqa qonunchilikda ko‘zda tutilgan import tovarlar.

Tovarlar respublika hududiga import qilinishida qo'shilgan qiymat solig'i bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishiga qadar yoki u bilan bir vaqtda to'lanadi. Agar bojxona deklaratsiyasi belgilangan muddatda topshirilmasa qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlari bojxona deklaratsiyasi topshirish muddati tugagan kundan boshlab hisoblab chiqariladi.

Jismoniy shaxslar soliqni naqd pul bilan bojxona organi posti kassasiga belgilangan tartibda to'lashlari mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'langan summalari hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kirim qilinib, keyin ular respublika budjeti daromadlariga qayd etiladi. Bojxona organlari 3 kun muddat ichida undirilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini respublika budjetiga o'tkazadilar.

7. Qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish masalalari. Hozirgi vaqtda qo'shilgan qiymat solig'i Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Evropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi³⁶.

Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zaro uyg'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovaroborotining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalariga to'g'ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o'rtasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg'unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Evropa Ittifoqi (EI)ning maxsus Direktivasiga muvofiq 1992 yilning 19 oktyabridan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ining minimal stavkalari belgilab berildi. Xususan, 1993 yilga qadar minimal stavkalarda qo'shilgan qiymat solig'ini olish bitta mamlakatda amalga oshiriladigan bo'ldi. Ya'ni, nollik stavka eksportyor mamlakatida qo'llaniladi, minimal stavkalar bo'yicha tovarlar va xizmatlar importyorlarning mamlakatida soliqqa tortiladi³⁷. Jismoniy shaxslar tomonidan sotib olingan tovarlar mazkur tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Chunki, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasida fuqarolarning harakatlanishi erkin bo'lib, ular turli mamlakatlarda o'zlarining shaxsiy is'temollari uchun tovarlar xarid qiladilar. Shuning uchun qo'shilgan

³⁶ Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложения. -М.: МЦФЭР. 2003. 57 стр.

³⁷ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. -М.: "Кнорус". 2004. стр 204

qiymat solig'ini undirishni osonlashtirish maqsadida tovarlar sotib olingan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Fuqarolar yashash joylariga qaytib kelganlarida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaydilar.

Frantsiyada standart soliq stavkalari mavjud bo'lib, 1998 yildan boshlab, ularning miqdori 20,6 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan va oshirilgan stavkalari ham mavjuddir. Qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan stavkalari 5,5 foiz va 2,1 foizni tashkil etsa, oshirilgan stavka 25 foizni tashkil etadi³⁸. Frantsiyada va Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiya qilingan mablag'lardan qo'shilgan qiymat solig'i olinmaydi. Shuningdek, tijorat banklari, moliya muassasalari, o'quv yurtlari qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaydilar.

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan dastlabki paytda uning stavkasi 10 foizni tashkil qilardi, keyin esa soliq stavkasi 8 foiz qilib belgilandi. Hozirgi vaqtda asosan 3 xildagi qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi mavjud bo'lib, nollik stavka, pasaytirilgan stavka (5%) va oshirilgan stavka (17,5%) lardan iborat³⁹. Pasaytirilgan stavkada shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladigan elektr toki hamda gaz qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Nollik stavkada esa oziq-ovqat mahsulotlari, jamoat transporti xizmatlari nashriyot mahsulotlari, urug'chilik va chorvachilik mahsulotlari soliqqa tortiladi. Buyuk Britaniyada ta'lim, meditsina xizmatlari, sug'urta va brokerlik xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Shunisi e'tiborliki, Buyuk Britaniyada yillik oboroti 54 000 funt sterlingacha bo'lgan tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilinganlar (O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni belgilashda tadbirkorlar yillik oborotining miqdori hisobga olinmaydi). Bizning fikrimizcha, mulk shaklidan va iqtisodiy maqomidan qat'iy nazar, barcha tadbirkorlarga qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydigan yillik oborot miqdorini belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ko'plab faoliyatini endi boshlagan tadbirkorlar ishlab-chiqarish va muomala xarajatlarining yuqori bo'lganligi sababli, ishlab chiqargan tovarlarning bahosini pasaytirish imkoniyatiga ega emaslar. Ularga nisbatan 20 foizli qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llanilishi tovarlar bahosini sezilarli ravishda o'sishiga olib keladi. Natijada mazkur tadbirkorlar ishlab chiqargan tovarlarning raqobatbardoshligi yanada pasayadi.

Irlandiyada 2001 yildan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 20 foiz qilib belgilandi. Mazkur stavka 2001 yilga qadar 21 foizni tashkil qilardi. Standart stavkadan tashqari, nollik stavka va pasaytirilgan stavkalar (12.5 – 4.3 foiz) mavjud. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar nollik stavkani qo'llash shaklida soliqqa tortilmaydigan yillik oborotni belgilab qo'yish shaklida qo'llaniladi.

³⁸ Сердюков А. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. -СПб.: "ПИТЕР". 2005. стр. 51

³⁹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 206

Irlandiyaning eksport salohiyatini oshirish maqsadida eksportga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ining nollik stavkasi qo'llaniladi. Bundan tashqari agar tadbirkorning tovoroborotining umumiy hajmida eksport operatsiyalarining salmog'i 75 foizdan oshsa, u holda tadbirkor nollik stavkadan foydalanishga haqli hisoblanadi⁴⁰.

Belgiyada mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ining 2 ta pasaytirilgan stavkasi qo'llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavkada asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta'minoti, kinoteatrlar va mehmonxonalar xizmati qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkada esa kommunal to'lovlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Pasaytirilgan stavkalardan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy stavkasi ham mavjud bo'lib, uning miqdori 21 foizni tashkil qiladi.

Italiyada qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari 4, 10 va 20 foizni tashkil qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari, eksportga tovar sotish va kompaniyalarning aktivlarini sotib olish xarajatlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.

Gollandiyada 2001 yildan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 19 foizni tashkil qiladi. Mazkur stavka 2001 yilga qadar 17 foizni tashkil qilardi. 6 foizli pasaytirilgan stavka oziq-ovqat mahsulotlariga, jamoat transport xizmatlariga, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ayrim turlariga nisbatan qo'llaniladi. Nollik stavkalar esa eksportga nisbatan qo'llaniladi. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar va ayrim turdagi moliyaviy xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.

Shvetsiyada qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy stavkasi 25 foizni tashkil qiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkalar oziq-ovqat mahsulotlariga va mehmonxona xizmatlariga nisbatan qo'llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavka esa ro'znomalarga va madaniy tadbirlarga nisbatan qo'llaniladi. 2001 yildan boshlab, yo'lovchi transporti xizmatlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi amaldagi 12 foizdan 6 foizga tushirildi. Shunisi e'tiborliki, Shvetsiyada yillik oboroti 1 mln. Shvetsiya Kronidan oshmaydigan tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilinganlar⁴¹.

XX asrning 80 yillaridan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'i Amerika, Afrika va Janubiy-Sharqiy Osiyo hududidagi mamlakatlarning soliq amaliyotiga joriy qilindi. Yaponiya, Turkiya Hindiston, Indoneziya, Braziliya, Kolumbiya, Misr kabi davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i mana shu davrda joriy qilingan.

Yaponiyada qo'shilgan qiymat solig'i 1984 yilda joriy qilingan. 1989 yilga qadar Yaponiyada qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etilishi ishlab-chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qildi. Bu ta'sir ayniqsa, qo'shilgan qiymat salmog'i sezilarli bo'lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarga nisbatan kuchli bo'ladi, degan g'oya mavjud edi. Shuning uchun Yaponiyada Evropa davlatlariga nisbatan uzoq muddat mobaynida qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilmadi.

⁴⁰ Поляк Г. Налоги и налогообложение. -М.: "ЮНИТИ". 2002. стр. 46

⁴¹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. стр. 131.

Rossiya Federatsiyasida 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i oborot solig'ining o'rniga joriy etildi. Bu soliq oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo'shilgan qiymat solig'i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi⁴².

Ayni vaqtda, xorijiy mamlakatlar amaliyotida ham qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetiga jalb qilishda sezilarli muammolar mavjud. Ana shunday asosiy muammolardan biri, ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining har bir bosqichida yaratilgan qo'shilgan qiymatni to'liq hisobga olish imkonining mavjud emasligi hisoblanadi. Soliq organlari soliq to'lovchilarning barcha schyot-fakturalarini tekshirish uchun jismoniy imkoniyatlarga ega emaslar. Shuning uchun schyot-fakturalar tanlanma tekshiruv asosida tekshiriladi. Bunda har bir bitim bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning natijalari hisobotlarda o'z aksini topmaydi, hisobotlarda faqat qoldiq ko'rsatkichlar o'z aksini topadi. Bundan tashqari, soliq organlari bojxona organlaridan har doim ham ishonchli ma'lumotlarni to'liq hajmda ololmaydilar. Buning sababi shundaki, soliq to'lovchilar tomonidan bojxona hujjatlarini noto'g'ri to'ldirilganligi hisoblanadi. Masalan, Shvetsiyada hisobotlardagi taqqoslab bo'lmaydigan ma'lumotlarning 87 foizi hujjatlarni noto'g'ri to'ldirish natijasida yuzaga kelgan nomuvofiqlikga to'g'ri keladi, 10 foizi esa soliq davrlarining mos kelmasligiga to'g'ri keladi⁴³.

Xorijiy mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini daromad manbai sifatida qo'llash tajribasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy kon'yunkturaning tebranishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbai hisoblanadi; ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i aholini nisbatan kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish imkonini beradi; uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; to'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i faoliyatini yaqinda boshlagan va katta miqdordagi tovaroborotiga ega bo'lmagan tadbirkorlarni rag'batlantirishni moliyaviy vositasi hisoblanadi.

⁴² Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003. стр. 45

⁴³ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 134.

6-mavzu: Aksiz solig'i

Reja:

1. Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarida tutgan o'rni.
2. Aksiz solig'i to'lovchilar. Soliq ob'ekti va bazasi.
3. Aksiz solig'i stavkalari.
4. Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar.
5. Aksiz solig'ini to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi, muddatlari.
6. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash tartibi.
7. Aksiz solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish masalalari.

1. Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarida tutgan o'rni. O'zbekistonda aksiz solig'i 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan. Uning qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budjetga undirish shakli hisoblanadi. Aksiz solig'i Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rin egallaydi, jumladan, davlat budjetining solikli daromadlari tarkibida 2000 yilda 22,8 foizni, 2001 yilda 26,3 foizni, 2002 yilda 28,8 foizni, 2003 yilda 31,1 foizni tashkil etgani holda 2006 yilgi dalat budjeti daromadlarida uning ulushi 19 foizni, 2018 yilda esa 13,4 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

6.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibida aksiz solig'ining salmog'i to'g'risida ma'lumot⁴⁴

Ko'rsatkichlar	2016 yil		2017 yil		2018 yil (reja)	
	mlrd.so'm	jami nis-n, %da	mlrd.so'm	jami nis-n, %da	mlrd.so'm	jami nis-n, %da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	40505,8	100	44469,6	100	62229,5	100
Egri soliqlar	22298,1	55,1	24285,4	54,6	33404,3	53,7
Aksiz solig'i	6480	16	6870,8	15,5	8343,8	13,4

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga ilovalar

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Davlat budjeti daromadlari umumiy summasi yildan-yilga o'sib bormoqda. Bunga albatta bir qancha omillar ta'sir kiladi. Masalan, soliq stavkalarining oshirilishi, yangi soliq turlarining joriy etilishi, inflyatsiya, yangi daromad manbalarining yaratilishi va xokazolar. Jadval ma'lumotlarini tahlil etar ekanmiz, oxirgi yillarda aksiz solig'i salmog'ining kamayish tendentsiyasiga egaligini ko'rishimiz mumkin.

Aksiz solig'ini davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushining pasayish tendentsiyaga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-son "Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarini o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan "O'zJMAvto" aktsionerlik jamiyatining ishlab chiqarayotgan avtomobillari (Lasetti, Neksiya, Damas, Matiz), billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audioapparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aksiz soliqlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, iste'mol tovarlarining assortimentini ko'paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish uchun korxonalarining o'z ixtiyorlarida qoldiriladigan bo'ldi. Shuning hisobiga hozirgi vaqtda aksiz solig'ining ulushi davlat budjeti daromadlari tarkibida kam salmoqni egallamoqda. Aksiz solig'i to'liq respublika budjetining daromadlar qismiga kelib tushadi va uning soliq yuki iste'molchilar zimmasida bo'ladi.

2. Aksiz solig'i to'lovchilar. Soliq ob'ekti va bazasi. Aksiz solig'ini to'lovchilari bo'lib, mulk shaklidan va soliqqa tortishning qanday tartibi o'rnatilganligidan qat'iy nazar aksizosti tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi aksiz solig'ini to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida korxonalar tushuniladi.

Soliq kodeksining 230-moddasiga ko'ra quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan ob'ekt hisoblanadi:

- 1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:
 - tovarni sotish (jo'natish);
 - garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;
 - aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
 - aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aksiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Tekinga beriladigan aksizlanadigan mahsulot bo'yicha quyidagilar soliq solish ob'ekti bo'lib hisoblanadi:

- aksiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan alkogolli mahsulot, tamaki mahsulotlari, o'simlik (paxta) yog'i, etil spirti, pivo, vino bo'yicha - sotilgan mahsulot hajmi natura ifodasida;

- boshqa aksizlanadigan mahsulotlar bo'yicha soliq to'lovchida tovarni berish paytida shakllangan narxlar darajasidan kelib chiqib hisoblangan, biroq mazkur aksizlanadigan tovarni ishlab chiqarish bo'yicha haqiqatda shakllangan xarajatlardan past bo'lmagan qiymat.

Quyidagi aksizosti tovarlarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, baxtsiz hodisalar yoki avariya yuz berganda yordam ko'rsatish uchun, insonparvarlik yordami va beg'araz texnik ko'mak sifatida, shuningdek xayriya maqsadlari uchun aksiz to'lanadigan tovarlarni davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilishga;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Aksizlanadigan tovarlar uchun soliq solish bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- aksiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan tamaki mahsulotlari, o'simlik (paxta) yog'i, etil spirti, pivo, kon'yak, aroq va boshqa alkogolli aroq mahsulotlari, filtrli va filtrsiz sigaretalar, neft mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg'isi va aviakerosin) bo'yicha - sotilgan mahsulotning natural ko'rinishidagi xajmi;

- aksiz solig'i to'lanadigan boshqa mahsulotlar (zargarlik buyumlari, kumushdan qilingan oshxona buyumlari, tabiiy gaz, suyultirilgan gaz, "GM Uzbekistan" aksionerlik jamiyati avtomobillari) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i hisobga olmagan holda, shartnomaviy narxlar bo'yicha yuklab jo'natilgan tovarning qiymatiga foiz hisobida.

Buyurtmachi tomonidan beriladigan xom ashyodan mahsulotga aksiz solig'ini hisoblash chog'ida aksiz solig'i solinadigan mahsulotni sotishga doir aylanma quyidagicha belgilanadi:

- aksiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan mahsulot bo'yicha tayyor mahsulotning fizik hajmidan kelib chiqib;

- boshqa mahsulotlar bo'yicha tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatidan va buyurtmachi tomonidan beriladigan xom-ashyo qiymatidan kelib chiqib.

3.Aksiz solig'i stavkalari. Aksiz solig'i stavkalari va aksizosti tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi. 2017 yilda aksizosti tovarlarga belgilangan soliq stavkalari quyidagilardan iborat:

6.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlarga nisbatan aksiz solig'i stavkalari⁴⁵

<i>Tovarlar nomi</i>	<i>Soliq stavkasi</i>	
	<i>aksiz solig'i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda</i>	<i>bir o'lchov birligiga so'mda</i>
1. Etil spirti (1 dal uchun)		7 844
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun):		
tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)		6 994
boshqa vinolar		12 000

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qarori.

3. Konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)		73 997*
4. Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)		67 571**
5. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)		7 699
6. O'simlik (paxta) yog'i (1 tonna uchun):		
oziq-ovqat yog'i		459 724
texnik moy (oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		252 887
7. Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar (1 ming dona uchun)		84 222
8. Zargarlik buyumlari	25	
9. "Jeneral Motors O'zbekiston" AJ ishlab chiqargan avtomobillar(2)	5	
10. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11	
11. Qimmatbaho metallar(2)		
12. Neft mahsulotlari(3):		
Ai-80 benzini		321 430 so'm/tonna
Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini		353 430 so'm/tonna
Ai-95 benzini		408 890 so'm/tonna
dizel yoqilg'isi		273 400 so'm/tonna
EKO dizel yoqilg'isi		284 250 so'm/tonna
aviakerosin		50 580 so'm/tonna
dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi		207 000 so'm/tonna
13. Tabiiy gaz, shu jumladan, eksport(2)	25	
14. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz ("O'ztransgaz" AK mintaqalararo unitar korxonalar orqali aholiga sotiladigan hajmlar bundan mustasno), shu jumladan, eksport(2)	26	

Izohlar:

*) Hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan konyakka aksiz solig'i stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 121 928 so'm miqdorida belgilanadi.

***) Hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'i stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 111 339 so'm miqdorida belgilanadi.

4.Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar. Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

- davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga.

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjatlarida belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

5. Aksiz solig'ini to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi, muddatlari. Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Aksiz solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

6. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash tartibi. O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning qaroriga ko'ra ro'yxatlar va stavkalar bo'yicha aksiz solig'i solinadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i bojxona xizmatlari tomonidan so'mlarda undiriladi va har 5 kunda respublika budjetiga kiritiladi.

Olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'ining hisobi va uning budjetga kelib tushishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmatining hududiy boshqarmalari amalga oshiradi.

Respublika xududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni olib kiruvchi, mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar, shuningdek jismoniy shaxslar aksiz solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solish ob'ekti bo'lib bojxona yuk deklaratsiyasining 45-ustunida ko'rsatilgan, tovarning bojxona rasmiylashtiruvi paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mlarda qayta hisoblangan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S \times A/100,$$

bu yerda:

S - bojxona qiymati;

A - aksiz solig'i stavkasi.

Olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'i summasi tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki bir birlik o'lchovi uchun AQSh dollarlarida belgilanadi.

"O'zbekiston Respublikasi hududiga aksiz solig'i olinmaydigan tovarlarning jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilishi bo'yicha belgilangan normalar"ga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga nisbatan aksiz solig'i tatbiq etilmaydi.

Majburiy ravishda markalanadigan, olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'ini to'lovchilar aksiz markalarini xarid qilish chog'ida kontrakt (bayonot berilgan) qiymatidan hisoblangan aksiz solig'i summasining 100 foizini to'laydilar, bunda aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i summasidan ortiq miqdorda to'lanadi, mablag'lar belgilangan tartibga ko'ra respublika budjetiga kiritiladi.

Markalangan, aksiz to'lanadigan tovarlar olib kirilganda aksiz solig'i summasi bojxona qiymatidan kelib chiqib qayta hisoblanadi.

Davlat bojxona qo'mitasi hududiy bojxona boshqarmalarining qaroriga ko'ra to'lovchiga, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi sanasidan boshlab 2 oydan oshmaydigan muddatga aksiz solig'ini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilishi mumkin.

Ortiqcha kelib tushgan aksiz solig'i summasi o'ttiz kun ichida qaytarilishi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga kiritilishi kerak.

Ular to'langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida to'lovchi ortiqcha to'langan yoki undirilgan aksiz solig'i summalari qaytarilishini talab qilib, murojaat etishi mumkin.

Ortiqcha to'langan aksiz solig'i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etish bilan amalga oshiriladi:

- to'lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to'lash yoki undirish sabablari ko'rsatiladi, shuningdek pul mablag'lari qaytarilishi kerak bo'lgan to'lovchining bank rekvizitlari beriladi;

- aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va undirish uchun asos bo'lgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

- ijrosi to'g'risida bank belgisi qo'yilgan, aksiz solig'ining tegishli summalarini to'lashga oid to'lov hujjati;

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) chegaradan haqiqatda olib o'tilgani to'g'risida chegara bojxonasining belgisi qo'yilgan (zarur hollarda) tovarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

Ortiqcha to'langan aksiz solig'i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi.

Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarilishi, import qilinishi, saqlanishi, tashilishi va sotilishi ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shuningdek aksiz solig'i to'liq undirilishi, ko'rsatilgan tovarlarni yashirincha ishlab chiqarish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelishning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 avgustdagi 285-son "O'zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 1996 yil 1 oktyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kelinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivodan tashqari, majburiy tarzda belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan markalash joriy etildi va ularni aksiz markalarini yopishtirmasdan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish, tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish ta'qiqlandi.

Aksiz tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar respublika budjetiga nominal qiymati bo'yicha buyurtma berilayotgan aksiz markalari miqdorining butun summasini to'lagach, davlat soliq inspeksiyalariga turlari bo'yicha aksiz markalarining zarur miqdorini xarid qilishga buyurtmanoma topshiradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari soliq inspeksiyalarining aksiz markalariga doir kelib tushgan buyurtmanomalarini hudud bo'yicha umumlashtiradilar va qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etadilar, bunda ishlab chiqaruvchi korxonalar ular buyurtirgan miqdorda aksiz markalarining nominal qiymatini to'plashganini tasdiqlaydilar. Kelayotgan yilga buyurtmanoma umuman yil bo'yicha, choraklarga taqsimlagan holda beriladi.

Aksiz markalarini bosish uchun buyurtmanomani "Davlat belgisi" Davlat ishlab-chiqarish birlashmasi (DICHB)ga joylashtirishni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi amalga oshiradi.

Importchilar, shu jumladan aksiz tovarlarini O'zbekiston Respublikasiga olib keladigan jismoniy shaxslar buyurtmanomani Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy organlariga

topshiradilar. Bu organlar taqdim etilgan buyurtmanomalar asosida, yuqorida keltirilgan tartibga o'xshab, aksiz tovarlari uchun aksiz markalariga yig'ma buyurtmanoma tuzadilar va belgilangan tartibda Davlat bojxona qo'mitasiga taqdim etadilar.

Davlat soliq inspeksiyalari va Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy organlari aksiz markalarini sotishni belgilangan shaklga binoan ana shu markalarni xarid qilishga doir buyurtmanoma – hisob-kitobga muvofiq Paxtabankning mintaqaviy bo'linmalari orqali amalga oshiradilar.

Paxtabankning mintaqaviy bo'linmalari aksiz markalarini:

- tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarning mahalliy ishlab chiqaruvchilariga – aksiz markalarining nominal qiymati to'langanidan keyin;

- tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar importchilariga – nominal qiymati bo'yicha aksiz markalari to'liq to'langanidan va aksiz solig'i to'liq hajmda to'langanidan keyin beradilar.

Ishlab chiqaruvchilar va importchilar nominal qiymati bo'yicha xarid qiladigan aksiz markalari uchun pul mablag'lari respublika budjetiga kiritiladi va aksiz solig'ini to'lash chog'ida aksiz markalarining qiymati hisobiga olinmaydi.

Aksiz markalarining nominal qiymatini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi "Davlat belgisi" DICHB hisob-kitoblari bo'yicha tasdiqlaydi.

"Davlat belgisi" DICHBning aksiz markalarini ishlab chiqarishga doir xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublika budjeti mablag'lari hisobiga ularning nominal qiymati doirasida qoplaydi.

Respublikadan tashqariga eksport qilinadigan:

- respublika hududiga bojsiz savdo do'konlari uchun olib kelinadigan;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ruxsati bo'lganda ko'rgazmalar o'tkazish uchun olib kelinadigan;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga xalqaro tranzit bo'yicha olib kelinadigan va olib chiqish uchun mo'ljallangan;

- Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan aksizsiz olib kelish me'yorlari doirasida olib kelinadigan (jo'natiladigan) aksizosti tovarlari majburiy tarzda markalanmaydi.

Respublika hududida ishlab chiqariladigan va import qilinadigan pivo O'zbekiston Respublikasining aksiz markalari bilan markalanmaydi.

Respublikaga ko'rgazmalar o'tkazish uchun olib kelingan aksiz tovarlari, ular ko'rgazmalar yakunlanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi hududida sotilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi aksiz markalari bilan majburiy tarzda markalanishi kerak va ular bo'yicha umumiy belgilangan tartibda aksiz solig'i to'lanadi.

Aksiz markalari ishlab chiqariladigan va import qilinadigan aksiz tovarlarining turlariga bog'liq ravishda harfiy va raqamli belgilar bilan markalanadi hamda quyidagi turlarga bo'linadi:

- IM – mahsulot O‘zbekiston Respublikasi hududiga import bo‘yicha olib kelingan;
- O‘Z – mahsulot O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan;
- 98 – dastlabki ikki belgi – aksiz markasi bosib chiqarilgan yil;
- 01 yoki 001 – keyingi ikki yoki uchta belgi – ishlab chiqaruvchi korxonalariga (importchilarga) tegishli tamaki mahsuloti yoki alkogolli ichimlik bo‘yicha beriladigan kod raqamlari;
- 4 raqam belgisi aksiz markalarida tamaki mahsulotini bildiradi;
- 5 raqam belgisi aksiz markalarida alkogolli mahsulotni bildiradi;
- 98 bilan tugaydigan oxirgi raqamlar O‘zbekiston Respublikasi hududiga aksiz tovarlari mayda turkumlar bilan olib kelinganligini anglatadi;
- 99 bilan tugaydigan oxirgi raqamlar musodara qilingan aksiz tovarlari anglatadi.

7. Aksiz solig‘ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o‘zlashtirish masalalari. Hozirgi vaqtda aksiz solig‘i xorijiy mamlakatlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Evropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog‘i 40 foizdan yuqori bo‘lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko‘rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi⁴⁶.

Evropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o‘zaro uyg‘unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O‘zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovar oborotining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog‘iston Respublikalariga to‘g‘ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o‘rtasida aksiz solig‘i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg‘unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

Endi bevosita savolning mohiyatini yoritadigan bo‘lsak, aksiz solig‘i xorijiy davlatlarda keng qo‘llanilib, uning amal qilish mexanizmi va soliq tizimidagi ahamiyati turli davlatlarda turlichadir. Aksiz solig‘i davlat soliq siyosatining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biridir.

Masalan, Italiyada aksiz soliqlari egri soliqlar ichida fiskallik ahamiyati jihatidan ikkinchi o‘rinda turadi. Aksizli daromadlarning asosiy qismini neft va neft mahsulotlari hamda tamaki mahsulotlaridan tushumlar ta‘minlaydi. O‘xshash holat bir qator MDH davlatlarida ham kuzatiladi. Jumladan, egri soliqlar ichida aksiz

⁴⁶ Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложения. -М.: МЦФЭР. 2003. 57 стр.

solliqlarining ulushi Qirg'izistonda 32 foizgacha, Tojikistonda esa 34 foizgacha o'sgan⁴⁷.

Federativ davlat tuzilishiga ega mamlakatlarda aksizli daromadlar, soliq qonunchiligiga ko'ra, federal byudjetga yo'naltiriladi. Masalan, Germaniyada federal byudjet tushumlari iste'mol talabidagi mahsulotlar (benzin va boshqa neft yoqilg'ilari - 5.6 foiz, tamaki - 3.1 foiz, vino va aroq mahsulotlari - 0.8 foiz va boshqalar)ga solinadigan soliqlar (aksizlar) hisobiga shakllanadi. Spirtli aroq mahsulotlariga solinadigan soliqlardan (pivoga solinadigan soliqdan tashqari, ushbu soliq to'lig'icha Erlar byudjetiga o'tkaziladi) tushumlar to'lig'icha federal byudjetga o'tkaziladi⁴⁸. 1994 yilda Germaniya davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi: mineral yoqilg'i (31,8 mlrd. marka), kofe (2 mlrd. marka), tamaki mahsulotlariga (15,5 mlrd. marka) solinadigan aksizlar hisobiga shakllangan⁴⁹.

AQSh davlat byudjeti daromadlarida aksizlar salmog'i quyidagi jadvalda keltiriladi (6.3-jadvalga qarang).

6.3-jadval

AQSh davlat budjeti daromadlarida aksiz solig'ining salmog'i*

	Federal byudjet	Shtatlar byudjeti	Munitsipal byudjet
Aksiz solig'i (foizda)	4	20	-

*Manbaa: K.V.Rudiy. *Finansovo-kreditnie sistemi zarubejnix stran. Uchebnoe posobie. M.: Novoe znanie, 2003. s. 77*

Avstraliyada aksizli daromadlarning 90 foizi tovarlarning uch guruhiga: avtomobil yoqilg'isi, tamaki mahsulotlari hamda alkogolli ichimliklarga to'g'ri keladi⁵⁰.

Keyingi o'rinlarda aksiz solig'ining mazkur davlatlarda amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

AQShda aksizlar bir necha guruhlariga bo'linadi:

- yoqilg'i mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg'isi, aviatsiya kerosini)ga solinadigan soliqlar;

- sanoat buyumlari (avtomobil shinalari, ov qilish va baliq ovlash uchun maxsus jihozlar, tibbiy vaktsina va faol preparatlar)ga solinadigan soliqlar;

- kommunikatsiya va transport soliqlari;

- tabiatni muhofaza qilish yig'imlari va boshqalar.

Frantsiyada aksiz osti tovarlariga quyidagi tovarlar kiradi: alkogolli ichimliklar, tamaki, gugurt, turli yondirgichlar, qimmatbaho metallardan tayyorlangan buyumlar,

⁴⁷ Центральная Азия : новые тенденции в экономике / Отв. ред. А.И.Динкевич. М., 1998. с.84

⁴⁸ К.В.Рудый Финансово-кредитные системы зарубежных стран. Учебное пособие. М.: Новое знание. 2003. с.119-120

⁴⁹ Налоговые системы зарубежных стран / Под ред. В.Г.Князева, Д.Г.Черника. М., 1997. с.49

⁵⁰ Е.А.Зингер., А.А.Ялбулганов Основы налогового законодательства Австралии // Публичные финансы АТР / Под ред. А.Н.Козырина. М., 1998. с.52

shakar, konditerlik mahsulotlari, pivo, gazlangan mineral suvlar, transport vositalarining ayrim turlari va boshqalar⁵¹.

Buyuk Britaniyada egri soliqlar guruhida ikkinchi o'rinni aksizlar egallaydi. Yoqilg'i maqsadlarida foydalaniladigan neft mahsulotlari, qolgan boshqa maqsadlar uchun foydalaniladiganlariga nisbatan yuqori stavkalarda aksiz solig'iga tortiladi.

Avtomobillar uchun ekologik toza bo'lgan yoqilg'i turlari (yuqori darajada tozalangan benzin, gaz va oltingugurt darajasi kamaytirilgan dizel yoqilg'isi)dan foydalanishni rag'batlantirish maqsadida aksiz solig'ining past darajadagi stavkalari ko'zda tutilgan. Transport vositalari uchun ishlatilmaydigan kerosin, sanoat, qishloq xo'jaligi va dengiz kemachiligida foydalaniladigan moylash materiallari aksiz solig'iga past stavkalarda yoki umuman tortilmaydi. O'rin bosuvchi yoqilg'i turlari neft mahsulotlariga qo'llaniladigan stavkalarda aksiz solig'iga tortiladi.

Spirтли ichimliklar, vino, pivo, olma vinosiga aksiz solig'i stavkalari ichimlik quvvati va idish hajmiga qarab tabaqalashgandir. Ilmiy, tibbiy, tadqiqot va sanoat maqsadlarida ishlatiladigan spirt aksiz solig'iga tortilmaydi. Sigaretalar uchun aksiz solig'i har bir sigaretadan qisman qat'iy summalarda va qisman chakana narxlardan foiz ko'rinishida undiriladi. Boshqa tamaki mahsulotlariga aksiz solig'i ularning og'irligidan undiriladi. Hukumat chekishga qarshi kurashish dasturi doirasida tamaki va tamaki mahsulotlariga aksiz solig'ini yana 5 foizga oshirishni mo'ljallamoqda⁵². Bundan tashqari, aksiz solig'i kazino, pul tikish, garov o'ynash, bingo va avtomat o'yinlariga ham solinadi.

Soliq stavkalari o'yin turlariga qarab tabaqalashadi. Aksiz solig'i yalpi yoki sof daromaddan foiz ko'rinishida yoki qat'iy belgilangan summalarda, masalan, o'yin avtomatlarida, har bir avtomatdan o'yin narxi va o'yindagi yutuq miqdoriga bog'liq holda undiriladi. Milliy lotereyalarni o'tkazishdan olingan yalpi daromad 12 foizli aksiz solig'iga tortiladi, lotereyalardan yutuqlar soliqqa tortilmaydi. Shaxsiy transport vositalari (engil mashina va taksi) egalaridan 150 funt sterling miqdorida yillik aksiz solig'i undiriladi. Yuk mashinalariga aksiz solig'i transportning yukni ko'tara olishi, agar 12 tonnadan ortiq yukni ko'tara olsa undagi o'qlar sonidan kelib chiqib hisoblanadi. Soliqdan tushgan tushum yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Avtobus va taksilar uchun aksiz solig'i ulardagi yo'lovchi o'rindiqlari soniga, mototsikllar uchun esa - dvigatel hajmiga bog'liq holda tabaqalashtiriladi. 1973 yilgacha ishlab chiqarilgan shaxsiy transport vositalari - mashina va taksilar, mototsikllar - aksiz solig'idan ozod etilgan⁵³.

Atrof muhitni kam ifloslantiruvchi mashinalar uchun yangi aksiz solig'i stavkalari joriy etilishi rejalashtirilmoqda. Unga asosan engil mashinalar uchun 50 funt sterlinggacha, yuk mashinalari uchun esa 500 funt sterlinggacha chegirmalar taqdim etiladi.

Boshqa aksiz soliqlari va yig'implari:

⁵¹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 125.

⁵² Финансы. Учебник (под ред. В.Ковалева). -М.: Проспект. 2008. стр. 124

⁵³ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 81

▪ barcha mol-mulklar sug'urtasiga solinadigan soliq (4 foiz), sayohat mobaynida sug'urtalanishlarga, mashinalar va maishiy uskuna bilan savdo qiluvchilar tomonidan sotilgan sug'urta polislariga solinadigan soliq (17.5 foiz);

▪ Evropa Ittifoqi davlatlariga va mamlakat ichidagi avia qatnovlar uchun - 10 funt sterling miqdorida hamda 20 funt sterling miqdorida qolgan qatnovlar uchun aksiz yig'implari;

▪ ishlab chiqarish chiqindilari va aholi axlatlari uchun soliq (1 tonnasi uchun 10 funt sterling).

Umuman olganda, Buyuk Britaniyada barcha aksiz to'lovlari stavkalari 10 foizdan 30 foizgacha belgilangan.

Kanadada aksizlar ikki qismga: federal va hududiy aksizlarga bo'linadi. Hududiy aksizlarni joriy etish huquqi provintsiyalar hukumati vakolatidadir. Aksiz solig'ini undirish federal hukumatning alohida huquqi (siyosati) hisoblanadi. Bundan tashqari, Kanadada aksizlar soliqqa tortishning eng qadimgi shakli hisoblanadi. Benzin, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari asosiy aksiz osti tovarlari hisoblanadi. Benzining soliq (va avtomobillarni ro'yxatga olishda litsenziya yig'imi) provintsiyalarda zarurat tufayli (1924-1926 yillarda avtomobil yo'llari etishmas edi) joriy etilgan. Benzining soliq provintsiyalarda qat'iy belgilangan summalarda yoki narxga ustama shaklida foizlarda belgilanadi. Ikkinchi jahon urushi davrida federal hukumat soliqni o'z stavkasi bilan to'ldirdi hamda 1970 yildagi neft inqirozidan keyin tashqi savdoni tartibga solish doirasida uni federatsiya vakolati deb e'lon qildi. Biroq, 1986 yildagi neft vasvasasidan keyin Ottava yonilg'i bozoridagi o'z ishtirokini saqlab qoldi. Hozirgi kunda ikkala darajadagi hukumat ham soliqni yig'ishda qatnashmoqdalar. Federal aksiz solig'i qat'iy belgilangan stavkalarda (1 litr uchun 8 tsent miqdorida) undiriladi.

Yaponiya soliq tizimi, byudjet tizimi kabi, ikki pog'onali (unitar davlat tuzilishidan kelib chiqib) bo'lib, o'z ichiga markaziy hukumat soliq tushumlari (barcha soliq tushumlarining 2/3 qismi) va mahalliy hokimiyat organlari solikli tushumlarini (barcha soliq tushumlarining 1/3 qismi) oladi. Egri soliqlar Yaponiya soliq tizimida alohida ahamiyatga egadir. 1997 yilda egri soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 25.8 foizini, 1999 yilda 42.8 foizini tashkil etdi. Aksiz solig'i spirtli ichimliklarga, tamaki mahsulotlariga, gaz, neft va neft mahsulotlariga solinadi. Bundan tashqari mehmonxonada yashash uchun, restoranlarda ovqatlanish uchun, qaynoq buloq manbalarida cho'milish uchun aksiz soliqlari amal qiladi⁵⁴.

Umuman olganda barcha davlatlarga xos bo'lgan umumiylik aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar guruhi (iste'mol tovarlari, mineral resurslar va xasham buyumlar) hisoblanadi. Demak, xorijiy davlatlarda aksizlar nafaqat byudjet daromadlarining asosiy manbai, balki ijtimoiy zarar bo'lgan mahsulotlar iste'moli va import tovarlar hajmini cheklash hamda tovarlar bahosiga ta'sir etishning samarali usuli hamdir.

⁵⁴ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 84

7-mavzu: Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

Reja:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati.**
- 2. Mol-mulk solig‘i to‘lovchilar, soliqqa tortish ob‘ekti va mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi.**
- 3. Mol-mulk solig‘i stavkalari, soliqdan imtiyozlar.**
- 4. Soliq hisobini taqdim etish va hisoblangan soliq summasini budjetga to‘lash muddatlari.**
- 5. Rivojlangan xorijiy davlatlarda yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tajribasi.**

1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati. O‘zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarining mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi bo‘ldi. Mol-mulk solig‘i dastlab, O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarining ishlab chiqarish fondlariga to‘lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi. Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan me‘yoriy xujjatlar hisoblanadi. O‘zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy budjetlarga tushadi va u budjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad birinchidan, korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish bo‘lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarining ma‘naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg‘or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to‘lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalar qutilishiga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig‘i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining solikli daromadlarida 3,5 – 4,7 foiz oralig'ini tashkil etmoqda.

7.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibida mol-mulk solig'ining ulushi, (foizda)⁵⁵

Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil (reja)	
	mlrd.so'm	jami nis-n, %da	mlrd.so'm	jami nis-n, %da	mlrd.so'm	jami nis-n, %da	mlrd.so'm	jami nis-n, %da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	36184,9	100	40505,8	100	44469,6	100	62229,5	100
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	5741,8	15,9	5806,5	14,3	6049,5	13,7	9714,5	15,6
Mol-mulk solig'i	1716,7	4,7	1874	4,6	1988,8	4,5	2158,9	3,5

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari yil sayin o'sib borganligiga amin bo'lamiz. Zero, 2015 yilda budjet daromadlari jami 36184,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib 62229,5 mlrd so'mga etishi kutilmoqda.

Jadval ma'lumotlari ko'ra mol-mulk solig'i tushum summasining absolyut miqdorlari yillar bo'yicha oshib borgan bo'lib, foizdagi salmog'i esa nobarqarorlik tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2015 yilda bu miqdor 4,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga borib 4,6 foizni tashkil etgan holda 0.1 punktga ko'paygan hamda 2017 yilda bu ko'rsatkich 4,5 foizni tashkil etgan va kamayish tendentsiyasiga ega. Shuni ta'kidlash lozimki, jami soliqlar tushumida mol-mulk solig'ining ulushi 2018 yilda 2015 yilga nisbatan 0,8 punktga kamayganini ko'rish mumkin. Bu holatni soliqqa tortish tartiblarini yanada takomillashib borayotganligi bilan izohlamoq kerak.

2.Mol-mulk solig'i to'lovchilar, soliqqa tortish ob'ekti va mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi. Soliq qonunchiligiga asosan mol-mulk solig'ining to'lovchilari bo'lib, soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda, mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha mol-mulki bilan javob bera oladigan hamda mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tushuniladi.

Soliqqa tortishning alohida rejimi o'rnatilgan ayrim toifadagi korxonalariga, jumladan yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, yagona soliq to'lovini to'lovchi miqrofirm va kichik korxonalar hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda notijorat tashkilotlar

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

uchun ularning asosiy faoliyati bo'yicha mol-mulk solig'ini to'lash tatbiq etilmaydi.

Agar soliqqa tortishning alohida rejimi o'rnatilgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining ob'ekti bo'lib, asosiy vositalar (shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar), nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish ob'ektlari hamda belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar qiymati hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortish bazasi bo'lib esa:

a) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (shu jumladan moliyaviy ijara (lizing)shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar);

b) belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati;

v) me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarining o'rtacha yillik qiymati hisoblanadi.

Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

O'rtacha yillik qoldiq qiymati	31 yanvar	28 (29) fevral	30 noyabr	31 dekabr

	12			

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha soliq solinadigan baza mazkur ob'ektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar bir oydan kam muddatga ijaraga berilgan mol-mulk bo'yicha soliq solinadigan bazani bu mol-mulkning mazkur oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra hisoblab chiqilgan qoldiq qiymatini o'n ikkiga va shu oydagi kalendar kunlar soniga bo'lishdan olingan, mazkur mol-mulk ijarada turgan kunlar soniga ko'paytirilgan bo'linma sifatida aniqlaydilar. Binoning bir qismi ijaraga berilgan taqdirda, soliq solinadigan baza umumiy maydoni bir kvadrat metrining qoldiq qiymatini ijaraga berilgan maydonning o'lchamiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq

solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortiladigan bazasini aniqlash uchun korxonalar balans aktivida aks ettiriladigan asosiy vositalarning eskirishini chegirgan holda, buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari bo'yicha summalar qabul qilinadi:

1. Asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari (0100);
2. Uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari (0300);
3. Tugallanmagan qurilishni (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan ob'ekt qismida) hisobga olish hisobvaraqlari (0800);
4. O'rnatishga mo'ljallangan uskunani (me'yoriy muddatlarida o'rnatilmagan uskuna qismida) hisobga olish hisobvaraqlari (0700).

3.Mol-mulk solig'i stavkalari, soliqtan imtiyozlar. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2018 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilangan.

7.2-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari⁵⁶

To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkasi
Yuridik shaxslar	5

Izoh: Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, uskunalar normativ muddatlarda o'rnatilmaganligi va qurilish ob'ektlari normativ muddatda tugallanmaganligi uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavkada to'lanadi.

Eksport mahsulot ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda sotadigan yoki ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali sotadigan vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va kompaniyalarning tarkibiy bo'linmalari hisoblangan korxonalar uchun sotishning umumiy xajmida o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmatlar) ning eksportdagi ulushiga bog'liq holda mol-mulk solig'ining tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan.

Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalarga berilgan imtiyoz savdo-vositachi korxonalarga, shuningdek, erkin almashtiriladigan valyutaga xom-ashyo tovarlari – paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondentsati, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tadbiiq etilmaydi.

Soliq stavkasi mol-mulkning qayta baholash natijasidagi qoldiq narxiga qo'llaniladi. Qayta baholash maqsadida korxonalarning asosiy vositalari deganda quyidagilar tushuniladi:

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-son qarori

- o'zining asosiy vositalari;
- o'rnatiladigan uskunalar;
- tugallanmagan qurilish ob'ektlari;
- uzoq muddatga ijaraga olinadigan, shu jumladan uzoq muddatli lizing bo'yicha olingan asosiy vositalar.

Asosiy vositalar qiymati har yili 1 fevralga qadar asosiy vositalarning 1 yanvar holatiga qarab qayta baholanadi. Qayta baholash chog'ida korxonada mutaxassis ekspertlarini jalb qiladi.

Yer uchastkalari va tabiatdan foydalanish ob'ektlarining qiymati qayta baholanmaydi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra quyidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solinmaydi:

a) notijorat tashkilotlarning mol-mulkiga (tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan mol-mulkdan tashqari).

Soliqqa tortish maqsadida notijorat tashkilotlar deganda quyidagilar tushuniladi:

- faqat davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, tasdiqlangan smetalar doirasida xarajatlarni qoplashga budjetdan dotatsiyalar oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

- xayriya birlashmalar, uyushmalar va jamg'armalar, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar;

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) kommunal xo'jaligi ob'ektlarining. Kommunal xo'jaligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;

3) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'ektlarining;

4) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarning. Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

5) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

6) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

7) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlarning;

8) shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezdlari);

9) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarning (foydalanish davriga);

10) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

11) ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalarning.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat va san'at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o't o'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi;

3) yangi tashkil etilgan korxonalar — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalariga, shuningdek boshqa korxonalar hududida shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalardan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

4. Soliq hisobini taqdim etish va hisoblangan soliq summasini budjetga to'lash muddatlari. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish Soliq kodeksi 267-moddasining birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi — O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Agar ko'chmas mulk soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, hisob-kitob ko'chmas mulk joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davrida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Yil mobaynida yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar — mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan soliqlar ular tomonidan to'langan davr uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan oyning 10-sanasidan kechiktirmay taqdim etadi.

Joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma'lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov xabarnomasini yozib beradi;

O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulkka ega bo'lgan norezidentlariga ko'chmas mulk joylashgan erdagi O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari soliq to'lovchining yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida to'lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to'lanishi kerak.

5. Rivojlangan xorijiy davlatlarda yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tajribasi. Barcha rivojlangan xorijiy mamlakatlarda korxonalar mol-mulkiga solinadigan soliq alohida ahamiyatga egadir. Ushbu davlatlar soliq tizimida mazkur soliqning ko'pgina umumiy hususiyatlarga egaligi bilan birga ayni paytda bir-biridan farq qilishini ham ta'kidlash lozim. Ushbu fikrni davom ettirgan holda quyida korxonalar mol-mulkini soliqqa tortishning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilamiz.

Mol-mulkdan olinadigan soliqlar davlat soliqlari umumiy hajmida kam o'rin tutadi va ko'pchilik mamlakatlarda mahalliy soliqlar toifasiga kiritiladi. Rivojlangan mamlakatlarda mulkni soliqqa tortish ikki soliq guruhi: mulkning umumiy summasiga soliq va mulkning alohida turlariga soliqlari asosida amalga oshiriladi⁵⁷. Mulkning umumiy summasiga soliq o'z navbatida jismoniy

⁵⁷ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. стр. 200.

shaxslarning shaxsiy mulkiga soliq va yuridik shaxslar mol-mulk soliqlariga bo'linadi.

Mol-mulkka solinadigan barcha soliqlar hududiy yoki mahalliy soliqlarga taalluqli ammo, undirish chegarasi ko'p hollarda markaziy darajada belgilanadi. Maxsus mol-mulk soliqlari tarixan saqlanib qolgan soliqlar hisoblanadi. Bu soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi rivojlangan mamlakatlarda qattiq farq qiladi. Agar Buyuk Britaniyada ushbu ulush 10 foizdan oshig'ini tashkil etgan bo'lsa, Belgiya, Gretsiya, Avstriya, Italiya, Lyuksemburg, Turkiya, Finlyandiya, Shveysariya, Shvetsiya, Ispaniyalarda ular 1 foizdan oshadi. Mulkning alohida turlariga soliqlari bo'yicha yuqori tushumli davlatlarga AQSh (9 foizdan yuqori), Kanada (8 foizdan yuqori), Yangi Zelandiya (6 foiz atrofida), Avstraliya (deyarli 5 foiz), Irlandiya (2,5 foiz), Frantsiya (2 foiz atrofida) kiradi.⁵⁸

AQShda mulk solig'ini yuridik shaxslar to'laydilar. Yuridik shaxslar mulkiga solinadigan soliq ko'pchilik shtatlarda undiriladi. Soliq stavkalari shtatlar bo'yicha farqlanadi. Ko'chmas mulkni baholash bilan shug'ullanadigan soliq idorasi xizmatchilari soliq baholovchilari deb nomlanadilar. Mulk solig'i tushumlari hokimiyat tuzilmalarining barcha darajadagi soliq tushumlarining salkam 9,0 foizini tashkil etadi. AQShda mulk soliqlari shtat va munitsipalitet darjasida undiriladi. Bu soliqqa asosan ko'chmas mulk va xo'jalik uskunolari tortiladi, foyda ko'rmaydigan tashkilotlarga tegishli bo'lgan va ular tomonidan tijorat maqsadlarida foydalanilmaydigan mulk bundan mustasno. Shuningdek federal hukumat, shtatlar hukumatlari va mahalliy hokimiyat organlarining mol-mulki ham soliqqa tortilmaydi. 13 ta shtatda nomoddiy aktivlar: aksiyalar, qarz majburiyatlari va shu kabilar soliqqa tortiladi. Fuqarolarga tegishli bo'lgan shaxsiy ko'chmas mulk va ishlab chiqarish vositalari ham soliqqa tortiladi. Shtat darajasida quyidagi soliq stavkalari: korporatsiya kapitalining 0,75 foizi miqdorida va yuridik hamda jismoniy shaxslarning soliqqa tutiladigan mol-mulkiga 0,5 foizdan 5,0 foizgacha miqdorda belgilangan⁵⁹. Bundan tashqari, munitsipalitet darajasida ham soliq undiriladi.

AQSh shtat soliqlarining tarkibida mulk solig'ining bir qismi hisobga olinadi. Bu bir qator shtatlarda mavjud bo'lgani bilan, ularning daromad manbasidagi salmog'i katta emas, ya'ni 3 foizdan kam. Mulk solig'i federal byudjetda hech qanday rol qynamaydi. Mahalliy soliqlar tarkibida esa ular daromadning 3/4 qismini tashkil qiladi. Bu umumdavlat soliq tushumlarining 12 foiziga teng.

Soliqqa tortiladigan mulklar quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

- ko'chmas mulk (yer, bino, asbob-uskunalar);
- moddiy mol-mulk;
- daromadlarni jalb qilish uchun ishlatiladigan (mashinalar, tovar-moddiy qiymatliklar va boshqalar);

⁵⁸ А.В.Перов, А.В.Толкушкин. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: ЮРАЙТ. 2003. 124 стр.

⁵⁹ А.В.Перов, А.В.Толкушкин. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: ЮРАЙТ. 2003. 119 стр.

•uy xo'jaligi mulki (uzoq muddat qo'llaniladigan tovarlar: avtomobil, muzlatgich, televizor va boshqalar);

•nomoddiy aktivlar (aktsiyalar, pullar, muddatli majburiyatlar);

•temir yo'l ob'ektlari, kommunal va boshqa korxonalar ob'ekt va uskunalari.

Frantsiya byudjetida mulkdan soliq yuqori salmoqqa ega. Bu soliqqa mulklar, mulk huquqi va qimmatbaho qog'ozlar tortiladi. Mol-mulk tarkibiga binolar, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, harakatlanuvchi mulk, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Frantsiyada ba'zi mol-mulk ushbu soliq turidan qisman yoki to'liq ozod etilgan. Shular jumlasiga professional faoliyat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk, qishloq xo'jaligiga oid ba'zi mol-mulk turlari, tarixiy yodgorlik buyumlar, badiiy va kolleksiya buyumlari kiradi.

Mol-mulk solig'i stavkalari progressiv xarakterga ega bo'lib, uni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

7.3-jadval

Fransiyada mulklardan olinadigan soliqning miqdorlari*

Soliq tortildigan mulklar qiymati, fr.	Soliq miqdori, foizda
4260000 frankkacha	0
4260001-6920000 frankkacha	0,5
6920001-13740000 frankkacha	0,7
13740001-21320000 frankkacha	0,9
21320001-41280000 frankkacha	1,2
41280001 frankdan yuqori	1,5

*Маnбаа: А.В.Перов, А.В.Толкушкин. *Налоги и налогообложение. Учебное пособие.* –М.: ЮРАЙТ. 2003. сmp. 125

Jadvaldan ko'rish mumkinki, mol-mulk tabaqalashgan stavkalarda, ya'ni progressiv shkalada soliqqa tortildi.

Buyuk Britaniyada yuridik shaxslarning ko'chmas mulkiga solinadigan soliq mahalliy byudjetni shakllantiruvchi asosiy soliqlardan biri hisoblanadi. Renta to'lovi soliq asosi bo'ladi. U ko'chmas mulk egalari yoki uni ijaraga oluvchmlardan undiriladi. Xullas, mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib, mulk egalari yoki ishtirokchilari hisoblanadi. Ko'chmas mulk deganda er tushuniladi. Shuningdek, ushbu soliq to'lovchilari qatoriga uy-joyni ijaraga oluvchilar hamda kvartira haqini to'lovchilar ham kiradi.

Ko'chmas mulk qiymati odatda 10 yilda bir marta baholanadi⁶⁰. Ko'chmas mulk qiymati o'zida muayyan mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadini aks ettiradi. Mol-mulk solig'i mahalliy byudjetni shakllantirgani sababli, soliq stavkasi mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanadi. Albatta, mahalliy hokimiyatning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shu sababli, Buyuk Britaniyadagi mol-mulk solig'i turli shahar va grafliklari bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi.

⁶⁰ Александров И. *Налоговые системы России и зарубежных стран.* -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 202.

Yaponiya soliq tizimida mol-mulk solig'i alohida o'ringa ega bo'lib, yirik uch guruh soliqlardan birini, ya'ni mol-mulk solig'i guruhini tashkil qiladi.

Yaponiyada bu soliqni bizning mamlakatdan farqli o'laroq yuridik shaxslar bir xil stavkada to'laydilar. Odatda bu mulk qiymatining 1,4 foizini tashkil qiladi. Mol-mulkni qayta baholash 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Soliqqa tortiladigan ob'ektga barcha ko'chmas mulklar, yer, qimmatbaho qog'ozlar, bank depozitlari bo'yicha foizlar kiradi. Soliq shuningdek, mulk bir egadan boshqasiga o'tgan vaqtida, ya'ni mulk sotish yoki sotib olish vaqtida ham to'lanadi⁶¹.

Kanadada mulk solig'i mahalliy byudjetni shakllantirgani sababli, mahalliy organlar tomonidan undiriladi. Har bir provintsiyada soliqqa tortish maqsadida mulkni baholovchi maxsus bo'linmalar faoliyat yuritadi. Masalan, Ontario provintsiyasida 31 ta bu kabi bo'linmalar faoliyat yuritmoqda. Bunda hamma binolar baholanadi. Jixoz va uskunalar baholashga kiritilmaydi. Asosiy baho mulkning erkin bazorda sotilishi mumkin bo'lgan bozor bahosi hisoblanadi. Baholash mulkning egasisiz amalga oshiriladi. Agar soliq idorasining maxsus bo'linmasi belgilagan mulk qiymati bilan mulk egasi taqdim etgan mulk qiymati orasida tafovut bo'lsa, u holda bu kelishmovchilik maxsus tribunalga apellyatsiya berish orqali hal qilinadi.

⁶¹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 109

8-Mavzu: Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

Reja:

1. Soliq to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi.
2. Soliq stavkalari va soliq imtiyozlari.
3. Soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi.
4. Rivojlangan xorijiy davlatlarda jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tajribasi.

1. Soliq to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi. Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari, kvartiralar, chorbog' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlari qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini inventarizatsiya qilish qiymati soliq solish baza bo'lib hisoblanadi. Agar jismoniy shaxslarning mol-mulkini bahosi tegishli vakolatli idoralar tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiymati belgilanadi hamda o'rnatilgan stavkalar asosida soliqqa tortiladi.

2.Soliq stavkalari va soliq imtiyozlari. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi, ularni soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda bildiriladi. Soliq stavkalari har yili keyingi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidaga qarori asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

2018 yil 1 yanvardan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining stavkalari quyidagicha belgilangan:

8.1-jadval

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkalari⁶²

<i>N</i>	<i>Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi</i>	<i>Soliq stavkasi, mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan %da*</i>
1	Turar joylar va kvartiralar, dala hovli qurilmalari (umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari bundan mustasno), boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,2
2	Shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:	
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,25
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	0,35
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lgan turar joylar va kvartiralar, dala hovli qurilmalari	0,25

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroridan olingan.

--	--	--

*) Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 42 000 ming so'mdan kam bo'lmasligi kerak.

Izohlar:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash organlari belgilagan kadastr qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent va Nukus shaharlari, shuningdek viloyat markazlarida 210 000 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 90 000 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

2. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.

Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solinmaydi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

4) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

5) I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari otalarining va beva xotinlarining (beva erlarining). Imtiyoz «Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok

bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi.

Yuqoridagi 3, 5 va 6-bandlarida ko'rsatilgan imtiyozlar qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida beriladi.

Yuqoridagi belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mol-mulk ob'ektiga taalluqli bo'ladi.

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

3.Soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadilar.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1 yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi. Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdor tomonidan ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Mol-mulkka mulk huquqi taqvimiy yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1 yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi, yangi mulkdor esa - mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi.

Taqvimiy yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi. Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Hisoblangan yillik soliq miqdori 15 oktabrdan kechiktirmay mahalliy budjetga to'lanadi. Agar soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'imlar bo'yicha qarzar mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1 yanvaridagi holat bo'yicha shahar va tumanlar bo'yicha, texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosida mavjud bo'lgan imoratlar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan o'tkaziladi.

4. Rivojlangan xorijiy davlatlarda jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tajribasi. Barcha rivojlangan xorijiy mamlakatlarda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq alohida ahamiyatga egadir. Ushbu davlatlar soliq tizimida mazkur soliqning ko'pgina umumiy xususiyatlarga egaligi bilan birga ayni paytda bir-biridan farq qilishini ham ta'kidlash lozim.

Mol-mulkdan olinadigan soliqlar davlat soliqlari umumiy hajmida kam o'rin tutadi va ko'pchilik mamlakatlarda mahalliy soliqlar toifasiga kiritiladi. Rivojlangan mamlakatlarda mulkni soliqqa tortish ikki soliq guruhi: mulkning umumiy summasiga soliq va mulkning alohida turlariga soliqlari asosida amalga oshiriladi⁶³. Mulkning umumiy summasiga soliq o'z navbatida jismoniy shaxslarning shaxsiy mulkiga soliq va yuridik shaxslar mol-mulk soliqlariga bo'linadi.

Shaxsiy mulk solig'iga jismoniy shaxslar mulkining qiymati tortiladi. Mulq qiymati amaldagi qonunlarga ko'ra ishlab chiqilgan usullar orqali aniqlanadigan bozor yoki kadastr qiymati asosida baholanadi. Shaxsiy mulk solig'i yagona stavkada yoki soliqqa tortishning tabaqalashtirilgan progressiv stavkasi asosida undirilishi mumkin. Soliqqa tortishning yagona stavkasi Germaniya, Belgiya, Islandiya va Lyuksemburgda qullaniladi. Soliqqa tortishning progressiv tizimi Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya, Ispaniya, Shveysariya va boshqa davlatlarda amal qiladi.

Shaxsiy mulk solig'ining muhim xususiyati soliqqa tortiladigan boshlang'ich summaning etarli darajada yuqoriligida hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'p hollarda soliq to'lovchilarning turli guruhlariga sezilarli imtiyozlar ko'zda tutilgan. Umumiy soliq tushumlari tarkibida shaxsiy mulk solig'i kamdan-kam 0,5 foizdan oshadi. Mol-mulkka solinadigan barcha soliqlar hududiy yoki mahalliy soliqlarga taalluqli ammo, undirish chegarasi ko'p hollarda markaziy darajada belgilanadi. Maxsus mol-mulk soliqlari tarixan saqlanib qolgan soliqlar hisoblanadi. Bu soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi rivojlangan mamlakatlarda qattiq farq

⁶³ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. стр. 200.

qiladi. Agar Buyuk Britaniyada ushbu ulush 10 foizdan oshig'ini tashkil etgan bo'lsa, Belgiya, Gretsiya, Avstriya, Italiya, Lyuksemburg, Turkiya, Finlyandiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Ispaniyalarda ular 1 foizdan oshadi. Mulkning alohida turlariga soliqlari bo'yicha yuqori tushumli davlatlarga AQSh (9 foizdan yuqori), Kanada (8 foizdan yuqori), Yangi Zelandiya (6 foiz atrofida), Avstraliya (deyarli 5 foiz), Irlandiya (2,5 foiz), Fransiya (2 foiz atrofida) kiradi.⁶⁴

AQShda mulk solig'ini jismoniy shaxslar to'laydilar. Jismoniy shaxslar mulkiga solinadigan soliq ko'pchilik shtatlarda undiriladi. Soliq stavkalari shtatlar bo'yicha farqlanadi. Ko'chmas mulkni baholash bilan shug'ullanadigan soliq idorasi xizmatchilari soliq baholovchilari deb nomlanadilar. Mulk solig'i tushumlari hokimiyat tuzilmalarining barcha darajadagi soliq tushumlarining salkam 9,0 foizini tashkil etadi. AQShda mulk soliqlari shtat va munitsipalitet darjasida undiriladi. Bu soliqqa asosan ko'chmas mulk va xo'jalik uskunalari tortiladi, foyda ko'rmaydigan tashkilotlarga tegishli bo'lgan va ular tomonidan tijorat maqsadlarida foydalanilmaydigan mulk bundan mustasno. Shuningdek federal hukumat, shtatlar hukumatlari va mahalliy hokimiyat organlarining mol-mulki ham soliqqa tortilmaydi. 13 ta shtatda nomoddiy aktivlar: aktsiyalar, qarz majburiyatlari va shu kabilar soliqqa tortiladi. Fuqarolarga tegishli bo'lgan shaxsiy ko'chmas mulk va ishlab chiqarish vositalari ham soliqqa tortiladi. Shtat darajasida quyidagi soliq stavkalari: korporatsiya kapitalining 0,75 foizi miqdorida va yuridik hamda jismoniy shaxslarning soliqqa tutiladigan mol-mulkiga 0,5 foizdan 5,0 foizgacha miqdorda belgilangan⁶⁵. Bundan tashqari, munitsipalitet darajasida ham soliq undiriladi.

AQSh shtat soliqlarining tarkibida mulk solig'ining bir qismi hisobga olinadi. Bu bir qator shtatlarda mavjud bo'lgani bilan, ularning daromad manbasidagi salmog'i katta emas, ya'ni 3 foizdan kam. Mulk solig'i federal byudjetda hech qanday rol qynamaydi. Mahalliy soliqlar tarkibida esa ular daromadning 3/4 qismini tashkil qiladi. Bu umumdavlat soliq tushumlarining 12 foiziga teng.

Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkiga solinadigan soliq mahalliy byudjetni shakllantiruvchi asosiy soliqlardan biri hisoblanadi. Renta to'lovi soliq asosi bo'ladi. U ko'chmas mulk egalari yoki uni ijaraga oluvchmlardan undiriladi. Xullas, mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib, mulk egalari yoki ishtirokchilari hisoblanadi. Ko'chmas mulk deganda er tushuniladi. Shuningdek, ushbu soliq to'lovchilari qatoriga uy-joyi ijaraga oluvchilar hamda kvartira haqini to'lovchilar ham kiradi.

Ko'chmas mulk qiymati odatda 10 yilda bir marta baholanadi⁶⁶. Ko'chmas mulk qiymati o'zida muayyan mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadini aks ettiradi. Mol-mulk solig'i mahalliy budjetni shakllantirgani sababli, soliq

⁶⁴ А.В.Перов, А.В.Толкушкин. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: ЮРАЙТ. 2003. 124 стр.

⁶⁵ А.В.Перов, А.В.Толкушкин. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: ЮРАЙТ. 2003. 119 стр.

⁶⁶ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератов-Пресс”. 2002. Стр. 202.

stavkasi mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanadi. Albatta, mahalliy hokimiyatning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shu sababli, Buyuk Britaniyadagi mol-mulk solig'i turli shahar va grafliklari bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi.

Germaniyada shaxsiy mulk solig'i tarixiy an'anaga egadir. Bu soliqni 1278 yilda qirol Rudolf fon Gabsburg joriy qilgan. Jismoniy shaxsning umumiy mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1955 yil 1 yanvaridan boshlab 1 foizga qadar ko'tarildi. Unga qadar soliq stavkasi 0,5 foiz darajasida edi. Sanoat korxonalari va kompaniyalari uchun 0,6 foiz soliq stavkasi belgilangan. Qishloq va o'rmon xo'jaligi mulki pasaytirilgan soliq summasi ko'rinishidagi imtiyozlarga ega.

Yaponiya soliq tizimida mol-mulk solig'i alohida o'ringa ega bo'lib, yirik uch guruh soliqlardan birini, ya'ni mol-mulk solig'i guruhini tashkil qiladi.

Yaponiyada bu soliqni bizning mamlakatdan farqli o'laroq yuridik va jismoniy shaxslar bir xil stavkada to'laydilar. Odatda bu mulk qiymatining 1,4 foizini tashkil qiladi. Mol-mulkni qayta baholash 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Soliqqa tortiladigan ob'ektga barcha ko'chmas mulklar, yer, qimmatbaho qog'ozlar, bank depozitlari bo'yicha foizlar kiradi. Soliq shuningdek, mulk bir egadan boshqasiga o'tgan vaqtda, ya'ni mulk sotish yoki sotib olish vaqtda ham to'lanadi⁶⁷.

Kanadada mulk solig'i mahalliy byudjetni shakllantirgani sababli, mahalliy organlar tomonidan undiriladi. Har bir provintsiyada soliqqa tortish maqsadida mulkni baholovchi maxsus bo'linmalar faoliyat yuritadi. Masalan, Ontario provintsiyasida 31 ta bu kabi bo'linmalar faoliyat yuritmoqda. Bunda hamma binolar baholanadi. Jixoz va uskunalar baholashga kiritilmaydi. Asosiy baho mulkning erkin bazorda sotilishi mumkin bo'lgan bozor bahosi hisoblanadi. Baholash mulkning egasisiz amalga oshiriladi. Agar soliq idorasining maxsus bo'linmasi belgilagan mulk qiymati bilan mulk egasi taqdim etgan mulk qiymati orasida tafovut bo'lsa, u holda bu kelishmovchilik maxsus tribunalga apellyatsiya berish orqali hal qilinadi.

Ko'chmas mulkdan soliq mol-mulk qiymatining 0,5 - 1 foiz hajmida undiriladi, sataroshlar uchun uy qiymatining 30 foizi, advokat kontoralari va vrachlik xonalaridan - 50 foizi, spirt ishlab chiqarishda - 140 foiz.

Ispaniyada jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 1920 yillarga qadar favqulodda soliq edi. Mol-mulk solig'i Ispaniyada mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslardan har yili undiriladi. Rezidentlar mol-mulkning qaerdaligidan qat'iy nazar uning butun summasidan, norezidentlar esa faqat Ispaniyadagi mol-mulk bo'yicha soliq to'laydilar. Mol-mulkning qiymati soliqqa tortiladigan baza bo'lib xizmat qiladi, undan arzonlashtirish miqdori chegirib tashlanadi. Madaniy va tarixiy boyliklar soliqqa tortilmaydi. Soliq rezidentlarning mol-mulk summasi 15 mln. pesetdan oshgan taqdirdagina to'lanadi (norezidentlarga bu qoida taalluqli emas). Soliq stavkalari mol-mulk qiymatining miqdoriga bog'liq bo'lib, umumiy qiymat summasining 0,2 foizdan 2,5 foizgacha

⁶⁷ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 109

miqdorda belgilangan⁶⁸. Ispaniyada ko'chmas mulk solig'i mahalliy byudjetga tushadigan soliqlarga kiradi.

Shvetsiyada mulk solig'ini undirishda oilaning jami mulkini hisobga oladi. Uni faqat jismoniy shaxslar to'laydi. Soliq stavkalari progressiv xarakterga ega bo'lib, uni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

8.2-jadval

Shvetsiyada mulklardan olinadigan soliqning miqdorlari*

Soliqq tortildigan mulklar qiymati, fr.	Soliq miqdori, foizda
400000 krongacha	0
400000dan 600000 krongacha	1,5
1800000 krondan oshig'i	3

*Manbaa: A.V.Перов, A.B.Толкушкин. *Налоги и налогообложение. Учебное пособие.* –М.: ЮРАЙТ. 2003. стр. 128

Ya'ni, Shvetsiyada 400 ming krongacha qiymatli mulk soliqdan ozod etilgan. Bu soliqqa tortilmaydigan minimum hisoblanadi. 400 ming dan 600 ming krongacha bo'lgan mulk 1,5 foizli, 1,8 mln krondan oshig'i 3 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi.

⁶⁸ Александров И. *Налоговые системы России и зарубежных стран.* -М.: “Бератов-Пресс”. 2002. стр. 210.

9-mavzu: Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

Reja:

1. Yer solig'ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati.
2. Yer solig'ini to'lovchilar.
3. Yer solig'i ob'ekti, bazasi va soliq stavkalari.
4. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar.
5. Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari.
6. Xorijiy davlatlarda yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ini budjetga undirish tartibi.

1. Yer solig'ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati. 1990 yilda O'zbekistonda "Yer to'g'risida" qonun qabul qilindi va ushbu qonunga ko'ra yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig'i sifatida undiriladigan bo'ldi.

1991 yilda "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida", 1993 yilda "Yer solig'i to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda yer solig'ini undirishda soliqqa tortish ob'ekti, sub'ektlari, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartiblari ko'rsatib berildi. 1997 yilda "Soliq kodeksi"ning qabul qilinishi hamda 1998 yildan uning kuchga kiritilishi bilan yer solig'ining to'laqonli huquqiy asoslari yaratildi. Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga hos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad – yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Yer fondi hajmida qishloq ho'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yer maydonlarining o'sishi fermer xo'jaliklari sonining yildan-yilga ko'payib borayotganligi va o'rmon xo'jaliklari ixtiyoridaagi yer maydonlarining bir qismining ular tasarrufiga o'tkazilishi hamda zaxira yerlarning o'zlashtirilishi bilan izohlanadi.

2. Yer solig'ini to'lovchilar. Soliq qonunchiligiga ko'ra o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi. Agarda soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar (mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq ho'jalik korxonalari,

tadbirkorlik faoliyatining qat'iy soliq to'lanishi belgilangan yuridik shaxslar, audio va video kassetalar, lazer disklarini ishlab chiqish, yozish, ko'paytirish va sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar) hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, unda ular shu faoliyatda foydalaniladigan yerlari uchun yer solig'ini to'lovchilari hisoblanishadi.

Yer uchastkasidan foydalanganlik uchun soliq solish maqsadlarida mashina-traktor parklari (shu jumladan qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jalik korxonalari hududida barpo etiladigan muqobil mashina-traktor parklari), pilla urug'i tayyorlash, pilla tayyorlash va birlamchi ishlov berish korxonalari qishloq xo'jaligi korxonalariga tenglashtiriladi.

Ko'chmas mulk ijaraga berilganda ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchisi hisoblanadi. Qonun hujjatlariga muvofiq yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslar (savdo korxonalari bundan mustasno) yer solig'i o'rniga budjetga ijara haqi to'laydilar. Ijara haqi taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmasligi, yerlardan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa - bir stavkasi miqdorida bo'lishi lozim.

Yer ijarachilarining hisobi, ijaraga olingan yer uchun ijara haqi hisob-kitoblarini taqdim etish, ijara haqini hisoblab chiqarish va to'lash yer solig'i uchun belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Yer solig'i ob'ekti, bazasi va soliq stavkalari. Soliq kodeksiga ko'ra mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Soliq kodeksining 280-moddasiga ko'ra quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

a) aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;

b) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

v) kommunal-maishiy yerlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);

g) zahira yerlar.

Mavjud yer uchastkalaridan qonun xujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlarini chegirib tashlash orqali soliq solinadigan baza aniqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Yer solig'i stavkalari jahon amaliyotida qabul qilinganidek, yer qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida yerning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 gektar sug‘oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o‘rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi.

Jahon soliq amaliyotida yer solig‘i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o‘rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho‘rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o‘tkazaolishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo‘yicha aniqlanadi. 100 ball 10 ta klassga bo‘linadi, ya‘ni 1 klass yerlar nol balldan 10 ballgacha, 2 klass yerlar 11 balldan 20 ballgacha, 3 klass yerlar 21 balldan 30 ballgacha va h.k. 10 klass yerlar 91 balldan 100 ballgacha baholanadi. Bunda yerning ball boniteti qancha yuqori bo‘lsa soliq stavkasi ham shuncha yuqori belgilanadi.

Yerlardan noqishloq xo‘jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-3454-sonli qaroriga asosan quyidagicha guruhlanadi:

1. Sug‘oriladigan jamoat qishloq xo‘jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

2. Lalmi ekinzorlar, bo‘z yerlar va ko‘p yillik ko‘chatlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

3. Sug‘orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

4. Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

5. Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i stavkalari.

6. Shahar va posyolkalardagi yer uchastkalaridan olinadigan yer solig‘i stavkalari.

7. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

8. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroridan kelib chiqib, mahalliy xokimiyat idoralari ham o‘zlarining xududiy territoriyasiga qarab qaror chiqarishadi va unda tegishli koeffitsientlar hisobga olinadi.

Qishloq xo‘jalik yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer solig‘i yerning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi.

Shaharlar va shahar qo‘rg‘onlarining ma‘muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jalik ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig‘i qishloq xo‘jalik yerlariga belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida undiriladi.

Yuridik shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer solig'i yuridik shaxslar uchun 2,0 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientni qo'llagan holda yer solig'i to'lanmagan taqdirda soliq to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo'llanadi.

Ma'muriy va sanoat markazlariga nisbatan olganda yer uchastkalarining joylashish joyiga bog'liq holda qishloq joylari uchun belgilangan yer solig'i stavkalariga quyidagi koeffitsientlar qo'llanadi:

-Toshkent shahri atrofida 20 km lik aylanada - 1.30;

-Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km lik aylanada - 1.20;

-tuman markazlari atrofida 10 km lik aylanada - 1,15;

-boshqa shaharlar atrofida 5 km lik aylanada - 1,10.

Yer uchastkalarigacha masofa shaharlar va tuman markazlarining ma'muriy chegaralaridan boshlab avtomobil yo'llari bo'ylab belgilanadi. Yer uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan taqdirda shaharning yuqoriroq funktsional vazifasiga muvofiq keladigan koeffitsient qabul qilinadi.

Bir qishloq aholi punkti doirasida yagona stavkalarni belgilash maqsadida soliq to'lovchilarga berilgan yerlar, yerlarning qanday qismi ushbu zonaga kirishiga bog'liq holda, butunlay shahar atrofi zonasiga kiritiladi yoki ushbu zonadan butunlay chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida yer solig'i stavkalariga, yer sifatiga bog'liq holda quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

-tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lsa - 0,75;

-tuproq boniteti 41 dan 70 ballgacha bo'lsa - 1,0;

-tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo'lsa - 1,25.

Shahar va qo'rg'onlarning ma'muriy chegaralarida joylashgan kon va karerlar band etgan yerlar uchun soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun belgilangan stavkalarga 0,1 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi.

O'rmon xo'jaliklarida mollarni o'tlatish uchun foydalanilmaydigan yaylov yerlar uchun yer solig'i boshqa yerlar uchun stavkalar bo'yicha to'lanadi.

4. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar. Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari — o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar

mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

3) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog'larning yerlari, yuqorida ko'rsatilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlari bundan mustasno;

3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;

6) suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari hamda boshqa suv ob'ektlari sohillari bo'ylab ajratilgan mintaqa yerlari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari,

taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

9) madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash ob'ektlari egallagan yerlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stantsiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

12) shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stantsiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

14) aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stantsiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stantsiyalari, yong'inga qarshi va avariya qarshi stantsiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stantsiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stantsiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, tsirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

17) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan yerlar;

18) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan ob'ektlar egallagan yerlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

21) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob'ektlar egallagan yerlar;

22) ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv ob'ektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sohadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalarida atrofida o'rmonlar; suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;

23) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning selektsiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalariga soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

5. Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari. Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Kalendar yil soliq davridir.

Yer solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish Soliq kodeksning 281-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Yil mobaynida yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar — mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan soliqlar ular tomonidan to'langan davr uchun yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan o'ning 10-sanasi dan kechiktirmay taqdim etadi.

Yer solig'ini to'lash, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi. Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 sentyabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

6. Xorijiy davlatlarda yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ini budjetga undirish tartibi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda fuqarolar egaligida, tasarrufida va foydalanishidagi yer uchastkalari bizning mamlakatimizdagidek yer solig'iga emas, balki, mulk ob'ektlari tarkibiga kirgan holda mol-mulk solig'iga tortiladi. Mol-mulkdan olinadigan soliqlar davlat soliqlari umumiy hajmida kam o'rin tutadi va ko'pchilik mamlakatlarda mahalliy soliqlar toifasiga kiritiladi. Mamlakatimizda ham yer solig'i mahalliy soliqlar guruhiga kiritilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda mulkni soliqqa tortish ikki soliq guruhi: mulkning umumiy summasiga soliq va mulkning alohida turlariga soliqlari asosida amalga oshiriladi. Mulkning umumiy summasiga soliq o'z navbatida jismoniy shaxslarning shaxsiy mulkiga soliq va yuridik shaxslar mol-mulk soliqlariga bo'linadi.

Shaxsiy mulk solig'iga jismoniy shaxslar mulkining qiymati tortiladi. Mulk qiymati amaldagi qonunlarga ko'ra ishlab chiqilgan usullar orqali aniqlanadigan bozor yoki kadastr qiymati asosida baholanadi.

Shaxsiy mulk solig'i yagona stavkada yoki soliqqa tortishning tabaqalashtirilgan progressiv stavkasi asosida undirilishi mumkin. Soliqqa tortishning yagona stavkasi Germaniya, Belgiya, Islandiya va Lyuksemburgda qo'llaniladi. Soliqqa tortishning progressiv tizimi Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya, Ispaniya, Shveysariya va boshqa davlatlarda amal qiladi.

Yer uchastkalariga solinadigan barcha soliqlar hududiy yoki mahalliy soliqlarga taalluqli ammo, undirish chegarasi ko'p hollarda markaziy darajada belgilanadi. Maxsus yer soliqlari tarixan saqlanib qolingan soliqlar hisoblanadi. Bu soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi rivojlangan mamlakatlarda qattiq farq qiladi. Agar Buyuk Britaniyada ushbu ulush 10%dan oshig'ini tashkil etgan bo'lsa, Belgiya, Gretsiya, Avstriya, Italiya, Lyuksemburg, Turkiya, Finlyandiya, Shveysariya, Shvetsiya, Ispaniyalarda ular 1%dan oshadi. Mulkning alohida turlariga soliqlari bo'yicha yuqori tushumli davlatlarga AQSh (9%dan yuqori), Kanada (8%dan yuqori), Yangi Zelandiya (6% atrofida), Avstraliya (deyarli 5%), Irlandiya (2,5%), Frantsiya (2% atrofida) kiradi.⁶⁹

Yer uchastkalariga solinadigan soliqlar bo'yicha yuqori ulushli tushumlar asosan aholi yashasha joylaridan undiriladi. Inshaot va imoratlarni soliqqa tortishda ularning qurilish materiallari, yerga birlashtirish usullari, xajmi va foydalanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda soliqqa tortish shartlari differentsiyalanadi. Albatta, turar joylarni va sanoatga tegishli binolarni soliqqa tortish shartlari sezilarli farq qiladi.

Yer uchastkalarini soliqqa tortishda qaysi xo'jalik maqsadlarida foydalanishidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Imorat qurilgan va qurilmagan yer uchastkalari, qishloq xo'jaligi maqsadlarida ishlatiladigan va ishlatilmaydigan yer uchastkalarini soliqqa tortish tizimi farq qiladi. Odatda ushbu soliq stavkalari yer uchastkasining kadastr qiymatidan foizlarda belgilanadi. Bu soliqlardan davlat mulkida, mahalliy hokimiyat organlari mulkida, shuningdek, qonun-hujjatlarda ko'rsatilgan tashkilotlar mulkida bo'lgan ob'ektlar ozod etilishi mumkin.

Ushbu soliqlar orasida ko'chmas mulk solig'i asosiy soliq hisoblanadi, bu soliqqa yer uchastkalari va imoratlar tortiladi. Bu soliq stavkalari yuqori bo'lmaydi va odatda shunday mulk qiymatining 1,0–3,0%ini tashkil etadi. Ba'zi mamlakatlarda shuningdek, mulkning umumiy summasiga solinadigan soliq ham bo'ladi, unga faqat yirik mulk tortiladi, chunki ushbu soliq borasida soliq solinmaydigan yuqori darajali minimum ko'zda tutilgan. Soliq solinadigan mulk tarkibiga yer uchastkalari va imoratlardan tashqari, kompaniyalarning aktsiyalari paketlari, individual (yakka) tadbirkorlarning aktivlari va tovar zaxiralari, uchinchi shaxslar qarzdorligi va shu kabilar ham kiritiladi. Soliq stavkalari 1,0–2,0%ni tashkil etadi.

⁶⁹ А.В.Перов, А.В.Толкушкин, Налоги и налогообложение. Учебное пособие, 2-е изд., перераб. и допол. Москва – ЮРАЙТ, 2013. 87 с.

Ayrim mamlakatlarda hamon saqlanib qolayotgan hunarmandchilik va uy egaligi soliqlari ham mol-mulk soliqlari jumlasiga kiradi. Bunday soliqlarni hisoblab chiqishda ishchilar, dastgohlar, deraza, eshiklar soni va shu kabilar negiz qilib olinadi.

Jahon bozorida etakchilik qiluvchi mamlakatlar yutuqlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning ko'pchiligi soliqlar borasida raqobatbardoshlik yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi:

- soliq stavkalarini dunyodagi o'rta darajadan pastroq darajada belgilash;
- daromad oluvchilar asosiy ommasi bo'yicha soliqqa tortishning progressiv tizimlaridan voz kechish;
- soliqqa torish bazasini hisoblab chiqarishda investitsiyalarni soliqqa tortishdan butunlay ozod qiladigan muayyan qoidalarni belgilash.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi soliq tizimlarining hammasini ham takomillashgan va hozirgi kunning talablariga to'liq javob beradi deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu mamlakatlar soliq tizimlarini sistematik ravishda isloh qilib turilishi bejiz emas. Albatta, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar rivojlangan xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridan avtomatik ravishda nusxa olmasdan, ularning xatolaridan tegishli saboq olishlari kerak. Zero, soliq siyosatida mamlakatning o'z tajribasiga tayanibgina qolmay, soliq tizimida yaratilayotgan va rivojlanayotgan mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda boshqa mamlakatlardagi barcha qimmatli va foydali tajribalardan foydalanish ham muhim.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'tkazilayotgan islohotlar tajribasini tahlil qilish ham bu mamlakatlar bilan O'zbekiston o'rtasida bir necha o'xshash sharoitlar mavjud bo'lganligi uchun mamlakatimizda soliq sohasida o'zgarishlarni amalga oshirishda bir necha foydali saboqlarni berishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlatimiz soliq tizimidagi mol-mulk va yer solig'ining o'rni va ahamiyati rivojlangin mamlakatlardagi mol-mulk va yer solig'ining ahamiyati bilan bir qator o'xshashliklarga ega. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, mol-mulk solig'i barcha davlatlarda undiriladi. Yer solig'i esa Avstriya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va boshqa xorijiy davlatlarda undirilgan ekan. Boshqa davlatlarda esa yer uchastkalari ko'chmas mulk solig'i ob'ektiga qo'shilgan holda soliqqa tortiladi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, mamlakatimiz mol-mulk va yer solig'i Rossiya Federatsiyasi mol-mulk va yer solig'i bilan umumiy o'xshashliklarga ega.

Albatta, rivojlanish yo'lida borayotgan yosh davlatimizning soliq siyosati ham mukamallashish yo'lidadir. Jumladan, jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i ham. Ushbu soliq turini takomillashtirish maqsadida Kanada misolidagi kabi maxsus bo'linmalarni tashkil qilish, Yaponiya misolida yer solig'ini faqatgina oldi-sotdi paytida to'lash kabi vazifalarni amalga oshirilganda, nazarimda foydadan holi bo'lmas edi.

Maxsus bo'linma yer solig'iga tortiladigan yer maydoni hajmini aniqlashda ob'ektivlikni ta'minlaydi va turli ko'rinishdagi soliqdan qochish hollarining oldini oladi.

Yer uchastkalari bo'yicha soliqni oldi-sotdi paytida undirishning afzaliklarini katta miqdordagi pul tushumi (undirish xarajatlari kamayadi va soliq to'lash manbasi naqd bo'ladi) hamda ijtimoiy himoyada (harakatda bo'lmagan mulkdan undirishmaydi) ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy himoyani yanada kuchaytirishimiz maqsadida Germaniya, Frantsiya, Ispaniya, Shvetsiya kabi davlatlar amaliyotida qo'llanilayotgan yer solig'idagi soliqqa tortilmaydigan yer uchastkalarini hamda yuqorida sanab o'tilgan davlatlarda mavjud bo'lgan soliq stavkalarini taklif qilish mumkin.

Bundan tashqari, yuqoridagi deyarli barcha davlatlardagi kabi yer solig'i ob'ektlarini mol-mulk solig'igi qo'shgan holda soliqqa tortish tartibini ishlab chiqish va uni mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish mumkin. Bunda mamlakatimizdagi mol-mulk va yer soliqlari birlashtirilib, jismoniy shaxslar egaligidagi barcha mulkka, jumladan, yer uchastkalari ham shu mulk ob'ektiga kiritilgan holda soliqqa tortiladi. Buning uchun mamlakatimizda yerning bozor bahosi shakllangan bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, tajribasi o'rganilgan AQSh, Germaniya, Shvetsiya va Evropa ittifoqi boshqa davlatlarida ko'chmas mulk solig'i ob'ekti sifatida yer uchastkasi, unda joylashgan imorat va inshootlar belgilangan.

Soliq solinadigan baza Shvetsiyada baholash narxi (otsenochnaya stoimost) oxirgi ikki yil statistika ma'lumotlari tahlili asosida aniqlanadigan bozor narxining 75 foizi olinadigan bo'lsa, Germaniyada baholash narxidan soliq solinmaydigan minimum olib tashlangan holda va AQShda ko'chmas mulkning sotib olingan bahosi har yili 2 foizga indeksatsiya qilingan holda aniqlanadi.

Rossiya Federatsiyasida 1997 yil 20 iyulda qabul qilingan «Velikiy Novgorod va Tver shaharlarida ko'chmas mulkka soliq solish bo'yicha tajriba o'tkazish haqida»gi 110-FZ-sonli Qonun asosida 2000 yildan boshlab Velikiy Novgorod shahrida jismoniy shaxslar ko'chmas mulk solig'i joriy etilgan bo'lsa, Tver shahrida xatlov natijasi oxiriga etkazilmaganligi sababli ushbu soliq turi joriy etilmay qolgan.

Bugungi kunda, Rossiya Federatsiyasida jismoniy shaxslar ko'chmas mulk solig'iga 2014-2018 yillar davomida bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilayotgan bo'lib, ushbu joriy etilayotgan soliq turidan byudjetga har yili 137 mlrd.rubl, yoki 5,6 barobar ko'p tushum tushishi taxmin qilinmoqda. Iqtisodiy rivojlangan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Malayziya, Tayland, Singapur kabi davlatlarda faqatgina yer solig'i joriy etilgan bo'lib, unda yer uchastkasining joylashgan joyi, ushbu hududda elektr energiya, suv va boshqa infratuzilmaning mavjudligiga qarab baholangan yer qiymatiga soliq solinadi.

Ekstropolyatsiya uchun yer solig'iga oid oldingi olti yilning haqiqatdagi ma'lumotlari olindi. Undiriladigan yer solig'ining soliq bazasi va soliq summalarining tadqiqot uchun tanlangan davrda o'sish sur'atlari(zanjir usulida) quyidagi formuladan foydalangan holda aniqlanadi:

$$T_n = \frac{Y_n}{Y_{n-1}}$$

Bu yerda, U_n – o'sish sur'ati aniqlanuvchi yilda kuzatuv natijasida aniqlangan haqiqatdagi miqdor;

U_{n-1} - o'sish sur'ati aniqlanuvchi davrdan oldingi yilda kuzatuv natijasida aniqlangan haqiqatdagi miqdor;

T_n – zanjir usulidagi o'sish sur'ati.

Mazkur formula asosida aniqlangan, yer solig'ining soliq solish bazasini va soliq summalarini o'sish sur'atlari aniklandi.

Prognoz yili uchun yer solig'i summasining kutilayotgan o'rtacha o'sish su'ati o'rtacha geometrik usuldan foydalangan holda aniqlanadi:

$$T_{\bar{y}} = \sqrt[n]{T_1 * T_2 * \dots * T_n}$$

Zanjir usulida aniqlangan o'sish sur'atlari ko'paytmasining 5 darajali ildizi – prognoz yili uchun yer solig'i summasining kutilayotgan o'sish sur'ati hisoblanadi. Yer solig'i summasining kutilayotgan o'sish sur'ati oldingi yildagi jami yig'ilgan yer solig'i summasiga ko'paytirib, prognoz yili uchun belgilanuvchi yer solig'i tushumi aniqlanadi.

Yerning normativ qiymati Davlat yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr qo'mitalar tomonidan aniqlanib, har bir soliq to'lovchiga moliya yilining 1 apreliga qadar etkaziladi. Fikrimizcha, yer solig'ini normativ va haqiqiy qiymat asosida soliqqa tortilishi adolatli hisoblanadi. Bunda esa, yerning normativ qiymatini vakolatli organ tomonidan hududlar bo'yicha belgilab berilishi lozim. Yerning haqiqiy qiymati sifatida esa, ko'chmas mulk birjalari orqali yerni sotib olingan qiymati olinib, bu qiymatlar yuridik shaxslar uchun yer solig'i ob'ekti hisoblanishi hamda qonunchilik bilan belgilangan stavkalar bo'yicha undirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa, bizning nazarimizda, yerdan soliq undirishning dunyo amaliyotiga o'tishini ta'minlab, soliq bo'yicha hisob kitoblarni ancha soddalashtiradi.

10-Mavzu: Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

Reja:

1. Yer solig'ini to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi.
2. Yer solig'i stavkalari va soliqdan imtiyozlar.
3. Yer solig'ini hisoblab chiqarish tartibi.
4. Yer solig'ini budjetga to'lash muddatlari.
5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi.

1. Yer solig'ini to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi. Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijara berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi.

Yer uchastkalarini ijara olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solish ob'ektidir:

1) dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijara berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi, yuqoridagi 7-bandida ko'rsatilganlari bundan mustasno.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

2. Yer solig'i stavkalari va soliقدan imtiyozlar. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda xabar qilinadi.

Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar uchun 1,5 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientni qo'llagan holda yer solig'i to'lanmagan taqdirda soliq to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo'llanadi.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan yer uchastkalari maydoni yer berish to'g'risida davlat hokimiyati organlarining qarori, yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqi uchun davlat dalolatnomasi, yerni ijaraga olish shartnomasi, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma va yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarga ko'ra belgilanadi.

Yer uchastkasiga nisbatan mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lmasa, soliq butun maydon uchun yuqorida ko'rsatilgan oshirish koeffitsientlarini qo'llagan holda to'lanadi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini hisoblab chiqarish do'konlar, oshxonalar, ustaxonalar va tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan boshqa ob'ektlar uchun foydalaniladigan yer uchastkalari uchun amalga oshiriladi.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagi jismoniy shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi

to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga etmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) shaxslar — ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha — yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

Yuqorida belgilangan imtiyozlar, bundan 5-bandda ko'rsatilgani mustasno, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo'jaligi yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organda ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur imtiyozlar soliq to'lovchining tanlashi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin.

3. Yer solig'ini hisoblab chiqarish tartibi. Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning

mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan joylar egallagan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan yer solig'i yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi hamda Soliq Kodeksning 290-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonada yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, yer solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Kalendar yil soliq davridir.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi.

Soliq Kodeksning 290-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ushbu imtiyozlarga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadi.

Yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

4. Yer solig'ini budjetga to'lash muddatlari. Yer solig'i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to'lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish faktidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda fuqarolar egaligida, tasarrufida va foydalanishidagi yer uchastkalari bizning mamlakatimizdagidek yer solig'iga emas, balki, mulk ob'ektlari tarkibiga kirgan holda mol-mulk solig'iga tortiladi.

Mol-mulkdan olinadigan soliqlar davlat soliqlari umumiy hajmida kam o'rin tutadi va ko'pchilik mamlakatlarda mahalliy soliqlar toifasiga kiritiladi. Mamlakatimizda ham mol-mulk va yer solig'i mahalliy soliqlar guruhiga kiritilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda mulkni soliqqa tortish ikki soliq guruhi: mulkning umumiy summasiga soliq va mulkning alohida turlariga soliqlari asosida amalga oshiriladi. Mulkning umumiy summasiga soliq o'z navbatida jismoniy shaxslarning shaxsiy mulkiga soliq va yuridik shaxslar mol-mulk soliqlariga bo'linadi.

Shaxsiy mulk solig'iga jismoniy shaxslar mulkning qiymati tortiladi. Mulq qiymati amaldagi qonunlarga ko'ra ishlab chiqilgan usullar orqali aniqlanadigan bozor yoki kadastr qiymati asosida baholanadi.

Shaxsiy mulk solig'i yagona stavkada yoki soliqqa tortishning tabaqalashtirilgan progressiv stavkasi asosida undirilishi mumkin. Soliqqa tortishning yagona stavkasi Germaniya, Belgiya, Islandiya va Lyuksemburgda qo'llaniladi. Soliqqa tortishning progressiv tizimi Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya, Ispaniya, Shveytsariya va boshqa davlatlarda amal qiladi.

Mol-mulka solinadigan barcha soliqlar hududiy yoki mahalliy soliqlarga taalluqli ammo, undirish chegarasi ko'p hollarda markaziy darajada belgilanadi. Maxsus mol-mulk soliqlari tarixan saqlanib qolgan soliqlar hisoblanadi. Bu soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi rivojlangan mamlakatlarda qattiq farq qiladi. Agar Buyuk Britaniyada ushbu ulush 10%dan oshig'ini tashkil etgan bo'lsa, Belgiya, Gretsiya, Avstriya, Italiya, Lyuksemburg, Turkiya, Finlyandiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Ispaniyalarda ular 1%dan oshadi. Mulkning alohida turlariga soliqlari bo'yicha yuqori tushumli davlatlarga AQSh (9%dan yuqori), Kanada (8%dan yuqori), Yangi Zelandiya (6% atrofida), Avstraliya (deyarli 5%), Irlandiya (2,5%), Frantsiya (2% atrofida) kiradi.⁷⁰

Mol-mulka solinadigan soliqlar bo'yicha yuqori ulushli tushumlar ko'chmas mulkdan undiriladi. Inshaot va imoratlarni soliqqa tortishda ularning qurilish materiallari, yerga birlashtirish usullari, xajmi va foydalanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda soliqqa tortish shartlari differentsiyalanadi. Albatta, turar joylarni va sanoatga tegishli binolarni soliqqa tortish shartlari sezilarli farq qiladi.

Yer uchastkalarini soliqqa tortishda qaysi xo'jalik maqsadlarida foydalanishidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Imorat qurilgan va qurilmagan yer uchastkalari, qishloq xo'jaligi maqsadlarida ishlatiladigan va ishlatilmaydigan yer uchastkalarini soliqqa tortish tizimi farq qiladi. Odatda ushbu soliq stavkalari yer uchastkasining kadastr qiymatidan foizlarda belgilanadi. Bu soliqlardan davlat

⁷⁰ А.В.Перов, А.В.Толкушкин, Налоги и налогообложение. Учебное пособие, 2-е изд., перераб. и допол. Москва – ЮРАЙТ, 2003. 87 с.

mulkida, mahalliy hokimiyat organlari mulkida, shuningdek, qonun-hujjatlarda ko'rsatilgan tashkilotlar mulkida bo'lgan ob'ektlar ozod etilishi mumkin.

Ushbu soliqlar orasida ko'chmas mulk solig'i asosiy soliq hisoblanadi, bu soliqqa yer uchastkalari va imoratlar tortiladi. Bu soliq stavkalari yuqori bo'lmaydi va odatda shunday mulk qiymatining 1,0–3,0%ini tashkil etadi. Ba'zi mamlakatlarda shuningdek, mulkning umumiy summasiga solinadigan soliq ham bo'ladi, unga faqat yirik mulk tortiladi, chunki ushbu soliq borasida soliq solinmaydigan yuqori darajali minimum ko'zda tutilgan. Soliq solinadigan mulk tarkibiga yer uchastkalari va imoratlardan tashqari, kompaniyalarning aktsiyalari paketlari, individual (yakka) tadbirkorlarning aktivlari va tovar zaxiralari, uchinchi shaxslar qarzdorligi va shu kabilar ham kiritiladi. Soliq stavkalari 1,0–2,0%ni tashkil etadi.

Ayrim mamlakatlarda hamon saqlanib qolayotgan hunarmandchilik va uy egaligi soliqlari ham mol-mulk soliqlari jumlasiga kiradi. Bunday soliqlarni hisoblab chiqishda ishchilar, dastgohlar, deraza, eshiklar soni va shu kabilar negiz qilib olinadi.

Jahon bozorida etakchilik qiluvchi mamlakatlar yutuqlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning ko'pchiligi soliqlar borasida raqobatbardoshlik yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi:

- soliq stavkalarini dunyodagi o'rta darajadan pastroq darajada belgilash;
- daromad oluvchilar asosiy ommasi bo'yicha soliqqa tortishning progressiv tizimlaridan voz kechish;
- soliqqa torish bazasini hisoblab chiqarishda investitsiyalarni soliqqa tortishdan butunlay ozod qiladigan muayyan qoidalarni belgilash.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi soliq tizimlarining hammasini ham takomillashgan va hozirgi kunning talablariga to'liq javob beradi deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu mamlakatlar soliq tizimlarini sistematik ravishda isloh qilib turilishi bejiz emas.

Albatta, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar rivojlangan xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridan avtomatik ravishda nusxa olmasdan, ularning xatolaridan tegishli saboq olishlari kerak. Zero, soliq siyosatida mamlakatning o'z tajribasiga tayanibgina qolmay, soliq tizimida yaratilayotgan va rivojlanayotgan mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda boshqa mamlakatlardagi barcha qimmatli va foydali tajribalardan foydalanish ham muhim.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'tkazilayotgan islohotlar tajribasini tahlil qilish ham bu mamlakatlar bilan O'zbekiston o'rtasida bir necha o'xshash sharoitlar mavjud bo'lganligi uchun mamlakatimizda soliq sohasida o'zgarishlarni amalga oshirishda bir necha foydali saboqlarni berishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlatimiz soliq tizimidagi mol-mulk va yer solig'ining o'rni va ahamiyati rivojlangin mamlakatlardagi mol-mulk va yer solig'ining ahamiyati bilan bir qator o'xshashliklarga ega. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, mol-mulk solig'i barcha davlatlarda undiriladi. Yer solig'i esa Avstriya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va boshqa xorijiy davlatlarda undirilgan ekan. Boshqa davlatlarda esa yer uchastkalari ko'chmas mulk solig'i

ob'ektiga qo'shilgan holda soliqqa tortiladi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, mamlakatimiz mol-mulk va yer solig'i Rossiya Federatsiyasi mol-mulk va yer solig'i bilan umumiy o'xshashliklarga ega.

Albatta, rivojlanish yo'lida borayotgan yosh davlatimizning soliq siyosati ham mukamallashtirish yo'lidadir. Jumladan, mol-mulk solig'i ham. Ushbu soliq turini takomillashtirish maqsadida Kanada misolidagi kabi maxsus bo'linmalarni tashkil qilish, Yaponiya misolida mol-mulk solig'ini faqatgina oldi-sotdi paytida to'lash kabi vazifalarni amalga oshirilganda, nazarimda foydadan holi bo'lmas edi.

Maxsus bo'linma mol-mulk solig'iga tortiladigan soliq bazasini aniqlashda ob'ektivlikni ta'minlaydi va turli ko'rinishdagi soliqdan qochish hollarining oldini oladi.

Mol-mulk solig'ini oldi-sotdi paytida undirishning afzaliklarini katta miqdordagi pul tushumi (undirish xarajatlari kamayadi va soliq to'lash manbasi naqd bo'ladi) hamda ijtimoiy himoyada (harakatda bo'lmagan mulkdan undirishmaydi) ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy himoyani yanada kuchaytirishimiz maqsadida Germaniya, Frantsiya, Ispaniya, Shvetsiya kabi davlatlar amaliyoti qo'llanilayotgan mol-mulk solig'iga tortilmaydigan minimumni hamda yuqorida sanab o'tilgan davlatlarda mavjud bo'lgan progressiv soliq stavkasini taklif qilish mumkin.

Bundan tashqari, yuqoridagi deyarli barcha davlatlardagi kabi yer solig'i ob'ektlarini mol-mulk solig'igi qo'shgan holda soliqqa tortish tartibini ishlab chiqish va uni mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish mumkin. Bunda mamlakatimizdagi mol-mulk va yer soliqlari birlashtirilib, jismoniy shaxslar egaligidagi barcha mulkka, jumladan, yer uchastkalari ham shu mulk ob'ektiga kiritilgan holda soliqqa tortiladi. Buning uchun mamlakatimizda yerning bozor bahosi shakllangan bo'lishi kerak.

11-mavzu: Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq

Reja:

- 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyati, soliq to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi.**
- 2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.**
- 3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari.**
- 4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar.**
- 5. Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadiga soliq solishning xususiyatlari.**
- 6. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.**
- 7. Hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.**
- 8. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash uslubiyatini takomillashtirishda ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish yo'llari.**

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyati, soliq to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi. Ma'lumki, soliq qonunchiligida soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar ikkiga bo'lingan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga. Jismoniy shaxslarga – yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida budjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – davlat budjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi. Bugungi kunda jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar va yig'imlar budjet daromadlarining qariyb 15-20 foizini tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 1991 yilda budjet tushumlarining 6,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda 13,1 foizni tashkil etgan. 2017 yilgi davlat budjeti parametrlari bo'yicha ushbu soliq davlat budjeti daromadlarining 10,1 foizini, to'g'ri soliqlar ichida esa 42 foizini tashkil etishi rejalashtirilgan.

Bu ko'rsatkichlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini budjet daromadlari tarkibida ahamiyatli ekanligidan darak beradi. Soliq kodeksiga ko'ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilar hisoblanadi. Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan baza bo'lib, jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligiga ko'ra belgilangan chegirmalarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq summa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning daromad solig'i summolari O'zbekiston Respublikasida soliqni to'lashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summalarning miqdori jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan oshmasligi lozim.

2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to'lovchi olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag'lar kiradi. Jumladan:

- 1) mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar (172-modda);
- 2) jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari (176-modda);
- 3) jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari (177-modda);
- 4) boshqa daromadlar (178-modda).

Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo'yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha oladigan daromadlari kiradi. Bundan tashqari mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar (yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot, bir yo'la beriladigan mukofotlar, maoshlarga ustamalar, ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar, ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va boshqalar), kompensatsiya to'lovlari (tabiiy iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar, og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, dam olish kunlarida va bayram kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamala va boshqalar) hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash (xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to'lash, mehnatga layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash, yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqti uchun haq to'lash, oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta'til vaqti uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar va boshqa shu kabilar) tarzidagi daromadlar ham kiradi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar, royalti va shu kabi qonunchilikda ko'zda tutilgan daromadlar kiradi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar jumlasiga yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni

to'lash, shu jumladan: jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash; kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash; oziq-ovqat, oylik yo'l chiptalari yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash; sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash kabilar kiradi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga esa davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar; stipendiyalar; donorlik uchun pul mukofotlari; alimentlar; musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; yutuqlar; grantlar; jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foizlar va boshqa daromadlar kiradi.

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ko'pgina mamlakatlardagi singari O'zbekistonda ham progressiv soliq hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va o'rnatilgan tartibda davlat soliq idoralari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga bildiriladi. Har yili belgilangan stavkalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning ish xaqi, mukofotlar va boshqa daromadlariga solinadigan tabaqalashgan progressiv soliq stavkalari;

- jismoniy shaxslarning dividend va foiz tariqasida oladigan daromadiga soliq stavkasi;

- norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida solinadigan soliq stavkalari;

- imtiyozli soliq stavkalari.

Soliq qonunchiligiga binoan 1998 yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya'ni 5 pog'onali qilib belgilangan edi. 2000 yildan boshlab 4 pog'onali, ya'ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001 yildan esa 3 pog'analiga o'tib, uning stavkasi 12, 25, 30 foizni, 2002 yildan 13, 23, 33 foiz qilib belgilangan edi.

2018 yildan jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi quyidagi jadval ma'lumotlari asosida hisoblanadi (11.1-jadval). Soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib (o'sib) boruvchi yakun tarzida hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari⁷¹

Jami daromad miqdori	Soliq summasi
eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdorda	daromad summasining 0 foizi
eng kam ish haqining bir baravaridan (+1 so'm) besh baravarigacha miqdorda	eng kam ish haqi miqdorining bir baravaridan oshadigan summaning 7,5 foizi
eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravari miqdorigacha	eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan olinadigan soliq + besh baravardan oshadigan summaning 16,5 foizi
eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan (+1 so'm) va undan yuqori summadan	eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o'n baravardan oshadigan summaning 22,5 foizi

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni to'lash manbaida chegirmalarsiz, quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

- dividend va foizlar - 10 foiz;
- xatarni sug'urtalash yoki qayta sug'urtalashga to'langan sug'urta mukofotlari - 10 foiz;
- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o'rtasida harakat qatnovida xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxtdan daromadlar) - 6 foiz;
- royalti, ijaradan kelgan daromadlar, xizmatlar ko'rsatishdan kelgan daromadlar, shu jumladan boshqaruv bo'yicha xizmatlar, maslahatlarga oid va boshqa daromadlar - 20 foiz;

To'lov manbaida soliq solish, to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki undan tashqarida amalga oshirilganidan qat'i nazar, qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlarga 10 foizlik stavka bo'yicha to'lov manbaida soliq solinadi.

Bunda soliq solish maqsadida dividendlarga aktsiyalar bo'yicha hamda qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar kiradi. Foizlarga qarz majburiyatlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav sarmoyasida ulushbay ishtirokidan keladigan daromadlar va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1, 2 va 3-son ro'yxatlariga kiritilgan o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlariga belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi. Bunda yuqorida aytib o'tilgan fuqarolar toifalaridan daromad solig'i olish darajasi 20 foizdan oshmasligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ko'rsatib o'tilgan qarori bilan tasdiqlangan 1-son ro'yxatning 3-qismi hamda 2-son ro'yxatning 1-qismida qayd

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroridan olingan.

etilgan ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadidan soliq olish darajasi ham 20 foizdan oshmasligi lozim.

O'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlarga (ish stajiga ustamalar, baland tog'lik, dasht va suvsiz tumanlardagi ishlar uchun belgilangan koeffitsientlar bo'yicha to'lovlarga) eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi. Bundan tashqari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga ham eng kam stavka miqdorida soliq solinadi.

Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarishda dividendlar va foizlar bo'yicha daromadlar, qo'shimcha to'lovlar jami daromad tarkibidan hisobdan chiqariladi.

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summolari:

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari — to'laligicha;

- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari — eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

- Soliq kodeksning 178-moddasida ko'rsatilgan boshqa hollarda, — soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda.

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summolari;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'lmagan (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

3) o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari

tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida, uning oila a'zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori, oilaviy korxonalar ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti va sovg'alar;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

10) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

- qimmatli qog'ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

- yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni;

- ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, turar joylarni sotishdan olinadigan daromadlar mustasno.

11) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan er

uchastkasida etishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

12) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

13) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi:

- xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

- ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam.

14) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;

15) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

16) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

17) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan — grant oluvchidan olgan grant summasi;

18) dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Ushbu bandeda nazarda tutilgan imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak;

19) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

20) olingan alimentlar;

21) fuqarolarning sug'urta to'voni sifatida oladigan summalari;

22) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

23) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

24) davlat pensiyalari;

25) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

26) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalari;

27) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektiga — yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalari. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;

28) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari:

- yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

- qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurishni ushbu maqsadlar uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklarning kreditlari hisobidan amalga oshirayotgan quruvchi shaxslar, shuningdek ularning mazkur kreditlar bo'yicha birgalikdagi qarz oluvchi bo'lgan oila a'zolari tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda.

Ushbu bandda ko'rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

29) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalari;

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalari;

30) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aktsiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilsa;

31) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

32) aktsiyadorlik jamiyatlari chet ellik xodimlarining boshqaruv xodimi sifatida o'z faoliyatidan olgan daromadlari.

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari — agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar — xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summalari bo'yicha;

7) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga ega bo'lgan xodimlari — ularning xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

8) kontsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar — ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha;

9) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslar — yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga ko'ra bajargan ishlari uchun olgan daromadlari bo'yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) ozod qilinadi:

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan

taqdirlangan shaxslar. Mazkur imtiyoz tegishincha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma‘lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogiron bo‘lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz «Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoki frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma‘lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor va boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz urning (xotinning) vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, bolalar tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, yangi nikohdan o‘tmaganlik hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma‘lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida — fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Imtiyozlarga bo'lgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar jismoniy shaxs yuqorida nazarda tutilgan bir nechta asos bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozni qo'llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi bo'lmagan taqdirda — yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yo'qotilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan imtiyozlar jismoniy shaxslarning foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyozni qo'llash asosiy ish joyi bo'yicha amalga oshiriladi, agar foizlar va dividendlar asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyoz jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

5. Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadiga soliq solishning xususiyatlari. Chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq solinadi.

Rezident - chet ellik jismoniy shaxsdan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi singari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi.

Norezident - chet ellik jismoniy shaxslardan to'langan joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi.

Soliq solish maqsadida norezident jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident sifatida yoki doimiy muassasa bilan bog'liqlikda bo'lmagan norezident shaxs sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident jismoniy shaxs doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va yig'implarni undirish tegishli chet davlatda O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslariga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan hollarda o'zaro kelishuv asosida to'xtatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida, bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

6. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Asosiy ish joyidan olinadigan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab soliq solinadigan jami daromad summasidan amalga oshiriladi.

Fuqaro bir yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyini o'zgartirsa, u yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi olguniga qadar belgilangan shakl bo'yicha joriy yilda to'langan daromadlar hamda ushlab qolingan soliq summasi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi shart.

Yangi ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish taqvim yili boshidan ilgari va yangi ish (xizmat, o'qish) joyida olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Avvalgi ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan hollarda soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavka bo'yicha soliq undiriladi. Ma'lumotnoma keyinroq taqdim etilsa, u holda undirilgan umumbelgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

Avvalgi asosiy ish joyidagi mehnat majburiyatlarining xodim tomonidan bajarilishi bilan bog'liq mukofot va boshqa to'lovlar unga ishdan bo'shatilganidan so'ng to'langan bo'lsa, mazkur mukofot va to'lovlar umumbelgilangan tartibda ularni to'lash chog'ida jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqqa tortiladi. Bu fuqarolarga to'langan daromadning hamda ushlab qolingan soliqning umumiy summasi haqida korxonada, muassasa, tashkilot bir oy muddatda istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan soliq solinadigan jami daromad summasidan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab (agar bunday daromadlar to'langan bo'lsa), belgilangan stavkalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo'yicha daromadidan soliq

ushlab qolinishi haqida ariza topshirsa, daromadlarni to'lovchi yuridik shaxslar soliq to'lovchining arizasiga ko'ra soliqni ushlab qoladilar.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslar daromadidan olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va ushlangan soliq summasi to'g'risidagi taqdim etilgan deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha soliq xizmati organi tomonidan daromad solig'i yakuniy summasi hisoblab chiqariladi. Rezident jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasidan tashqarida (shu jumladan asosiy ish joyidan) olgan daromadlaridan daromad solig'i yakuniy summasini hisoblab chiqarish ham xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va budjetga o'tkazish uchun yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinmaganda yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarima va penyalarni budjetga to'lashi shart.

7. Hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Yuridik shaxslar quyidagilarni bajarishi shart hisoblanadi:

1) soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida (asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslardan tashqari) belgilangan shaklda ma'lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- soliq to'lovchining – jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;
- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;
- o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani umumiy summasi;

- soliq agentining identifikatsiya raqami;
- soliq agentining nomi, joylashgan eri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq to'lov manbaida ushlab qolinganda soliq jamg'arib boriladigan tizimda qatnashuvchi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga belgilangan tartibda hisoblab yozilgan badallar chegirilgan holda quyidagi muddatlarda to'lanadi:

a) daromad to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingani soliq summasi shu maqsadlarda pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlar taqdim etish bilan bir vaqtda budjetga o'tkaziladi;

b) to'lovni natura holda yoki mahsulotni realizatsiya qilishdan, ishlar bajarish yoxud xizmat ko'rsatishdan tushgan tushumdan to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingani soliq summasi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida budjetga o'tkaziladi.

Bankda hisobraqamiga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lash sanasi soliq to'lovchi hisobraqamidan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun, boshqalar, shu jumladan jismoniy shaxslar uchun esa - mablag'lar kredit muassasasining kassasiga o'tkazilgan kun hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning hisob-kitob varag'idan soliq summasi jismoniy shaxs tomonidan to'langanda, to'lov sanasi jismoniy shaxs hisobraqamidagi mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqning yil mobaynida to'lab borilgan summalari tegishli hisobot yili uchun soliq to'lovchiga hisoblab chiqarilgan soliq hisobiga o'tkaziladi.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

- mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

- asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;

- ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

- soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uning arizasiga ko'ra belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda ushlab qolingan bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs, mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlari qoidalaridan qat'i nazar, Soliq Kodeksning 192-moddasida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etadi.

Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan jismoniy shaxs daromadlar olish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq, haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, biroq chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur materiallar olishga doir xarajatlar;

- faqat fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyasiga asosiy ish joyi bo'yicha to'langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnoma ilova qilinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;

- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromatlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o'zidan olish mo'ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);

- daromadlarning manbalari;

- daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;

- jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar;

- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;

- haqiqatda to'langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya pochta orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya blankalari soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o'zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi Soliq Kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning etishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksning 189-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo'lmagan daromadlarni olgan soliq to'lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs — O'zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs — O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi yuqorida belgilangan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya bo'yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning tegishli xulosasini ko'rsatadi.

Mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to'g'risida

deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzda deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to'lovchi daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, shuningdek oldin taqdim etilgan deklaratsiyada noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini o'zidagi mavjud axborot asosida eng yuqori stavka bo'yicha hisoblashga va to'lanishi lozim bo'lgan, hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi to'g'risida soliq to'lovchiga o'n kunlik muddat ichida to'lov xabarnomasini topshirishga haqli. Soliq to'lovchi tomonidan jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya yoki to'g'rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oying beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to'langan sana quyidagilardir:

- yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda — ularning bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

- jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda — bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

8. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash uslubiyatini takomillashtirishda ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish yo'llari. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini xorij tajribasi asosida maqbullashtirish yo'nalishlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq borasida fikr yuritilganda, masalaning mohiyati albatta soliq stavkasiga borib taqaladi. Mamlakatimiz soliq amaliyotida bugungi kunda uning 4 pog'onali, ya'ni 0, 7,5, 17, 23 foizli stavkalari amal qilmoqda. Ba'zi iqtisodshilar Rossiya Federatsiyasi tajribasi, ya'ni yagona soliq stavkasini qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Lekin bu tadbirni amalga oshirish ham soliq sub'ektlari, ham budjet uchun ijobiy natijalar beradimi, degan savolga hamisha ham javob ololmaymiz.

Yagona soliq stavkasini joriy qilish taklif qilinganda, byudjet kamomadiga yo'l qo'ymaslik uchun uning miqdorini respublikada mavjud o'rtasha soliq yukinidan kelib shiqqan holda 18 foiz qilib belgilash talab etiladi. Bu 64,5 foiz soliq sub'ekti uchun soliq yuki 5 foizga, hamda 23,4 foiz soliq sub'ekti uchun esa o'rtasha 2,1 foizga o'sishi yoki kam ta'minlangan aholi qatlami jabr ko'rishini anglatadi. Yagona soliq stavkasini pastroq qilib belgilash mumkinmi, degan savolga esa soliq sub'ektlari soni yoki daromadlarining legallashishi orqali erishsa bo'ladi, deb javob berish mumkin.

Harakatdagi daromad solig'iga 3 pog'onali stavkalarining joriy qilinganligini ijtimoiy nuqtai-nazardan adolatli deb hisoblash mumkin, ammo bu borada soliq stavkalari o'rtasidagi farqni daromad shakllanishiga imkon beradigan darajada belgilash maqbul holatni yuzaga keltiradi.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish sohasida o'z eshimini kutayotgan masalalardan biri-daromad summasidan ba'zi xarajatlarni shegirish tartibini ishlab shiqish va joriy etish hisolanadi. Bu barsha soliq sub'ektlari daromadiga qo'llaniladigan soliqqa tortilmaydigan miqdorni hamda alohida soliq sub'ekti ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib shiqqan holda joriy qilinadigan shegirmalardir. Masalan, Yaponiya soliq tizimida aholi yalpi daromadga nisbatan quyidagi shegirmalar joriy qilgan:

- tibbiy xizmat bilan bog'liq xarajatlar uchun shegirma. Soliq sub'ektining o'zi yoki birga yashaydigan oila a'zolari salomatligi uchun sarflangan mablag'ning 2 mln. yenagasha bo'lgan miqdorda shegirma;

- nogironlarga joriy qilingan shegirma. Soliq sub'ektining o'zi, turmush o'rtog'i yoki uning qaromog'idagi oila a'zosi nogiron bo'lgan holda har bir nogiron uchun 270 ming yena (og'ir holatda bo'lsa 400 ming yena) miqdorida shegirma;

- qariyalar uchun shegirma. Soliq sub'ekti 65 yoshdan oshgan bo'lsa va yillik daromadi 10 mln. yenadan oshmasa 500 ming yena miqdorida shegirma;

- mehnat faoliyati bilan band bo'lgan talabalar uchun shegirma. Agar soliq sub'ekti mehnat faoliyati bilan band talaba bo'lsa, ma'lum hollarda (masalan, yillik daromadi 650 ming yenadan oshmasa) 270 ming yena miqdorida shegirma;

- boquvshisini yo'qotganlik uchun shegirma. Agar soliq sub'ektining turmush o'rtog'i olamdan o'tgan yoki ajrashgan va qariyalar uchun shegirma qo'llanmagan

holda 270 ming yena, agar qaramog'ida farzandi bo'lsa, qo'shimcha 80 ming yena miqdorida shegirma;

- mol-mulkni sug'urtalashga yo'naltirilgan mablag'ning 15 ming yena miqdorida shegirma;

- soliq sub'ektining o'zi yoki yaqinlarining hayotini sug'urtalashga yo'naltirilgan mablag'ning 50 ming yena miqdorida shegirma va shu kabi boshqa shegirmalar.

Soliq solinmaydigan eng kam miqdor kategoriyasiga o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra standart shegirma deb ataluvshi shegirma – AQSh qonunshiligida nazarda tutilgan imtiyoz yaqindir. Standart shegirma soliq solinmaydigan eng kam miqdor bilan baravar ravishda qo'llanib kelinadi. U soliq solinmaydigan eng kam miqdor singari qat'iy qayd etilgan summada, masalan, 5,5 ming dollar bilan (yolg'iz soliq to'lovshilar uchun), 11 ming dollar bilan (er-xotinlar uchun) va 2 ming dollar bilan (bir uy xo'jaligidagi har bir shaxs uchun) ifodalanadi. Masalan, to'rt kishidan iborat bir oila – 8 ming dollar standart shegirmaga ega⁷². AQShdagi imtiyozning muhim farqi shundan iboratki, soliq to'lovshi standart shegirma o'rniga o'z shiqimlarini moddalar bo'yisha hisoblash usulini qo'llash mumkin. Bu xarajatlarni yalpi daromaddan shiqarib tashlashga ruxsat etiladi (tibbiy xizmat va dori-darmon sotib olish xarajatlari; tish do'xtiri xizmatlariga haq to'lash; ipoteka krediti bo'yisha to'lanadigan foizlar va shu kabilar).

Bizda bu xildagi xarajatlar soliqqa tortiladigan daromaddan shiqarib tashlanmagan. Chunki hozirsha, bizning nazarimizda, mamlakatimiz iqtisodiyoti bunday imtiyozli xarajatlarga tayyor emas. Bu aholining daromadlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish yo'lida yangi bosqish bo'lishi mumkin edi.

Eng murakkab masala – soliqning eng kam va eng yuqori stavkalar to'g'risidagi masaladir. Bizning nazarimizda, avvalo eng yuqori va eng kam stavkalar nisbati nimalarga bog'liqligini aniqlab olish nazariy jihatdan muhimdir. Bu erda asosiy omil – jamiyatning tabaqalarga bo'linishi, eng badavlat 10% aholi bilan eng kambag'al 10% aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutdir. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu koeffitsient ansha katta hisoblanadi. Shu sababli daromad solig'ining eng yuqori va eng kam stavkalari o'rtasida katta tafovut o'zini oqlaydi.

Bizga ma'lumki, barsha rivojlangan mamlakatlarning aksariyat qismida aholidan daromad solig'i ko'payib boruvshi (progressiv) usulda davlat byudjetiga tortiladi (bizda ham shu usulda), ammo AQShda bunday usul mustasnodir. U erda aholidan olinadigan daromad solig'i regressiv usulda amalga oshiriladi. Bu holatni quyidagi jadval orqali yorqin namoyon etish mumkin (11.2-jadvalga qaralsin).

⁷² Qarang: K. Макконел, С. Брю, Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер. с англ. 11-го изд., Т.1. – М.: Республика, 2002. – с.120.

AQShda soliq to'lovshi jismoniy shaxsning oilaviy maqomiga qarab soliq stavkasining o'zgarishi⁷³

Yillik daromad bazasi \$	Soliq summasi%
1. Birgalikda soliq deklaratsiyasini to'ldirayotgan er-xotinlardan	
-0 dan 29750 gasha	15.0
-29751 dan to 71900 gasha	28.0
-71901 dan to 171090 gasha	33.0
-171090 va yuqorisiga	28.0
2. Oila boshlig'idan	
-0 dan 23900 gasha	15.0
-23900 dan 61650 gasha	28.0
-61650 dan 123790 gasha	33.0
-123790 dan yuqorisiga	28.0
3. Yolg'iz soliq to'lovshidan	
-0 dan 17850 gasha	15.0
-17850 dan 43150 gasha	28.0
-43150 dan 89560 gasha	33.0
-89561 dan yuqorisiga	28.0

Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish amaliyotida soliq stavkasi miqdorini progressiv (ko'payib boruvshi) usuli bilan birgalikda, aholining ayrim qatlamlari uchun regressiv (kamayib boruvshi) usulidan ham foydalanish lozim. Soliqqa tortishni bu uslubining ahamiyatli tomoni shundan iboratki, daromad o'sib borgan sari soliq stavkasi miqdori muvofiq ravishda kamayib boradi. Bu esa hozirgi kundagi davlatning ijtimoiy siyosatiga mos keladi.

AQShda shaxsiy daromad solig'ining yuqori (33%) stavkasi daromad 148250\$ dan oshganda so'ng qo'llaniladi, ammo o'rtaga yillik soliq stavkasi 28 %dan oshmaydi. Chunki buning eng xususiyatli tomoni shundaki, 33%li stavkadan keyingi stavka 28 %likdir. Mazkur stavkaning tadbiiq etilishi 250000\$ dan boshlab qo'llanilmoqda, shunday bo'lsada o'rtaga yillik soliq stavkasi 28% dan oshmagan. Bunday pasayib boruvshi stavkani qo'llashdan davlat hesh qanday iqtisodiy zarar ko'rmaydi, shu bilan bir qatorda aholining daromad solig'iga bo'lgan ruhiy ishonsh yo'qolmay soliq to'lashdan qoshish holatlari deyarli kuzatilmaydi. Ushbu soliq yuki aholi daromadida boshqa egri soliqlarga nisbatan kam bo'lishligi kuzatiladi.

11.2-jadvaldan ma'lum bo'layaptiki, AQShda federal shaxsiy daromad solig'ining maksimal stavkasi 33% ni tashkil qilsada, lekin eng oxirgi stavkasi 28%ni tashkil qilmoqda.

Ma'lumki, soliqlar stavkasining me'yoridan tashqariga oshishi respublika va mahalliy byudjetning daromad qismini ko'payishiga olib kelmaydi. Bu haqida Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: «Soliqlarning miqdorini turli yo'llar bilan oshira borish davlatga va jamiyatga naf keltirmasligini ham anglab olishimiz kerak. Soliqlar daromadlarning bir qismigagina solinishi, ayni vaqtda xalq xo'jaligi va aholiga kerakli mahsulot hamda mollarni ko'proq va yaxshiroq ishlab

⁷³ Беляев Ю.А. Бюджетный федерализм: зарубежный опыт. –М.: Финанси, 2007 г.

shiqarishga intilayotgan tashkilotlarni va kishilarni har jihatdan rag'batlantirish ham zarur»⁷⁴. Chunki soliqlardan shakllanayotgan daromadlar o'lshamini ko'payishi har doim ham soliqqa tortiladigan bazaning o'sishi bilan proporsional bo'ladi. Ammo har doim ham soliq stavkasi o'sishga proporsional bo'lavermaydi. Soliq stavkasining oshishi ma'lum bir nuqtaga etgash, byudjetga tushadigan soliq tushumlarining hattoki kamayishiga ham olib keladi. Buni Laffer qonuni bilan tuchuntirish mumkin.

Chunki soliq to'lovshi sub'ektlar, xoh u yuridik shaxs bo'lsin, xoh u jismoniy shaxs bo'lsin, soliqlarni to'lashdan qoshishga urinadi, daromadlarni oshirishning yashirin yo'llarini qidiradi yoki bo'lmasa soliq to'lovshi va ma'lum soliq inspektorlari o'rtasida o'zaro manfaatli kelishuvlarga ham olib kelishi mumkin va h.k.

Umuman olganda, turmush darajasini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlarda aholi daromadlarini inflyatsiyaga to'g'rilab, nominal emas, real daromadlarni aniqlash joiz, ya'ni bunda daromad soliqlari va boshqa turdagi majburiy to'lovlar shiqarib tashlanishi kerak»⁷⁵.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQShda aholidan olinadigan daromad solig'ini asosiy farqi kamayuvshan (regressiv) usulda soliqqa tortiladi. Bizda esa daromadning oshishi bilan soliq stavkasi ko'payib boruvshi, ya'ni progressiv usulda. Bizning fikrimizsha, ma'lum bir davrlardan so'ng, bizda ham daromad solig'iga tortishning regressiv usulidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday usul, birinshi navbatda, ma'naviyat va ma'rifat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan aholi qatlamiga (shoirilar, yozuvshilar, bastakorlar va h.k.) ijobiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinshi navbatda jami aholining psixologik kayfiyatida ham ijobiy iz qoldiradi.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda boshqa shart-sharoitlar mavjud bo'lib, daromadlar ko'proq jamg'arish omillari hisobidan emas, balki narx omillari hisobidan o'smoqda. Bu erda rag'batlantiruvshi omillar boshqasha harakat qiladi. Shu sababli o'tish davri mobaynida o'ta yuqori daromadlar uchun eng yuqori stavkalar belgilanishi to'g'ridir.

Bozor xo'jaligi normal izga tushib borishiga qarab, boylik va kambag'allik o'rtasidagi farq sekin-asta qisqarib borishini kutish mumkin. Shunda soliqning ortib borishini kamaytirish ham haqqoniy bo'ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tartibini takomillashtirish masalalaridan biri bo'lgan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorni aniqlash va soliq ortib borishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslariga nisbatan yuqorida bildirilgan fikrlarning inobatga olinishi, aholidan olinadigan daromad solig'i tartibini davr talabiga moslab takomillashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Ko'pshilik mamlakatlar soliq siyosatida, yuqorida qayd etib o'tilganidek, daromad solig'i tuzilishining «global» va «shedulyar» tizimlaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilib kelinmoqda. Keng qamrovli «global» tizimda soliq qaysi manbadan kelib tushishiga qaramasdan yalpi daromaddan olinishini ko'zda tutsa,

⁷⁴ I. A. Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – T.:O'zbekiston, 1997. – 31-bet.

⁷⁵ M. Yunusov. O'zbekistonda soliq siyosatining dolzarb muammolari //Bozor, pul va kredit. – 2004. - №2.-13-bet.

«shedulyar» tizimi esa daromadni uning kelib shiqish manbalari bo'yisha (ish haqi, renta, dividendlar, foiz va h.k.) oldindan qismlarga bo'lib shiqishni, keyin daromadning har bir turi bazasidan tegishli stavka bo'yisha soliq undirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari daromadlarning passiv va faol daromadlarga, ya'ni mol-mulkdan olingan daromadlarga va ishlab shiqarish faoliyatidan olingan daromadlarga bo'lishni nazarda tutmaydi. Turli manbalardan olingan daromadlarga (yalpi daromadga) yagona stavkalar bo'yisha soliq solinadi. «Global» yoki boshqasha qilib aytganda, soliq solishning sintetik tizimi tatbiq etiladi.

Fuqarolarning daromad manbalari sir saqlanishi tamoyiliga amal qiladigan ko'pgina mamlakatlarda faqat deklaratsiyalar bo'yisha soliq to'lashdan foydalanib kelingan.

Endilikda mazkur mamlakatlarda ilgarigi qarashlar qayta ko'rib shiqilib, soliqni hisoblash va to'lashning aralash tartibiga (daromad manбайдan to'lashga va deklaratsiya bo'yisha to'lashga) o'tilmoqda va bunga soliq to'lashdan bo'yin tovlashlarga kurashning kushaytirilishi sabab bo'lmoqda.

Jismoniy shaxslardan daromad solig'i olishning deklaratsiyali tizimini joriy qilish to'g'risida mustaqillikdan oldin fikr yuritilganda, universal daromad solig'i tizimiga o'tish uchun bir qator tashkiliy, ta'limiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish kerakligi haqida gapirilgan edi⁷⁶.

Bu muammolarning hammasi unshalik oddiy bo'lmasdan ko'pinsha sertashvish hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohada shoshma-shosharlik qilish ishga faqat zarar etkazishi mumkin. Shunday qilib, bu o'rinda soliq solishning yangi tizimini kompleks tarzda amal qilishini e'lon qilib qolmasdan, shu bilan birga uning samarali bo'lishini ta'min etish uchun hali ko'p va jiddiy ishlar olib borish talab qilinadi.

Respublikamiz iqtisodiyoti bozor yo'lidan borayotganligi sababli soliq to'lovshilarning daromadlarini hisobga olishning deklaratsiyali usulini to'g'ri deb oqlayotgan rivojlangan mamlakatlarning jahon tajribasini uloqtirib tashlamasdan, u bilan birgalikda integratsion jarayonlarga qo'shilish zarurligini hisobga olgan holda mazkur usulga o'tishning istiqbolli ekanligini nazarda tutish kerak. Biroq, bizning nazarimizda, bu usulga darxol emas, balki sekin-astalik bilan o'tish o'zini oqlaydi.

⁷⁶ Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. – 87 b.

12-Mavzu: Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

Reja:

1. Soliq to'lovchilar.
2. Soliq solish ob'ekti, bazasi, soliq stavkalari va imtiyozlar.
3. Soliqni hisoblash, hisobotlarni taqdim etish va budjetga to'lash tartiblari.

1. Soliq to'lovchilar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan daromadlar, shuningdek Soliq Kodeksning 132-moddasi birinchi qismining [2, 3](#) va [15-bandlarida](#) ko'rsatilgan daromadlar olinganda notijorat tashkilotlar mazkur daromadlarga taalluqli qism bo'yicha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar bo'ladi. Bunda Soliq Kodeksning [132-moddasida](#) ko'rsatilgan boshqa daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi.

Soliq Kodeksning [XX bo'limida](#) boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, Soliq Kodeksga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

2. Soliq solish ob'ekti, bazasi, soliq stavkalari va imtiyozlar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazadir. Bunda soliq solinadigan baza quyidagi summalarga kamaytiriladi:

- olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar summasiga;
- qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun — sof qo'shimcha foyda summasiga;
- tekin olingan pul mablag'lari summasiga, agar ularni o'tkazib berish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa;
- joriy soliq davrida foydalanilganda xarajatlar vujudga kelmaydigan byudjetdan ajratiladigan subsidiyalar summasiga.
- sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar summasiga;
- byudjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzning qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summasiga.

Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foyda summasiga.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining eng yuqori stavkasi soliq solish ob'ektining 8 foizi miqdorida belgilangan.

3. Soliqni hisoblash, hisobotlarni taqdim etish va budjetga to'lash tartiblari.

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Soliq to'lovchilar, hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash mazkur soliq bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

13-mavzu: Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Reja:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishi.
2. Soliq to'lovchilar tarkibi.
3. Soliq solish ob'ekti, bazasi va soliq stavkalari.
4. Soliq bo'yicha imtiyozlar.
5. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi va to'lash muddatlari.

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishi. O'zbekiston sharoitida suv qadrlil hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq ho'jaligi asosan sug'oriladigan yerlardan iborat. Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

1998 yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar "suv uchun to'lov" to'lashar edi. Iste'molchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra 1998 yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika budjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. 2008 yilda Davlat budjetiga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumi 34920 mln. so'm tushishi prognozlashtirilgan bo'lib, bu budjet daromadlarining 0,5 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda 1024-sonli qaroriga asosan ushbu soliq tushumi mahalliy budjetlarning Davlat budjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida to'liq miqdorda mahalliy budjetlar daromadiga o'tkazildi.

2. Soliq to'lovchilar tarkibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

- yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;
- tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv etkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar bo'ladi. Bunda Soliq Kodeksning [132-moddasida](#) ko'rsatilgan boshqa daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi;

Soliq Kodeksning [XX bo'limida](#) boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu Kodeksga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

3. Soliq solish ob'ekti, bazasi va soliq stavkalari. Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob'ektidir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv ob'ektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv etkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari besh kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga etkazishi lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv etkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv etkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv etkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun soliq solinadigan baza davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlanadi.

2017 yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan.

13.1-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari⁷⁷

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>1 kub metr uchun stavka (so'm)</i>	
		<i>Yer usti suv resurslari manbalari</i>	<i>Yer osti suv resurslari manbalari</i>
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari), dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar	85,4	108,5
2	Elektr stantsiyalari	24,7	36,7
3	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	46,9	60,6
4	Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar*:		
	- alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha	13 800	13 800
	- boshqa maqsadlarda	85,4	108,5

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699 sonli qarori

Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalanadigan yordamchi xo'jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalarini uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

4. Soliq bo'yicha imtiyozlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

2) suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

3) birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar — tadbirkorlik sub'ektlari — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

1) sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

2) atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

3) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) gidroelektr stantsiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

5) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

5. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi va to'lash muddatlari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilar tomonidan yiliga bir marta taqdim etiladi:

- yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari bundan mustasno) — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15 dekabrigacha;

- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 25 yanvarigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar — mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan soliqlar ular tomonidan to'langan davr uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan oyning 10-sanasidan kechiktirmay taqdim etadi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlarni to'laydilar, bundan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari mustasno.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 25 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) — har oyning 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kamni tashkil etadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar, shuningdek

mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash joriy to'lovlar hisobga olingan holda soliq to'lovchilar tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi, bundan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari mustasno.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

14-mavzu: Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlar

Reja:

- 1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish zarurligi.**
- 2. Soliq to'lovchilar, soliqqa tortish ob'ekti va bazasi.**
- 3. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar.**
- 4. Soliqni xisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi.**
- 5. Rivojlangan mamlakatlarda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga xos xususiyatlari.**

1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish zarurligi. Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim vosita – bu davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlardir. Jaxon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, rentals, royalti va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar – bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat budjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar xajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.⁷⁸

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi. Rentals tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi. Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti – bu mineral xom-ashyoni qazib olish xajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xom-ashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun aksiz soliqlari ham amal qiladi.

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi Qonuni, 20-modda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o‘tdi. O‘zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom-ashyo resurslari to‘plangan. O‘zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog‘i 95 turdagi mineral xom-ashyoni o‘zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xom-ashyo salohiyoti 3,3 trillion AQSh dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSh dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.

Respublikamiz qonunchiligiga ko‘ra mavjud yer osti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentyabrdagi “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning xajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to‘lay boshladilar.

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a‘zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

O‘zbekistonda 2002 yil 13 dekabrda “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi taxriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi bo‘lib, yer osti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.

Soliq kodeksiga ko‘ra yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta‘minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Respublikamizda yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq yer osti boyliklarining 53 turiga nisbatan belgilangan bo‘lsada, budjetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdagi yer osti boyliklariga mutloq ravishda bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

2008 yilda yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning tushumlari tarkibida oltin 42,4 foizni, tozalangan mis 39,5 foizni, neft 4,2 foizini, tabiiy gaz va gaz kondentsati 10,1 foizini kumush 1,9 foizni tashkil etadi.

Agarda hududlar bo‘yicha tahlil qilinganda jami yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining 39,9 foizi Toshkent viloyatiga, 45,2 foizi Navoiy viloyatiga, 13,0 foizi Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgani holda qolgan 1,9 foizi respublikamizning boshqa xududlari zimmalariga to‘g‘ri keladi.

2. Soliq to‘lovchilar, soliqqa tortish ob‘ekti va bazasi. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilari bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanishadi.

Soliqqa tortish maqsadida yer osti boyliklari deganda yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo'lgan makon, foydali qazilmalar deganda - iqtisodiy va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalar qaraladi. Tarkibida rangli, nodir, asl, qora metallar va boshqa mineral xom ashyo bo'lgan rudalarni bir korxonaga qazib olib, uni bundan keyin qayta ishlash uchun boshqa korxonalariga bersa (eksport bundan mustasno), qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxonaga soliq to'lovchi hisoblanadi. Masalan, Olmaliq mis qazib olish korxonasi tarkibida mis bo'lgan, qazib olingan rudani boyitish fabrikasiga beradi, fabrika boyitilgan rudani Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatining mis eritish zavodiga topshiradi. Kombinat tayyor mahsulot - tozalangan mis chiqaradi, soliq stavkasi ham unga belgilangan. Mazkur holatda rudani qazib oluvchi korxonaga emas, balki tozalangan misni olganlik uchun kombinat soliq to'lovchi hisoblanadi.

Respublikamizda ushbu soliqni davlat budjetiga ta'minlab beruvchi (ob-havo qiluvchi) eng yirik soliq to'lovchilar bo'lib, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari, Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishlaydigan zavodlari, Navoiy oltinni qayta ishlaydigan korxonaga shuningdek, Angren ko'mir qazib oluvchi korxonaga va boshqa shu kabi yer osti boyliklarini qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar hisoblanadi. Ruda qayta ishlash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yuklab jo'natilgan yoki eksport qilingan taqdirda rudani qazib olgan korxonaga soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Quyidagilar yer qaziridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish ob'ektlari hisoblanadi:

a) foydali qazilmalarni qazib olish hajmi (shu jumladan yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar) ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda. Qazib olingan ruda tarkibidan, asosiy foydali qazilmadan tashqari, unga doir stavkalar belgilangan boshqa xom ashyo ajratib olingan taqdirda yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar soliqqa tortish ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Qazib olingan foydali qazilma yoki uning bir qismi korxonaga tomonidan boshqa materiallarni ishlab chiqarish yoki tayyorlash uchun xom ashyo hisoblangan taqdirda soliq ushbu xom ashyoni qazib olishning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Hisobot oyida qazib olingan, lekin to'laligicha yoki qisman sotilmagan foydali qazilmalar hajmi uchun soliq sotilgan mahsulotning hisobot oyi yoki sotish amalga oshirilgan bundan oldingi oy uchun o'rtacha hisoblangan qiymatidan kelib chiqib to'lanadi. Gaz qazib chiqaruvchi korxonalar uchun soliqqa tortish ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan sotish bahosi bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirilgan holda, birlamchi tayyorgarlikdan o'tgan qatlamdan qazib olingan tabiiy (tozalanmagan) gaz hajmi hisoblanadi.

b) texnogen hosilalar hajmi (mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari) ajratib olingan asosiy foydali qazilmaning qonun hujjatlariga muvofiq haqiqiy sotilish qiymati bo'yicha, bunda qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegiriladi. Texnogen hosilalarga shu jumladan texnologik yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha ishlatilmayotgan mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari kiradi.

v) to'plangan chaqnoq tosh xom ashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallarining hisob qiymati.

Yig'ish deganda chaqnoq tosh xom ashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallarini tabiiy ochiq joylar, tabiiy er osti bo'shliqlari (g'orlar), ishlatib bo'lingan karerlar, kon qazish sanoati buyumlari, daryo qayirlarida konchilik va boshqa maxsus ish turlarini bajarmasdan, er ostining bir butunligini buzmasdan olib to'plash tushuniladi.

3. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda qazib olinadigan xom-ashyo turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Foydali qazilmalarni qazib olishning tabiiy noqulay sharoitda ishlaydigan konlar davlat tomonidan qo'shimcha ravishda qo'llab quvvatlanadi. Ularga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalarni joriy etish orqali bunday korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish va zamonaviylashtirishga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtda jami 56 turdagi foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari o'rnatilgan.

2017 yil 1 yanvardan boshlab yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagicha belgilangan.

14.1-jadval

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari⁷⁹

Soliq solinadigan ob'ekt nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, foizda
Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar kavlab olish uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30,0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9,0*
Er ostidan kavlab olingan gaz	2,6
Nostabil gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko'mir	4,0
Rangli va noyob metallar:	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Konsentratlangan qo'rg'oshin	4,0
Metall rux	4,0

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli qarori.

Volfram konsentrat	10,4
Uran	10,0**
Asl metallar:	
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom ashyosi	24,0
Qora metallar:	
Temir	4,0
Kon-kimyo xom ashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	3,5
Kaliy tuzi	3,5
Natriy sulfat	3,5
Fosforitlar (grafitlarga)	5,0
Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Glaukonit	3,5
Mineral pigmentlar	4,8
Kon-ruda xom ashyosi:	
Plavik shpatli konsentrat	21,2
Tabiiy grafit	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9***
Kvarts-dala shpati xom ashyosi	6,5
Shisha xom ashyosi	3,0
Bentonitli loy	4,8
Talk va talk toshi	4,0
Talkomagnezit	4,0
Mineral bo'yoqlar	5,7
Vollostanit	4,0
Asbest	4,0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4,0
Barit konsentrat	4,0
Metallurgiya uchun noruda xom ashyo:	
O'tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	4,0
Kvarts va kvartsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	4,0
Vermikulit	4,0
Noruda qurilish materiallari:	
Sement xom ashyosi	5,0
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	5,0
Marmar ushog'i	5,0
Gips toshi, ganch	5,0
Keramzit xom ashyosi	5,0
G'isht-cherepitsa xom ashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	5,0
Gips va angidrit	5,0
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5,0
Qurilish qumlari	5,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	5,0
Qumtoshlar	5,0
Chig'anoq	5,0
Slanetslar	5,0

Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5,0
2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilma boyligini kavlab olganlik uchun stavkaning 30 foizi

Izoh:

*) Belgilangan stavka bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilagan tartibda utilizatsiya qilingan mash'al gazini realizatsiya qiladigan korxonalar tomonidan to'lanadi.

*) "Navoiy KMK" DK uranni kavlab olganlik bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda to'laydi.

4. Soliqni xisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi. Yuridik va jismoniy shaxslar yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarni soliq organlariga yil boshidan o'sib boruvchi yakun bo'yicha belgilangan shaklda soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda taqdim etadilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni yuridik shaxslar quyidagi tartibda to'laydilar:

a) mikrofirma va kichik korxonalar – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25 kundan kechiktirmay;

b) mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan boshqa soliq to'lovchi yuridik shaxslar – har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25 kundan kechiktirmay.

Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organlarining xabarnomasi bo'yicha hisob-kitobni ularga taqdim etadilar va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'laydilar.

Yuridik shaxslarning yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblari buxgalteriya hisobi budjetga to'lovlar (turlari) bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi buxgalteriyada quyidagicha aks ettiriladi:

-davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'ining debeti;

-budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Budjetga o'tkazilgan soliq summaları quyidagicha aks ettiriladi:

-budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining debeti;

-pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summaları to'langan holda, boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz bo'lmagan taqdirda, ushbu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

5. Rivojlangan mamlakatlarda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga xos xususiyatlari. Jahon miqyosida mamlakat iqtisodiyoti raqobatdoshligini ta'minlash vositalaridan biri bu – tabiiy boyliklarga egalik qilish hisoblanadi. Tabiiy boyliklardan samarali foydalanish va uni rivojlantirish

mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim omillardan biridir. Shu bois tabiiy boyliklardan foydalanishni soliqqa tortish muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, bir tomondan, davlat byudjeti va tabiiy boylikka ega hudud byudjetini shakllantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan tarmoq investitsion jozibardorligini ta'minlashda sezilarli ta'sirga ega.

Yer osti qazilma boyliklaridan foydalanish sohasini soliqlar vositasida tartibga solishning u yoki bu usulini qo'llash asosini tarmoqda yaqin va uzoq kelajakni ko'zlagan holda amalga oshiriladigan oqilona davlat siyosatini yuritish hisoblanadi. Mazkur siyosatning birinchi darajali vazifasi davlat xavfsizligini ta'minlashga, yer osti boyliklaridan oqilona foydalanishga va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilganligi bo'lishidir. Bugungi kunda Hukumatimiz bu borada milliy iqtisodiyotimiz xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kompleks chora-tadbirlar majmuini amalga oshirib kelmoqda. Shubhasiz, milliy iqtisodiyotimizda konchilik sanoati nafaqat soliqlarni o'z vaqtida va to'liqligicha to'lashda shu bilan birga, dunyo moliya bozoridagi inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish borasida ham etuk salohiyatga ega.

Mamlakatimiz byudjet daromadlarida resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i tarkibida yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlardan tushumlar salmog'i ancha yuqoriligini qayd etishimiz mumkin. Biroq, ushbu ko'rsatkichni saqlab qolish, yer ostidan foydalanishni rag'batlantirish, yer osti boyliklaridan oqilona foydalanishga erishish, mazkur soliqdan tushumlarni oshirib borish uchun soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, engil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirish oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishishning asosiy manbai..." "mutanosib va barqaror davlat byudjetini shakllantirish maqsadida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash, butun soliq tizimini soddalashtirish va uning oshkoraligini ta'minlash bo'yicha tegishli tadbirlar ko'zda tutilmoqda" – deya ta'kidlagan edi.

Milliy soliq qonunchiligiga ko'ra O'zbekiston hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni qazib olish, mineral xom ashyodan va texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek, qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- ✚ yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- ✚ qo'shimcha foyda solig'i;
- ✚ bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish ob'ekti sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan qazib olingan uglevodorodlar, shu jumladan, qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar va uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar hisoblanadi. Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish ob'ekti sanaladi. Bundan tashqari, qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish ob'ekti sifatida kavlab olingan foydali qazilmalar, foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar olinadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun qazib olingan tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazasi sifatida qaraladi. Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jumladan AQShda soliq usullaridan biri tabiiy resurslardan foydalanuvchilardan bevosita tabiiy rentani undirish amal qiladi. AQShda neft-gaz sanoati korxonalarini to'laydigan soliqlar va yig'implariga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

– yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi uchun maxsus to'lovlar, soliqlar va yig'implar;

– AQSh qonunchiligiga muvofiq korxonalar tomonidan to'lanadigan soliqlar.

Birinchi guruhga bir akr⁸⁰ uchun 2-3 dollar miqdoridagi renta to'lovlari, royalti va maqsadli trast fondlariga yig'implar kiradi. Royaltining asosiy stavkasi 15 foizni tashkil etadi, biroq qazib olishning dastlabki besh yili davomida pasaytirilgan stavkalar (12-12,5 foiz) qo'llaniladi. Bundan tashqari, daromadlilik darajasi past bo'lgan qazilmalar uchun soliq stavkasi pasaytirilishi mumkin, biroq bir barrel uchun 80 tsentdan kam bo'lishi mumkin emas. Trast-fondlariga yig'implar ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda energiya ishlab chiqarish va iste'moli o'rtasida tenglikni ta'minlab turish maqsadida amal qiladi.

Kontinental shelflarda faoliyat olib boruvchi kompaniyalar yuqorida qayd etilgan to'lovlardan tashqari "Kontinental shelfdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ish boshlanishidan oldin bir martalik bonuslarni (haqiqatda renta to'lovlaridan oshgan) hamda 16,66 foiz miqdorida royaltini to'laydilar.

⁸⁰ www.beznes-daily.uz/birjaexpert/

Xususiy yerlarda qazish ishlari uchun royalti miqdori yer egalari tomonidan o'rnatiladi. Davlat tomonidan renta to'lovlari va royaltlar byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanadi, ya'ni 62,6 foizi federal darajada markazlashtiriladi (10 foizi federal byudjetga yo'naltiriladi, 52,5 foizi yerlarni rekultivatsiya qilish fondiga); 37,5 foizi – tegishli shtat byudjetiga yo'naltiriladi va infratuzilmani rivojlantirishga, ijtimoiy va ta'lim dasturlarini amalga oshirishga safarbar etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan maxsus soliqlar va yig'imlardan tashqari neft-gaz kompaniyalari AQSh soliq qonunchiligi bilan o'rnatilgan mulk solig'i va korporatsiya daromad solig'ini to'laydi. Mulk solig'iga asosiy fondlar hamda neft-gaz mahsulotlarini qazib olish, qayta ishlash va etkazib berishda foydalaniladigan jihozlar tortiladi. Korporatsiya daromad solig'i (sof yillik daromadning 35 foizi miqdorida) soliq solinadigan bazasi kompaniyaning yalpi daromadidan xarajatlar (renta to'lovlari, ish haqi xarajatlari, yoqilg'i va energiya uchun xarajatlar, asbob-uskunalarni saqlash va ta'mirlash va b.)ni ayirib tashlash orqali aniqlanadi. Keltirib o'tilgan barcha soliqlar hisobga olinganda yer osti qazilma boyliklari korxonalarini uchun soliq yuki 50 foizni tashkil etadi⁸¹.

Fransiyada yer osti boyliklarini qidirib topish va qazib olish faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchta soliqni (foyda solig'i, Markaziy hukumat tomonidan undiriladigan kompaniyaning yillik aylanmasiga mos ravishda o'sib boruvchi, tabiiy resurslardan olinadigan soliq, mahalliy boshqaruv organlari manfaatlariga xizmat qiluvchi qazib olish faoliyatiga soliq) to'laydilar. Soliqqa tortish bazasi va soliq stavkasi har yili Parlament tomonidan o'rnatiladi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, dunyo bo'yicha yer osti boyliklaridan foydalanishni soliqqa tortishning frantsuzcha tizimi samarali sanaladi.

Germaniyada yer ostidan foydalanganlik uchun maxsus to'lovlar tizimi o'rnatilgan: ruda maydonlariga soliq, kon sanoati ishlanmalariga soliq. Uglevodorodlarni qazib olish uchun alohida to'lov tizimi amal qiladi. shuni qay etish mumkinki, so'nggi yillarda Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Niderlandiya kabi davlatlarda ham uglevodorodlarni qazib olishga maxsus soliqlar joriy etildi.

Ko'pchilik xorij mamlakatlarining tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, ularda soliqlarni undirishning turli-tuman mexanizmlari mavjud. Taraqqiyotning "o'zbek modeli" xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan davlatlar soliq tizimining turli elementlarini o'zlashtirish mamlakat soliq tizimi taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bizningcha, mamlakatimizda iqtisodiy raqobatdoshlikni yaratishda tabiiy resurslardan foydalanishni iqtisodiy tartibda solish mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Ayniqsa, yer ostidan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlar belgilashda har bir hudud va uning geologik-iqtisodiy, infratuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Ammo amalda bo'lgan tizimda bu holat kuzatilmaydi.

⁸¹ www.beznes-daily.uz/birjaexpert/

Shuningdek, yer osti boyliklaridan foydalanishning pulli tarzda amalga oshirilishi muhim mexanizmlardan biri sifatida bir tomondan, yer osti boyliklaridan samarali va maqsadli foydalanishni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, byudjet daromadlarini barqaror manba bilan ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, yer osti boyliklaridan foydalanishni soliqqa tortish davlat – yer osti boyligi egasi va undan foydalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) o'rtasidagi muhim iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Soliqlar vositasida davlat o'z budjetini to'ldirish bilan birga, iqtisodiyotning mazkur tarmog'ini tartibga soladi.

Bugungi kunda mahalliy davlat boshqaruviga alohida e'tibor qaratilgan holda, ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash birinchi darajali vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda, bizningcha, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash vositasi sifatida yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlar budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining yer osti boyliklaridan foydalanish bo'yicha qonun va qonunosti hujjatlarida yer ostidan foydalanganlik uchun to'lovlar va ularning budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidan taqsimoti ko'rsatib o'tilmagan. Bizningcha, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun haq to'lash tartibi aniqlashtirilishi, qonun va qonunosti hujjatlarida ular bo'yicha undirilishi lozim bo'lgan haq, uni hisoblash va byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi kiritilishi kerak. Shu bilan birga, soliq qonunchiligidan yer ostidan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini chiqarib tashlash va o'rniga har bir litsenziya berilgan hudud uchun belgilangan aniq yig'im, soliq, to'lov va beriladigan imtiyoz miqdori hisoblashning aniq tartibi o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

Yer osti boyliklardan foydalanganliklari uchun soliqqa tortish shartnomalarning asosiy turlaridan kelib chiqqan holda ikki turga bo'linadi. Birinchi tur yer osti boyliklardan foydalanuvchilarning Qozog'iston qonunchiligi hujjatlarida belgilangan barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi ko'zda tutadi. Ikkinchi tur yer osti boyliklardan foydalanuvchilarning mahsulot taqsimlanishi bo'yicha Qozog'iston Respublikasi ulushini hamda quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni ko'zda tutadi: yuridik shaxslarning daromad solig'i, chet el yuridik shaxsi hisoblangan doimiy muassasining daromadi, qo'shilgan qiymat solig'i, royalti, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yig'im, alohida faoliyat turi bilan shu g'ullanishi uchun beriladigan huquqlari uchun yig'im va boshqa majburiy to'lovlar.

Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarning maxsus to'lov va soliqlariga quyidagilar kiradi: royalti, qo'shimcha foydadan olinadigan soliq. Royaltining barcha turlari daromad solig'i va qo'shimcha foydadan olinadigan soliq uchun soliqqa tortiladigan daromadni aniqlashda chegirmalar bo'lib hisoblanadi.

15-Mavzu: Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

Reja:

1. Soliq to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi.
2. Soliq stavkasi va hisoblash tartibi.
3. Soliq hisobini yuritish va uni budjetga to'lash muddatlari.

1. Soliq to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar oxirgi iste'molchilarga:

- benzin va dizel yoqilg'isini realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

- gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida:

- avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to'ldirish, avtomobillarga yoqilg'i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi;

- oxirgi iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish soliq solish ob'ektidir.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan va o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi soliq solinadigan bazadir.

2. Soliq stavkasi va hisoblash tartibi. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori bilan belgilanadi, uning miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi.

15.1-jadval

2017 yilda transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq stavkalari⁸²

<i>Soliqlarning turlari</i>	<i>Soliq stavkalari</i>
Quyidagilarning iste'moli uchun undiriladigan soliq*:	
transport vositalari uchun benzin,	1 litr uchun 465 so'm/ 1 tonna 617 700 sum
transport vositalari uchun dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 465 so'm/ 1 tonna 565 000 sum
transport vositalari uchun suyultirilgan gaz	1 litr uchun 230 so'm/

⁸² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli qarori.

	1 tonna 436 300 sum
transport vositalari uchun siqilgan gaz	1 kub metr uchun 275 so'm

Soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs - xaridorga beriladigan chekda alohida satr bilan ko'rsatiladi.

Soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi.

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N = V \times St,$$

bu yerda:

N - hisoblab yozilgan soliq;

V - jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

St – soliq stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish ob'ekti yoki bazasi bo'lmaydi.

3. Soliq hisobini yuritish va uni budjetga to'lash muddatlari. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanilganda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holda har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Hisob-kitob benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi, bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilish hollari mustasno. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilingan oyning o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, hisob-kitob taqdim etiladigan yerda har o'n kunda amalga oshiriladi.

16-Mavzu: Mahalliy yig'implar

Reja:

1. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari.

2. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni hisoblash tartibi.

3. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi.

1. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi va u mahalliy budjet daromadlaridan biri hisoblanadi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imning to'lovchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi xududida ushbu tovarlar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda chakana savdoni amalga oshiradigan va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ushbu yig'im ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun to'lanadi. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Ruxsat guvohnomasi joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

2. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni hisoblash tartibi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi yuridik shaxs yoki yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga o'z arizalarida ko'rsatilgan muddatlarga, lekin ushbu muddat qonunchilikda nazarda tutilgan muddatdan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Jumladan, yuridik shaxslarga ko'pi bilan -3 yil, jismoniy shaxslarga -2 yil.

Yig'implar o'rnatilgan minimal ish haqi miqdoriga nisbatan belgilanadi. 2016 yil 1 yanvardan boshlab ayrim tovar turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im alkogolli mahsulotlar uchun -1 oylik savdo uchun eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravari miqdorida, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar uchun -1 oylik savdo uchun eng kam oylik ish haqi miqdorining 3,5 baravari miqdorida belgilangan. Avtotransport vositalarini parkovka qilish (saqlash) bo'yicha pullik xizmatlarni ko'rsatganlik uchun yig'im

har oyda 8 minimal ish xaqi miqdorida undiriladi. Ushbu yig'imler har oyda hisobot oyining 25 kuniga qadar budjetga to'lanadi.

Mahalliy yig'imni o'z vaqtida to'lanishi, qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik yig'imni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari esa o'zlariga berilgan vakolot doirasida qonun hujjatlariga muvofiq yig'imni to'lovchilarning budjet oldidagi majburiyatlarini bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

3. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi.

Rivojlangan davlatlarda mahalliy soliqlar mexanizmi va Respublikamiz iqtisodiyotidagi holati o'rtasidagi umumiy o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar chet davlatlarda ham hududlarning moliyaviy resurslarning asosiy manbai bu soliqlar va soliqsiz to'lovlar, yuqori budjetdan ajratiladigan ajratmalar (dotatsiya, subventsia) tashkil etsada, biroq, har bir davlatda markazlashtirilgan va hududiy moliyaviy resurslarni shakllantirishning o'ziga xos farqli jihatlari ham mavjuddir.

AQSh va boshqa bir qator g'arb davlatlarning hududlar moliyaviy resurslarini turli guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga bu hududlarning o'ziga tegishli biriktirilgan va shu hududdan undiriladigan soliqlar sifatidagi moliyaviy resurslar bo'lib, ular to'g'ri va egri soliqlardan iborat bo'ladi. Ikkinchi guruhga shunday moliyaviy resurslar kiradiki, bu xuddi bizning Respublikamizda amalda bo'lgani kabi umudavlat soliqlardan mahalliy hududlarga muayyan foizda ajratmalardan iborat bo'ladi.

Respublikamiz budjet tizimida bo'lgani kabi yuqori budjetlardan qo'yi budjetlarga subsidiyalar ajratish boshqa bir qator davlatlarga xususan, AQSh moliya tizimiga ham xosdir. Chunonchi, Vashington mahalliy budjeti 84 foizi biriktirilgan moliyaviy resurslar hisobiga shakllansa, qolgan 16 foizini federal budjetdan ajratilgan subsidiyalar tashkil etadi. Shuningdek Nyu-York mahalliy budjetida subsidiyaning ulushi 32 foizga tengdir.

AQShda ham xuddi bizdagi singari hukumat subsidiya, subventsia va dotatsiyalarni yuqori budjetlardan qo'yi budjetlarga ajratish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etib turadi⁸³.

Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish jarayonidagi AQShdagi eng muhim va boshqalardan xususan respublikamizdan farq qiluvchi jihatlardan biri bu u yoki bu soliq turlarining xududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalarining qo'llanilishi hamda ayrim soliqlarning ba'zi hududlarda amal qilishi boshqa hududlarda esa amal qilmasligi bilan farqlanadi. Masalan, hududlarning asosiy moliyaviy resurslaridan biri hisoblangan savdo-sotiq uchun solig'i ayrim hududlar uchun 6 foiz bo'lsa, boshqasida 1 foiz va shu kabi tartibda undiriladi.

Bundan tashqari iqtisodiy (ishbilarmonlik) faollik solig'i Kaliforniya shtatida qo'llanilsa, boshqa bir hududlarda qo'llanilmasligi holati ham mavjuddir. Savdo-sotiq solig'i shuningdek, ayrim hududlarda xususan, Alyaska, Delaver, Nyu-Djersi

⁸³ James E. Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 126.

shtatlarida amal qilmasada, boshqa hududlarda esa mahalliy hokimiyatlarning o'zlari belgilagan stavkalari asosida tebranib turishi mumkin⁸⁴.

Qayd etish joizki, AQShda hududlarning moliyaviy resurslarining shakllanishida mulk solig'i katta salmoqni egallaydi. Masalan, Nyu-York shtati mahalliy budjetida bu soliq hisobiga jami moliyaviy resurslarning 40 foizra yaqini shakllanadi, o'z navbatida, bu soliq turi ham barcha hududlar uchun bir xil tartibda belgilanmaydi.

AQShda mulk solig'ining o'rtacha stavkasi 1,4 foizni tashkil etsada, bu Illinoys shtatida uning stavka miqdori 6,7 foizga tengdir. Bundan tashqari AQShda hududlarning moliyaviy resurslari ayrim turdagi mahsulotlarni sotish uchun litsenziyalar, uy hayvonlarini saqlash uchun ruxsatnomalar va shu kabilardan tushgan yig'implardan ham shakllanadi. Ayni bu holatning ko'pchiligi respublikamiz iqtisodiyoti uchun xosdir.

Buyukbritaniyada esa mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy manbai bo'lib kuchmas mulklar, yer, uy-joy, magazinlar, zavod va fabrikalardan undiriladigan soliq hisoblanadi. Mol-mulk qiymati muntazam qayta baholab boriladi. Soliqqa tortish maqsadlarida mol-mulkni baholashni ichki daromadlar Boshqarmasi qoshidagi maxsus baholash komissiyasi amalga oshiradi⁸⁵.

O'zgaruvchan inflyatsiya sharoit soliqqa tortish maqsadida mulkni muntazam qayta baholab borish O'zbekiston soliq tizimi uchun ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Shuningdek, mol-mulkni qayta baholashni soliqqa tortish maqsadlariga muvofiqlashtirish uchun qayta baholash organlarining soliq xizmati qoshida tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

AQShda esa mol-mulk solig'i mahalliy soliq sifatida asosiy o'rinni egallagani holda, 100 ga yaqin turli xil mahalliy soliq turlari ham mavjud. Har bir shtatda turfa soliq turlarini uchratish mumkin: masalan Koliforniyada faol ishbilarmonlik solig'i olinadi, bu soliq ob'ektlari yillik oborot (2,5 foizgacha) va korxonalar ish haqi fondi (1,6 foiz) hisoblanadi⁸⁶.

Fransiya budjetida mol-mulkdan soliq yuqori salmoqqa ega. Bu soliqqa mol-mulk, mol-mulk huquqi va qimmatbaho qog'ozlar tortiladi. Mol-mulk tarkibiga binolar, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, harakatlanuvchi mulk, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Fransiyada ba'zi mol-mulk ushbu soliq turidan qisman yoki to'liq ozod etilgan. Shular jumlasiga professional faoliyat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk, qishloq xo'jaligiga oid ba'zi mol-mulk turlari, tarixiy yodgorlik buyumlar, badiiy va kolleksiya buyumlari kiradi.

Mol-mulk solig'i stavkalari progressiv xarakterga ega bo'lib, uni quyidagi jadvalda ko'rib chiqishimiz mumkin.

Germaniya Respublikasida budjet tizimining asosiy daromad manbai bo'lib jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyadan olinadigan soliq qo'shilgan qiymat solig'i, tadbirkorlik (xunarmandchilik) solig'i, mol-mulk solig'i,

⁸⁴ Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004. p. 42.

⁸⁵ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 81

⁸⁶ James E. Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 128

yer solig'i, yer uchastkalarini sotish jarayonidan undiriladigan soliq, sug'urta badallari, merosdan olinadigan soliq, transport solig'i, bojxona bojlari va davlat yig'implari hamda ayrim turdagi mahsulotlar uchun aksiz soliqlari va shu kabilar hisoblanadi. Bu davlatda ham hududlarning moliyaviy resurslarini shakllanishida yuqori budjet bo'g'inlaridan ajratiladigan subsidiya, subventsiya va dotatsiyalar ham alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, umumdavlat soliqlaridan xuddi O'zbekiston Respublikasidagi kabi qo'yi budjetlarga muayyan foizlarda ajratmalar qilinadi. Masalan, korporatsiyadan olinadigan soliqning 50 foizi federal budjetga, 50 foizi hududlarga. Davlat budjeti daromadlarini shakllanishida eng katta salmoqqa ega bo'lgan ushbu soliqlardan tushadigan tushumlarning 42,5 foizi federal budjetga, qolgan 57,55 foizi esa turli xil darajadagi va makomdagi mahalliy budjetlar ixtiyoriga yo'naltiriladi⁸⁷.

Sharq davlatlarida xususan Yaponiyada ham AQSh va G'arbiy Evropa davlatlari kabi umumdavlat va mahalliy soliqlar amal qilib ular hisobiga federal va hududlarning moliyaviy resurslari shakllanib boradi. Bu yerda mahalliy soliqlarga nisbatan umumdavlat soliqlarining hissasi yuqori bo'lib ular hisobiga budjet jami moliyaviy resurslarining 64 foizidan ko'prog'i shakllanib qolgan qismi mahalliy soliqlar hisobiga to'g'ri keladi⁸⁸.

Yaponiya soliq tizimida hududlarning budjet daromadlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. 90-yillarning boshlarida hududlarning umumiy moliyaviy resurslari 80,41 trln. ienani tashkil etib, ulardan mahalliy soliqlar 33,45 trln. iena yoki mahalliy budjet daromadlarining 41,6 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari 14,33 trln. iena yoki 17,8 foizi umumdavlat soliqlaridan berilgan ajratmalarga to'g'ri keladi. Hududlarga bu davrda maqsadli tarzda 10,65 trln. iena (mahalliy budjetlarning 13,2 foizi) dotatsiya berib, qolgan 20,3 trln. ien soliqsiz to'lovlar hissasiga to'g'ri kelgan. Mahalliy budjet moliyaviy resurslariga e'tibor beradigan bo'lsak, jami moliyaviy resurslar 33,45 trln. ienani tashkil etib, ularning 35,6 foizi daromad solig'i, 41,1 foizi mol-mulk solig'i qolgan 27,2 foizini esa iste'mol solig'i tashkil etadi⁸⁹.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamiz soliq tizimida mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmi bilan chet davlatlar xususan Amerika, G'arbiy Evropa davlatlari, Yaponiya va shu kabi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ushbu jarayonlarning holati va harakati o'rtasida umumiy o'xshashliklar mavjuddir. Bu o'xshashliklar federal va hududlarning budjet daromad soliqlar va soliqsiz to'lovlardan shakllanishi, umumdavlat soliqlardan hududlarga muayyan foizlarda subventsiya, subsidiya va dotatsiyalar shaklida ajratmalar qilinishi budjet tizimi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va shu kabilardan iboratdir.

⁸⁷ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 121

⁸⁸ Черник Д. Налоги. -М.: "Финансы и статистика". 1996. стр. 436

⁸⁹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 96

17-mavzu: Davlat budjetining soliqsiz daromadlari

Reja:

- 1. Davlat budjeti soliqsiz daromadlarining zarurligi va mohiyati.**
- 2. Davlat budjeti soliqsiz daromadlarining turkumlanishi.**
- 3. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

1. Davlat budjeti soliqsiz daromadlarining zarurligi va mohiyati. Davlat budjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli mulklarni sotishdan va xususiylashtirishdan kelgan daromadlar, tashqi iqtisodiy faoliyatdan kelgan daromadlar, xorijiy davlatlardan olingan moliyaviy yordamlar va davlatning maxsus maqsadli budjet jamg'armalari kiradi.

Davlatning maxsus maqsadli jamg'armalari pul mablag'larini soliqsiz daromadlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, mazkur jamg'armalarga qilingan ajratmalar soliq xarakteriga ega bo'lib, bunda soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida tovar-pul munosabatlari mavjud emas; *ikkinchidan*, maqsadli jamg'armalarga qilingan ajratmalar soliqlarga xos bo'lgan muhim xususiyatga, ya'ni to'lovni amalga oshirishda sub'ektlar mulk shaklining o'zgarishi xususiyatiga egadir.

Soliqqa kirmaydigan, ya'ni soliqsiz daromadlarning ko'pchiligi doimiy, qat'iy belgilangan stavkada undiriladigan xazina (budjet) daromadlari ko'rinishiga ega bo'lmaydi. Budjetning soliqsiz daromadlari qat'iy rejalashtirilmasligi kerak, lekin amaliyotda ko'p hollarda ular, odatda ilgari yildagi tushumlar darajasida rejalashtiriladi. Soliqsiz daromadlar soliq daromadlari kabi O'zbekiston Respublikasining vakillik organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun joriy qilinadi. Soliqsiz daromadlar ham majburiy, ham ixtiyoriy shakllarda bo'lishi mumkin.

2. Davlat budjeti soliqsiz daromadlarining turkumlanishi.

Soliqsiz daromadlar ro'yxati hamma darajadagi budjetlar uchun yagona bo'lib, budjet tasnifi bilan belgilanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligidagi mulkni foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

- davlatga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlar;

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni ijaraga berishdan, shu jumladan qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi maqsadlaridagi erlar uchun ijara to'lovidan olingan daromadlar;

- vaqtinchalik bo'sh turgan budjet mablag'larini bank va kredit tashkilotlarida joylashtirishdan olingan daromadlar;

- xizmat ko'rsatish va davlat xarajatlarini qoplashdan olingan daromadlar;

- davlat va mahalliy tashkilotlardan to'lovlar;

▪ davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olinadigan boshqa tushumlar.

2. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan:

▪ davlat mulki bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan tushumlar;

▪ kvartiralarini sotishdan tushumlar;

▪ davlatning ishlab-chiqarish va noishlab-chiqarish fondlarini, transport vositalari va boshqa uskuna-jihozlarni sotishdan olingan daromadlar;

▪ musodara qilinib, davlat va mahalliy hokimiyat egaligiga o'tgan egasiz mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar.

3. Davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar.

4. Yer va nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar.

5. Davlatga qarashli bo'lmagan manbalardan kapital transfertlar tizimlari.

6. Jarima-jazolarni qo'llash, etkazilgan zararni qoplash, shu jumladan:

▪ standartlar va texnik shartlardan chetlashgan holda tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun tushumlar summasi;

▪ narxlarni qo'llash tartibini buzganlik uchun jazolar;

▪ jinoyatlar qilish va moddiy boyliklar kamomadida aybdor bo'lgan shaxslardan undiriladigan summalar.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar, shu jumladan:

▪ davlat kreditlari bo'yicha foizlar;

▪ davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar;

▪ markazlashtirilgan eksportdan tushumlar summasi;

▪ tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlar.

8. Boshqa turli soliqsiz tushumlar.

Budjetning soliqsiz daromatlari hududiy belgiga ko'ra (muayyan darajadagi budjetga kiritish), jalb qilish va shakllantirish usuliga ko'ra (majburiy yoki ixtiyoriy) va soliqsiz tushumlarini shakllantiradigan to'lovlarni undirishning konkret asoslariga ko'ra (davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar) tasniflanadi.

Soliqlar va soliqsiz to'lovlarning ko'pgina o'xshash tomonlari bilan birga qator farqli tomonlari ham mavjud.

Pul mablag'larining muayyan qismi davlat xazinasiga soliqsiz to'lovlar tarzida kelib tushadi. Ular soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar singari davlatning qonun chiqaruvchi idorasi tomonidan belgilanadi.

Shu bilan birga soliqlar va soliqsiz to'lovlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jumladan, bu farqlarni quyidagilardan iborat deb belgilash mumkin:

➤ soliqsiz to'lovlar soliqlardan farq qilib, ikki tomonlama huquq va burchlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, faoliyatning muayyan turi bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziyalarni olish maqsadida belgilangan to'lovlarning amalga oshirilishi boshqa shartlar bajarilgani taqdirda vakolatli ruxsatnomani berishi lozim bo'ladi;

➤ soliqlardan farq qilib, soliqsiz to'lovlar ko'pchilik hollarda majburiy ravishda to'lanmaydi. Soliq esa uni to'lash ob'ekti mavjud bo'lganida to'lanadi;

➤ soliqlardan farq qilib, soliqsiz to'lovlar muayyan maqsadga mo'ljallanadi hamda ana shu maqsadda undan foydalanish lozim.

Soliqsiz to'lovlar respublika budjeti va mahalliy budjetlar daromadlarida jamlanadi. Ushbu mahalliy soliq va yig'imlarning to'lovchilar doirasi, soliq solish ob'ektlari, soliq va yig'imlar yuzasidan engillik va imtiyozlar, soliq va yig'imni hisoblab chiqish va to'lash tartiblari mahalliy hokimiyat idoralarining bevosita o'zlari tomonidan belgilanadi.

Soliqsiz to'lovlar hududiy belgisiga ko'ra: umumdavlat miqyosidagi va mahalliy to'lovlarga; shakllanish usuliga ko'ra: majburiy va ixtiyoriy; jamlanish usuliga ko'ra: davlat budjetida yoki budjetdan tashqari jamlanadigan turlarga bo'linadi.

Soliqsiz to'lovlar undirish asoslariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar.

Bu to'lovlarning tabiiy resurslardan tejab-tergab, samarali foydalanishda ahamiyati kattadir;

- davlat idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan turli xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan to'lovlar. Ular jumlasiga:

- tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyat tufayli bojxona idoralariga to'lanadigan to'lovlar;

- sud va boshqa huquq-tartibot idoralariga murojaat qilinganda to'lanadigan davlat boji;

- davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziya (ruxsatnoma) olish va tovarlar uchun sertifikatlar olishdagi to'lovlar;

- bozorlar, yarmarkalar va boshqa savdo shaxobchalaridan olinadigan bir martalik patta to'lovlari;

- qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish, lotereya o'yinlarini o'tkazish uchun to'lovlar;

- davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushadigan daromadlar;

- jarima tarzidagi to'lovlar (jarimalar, penyalar va boshqalar).

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli bo'lgan mulklarni sotish va xususiylashtirish natijasida olingan daromadlarni, davlatning tashqi-iqtisodiy faoliyatidan olingan daromadlarni va xorijiy davlatlardan qaytarib bermaslik sharti bilan olinadigan pul mablag'larini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, soliqsiz daromadlarning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Davlatga tegishli mulklardan foydalanish samaradorligining pasayishi natijasida davlat sektoriga tegishli korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida ularni xususiylashtirishning zarurligi.

Davlat sektoriga mansub bo'lgan korxonalarining faoliyati ko'pchilik hollarda xususiy sektor korxonalariga nisbatan samarasiz bo'ladi. Shvetsiya, Frantsiya va

Buyuk Britaniya davlatlarining amaliyotida bunday holatlar bir necha marotaba kuzatilgan. Masalan, XX asrning 90-yillari oxirida Buyuk Britaniyada davlat sektoriga mansub bo'lgan korxonalarining sezilarli qismi moliyaviy yilni zarar bilan yakunladi. 1998 yilda eng yirik davlat korxonalaridan biri «British telekom» xususiylashtirildi. Uning aktsiyalarining bozor bahosi 6,9 mlrd. funt sterlingni tashkil etar edi.

XX asrning 90-yillarining ikkinchi yarmida Frantsiyada davlat mulkini xususiylashtirish natijasida 7,0 mln. kishi aktsiyadorlarga aylandi. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda davlat sektorining defitsiti 1999 yilda yalpi milliy mahsulotning 4,5 foizini tashkil qildi.⁹⁰

Davlat korxonalarini xususiylashtirish ular faoliyatining moliyaviy barqarorligini oshishiga, iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirilishini ta'minlashga, ishsizlik muammosini hal qilishga hamda o'rta va uzoq muddatli davriy oraliqlarda soliq tushumlarini ko'paytirishga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

2. Davlat budjeti daromadlarining miqdorini oshirish zaruriyatining yuzaga kelishi.

Davlat budjeti xarajatlarini sezilarli darajada o'sishi, davlatning iqtisodiy xarajatlarini oshirish zaruriyatini paydo bo'lishi hukumatga soliqsiz daromadlarni oshirish tadbirlarini ishlab chiqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ana shu maqsadda davlatga tegishli mulklarni sotish, davlatga tegishli xorijiy valyutalar va nodir metallarni xorijiy moliya bozorlarida joylashtirish yo'li bilan daromadlar olish va xorijiy tashkilotlarning moliyaviy yordamlarini jalb qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Masalan: O'zbekiston Respublikasida hukumatga tegishli oltin-valyuta zahiralarning ma'lum qismi xalqaro moliya bozorlarida muddatli depozit shaklida joylashtiriladi va undan foiz ko'rinishda daromad olinadi. Bundan tashqari, soliqsiz daromadlardan davlat budjeti defitsitini kamaytirish maqsadida ham faol tarzda foydalanish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrining 567-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2004 yilgi davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2004 yilda davlat budjeti defitsitini faqat qadrsizlanmaydigan (noinflatsion) manbalar, shu jumladan davlat mulkini xususiylashtirishdan olinadigan tushumlar hisobidan moliyalashtirishni ta'minlash ko'zda tutilgan edi.⁹¹

Rivojlangan xorijiy davlatlar ichida Yaponiya soliqsiz daromadlarning davlat budjeti daromadlarining hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Bu ko'rsatkich Yaponiyada 15 foizni tashkil etadi. Yaponiya mahalliy budjetlari daromadlarining 25 foizgacha bo'lgan qismi soliqsiz daromadlardan tashkil topadi. Yaponiya budjet qonunchiligiga muvofiq soliqsiz daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

-ijara to'lovlari;

⁹⁰ Mariette D. Bercy report a zero sur le dossier du Gredit Jonciur. //Tribune. -P., 1998. -Sept., p.9.

⁹¹ Soliqlar va bojxona xabarlar. №4 (496), 2004 y. 23 yanvar.

-davlatga tegishli yer maydonlari va boshqa qo'zg'almas mulklarni sotishdan olingan daromadlar;

-jarimalar;

-obligatsiyalarni sotishdan olingan tushumlar;

-yutuqli lotereyalarni sotishdan olingan tushumlar;

-o'tgan yillarda ishlatilmay qolgan budjet mablag'lari.⁹²

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari daromad manbalari sifatida nobarqaror va doimiy xususiyatga ega bo'lgan daromadlar hisoblanadi. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni mohiyatiga ko'ra nobarqaror jarayon bo'lib, xususiylashtirishdan olinadigan daromadlarni nobarqaror bo'lishiga olib keladi; *ikkinchidan*, davlatga tegishli oltin-valyuta zahiralarini bozor stavkalarida joylashtirish natijasida olinadigan daromadlar joylashtiriladigan moliyaviy aktivlarning miqdoriga va bozor stavkalarining o'zgarishiga bog'liq bo'lganligi sababli ulardan olinadigan daromadlarning summasi doimiy ravishda tebranib turadi; *uchinchidan*, xorijiy tashkilotlardan va davlatlardan olinadigan moliyaviy yordamlarning miqdori ularni beruvchilar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu esa ularning miqdorini oldindan belgilash imkonini bermaydi.

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari fiskallik va iqtisodiy funksiyalarni bajaradi. Ular daromad manbai sifatida nobarqaror bo'lib, davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar budjet amaliyotida ham soliqsiz daromadlarning ahamiyati juda past. Masalan, AQShda soliqsiz daromadlarning Federal budjet daromadlari hajmidagi salmog'i 4 foizdan oshmaydi.⁹³

Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Bozorlar [qonun hujjatlarida](#) belgilangan tartibda yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi.

Bozorlarning daromadlariga quyidagilar kiradi:

✚ patta to'lovi tushumlari;

✚ boshqa tushumlar.

Patta to'lovini bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar to'laydi.

Patta to'lovi har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva mol uchun undiriladigan qat'iy belgilangan to'lovdur.

Jismoniy shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasiga binoan savdo joyi uchun ijara haqi to'lanadigan hollarda, patta to'lovi summasi ijara haqi tarkibiga kiritiladi.

Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda, bir vaqtning o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki terminal chekini berish orqali undiriladi.

Patta to'lovi miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bozorlarning boshqa tushumlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

⁹² Налоговые системы зарубежных стран. Уч. под редакцией В.Г.Князева, проф. Д.Б.Черника. –М.: «Закон и право», 1997. –С 97.

⁹³ Финанси. Уч. под редакцией Л.А.Дробозиной. – М. ЮНИТИ, 2003. –С. 125.

1) ijara to'lovidan olingan daromadlar. Ijara to'lovi bozor ma'muriyatining tasarrufida bo'lgan binolar, inshootlar hamda boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi;

2) sotuvchilarga va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;

3) bozor ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi tovarlarini tayyorlash, xarid qilish va realizatsiya qilishdan olingan daromadlar (dehqon bozorlari uchun). Bunda realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq daromaddir;

4) qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.

Ijara to'lovining va bozor ma'muriyati ko'rsatadigan xizmatlar qiymatining miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bozorlar zimmasida to'lov manbaida soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha majburiyatlar hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagilarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

✚ bojxona to'lovlari;

✚ yagona ijtimoiy to'lov;

✚ davlat boji;

✚ tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

✚ davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar;

✚ avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Bozorlar daromadlarining umumiy summasidan, bozorlar daromadidan to'lanadigan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangandan keyin qolgan mablag'larning 50 foizi bozorlar joylashgan joydagi tegishli mahalliy byudjetlarga belgilangan tartibda yo'naltiriladi. Qolgan 50 foizi bozorlar ma'muriyati tasarrufida qoladi va ulardan joriy xarajatlarni qoplash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxatini kengaytirish, sifatini yaxshilash uchun foydalaniladi.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlari bozorlar tomonidan amalga oshirilganda, bunday faoliyatdan olingan daromadlarga qat'iy belgilangan soliq solinadi.

Olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bozorlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlagan shaklda taqdim etadi.

Mablag'larni byudjetga o'tkazish olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan bir oyda bir marta amalga oshiriladi.

Ushbu bob qoidalari ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 51 foizdan kam bo'lmagan yuridik shaxslar - savdo komplekslariga tatbiq etiladi.

18-mavzu: Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar

Reja:

18.1. Yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.

18.2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma.

18.3. Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

18.1. Yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.

1. Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari, to'lov ob'ekti, bazasi hamda to'lovdan chegirmalar. Yagona ijtimoiy to'lov O'zbekistonda 2004 yildan amal qilib kelinmoqda. Soliq kodeksining 305-moddasiga binoan yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar bo'lib, yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (bundan keyin matnda sug'urta badallari deb yuritiladi) to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarini hisoblash uchun ob'ekt bo'lib, ish haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi.

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun baza imtiyoz sifatida belgilangan to'lovlar chegirib tashlangan ish haqi tarzida to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bazasi hisoblanayotganda quyidagi to'lovlar chegirib tashlanadi:

1) amaldagi Soliq kodeksining 174-moddasi 5, 8, 9, 11 va 12-bandlarida ko'rsatilgan kompensatsiya to'lovlari;

2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli budjet yoki xayriya jamg'armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;

3) xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar;

4) xodimga tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar;

5) yosh mutaxassislarga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

2. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan 25 foiz miqdorida belgilangan.

Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov davlat maqsadli jamg'armalari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o'rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga - 24,8 %;
- davlat bandlikka ko'maklashish fondiga - 0,1 %;
- kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga - 0,1 %.

Sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqiga nisbatan 8 foiz miqdorida belgilangan.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan jamg'armaga o'tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to'lovning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

- korxonalar tomonidan – yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda.

Sug'urta badallarining hisob-kitobi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari yuridik shaxslar tomonidan quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari – har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay.

18.2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma.

1. Majburiy ajratma to'lovchilari, ob'ekti, bazasi va stavkalari. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari pensiya yoshiga etganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy yordam olish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqqa egadirlar. Ushbu huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrda qabul kilgan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida"gi Qonunida ham belgilab berilgan.

Pensiya taʼminoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha majburiy badallar toʻliq yigʻilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar toʻlashga yoʻnaltiriladigan mablagʻlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi pensiya taʼminotini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 444-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga mablagʻ toʻplash va mablagʻ toʻliq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi zimmasiga yuklatildi va budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy toʻlovlar soliqlarga tenglashtirildi. Pensiya jamgʻarmasining daromadlari va xarajatlari har yili Oʻzbekiston Respublikasining yigʻma budjeti tarkibiga kiritiladigan boʻldi hamda Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqish va toʻlash tartibi buzilganligi uchun xoʻjalik yurituvchi subʼektlarga nisbatan moliyaviy jazolar qoʻllanilishi, shu jumladan toʻlovlar oʻz vaqtida toʻlanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida belgilab qoʻyildi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga mablagʻlar toʻplash tartib qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrda "Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mablagʻlarini shakllantirish va sarflash tartibi toʻgʻrisidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 498-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida 2004 yilgacha amalga oshirilib keldi.

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrda 567-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga ajratmalarni hisoblash va toʻlash tartiblarini soddalashtirish maqsadida, budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va kasaba uyushmalari jamgʻarmasiga ajratmalar birgalikda yagona ijtimoiy toʻlov nomi bilan yuritiladigan boʻldi.

Soliq kodeksining 312-moddasiga asosan Oʻzbekiston Respublikasining rezidentlari boʻlgan yuridik shaxslar budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratmani toʻlovchilari hisoblanadi.

Quyidagilar budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratmaning toʻlovchilari boʻlmaydi:

- umumbelgilangan soliqlarni tolovchi mikrofirma va kichik korxonalar, akstiz va yer qari tolovchilari mustasno;
- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;
- yagona soliq toʻlovini toʻlovchi yuridik shaxslar.

Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratmaning obʼekti va bazasi quyidagicha belgilangan.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmaga tortish ob'ektlari

№	To'lovchilar	Ajratmaga tortish ob'ekti
1.	Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar	QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi
3.	Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari	yalpi daromad
4.	“O'zdonmahsulot” AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va don qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalari)	QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi
5.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	Daromad
6.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	foizli daromad
7.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun - issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun - suv, gaz ta'minoti korxonalari uchun - tabiiy gazning xarid qiymatini chegirgan holda
8.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
9.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda

Yuridik shaxslar bir necha xil ob'ektlarga ega bo'lgan hollarda, ular ob'ektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma 2017 yil 1 yanvardan 1,6 foiz miqdorida belgilandi.

2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- korxonalar tomonidan – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

18.3. Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

1. Majburiy ajratmani to'lovchilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2004 yil 21 maydagi Farmoniga muvofiq maktab ta'limini 2004-2009 yillar davomida rivojlantirish maqsadida Budjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasi tashkil etildi.

Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratma maktab ta'limini rivojlantirishning 2004-2009 yillar Davlat umummilliy dasturiga kiritildi va ular davlat soliqlariga tenglashtirildi. Mazkur jamg'arma nomi 2014 yil 1 yanvardan boshlab budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar deb o'zgartirildi.

Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir:

- yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs.

Quyidagilar budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

- yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar;

- umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

2. Majburiy ajratmalarga tortish ob'ekti va ba'zasi. Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sof tushum budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasidir.

Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik, topshiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun — agar mazkur moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

- boshqa daromadlar;

- hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari), qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar summalari, ko'rsatilgan daromadlar.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish ob'ektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish ob'ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlardan kelib chiqqan holda budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

3. Majburiy ajratma stavkasi va imtiyozlar, uni hisoblash hamda to'lash tartibi. Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash:

- budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

19-Mavzu: Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar

Reja:

- 1. Majburiy ajratmalar to‘lovchilari, ob‘ekti va stavkalari.**
- 2. Majburiy ajratmalarni hisoblash va to‘lash tartibi.**
- 3. Yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlarni to‘lovchilar, ob‘ekti va bazasi.**
- 4. Yig‘imlar stavkasi, imtiyozlar va yig‘imlarni to‘lash tartibi.**

1. Majburiy ajratmalar to‘lovchilari, ob‘ekti va stavkalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 19 avgustdagi PF-3292-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 avgustdagi 361-sonli “O‘zavtoyo‘l davlat aktsiyadorlik kompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi faoliyatni tashkil etish masalalari to‘g‘risida” gi qaroriga asosan 2003 yil 1 oktyabridan boshlab yo‘l xo‘jaligini boshqarish tuzilmasidagi Respublika, viloyat va mahalliy yo‘l jamg‘armalari tugatildi va ularning o‘rnida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo‘l jamg‘armasi tuzildi. Ushbu jamg‘armaga mablag‘larni yig‘ish va uni nazorat qilish vazifasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi zimmlariga yuklatildi.

Soliq kodeksining 316-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

Yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lovchilari bo‘lib quyidagi yuridik shaxslar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

- yagona soliq to‘lovi to‘lovchi yuridik shaxslar;

- ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurish bo‘yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlari bo‘yicha.

Sof tushum yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob‘ekti va soliq solinadigan bazasi qilib belgilangan.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob‘ekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo‘jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta‘minoti korxonalari uchun – mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo‘shilgan qiymat solig‘i va tegishincha issiqlik ta‘minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta‘minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta‘minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o‘z kuchlari bilan bajarilgan,

tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun – tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun – Soliq kodeksining 148-va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromadlari;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Yuridik shaxslar turli xil ob'ektlarga ega bo'lgan hollarda, ular ob'ektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi lozim.

2. Majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- korxonalar tomonidan – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyni 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyni 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 54-bobiga asosan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalardan tashqari yig'imlar ham to'lanadi.

3. Yo'l jamg'armasiga yig'imlarni to'lovchilar, ob'ekti va bazasi.

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi:

- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

Amaldagi Soliq kodeksining 321-moddasiga binoan avtotransport vositalarini oluvchi yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilari bo'lib hisoblanadi. Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali

tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'imi to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Yig'imler uchun ob'ekt quyidagilardir:

- avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish.

Yig'imler undiriladigan baza sifatida quyidagilar belgilangan:

- olingan yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalarining qiymati;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

4. Yig'imler stavkasi, imtiyozlar va yig'implarni to'lash tartibi.

Avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni yoki motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) ixtisoslashtirilgan savdo tarmog'idan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar – mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtotransport vositalari bo'yicha;

4) faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari – yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (engil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar – qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

6) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek budjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar – avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtotransport vositalarini 3–5-bandlarida ko'rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

**O‘zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy va chegaradosh
Davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirish, olib chiqish va tranzit
qilishdan yig‘imlar stavkalari**

№	Yig‘imlar turlari	Yig‘imlar stavkalari (AQShdollarida)
1.	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalarini olib kirganlik uchun to‘lov, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2-5-bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2.	O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig‘im:	
	bitta yuk avtotransport vositasi va avtobusdan	130
	yuk avtotransport vositasi va avtobus O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan 8 sutkadan oshgan har bir kun uchun	70
	yuk avtotransport vositalari va avtobuslarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali uchinchi mamlakatlarga (MDH mamlakatlaridan tashqari) tranzit olib o‘tganlik uchun	90
3.	Qozog‘iston Respublikasining yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik yoki olib chiqib ketganlik uchun yig‘im, O‘zbekiston Respublikasi hududiga tranzit qilish bundan mustasno, bitta yuk avtotransport vositasini olib kirganlik va olib chiqib ketganlik uchun yig‘im	300
4.	O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg‘iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig‘im	300
5.	O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab avtotransport vositalari turlari bo‘yicha Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig‘im:	
	- quyidagi hajmdagi yuklarni ko‘taradigan yuk avtotransport vositalari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan ko‘p	150
	o‘rindiqlar soni quyidagicha bo‘lgan avtobuslar:	
	12 o‘rindiqqacha	25
	13 o‘rindiqdandan 30 o‘rindiqqacha	50
	30 o‘rindiqdandan ko‘p	100
	tranzit yo‘nalishli engil avtotransport vositalari	30
	tranzit yo‘nalishli mototsikllar	15

Avtotransport vositalarini olganlik yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilayotganda, qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig‘im taraflarning yozma kelishuviga ko‘ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan

taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

19.2.-jadval

Respublika yo'l jamg'armasiga undiriladigan yig'implarning 2017 yildagi stavkalari⁹⁴

№	Yig'implar va ajratmalar turlari	Stavka
1.	Avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganligi uchun ushbu vositalarning egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O'zbekiston Respublikasi IIV organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida to'lanadigan yig'implar (foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan foizda)*:	
	foydalanish muddati 3 yilgacha	11
	foydalanish muddati 3 yildan 7 yilgacha (o'z ichiga oladi)	9
	foydalanish muddati 7 yildan ortiq	6
2.	"O'zavtoyol" DAK korxonasi va tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag'larning budjetga tushishi lozim bo'lgan umumiy summasidan ajratmalar (foizda)	50

Izoh:

*) yig'im miqdori quyidagi miqdordan kam bo'lmasligi kerak:

- o'rinlar soni 40 tagacha bo'lgan avtobuslar va yuk ortish hajmi 20 tonnagacha bo'lgan yuk avtotransport vositalari bo'yicha xarid qiymatining 20 foizidan;

- qolgan avtotransport vositalari bo'yicha xarid qiymatining 6 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 dekabrda PQ-2699-son qarori.

20-Mavzu: Elektron hisobot va uni jo'natish tartibi

Reja:

1. **Yuridik shaxslarning soliq hisobotlarini jo'natish tartibi.**
2. **Interaktiv xizmat ko'rsatuvchi organlar va xizmat ko'rsatish joylari hamda huquqiy asoslari.**
3. **Foydalaniladigan soliq va moliyaviy hisobot shakllari.**
4. **Interaktiv xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy harakatlari.**
5. **Xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridagi axborot texnologiyalar.**

1. Yuridik shaxslarning soliq hisobotlarini jo'natish tartibi. Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning soliq solishning umumbelgilangan tartibini qo'llagan yuridik shaxslarning soliq hisobotlarni, soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llagan yuridik shaxslarning soliq hisobotlarni, moliyaviy hisobotlarni, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar bo'yicha soliq hisobotlarni davlat soliq xizmati organlariga tashrif buyurmagan holda elektron ko'rinishda qabul qilish va qayta ishlash amalga oshiriladi.

Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatish soliq to'lovchilarning sarf xarajatlarini kamaytirishga va soliq to'lovchilarning vaqtini tejashga olib keladi. Soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan axborot xizmatlari sifati oshadi. Bundan tashqari, soliq to'lovchi hamda davlat soliq xizmati organlarining o'zaro munosabatlarida sub'ektiv aralashuvlar cheklanadi. Soliq to'lovchilarning soliq va moliyaviy hisobotlarini avtomatik tarzda elektron ko'rinishda jo'natish tegishli ma'lumotlar bazasi shakllanadi va uni elektron arxivlashtirish yo'lga qo'yiladi.

2. Interaktiv xizmat ko'rsatuvchi organlar va xizmat ko'rsatish joylari hamda huquqiy asoslari. «Elektron soliq hisobotini qabul qilish va qayta ishlash, elektron soliq hisobotini jo'natish» interaktiv davlat xizmati davlat soliq xizmati organlari tomonidan Davlat soliq qo'mitasining rasmiy www.soliq.uz saytidagi «Soliq to'lovchi yuridik shaxsning shaxsiy kabinetini» orqali ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi, «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi va «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonunlari hamda Adliya vazirligida 2005 yil 29 iyulda 1500-son bilan ro'yxatga olingan «Davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik sub'ektlaridan moliyaviy hisobot, soliqlar, majburiy to'lovlar va daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar, yozma arizalar va bildirishnomalarni qabul qilib olish hamda ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida»gi Nizomga va 2008 yil 3 yanvarda 1756-son bilan ro'yxatga olingan «Moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarini almashtiriladigan magnit (elektron, optik) manbalarda yoki aloqaning telekommunikatsiya kanallari vositasida taqdim etishning tartibi to'g'risida»gi vaqtinchalik nizomi, Adliya vazirligida 2007 yil 13 avgustda 1702-son bilan ro'yxatga olingan «Moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarini elektron shaklda taqdim etishda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari uchun Yo'riqnomasi».

Davlat soliq inspeksiyasining hisobotlarni qabul qiluvchi bo'linmasiga soliq to'lovchilarning hisobotlari tushgandan so'ng, ularning olinganligi to'g'risida «Soliq to'lovchi yuridik shaxsning shaxsiy kabineti»da avtomatik ravishda ma'lumot tushgan sana.

«Elektron soliq hisobotlari» interaktiv xizmati on-layn rejimida, murojaat qilingandan keyin ko'rsatiladi.

Soliq to'lovchilarning hisobotlarini qayta ishlov berish kelib tushgan paytidan to hisobotning yoki mulohazalarning bir nusxasi soliq to'lovchiga berilishi paytigacha uch kundan oshmagan muddatda amalga oshirilishi lozim.

Agar yuqorida aytilgan muddatning tugash vaqti dam olish kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, keyingi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

«Elektron soliq hisobotlari» interaktiv xizmati bilan foydalanishda to'lovchiga quyidagi ma'lumotlar:

✚ taqdim etilgan hisobot qabul qilingan taqdirda, uni qabul qilgan davlat soliq inspeksiyasining nomi, qabul qilish vaqti va sanasi, unikal kodi, hisobot nomi, davri, hisobotni qabul qilgan mansabdor shaxsning mansabi, ismi, sharifi va hisobot qabul qilinganligi to'g'risida belgi;

✚ taqdim etilgan hisobot belgilangan talablarga muvofiq kelmagan taqdirda uni qayta ishlashga qaytargan davlat soliq inspeksiyasining nomi, vaqti va sanasi, unikal kodi, hisobot nomi, davri, hisobotni qaytargan mansabdor shaxsning mansabi, ismi, sharifi, hisobotga doir mulohazalar;

✚ taqdim etiladi.

«Elektron soliq hisobotlari» interaktiv davlat xizmati to'g'risida soliq to'lovchilarni xabardor qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy www.soliq.uz sayti orqali amalga oshiriladi.

«Elektron soliq hisobotlari» interaktiv davlat xizmati to'g'risida soliq to'lovchilarni so'rov asosida xabardor qilish Davlat soliq qo'mitasida Yuridik shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi va Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi, hududiy davlat soliq boshqarmalari, tuman (shahar) davlat soliq xizmati organlari va ularning Soliq hisobotlarini kameral nazorat qilish bo'limlarning xizmat telefonlari orqali amalga oshiriladi. Aloqa telefon raqamlari Davlat soliq qo'mitasining rasmiy www.soliq.uz saytida «Sizning soliq xizmatimiz» bo'limida va «Soliq to'lovchi yuridik shaxsning shaxsiy kabineti»da joylashtiriladi.

3. Foydalaniladigan soliq va moliyaviy hisobot shakllari. Soliq to'lovchi yuridik shaxslar soliq va moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining qarorlari bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan hisobot shakllaridan foydalaniladi.

«Elektron soliq hisobotlari» interaktiv davlat xizmatidan foydalanuvchilar kunning istalgan vaqtida, doimiy ravishda foydalanishlar mumkin.

«Elektron soliq hisobotlari» interaktiv davlat xizmatidan Davlat soliq qo'mitasining rasmiy www.soliq.uz sayti orqali foydalanish uchun elektron raqamli imzo talab qilinadi.

«Elektron soliq hisobotlari» interaktiv davlat xizmati bepul ko'rsatiladi.

Elektron soliq hisobotini jo'natish uchun elektron raqamli imzo qo'llanilgan holda Davlat soliq qo'mitasining rasmiy www.soliq.uz saytidagi «Soliq to'lovchi yuridik shaxsning shaxsiy kabineti»ga kirib, tegishli saxifaga kirish lozim.

Davlat soliq qo'mitasining rasmiy saytida soliq to'lovchilariga tasdiqlangan shakllardagi soliq hisobotlarini elektron ko'rinishda shakllantirish imkoniyati yaratilgan. Shu jumladan, hisobotlarda soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, soliq davri, soliq summasi, elektron hujjatni jo'natuvchi soliq to'lovchining nomi, elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili, hujjat yaratilgan sana ko'rsatilishi lozimligi ko'zda tutilgan. Elektron ko'rinishda shakllantirilgan soliq hisobotlarining himoyasini ta'minlash maqsadida kriptografiya himoya vositalari qo'llaniladi.

Hisobotlar soliq to'lovchilar tomonidan elektron shakllarda tayyorlanib, belgilangan muddatlarda hisobga qo'yilgan davlat soliq inspeksiyalariga elektron aloqa orqali yuboriladi. Elektron hujjatlarda tayyorlangan hisobotlar bevosita soliq to'lovchi yoki ularning axborot vositachisi orqali yuborilishi mumkin.

Elektron shaklda qayd etilgan hisobotlar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va hisobotlarning belgilangan shakllari to'liq to'ldirilgan bo'lishi kerak. Soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lashga doir yozma arizalar va bildirishnomalarni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan quyidagi majburiy rekvizitlariga ega bo'lishi kerak:

- ✚ elektron raqamli imzo;

- ✚ elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili.

Elektron raqamli imzo qo'llanilgan holda elektron hujjatni jo'natuvchi soliq to'lovchining nomi, hujjat yaratilgan sana elektron xujjatda avtomatik ravishda ko'rsatiladi.

Taqdim etilgan hisobot belgilangan talablarga muvofiq kelmagan taqdirda bildirilgan mulohazalarni hisobga olgan holda takror ishlab chiqilgan hisobot davlat soliq xizmati idorasiga qayta taqdim etiladi.

Soliq hisobotlari soliq to'lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanib, davlat soliq organlariga yuboriladi. Elektron shaklda hisobotlarni taqdim etgan soliq to'lovchilar ushbu hisobotlarni qog'oz nusxalarda taqdim etish majburiyatiga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining dasturiy-apparat vositalari soliq hisobotlarni elektron ko'rinishda qabul qilib olingan sanasi va vaqti ko'rsatilgan holda, avtomatik tarzda tasdiqlanishini ta'minlaydi.

4. Interaktiv xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy harakatlari. Soliq to'lovchining elektron soliq hisobotlari «Soliq hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash tizimi» orqali Davlat soliq qo'mitasining mahsus serveriga avtomatik ravishda qabul qilinadi.

Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan elektrqog'ozon soliq hisobotlarni qabul qilish va ishlov berish uchun Davlat soliq inspeksiyasi rahbariyati tomonidan kameral nazorat olib boruvchi bo'linmasining mas'ul xodimi ichki idoraviy xujjat bilan o'rnatilgan tartibda belgilanadi.

Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan elektron soliq hisobotlarni qabul qilish «*Soliq hisobotlarini elektron ko'rinishda qabul qilish*» dasturiy mahsul orqali amalga oshiriladi.

Davlat soliq inspeksiyasining hisobotlarni qabul qiluvchi bo'linmaga soliq to'lovchilarning elektron hisobotlari tushgandan so'ng, ularni olinganligini «*Soliq hisobotlarini elektron ko'rinishda qabul qilish*» dasturiy mahsuli orqali bir kun ichida mas'ul xodim tomonidan qayd qilinadi.

Mas'ul xodimlari soliq to'lovchilardan qabul qilingan hisobotlarda quyidagilarning mavjudligini tekshiradilar:

- ✚ hisobotlar shakllarini to'liqligini;

- ✚ hisobotlardagi mansabdor shaxslarning elektron raqamli imzolarining mavjudligini va elektron hujjat imzolanayotgan paytda elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini amal qilib turganligi ham tekshiriladi;

- ✚ hisobotlarning barcha majburiy rekvizitlarini (bank hisobvaraqlari raqamlari, soliq to'lovchining identifikatsiya raqamlari, yuridik manzil, sanalar va shu kabilarni) to'ldirishini;

- ✚ hisobotlardagi shakllarida nazarda tutilgan barcha ko'rsatkichlarni to'ldirishini, shunda korxonada tegishli aktivlar, passivlar, operatsiyalar mavjud bo'lmagan holda bu modda (qator, ustun chizib) ("x" belgi bilan) qo'yilganligini.

Soliq to'lovchilarning hisobotlarini qayta ishlov berish kelib tushgan paytidan to hisobotning qabul qilinganligi yoki mulohazalari soliq to'lovchiga berilishi paytigacha uch kundan oshmagan muddatda amalga oshirilishi lozim.

Hisobotga doir e'tirozlar bo'lmagan taqdirda, taalluqli kompyuter dasturi orqali hisobot kuniga hisoblangan soliq to'lovlari summalari ko'rsatkichlari hisobvaraqlariga yozuvlarni o'tkazish va byudjet bilan o'zaro hisob-kitoblarga ko'ra operativ taqqoslanishni amalga oshirish uchun, soliqlar tushumini hisobga olish, tahlil qilish va soliq statistikasini olib boruvchi bo'linmaga topshiriladi, shundan keyin byudjet bilan hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlar ko'chirilib, soliq summalarining shaxsiy hisobvaraqlariga o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotni kompyuterdan chiqarib, belgilangan holda hisobotlarni qabul qiluvchi bo'linmaga topshiriladi.

Taqdim etilgan hisobotlar belgilangan talablarga muvofiq kelmagan taqdirda, davlat soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan "Hisobotga doir mulohazalar" tayyorlanib, qayta ishlash uchun soliq to'lovchiga qaytariladi.

Elektron shaklda taqdim etilgan hisobotlar Davlat soliq qo'mitasining mahsus serverida saqlanadi. Elektron hisobotlarni saqlash chog'ida ulardan foydalanish va ularning qog'oz nusxalarini taqdim etish imkoniyati ta'minlanishi lozim.

Elektron shakldagi hisobotlarni saqlash muddati, qog'oz nusxalardagi hisobotlar uchun belgilangan muddatdan kam bo'lmasligi kerak.

Soliq hisobotining shakllari o'zgargan taqdirda, ularga o'zgartirish kiritilgan paytidan boshlab bir kun davomida elektron shakllarga o'zgartirish kiritish yuzasidan Texnik topshiriq DSQning tegishli bo'linmalari tomonidan o'rnatilgan tartibda Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markaziga taqdim etiladi.

Elektron shakllarga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha Texnik topshiriqlar Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan ikki kun davomida bajariladi.

«Elektron soliq hisobotini qabul qilish va qayta ishlash, elektron soliq hisobotini jo'natish» interaktiv davlat xizmatni ko'rsatish jarayonida Yuridik shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi tomonidan:

✚ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustdagi 181-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to'g'risida»gi Nizom, 2012 yil 30 dekabrda 378-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risida»gi Nizom va interaktiv davlat xizmati ko'rsatilishini tartibga soluvchi reglament talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

✚ ishlab chiqilgan reglamentga zarurat bo'yicha o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish;

✚ amalda foydalanilayotgan interaktiv davlat xizmatiga tegishli o'zgartirishlarni kiritib borilishini ta'minlash;

✚ ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatining doimiy monitoringini yuritish va unda kamchiliklar paydo bo'lgan taqdirda, zudlik bilan bartaraf etilishini ta'minlash;

✚ hududiy davlat soliq xizmati organlarining interaktiv davlat xizmatini ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatini tashkillashtirish va nazorat qilish;

✚ foydalanuvchilar uchun interaktiv davlat xizmatidan foydalanish yo'riqnomalarini ishlab chiqish va yangilab borilishini ta'minlash;

✚ interaktiv davlat xizmatidan foydalanish bilan bog'liq savollar yuzasidan foydalanuvchilarga axborot-maslahat ishlarini olib borish;

✚ interaktiv davlat xizmatini aholi va tadbirkorlik sub'ektlari orasida doimiy targ'ibot qilish ishlari doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi, Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi va hududiy kameral nazoratini olib boruvchi bo'limlarning elektron soliq xisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash bo'yicha mas'ul xodimlar xizmat telefon raqamlarini Davlat soliq qo'mitasining rasmiy www.soliq.uz saytidagi «Sizning soliq xizmatigiz» bo'limiga joylashtirilishini va yangilanishini ta'minlash ushbu tuzilmalar tomonidan doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Elektron soliq xisobotlarni elektron raqamli imzolar bilan tasdiqlash va xisobotlarni shifrlash bo'yicha «*yt.uz*» dasturiy mahsulini nazoratini olib borish;

«*Soliq hisobotlarini elektron ko'rinishda qabul qilish*» dasturiy mahsulini nazoratini olib borish;

«Soliq xisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash tizimi»ning ma'lumot bazasini saqlash, Davlat soliq qo'mitasining mahsus serverining muntazam ishlab turishini va ma'lumotlarni axborot xavfsizligini ta'minlash Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan amalga oshiriladi.

«Elektron soliq hisobotini qabul qilish va qayta ishlash, elektron soliq hisobotini jo'natish» interaktiv davlat xizmatini ko'rsatishda rad qilish ko'zda tutilmagan.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq to'lovchilarning murojaatlarini qo'rib chiqish, ko'rib chiqishni asossiz rad etish, ijro muddatlarini asossiz buzish, murojaatni ko'rib chiqish jarayonida soliq to'lovchilarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqishini asossiz ravishda rad etish, soliq to'lovchilarning roziligisiz ularning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlarni oshkor etish, shuningdek soliq to'lovchilarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Ko'rsatilgan interaktiv xizmatning sifati shikoyat va murojaatlarning past ko'rsatkichi bilan aniqlanadi.

Agar davlat soliq xizmati organlari tomonidan sifatsiz xizmat ko'rsatilgan bo'lsa yoki xizmat ko'rsatish harakatlari buzilgan bo'lsa, xizmatdan foydalanuvchi qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

5. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridagi axborot texnologiyalar. AQShdagi soliq yig'ish tizimining uch pog'onaligi uning tarixiy rivojlanish evolyutsiyasini aks ettiradi. Shunga asosan, soliq idoralari uch bosqichda faoliyat ko'rsatadi.

Birinchi bosqich - AQShning federal soliq idoralari.

Ikkinchi bosqich - Shtatlar soliq idoralari.

Uchinchi bosqich - Mahalliy (shahar, okrug) soliq idoralari.

Soliq idoralari bir-biriga bog'liq bo'lmagan va o'zaro bo'ysunmagan holda faoliyat ko'rsatadi, ammo hamkorlikda ishlab, ma'lumotlar almashish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Federal idorani komissar boshqaradi. Bu AQSh Prezidenti tomonidan tayinlanadigan siyosiy lavozim. Komissar muoviniga esa kunlik operatsiyalarga va o'tkazilayotgan siyosatning turg'unligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan fuqaro xizmatchisi (shahodatlanmagan fuqaro) tavsiya etiladi. Federal soliq boshqarmasi (FSB) AQShning asosiy sanoat va madaniy markazlarida joylashgan 7 regional boshqarmaga ega (Nyu-York, San-Frantsisko, Tsintsinnati, Dallas, Filadelfiya, Atlanta, Chikago)⁹⁵.

Regional boshqarmalarni regional komissar boshqaradi. Regional boshqaruvning funktsiyalari milliy boshqaruv tomonidan ishlab chiqarilgan dastur va siyosatning bajarilishini ta'minlash, bo'ysunadigan boshqarmalar (tuman boshqarmasi va soliq markazlari) ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iborat.

Hozirgi vaqtda AQShda 63 tuman boshqarmasi, 10ta xizmat ko'rsatish markazi va 3 kompyuter markazi mavjud.

Tuman boshqarmalari asosan yirik sanoat va madaniy markazlarda joylashgan va har bir shtatda kamida bittadan tuman boshqarmasi mavjud. Boshqarma boshlig'i - tuman direktori tomonidan tavsiya etiladigan fuqarolik lavozim.

⁹⁵ I.Habibullaev, A.Djaylavov, K.Djuraeva. Soliq tizimida axborot texnologiyalari. –T.: “MOLIYA-IQTISOD”, 2009. 118-bet

Soliq idoralari dastur yo'nalishlari doirasida fuqarolar bilan bevosita muloqat olib boradilar. Ular muloqat chog'ida:

- ✚ soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish: axborotlar, konsultatsiyalar, soliq deklaratsiya shakllari va mos adabiyotlar bilan ta'minlash;

- ✚ to'ldirilgan soliq deklaratsiyalari va unga mos hujjatlarni tekshirish;

- ✚ to'lanmagan soliqlarni topish va soliq to'lovchilarning hisoblaridan mos summalarini olishni ta'minlash;

- ✚ soliq to'lovchilarning shikoyatlarini tahlil qilib, qoniqtirish ishlarini olib boradilar.

Soliqlarni to'lamaganlarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tekshirish axborotlaridan foydalanib, bozorni o'rganish va soliqlarni ixtiyoriy to'lash darajasini ko'tarish uchun keng miqyosdagi texnologiyalardan foydalanadilar.

Xizmat ko'rsatish markazlari har bir regionda kamida bittadan joylashgan bo'lib, uning boshlig'i - xizmat ko'rsatish markazining direktori hisoblanadi.

Markaz direktorining vazifalariga FSB faoliyatiga xizmat ko'rsatish bilan birga soliq deklaratsiyalari va axborotlar hujjatlarini qayta ishlash, soliq deklaratsiyalarini dastlabki tekshirish va qo'shimcha axborot yoki hujjatlarini tasdiqlovchi ma'lumotlarni olish maqsadida soliq to'lovchilar bilan yozishmalar o'tkazish kiradi.

Kompyuter markazlari Detroyt, Martinsburg va Memfisda joylashgan bo'lib ularning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✚ elektron pochta orqali qabul qilingan hamma soliq deklaratsiyalarini va to'lovlarini olish va qayta ishlash;

- ✚ dastlabki olingan ma'lumotlarni qayta ishlab, navbatdagi tahlil uchun muammolarni aniqlash yoki soliq to'lovchilar bilan muloqotning zarurlik darajasini aniqlash;

- ✚ hisobotlarni ro'yxatdan o'tkazish va mamlakatning FSBga hisobotlarni elektron ko'rinishda jo'natishdan iborat.

AQSh shtatlarining barchasiida o'zining mahalliy hukumatlariga bo'ysunadigan va shtatlarning soliqlari bilan shug'ullanadigan okrug soliq idoralari mavjud.

Shahar bosqichida shahar byudjetiga tushadigan soliqlar bilan shug'ullanuvchi o'z soliq idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Soliq to'lovchilar AQSh Hukumatiga federal soliq, shtatga soliqlar va mahalliy soliqlarni to'laydilar va mos ravishda har yili soliq deklaratsiyalarining kamida 3 ko'rinishini to'ldiradilar.

Soliqqa tortish qonunchiligi soliqlarni to'lashdan bosh tortganlik uchun juda qat'iy sanksiyalarni ko'zda tutadi, jumladan: butun mol-mulkini musodara qilishgacha etib boradigan jarimalar, 1 yildan 5 yilgacha muddatda qamoqda saqlash, ommaviy axborot vositalari orqali mas'uliyatsiz ST haqida xabar berish kabilar. Alohida kompyuter dasturi yordamida hamma soliq deklaratsiyalari-ning 1 foizi tanlanib, har yili tekshiriladi. Ixtiyoriy tekshirishlar esa faqat ilmiy-tadqiqot va tekshirish maqsadlari uchun o'tkaziladi.

AQShda davlat sektorining kamligi hisobga olinib, daromadlarning asosiy qismi aholining daromadlaridan olinadi, bu tadbirkorlarning foydasi (80 foiz) va korporatsiyalarning foydasini ham o'z ichiga oladi.

AQShda soliq to'lashlar bo'yicha imtiyozlarga kichik biznes korxonalari, shuningdek, notijorat asosida ishlaydigan tashkilot va korxonalar, maorif, davlat o'quv muassasalari va hokazolar ega. AQSh soliq tizimi – soliq siyosati, moliya tadbirlari, davlatning tadbirkorlikka ta'sir o'tkazishi bozor munosabatlari rivojlangan bu mamlakat xo'jalik mexanizmining asosiy unsurlari hisoblanadi.

AQShda doimiy soliq tushumlarining aksariyat qismi federal byudjetga yuborilib, xususiy kapitalni iqtisodiyot sohasiga jalb etishga mo'ljallangan. Soliq imtiyozlari bevosita turli usullar orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi. Aholidan olinadigan daromad solig'ining nisbati katta bo'lib, u o'sib boruvchi shkala bo'yicha hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta ajratmalar federal byudjetda hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lib, uni ish beruvchi yoki ishchining o'zi to'laydi. To'lov stavkasi har yili o'zgarib turadi. Uchinchi katta soliq – korporatsiya solig'idir. Korporatsiyalar tabaqalashtirilgan stavkalarda 15, 25 va 34 foiz soliq to'laydi. Korporatsiyalardan shtatlar byudjetiga ham tegishli soliqlar olinadi. Odatda, uning miqdori 3-12 foizgacha bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti mexanizmi tadbirkorlikning erkinligini ta'minlaganligi sababli resurslar taqsimoti, narxlar tovarlar ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar asosida, foydaning o'rtacha miqdorini hisobga olgan holda belgilanadi. AQShda jismoniy shaxslar va korporatsiyalardan olinadigan soliq miqdori umumiy tushumning 75 foizdan yuqori qismini ta'minlaydi.

Shtatlar korporatsiyalar va fuqarolardan daromad solig'ini yig'ib oladilar. Sotuvlardan olinadigan soliq ularning daromad manbai bo'lib, uning bir qismi shahar byudjetiga o'tkaziladi. AQSh shtatlaridan 44 tasida savdodan olinadigan soliq qo'llaniladi. Mahalliy soliqlarning tarkibi va stavkalari to'rt guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – bevosita soliqlar (mulk solig'i, er solig'i, sovg'alar va meroslardan olinadigan mahalliy soliq) faqat shu hududda yig'iladi. Bilvosita soliqqa tortish turlicha bo'lib, asosan, savdo va maxsus aktsiz soliqlaridan iborat. Ikkinchi guruh – bu soliqlar mahalliy soliqlardan faqat shaklan farq qiluvchi umumdavlat soliqlariga qo'shimcha bo'lib, uning ma'lum foizi mahalliy byudjetga ajratiladi. Uchinchi guruh – transport vositalariga, mehmonxonalariga, musiqa va sport tadbirlariga, kommunal xizmatlarga belgilangan soliqlarni o'z ichiga oladi. Iste'mol soliqlariga avtomashinalarni ro'yxatga olish, avtomashinalar turar joyiga, yonilg'iga soliq, aktsiz solig'i va yo'llar uchun olinadigan soliqlar kiradi. To'rtinchi guruh – mahalliy soliqlar, mazkur hududni boshqarish organlari ixtiyoriga o'tkaziladi. Bu guruhga ekologiya solig'i ham kiradi va u atrof-muhitni muhofaza qilish va tozalashga sarflanadi.

AQShda ichki soliq xizmati (ISX) soliq to'lovchilarni soliq hisobotlarini elektron holatda topshirishga undab, soliq hisobotlarining elektron fayllar turini ko'paytirmoqda. 2003 yil 51,2 million, 2004 yil hisobiga esa salkam 61 million soliq deklaratsiyalari onlayn tartibida to'ldirilgan. 2007 yilda ISX 80 foiz soliq

deklaratsiyalarini elektron holatda to'ldirilishiga erishgan. Bunday holat esa joriy deklaratsiyalar sonini ikki barobar o'sishiga olib keladi.

ISX soliq to'lovchilarga elektron deklaratsiya dasturidan foydalanishning afzalliklarini yoritishda maxsus yo'riqnomalar chiqarib, radio va televidenie dasturlaridan foydalanadi. Elektron deklaratsiyalar soliq to'lovchilar uchun ham, ISX uchun ham juda qulaydir. Shuning uchun ham ISX soliq to'lovchilar uchun bepul elektron deklaratsiyalar dasturlarini qo'llashni tavsiya etadilar.

Elektron deklaratsiya AQSh soliq hukumati uchun juda katta iqtisodiy foyda keltiradi. 2004 yilda ISX elektron hisobot dasturini yangi (S va C) korporatsiyalarni hisobga olgan holda ilk marotaba kengaytirdilar. Bu esa o'z navbatida, elektron hisobot topshiruvchilar sonining kengayishiga olib keldi.

Germaniyaning soliq idoralari moliya idoralari tarkibiga kiradi. Har 16 hududda o'z moliya vazirligi bor. Saksoniyaning Drezdenda joylashgan o'z moliya vazirligi bor. Bundan tashqari Kemnitseda Oliy Moliya Direktsiyasi joylashgan. Soliq to'lovchilarning soniga qarab, har bir hududda bittadan uchtagacha Soliq Direktsiyasi bo'lishi mumkin. Butun Saksoniya 35ta moliya idoralariga bo'lingan, hududiy jihatdan esa, 24 okrugga bo'lingan. Shuning uchun, moliya tarmog'i orqali bo'linish hududiy bo'linish bilan to'g'ri kelmaydi.

Barcha moliya idoralari uchun yagona hisoblash markazi tashkil qilingan bo'lib, moliya idoralari tarmoq orqali hisoblash markaziga bog'lanishi mumkin. Hisoblash markazida hududlar bo'yicha moliya idoralarining hamma ma'lumot bazalarini yig'ish, qayta ishlash va saqlash kabi ishlar amalga oshiriladi. Hamma Moliya idoralarining markaziy EHM bilan aloqasi uchun alohida aloqa tarmog'i ajratilgan. Ma'lumotlarni yig'ish joylarda, qayta ishlash esa markazlashgan holda amalga oshiriladi.

Nazorat qiluvchi idora – hisoblash palatasi bo'lib u hududiy parlamentning yordamchi idorasi hisoblanadi. Hisoblash palatasi barcha moliya idoralarini, shu jumladan, moliya vazirligini nazorat qiladi.

Soliq to'lovchilar haqidagi axborotlarni kiritish davrida hisoblash markaziga vaqtincha operatorlar ishga olinadi.

Soliq hujjatlari soliq to'lovchilar tomonidan to'ldiriladi va pochta orqali yuboriladi yoki o'zlari soliq inspeksiya bo'limlariga keltirib beradilar.

Soliq inspeksiya bo'limida hujjatlarni inspektorlar bo'yicha alfavitga mos tarqatiladi, inspektorlar soliq hujjatlaridagi ma'lumotlarni hisoblash markazida EHMga to'g'ridan-to'g'ri terminallar orqali kiritadilar. Qayta ishlangan ma'lumotlar hisoblash markazi bosmaxonasida bosilib, soliq to'lovchilarga pochta orqali jo'natiladi. Hisoblash markazi ma'lumotlariga ko'ra, soliq to'lovchilar tanlab nazorat qilinadi.

Germaniya soliq tizimi – fiksal siyosatli soliq tizimi bo'lib, soliqlar federatsiya, er (shtat) va mahalliy byudjetlarga to'lanadi. Germaniya siyosiy va iqtisodiy rivojlanish borasida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan holda kuchli federativ davlatga aylandi. Mamlakat iqtisodiyoti to'liq ijtimoiy muammolarni echishga qaratilgan. Federativ mamlakatda markaziy Hukumat bilan federatsiya sub'ektlari orasida vakolatlarni chegaralash va moliya manbalarini taqsimlash uzoq

vaqt asosiy muammolardan bo'lib keldi. Hozir soliq qonunchiligida asosiy o'rin federatsiyaga berilgan. Daromad solig'i tushumlarining 42,5 foizi federal byudjetga, 42,5 foizi erlar byudjetiga, 15 foizi mahalliy byudjetlarga taqsimlanadi. Korporatsiyalar solig'i federal va erlar byudjetiga teng bo'linadi. Mahalliy organlar orqali tadbirkorlik faoliyati uchun soliq yig'iladi. QQS ham uchchala byudjetga taqsimlanadi. Tartibga solinadigan bu soliqning taqsimlanadigan qismlari har xil bo'ladi. Davlatga to'lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar ichida QQS katta daromad keltiradi. Uning ulushi byudjet tarkibida 28 foizga teng, ya'ni daromad solig'idan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Soliq stavkasi 15 foizni tashkil etadi. Lekin asosiy oziq-ovqat mollari, kitob va ro'znomalar pasaytirilgan – 7 foizli stavkada soliqqa tortiladi. Qishloq, o'rmon xo'jaliklari, eksportga jo'natiladigan tovarlar QQSdan ozod qilinadi. Germaniyada korporatsiya solig'iga ikki asosiy stavka belgilangan. Hunarmandchilik solig'i – muhim mahalliy soliq hisoblanib, unga korxonalar, shirkatlar, jismoniy shaxslar, hunarmandchilik, savdo va boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi fuqarolar jalb etiladi. Yer solig'ining miqdorini aniqlashda munitsipalitetlar tomonidan maydonlar chegaralanadi (qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va h.k). Ilgari har bir jismoniy shaxsga 0,5 foiz bo'lgan mulk solig'ining stavkasi hozir 1 foizgacha ko'tarildi. Sanoat korxonalari va kompaniyalar 0,6 foiz mulk solig'i to'laydilar.

Litva Davlat soliq inspeksiyasi Moliya Vazirligi qoshida tashkil etilgan bo'lib, markaziy soliq ma'muriy boshqaruvi bo'lib hisoblanadi. Litvada har bir soliq to'lovchi, u hujjat almashishning xoh elektron shaklni xoh qog'oz shaklini tanlamasin, soliq tizimini shunga moslashtirishga asosiy e'tibor qaratilgan. Shuning uchun qo'llash uchun oson bulgan ABBYY FormReader tizimi amaliyotga joriy etilgan. Bunday tizimni qo'llash zaruriyati tabiiy ravishda yuzaga keldi. Litva soliq qonunchiligiga ko'ra har bir litvalik o'z daromadlaridan soliq deklaratsiyalarini topshirishi kerakligi sababli Litva soliq inspeksiyasi xodimlari soliq hujjatlarining hajmi me'yoridan oshib ketishi natijasida, ularni qayta ishlash imkoniyatlari yo'q darajaga kelib qoldi. Soliq deklaratsiyalarini uzluksiz topshirish ularning sonini o'sishiga olib keldi (yiliga 2 million deklaratsiyalar, har biri 5 varaqdan iborat). Bundan tashqari, yangi qonunchilikka asosan DSI ortiqcha to'langan soliq summalarini soliq to'lovchilarga deklaratsiya qabul qilib olingan kundan e'tiboran 30 kun ichida qaytarib berishlari kerak edi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik deklaratsiyalar topshirish muddati tugashiga yaqin qolganda topshirilgan. Bunday holat deklaratsiyani qayta ishlashni qiyinlashtirgan. Ayni paytda soliq deklaratsiyalari Litvada qog'oz shaklida qabul qilinar edi va barcha tegishli ma'lumotlar soliq inspeksiyasining axborot tizimiga qo'lda kiritilar edi. Bu esa o'z navbatida juda ko'p vaqt, ish kuchi va mablag' talab qilar edi.

Soliq maslahati xizmatlari faqatgina mahalliy soliq idoralaridagina mavjud bo'lib, yo'riqnoma bo'yicha jamoatga umumiy ma'lumot berish qiyin edi. Bunday sharoitda birgina muvaffaqiyat kaliti bo'lib, kuchli ma'lumot resursi bo'lgan internetni soliq to'lovchilar deklaratsiyalarini qabul qilishda ishlatish edi. Buning uchun hamma Litvalik soliq to'lovchilar uchun kechayu-kunduz ishlab turadigan elektron soliq tizimini yaratish vazifasi qo'yiladi. Bunday elektron soliq tizimi

bilan turli joylardan va resurslardan elektron shaklda ma'lumotlar qabul qilib olinishi va soliq inspeksiyasiga qayta ishlash, tekshirish va saqlash uchun uzatilish imkoniyati yaratildi. Bu turli ichki operatsiyalar sifatini oshiradi va millionlab deklaratsiyalarga ishlov berishda qulayliklar yaratadi. Internetning tezlik bilan o'sib borishiga qaramay, Litvalik soliq to'lovchilar internetta deklaratsiya topshirishdan ko'ra, qog'ozdan foydalanishni afzal ko'rishadi. Shuning uchun boshqa bir muhim vazifa, millionlab qog'oz deklaratsiyalarni qayta ishlashni tezlashtirish va avtomatlashtirish vazifasi qo'yiladi.

Deklaratsiyalarni kiritish, yangilash va saqlash uchun elektron va qog'oz deklaratsiyalar shakli bir xil bo'lishini ta'minlash zarur edi. Soliq inspeksiyalarida deklaratsiyalarni qayta ishlash va bir turdagi dastur va texnologiya ishlatadigan hamma shakllar (shablon, qog'oz va elektron shakllar)ni standartlashtirish rejalashtirildi. Bu sohadagi turli loyihalarni ko'rish uchun soliq inspeksiyasi mahalliy va xalqaro axborot texnologiyalari kompaniyalari servis provayderlariga tender e'lon qildi. Natijada INFO-TEC UAB ABBYY ning Litvadagi filiali loyiha bo'yicha bosh shartnomachi va barcha ABBYY FormReader and Saperion (elektron hujjat boshqaruvi tizimi) loyihalari boshqaruviga mas'ul etib tayinlandi.

Dasturiy ta'minot yaratuvchilarini diqqat bilan o'rgangandan so'ng, soliq inspeksiyasi ABBYY FormReader tizimini tanladi. Bu tizimni tanlashga asosiy sabablari: ABBYY soliq deklaratsiyalarini har-xil manbalardan o'qitish va bir xildagi texnologiya bilan hamma turdagi shakllarni yaratish imkoniyati; boshqa davlatlarda ham bunday loyihalarining mavjudligi bo'ldi.

ABBYY filiali INFO-TEC Microsoft Lietuva dasturning asosiy platformasini yaratdi va loyihaning nazoratini ta'minladi. Undan tashqari, Alna AB subshartnomachi elektron hujjat aylanish tizimi uchun ba'zi qo'shimcha modullarni, markaziy baza, ichki va tashqi veb portallarini birlashtirib avtorizatsiya modullarini yaratdi.

Markaziy soliq ma'muriy boshqaruvi uchun 5 ta ABBYY FormDesigner, eFormDesigner and FormReader Template Designer dasturlari o'rnatilgan ishchi stantsiyalar soliq inspeksiyasining bosh ofisiga o'rnatildi. Bu dasturlar asosida INFO-TEC mutaxassislar va soliq inspeksiyasi Axborot texnologiyalari bo'limi hamkorlikda 150 ga yaqin deklaratsiyalar uchun ichki tekshirish qoidalari mavjud bo'lgan har-xil turdagi shakllar va namunalar yaratdilar. 11 ta FormReader Enterprise Edition dasturlarini o'rnatish mamlakat bo'ylab to'ldirilgan qog'oz shakllarni qayta ishlashni ta'minladi. 70 foiz deklaratsiyalarni qayta ishlash 10ta mahalliy soliq inspeksiyalari orqali ta'minlandi. 30 foiz hujjat maxsuslashtirilgan Druskininkaidagi qayta ishlash markazida qayta ishlandi. Druskininkaidagi markaz faqat shu loyiha uchun qurilgan bo'lib, norasmiy "FormReader uyi" deb atala boshladi. U yerda qog'oz deklaratsiyalarni qayta ishlash hajmi kuniga 30 000 qog'ozni tashkil etadi.

Markaz asosan qog'oz deklaratsiyalarni saqlash, saralash va nazorati hamda ma'muriyat bo'limlaridan iborat bo'lib, 40 ga yaqin ishchilar hujjat tekshirish uchun band qilingan, shundan 5tasi katta nazoratchi bo'lib, alohida muammolarni echish vazifalarini bajaradi.

ABBYY eFormFiller dasturi ochiq litsenziyaga ega bo'lib, Litvadagi har bir soliq to'lovchi hozir soliq deklaratsiyasini internet orqali taqdim eta oladi. Bunda soliq to'lovchilar soliq inspeksiya'sining veb portaliga bog'lanadilar va kichik hajmdagi eFormFiller dasturini va ABBYY eFormDesigner dasturi orqali tuzilgan elektron shakllarni yuklab olishlari mumkin. eFormFiller dasturi soliq to'lovchilarga elektron shakllarni to'ldirish va ma'lumotlarni tekshirish va tayyor bo'lgan shaklni soliq inspeksiya'si veb portaliga jo'natish uchun xizmat qiladi.

ABBYY FormReader tizimini ishga tushirish uchun bir oy vaqt sarflandi, u darhol o'z natijasini ko'rsatdi va hujjatlarni qayta ishlash jarayoni 4-5 barobar tezlashdi. Shuning bilan birga xato kamchiliklarga yo'l qo'yishlik ham ilgari qaraganda kamayishi ta'minlandi.

Rossiya Federatsiya'sining soliq tizimi – fiskal funktsiyaga ega bo'lib, 2002 yildan e'tiboran yangi yo'nalishda rivojlana boshladi. Ijtimoiy soliqning joriy etilishi, ish haqidan olinadigan soliqning hamma uchun bir xil 13 foiz stavkaga tushirilishi, yangi soliq imtiyozlarining joriy etilishi kabi holatlar bu sohadagi jiddiy o'zgarishlar jumlasiga kiradi. Bu yo'nalishda soliq qonunlaridan tashqari, yana ko'plab me'yoriy hujjatlar qo'llaniladi, lekin ular hali mukammal bo'lmaganligidan tez-tez o'zgartirilib turiladi. Bunday holat esa soliqchilar faoliyatida katta qiyinchiliklar tug'diradi. Hozirgi paytda soliq tizimini keskin o'zgartirish mumkin emas, chunki bu moliya tizimini umuman buzib yuborib, soliq to'lovchilarning davlatga ishonchini yo'qotishga olib keladi. Shuning uchun, soliq hajmini kamaytirmaslik maqsadida, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlab turiladi, jumladan, korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, aksionerlik jamiyatlariga aylantirilmoqda.

Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi mamlakat hududida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslardan yig'ilyotgan soliqlar, yig'implar va boshqa to'lovlardan tashkil topgan. Barcha soliqlar, yig'implar va bojlar Rossiya byudjet tizimiga kelib tushadi va davlat daromad manbaini shakllantiradi. Davlatga yig'ilyotgan mablag'lar ijtimoiy, mudofaa, huquqni saqlash va boshqa vazifalarni bajarish uchun sarflanadi.

Rossiya Federatsiya'sining Davlat soliq xizmati organlari tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ✚ Rossiya Federatsiyasi respublika markaziy boshqaruv organi – Rossiya Federatsiyasi davlat soliq xizmati;

- ✚ Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kiruvchi respublikalar davlat soliq inspeksiya'lari;

- ✚ viloyatlar, o'lkalar, tumanlar, shaharlardagi (tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari) davlat soliq inspeksiya'lari;

- ✚ shahar tarkibidagi tuman davlat soliq inspeksiya'lari.

Rossiya Federatsiyasi davlat soliq xizmati organlari markaziy boshqaruv organlari tizimiga kiradi, Rossiya Federatsiyasi prezidenti va hukumatiga bo'ysunadi.

Rossiya Federatsiyasi davlat soliq xizmatining asosiy vazifasi soliqlar haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi, soliqlar va yig'implar qonunda

belgilangan tartibda to'g'ri hisobga olinishi, to'liq va o'z vaqtida tegishli byudjetlarga o'tkazilishini nazorat qilishdan iborat.

Ko'rilayotgan tizimda boshqaruv ob'ekti bo'lib, korxonalar va tashkilotlarning turli shakllari va aholi hisoblanadi. Boshqaruv sub'ekti bo'lib, soliq xizmati orqali ta'sir etuvchi davlat hisoblanib, u xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliq tizimi orqali ta'sir o'tkazadi. Soliq tizimining avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etishda har bir toifaga qaysi vazifalar xosligi va ular orasida aloqalar amalga oshirilishini bilish zarur.

Rossiya soliqqa tortish boshqaruv tizimi va uning tuzilishi mamlakatning ma'muriy hududiy bo'linishiga xosdir. Soliq xizmati ish uslubini yagonaligini ta'minlash maqsadida alohida bir xil toifadagi boshqaruv tizimlari yagona jadval asosida oldindan tayyorlangan ma'lumotlar bazasini qayta ishlash metodologiyasi va texnologiyasi bo'yicha funktsiyalarni bajaradi. Davlat soliq xizmatining 1-darajasi bo'linmalardan iborat bo'lib, soliq turlari bo'yicha soliqqa tortishning metodologik boshqaruvi va nazoratini amalga oshiradi. Boshqaruv ob'ekti bo'limlari soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar bilan bevosita ishlashni 3-darajada amalga oshiradi. Eng quyi toifaga tuman, viloyatlarga bo'ysunmaydigan shaharlar va shahar miqyosidagi tuman davlat soliq inspeksiylari kiradi.

Ular quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- ✚ soliq va boshqa to'lovlarning byudjetga o'tkazilishi haqida qonun hujjatlariga rioya qilinishini nazorat qilish;

- ✚ soliq to'lovchilar va byudjetga o'tkazilayotgan to'lovlar hisobini tuzish;

- ✚ soliq va to'lovlarning to'g'ri hisoblanishini ta'minlash va o'z vaqtida byudjetga o'tkazilishini nazorat qilish;

- ✚ soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni o'z vaqtida byudjetga o'tkazish bilan bog'liq buxgalteriya hisob-kitoblarning to'g'riligini tekshirish va nazoratini olib borish;

- ✚ ijro etuvchi hokimlik, huquqni muhofaza qilish, moliya-kredit organlari bilan qonunlarni bajarilishini nazorat qilishda hamkorlik qilish;

- ✚ ko'rsatilgan qonun buzish holatlarida moliyaviy jarima qo'llash va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash;

- ✚ byudjetga haqiqatda kelib tushgan soliqlar va yig'imlar haqidagi summani tayyorlash, tahlil qilish va tuman, shahar moliya organlariga taqdim qilish;

- ✚ hisobot tuzish, tahlil qilish va belgilangan tartibda yuqori soliq organlariga taqdim qilish;

- ✚ belgilangan tartibda ish yuritish va boshqa vazifalarni bajarish.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda Rossiya Federatsiyasi Davlat soliq xizmati boshqaruv organlari tomonidan "Nalog" avtomatlashtirilgan informatsion tizimi ("Nalog" AIT) yaratilgan. "Nalog" AIT tizimining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✚ soliqqa tortish tizimining ishlash samaradorligini qabul qilingan ma'lumotlarni sifatli va operativ hisoblash orqali oshirish;

- ✚ ma'lumotlarni qayta ishlash operativligini va DSIlarning mehnat unumdorligini oshirish;

- ✚ barcha toifadagi DSIlarni to'liq va o'z vaqtida soliqlar haqidagi qonun hujjatlari va ma'lumotlari bilan ta'minlash;
- ✚ soliq to'lovchilar hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligini va soliq qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- ✚ buxgalteriya hisobi tezkorligi va sifatini oshirish;
- ✚ soliq va boshqa to'lovlarni byudjetga tushishi haqidagi ma'lumotlarni olish;
- ✚ soliq summasining yig'ilish dinamikasini va bashoratini tahlil qilish;
- ✚ soliq tushumlari va soliq qonunchiligiga rioya etilishi haqidagi turli darajadagi idoralarni ma'lumotlar orqali xabardor qilish;
- ✚ qog'oz hujjat aylanmasi hajmini kamaytirish.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichida Rossiya soliq tizimi faoliyatining yutuqlari asosan AIT samaradorligiga bog'liq bo'ldi. Soliq tizimida AIT texnologiyasi – texnologik zanjirga bog'langan usullar yig'indisi, informatsion jarayonlar va dasturiy texnik vositalar, bo'lib, u ma'lumotlarni yifish, qayta ishlash, saqlash, ko'paytirish, tarqatish maqsadlarida foydalaniladi. Informatsion resurslar bo'lib, shakllangan g'oyalar va bilimlar, turli ma'lumotlar, usullar va ularni ko'paytirish vositalari, axborot manbai va foydalanuvchisi o'rtasida ma'lumotlar almashuv va saqlash hisoblanadi. Soliq xizmatining asosiy vazifalaridan biri soliq organlari ishini avtomatlashtirish bo'lib, bunda soliq organlari tuzilmalarida informatsion texnologiyadan keng foydalanish ko'zda tutilgan.

AIT tizimi ham soliq organlarining tuzilishi kabi uch darajadan iborat. Mamlakatda amal qiluvchi soliq tizimi ko'p sonli organlardan (elementlardan) tashkil topgan. Butun tizim va uning har bir elementi orasida ichki va tashqi aloqalar yo'lga qo'yilgan. Har qanday iqtisodiy tizim kabi soliq xizmatining AIT talabga mos ravishda tuzilgan funktsional va ta'minlovchi qismlardan iborat. Funktsional qismda soliq organlarida bajarilayotgan vazifalarga qarab mos bo'linmalarga ajraladi. Ularning har bir darajasida AIT mavjud bo'lib, muayyan iqtisodiy ma'noga ega bo'lgan, boshqarish vazifasini ta'minlovchi aniq bir maqsadga yo'naltirilgan masalalarni hal etishga mo'ljallangan dasturlar majmuasidan iborat. Dasturlar majmuasida turli birlamchi hujjatlar ishlatiladi va hisob-kitob algoritmlari asosida o'zaro bog'liq bo'lgan qator chiqish hujjatlari tuziladi. Hisob-kitoblar algoritmi metodik materiallar, me'yoriy hujjatlar va instruktsiyalardan tashkil topgan.

Ta'minot qismi informatsion texnik, dasturiy va boshqa turdagi ta'minotlarni o'z ichiga oladi.

Informatsion ta'minoti barcha ko'rsatkichlar yig'indisini, hujjatlar, klassifikatorlar, kodlar, soliq tizimi organlarida funktsional vazifasini echishning avtomatlashtirish jarayonida foydalanadigan disklardagi ma'lumotlar massivlarini o'z ichiga oladi.

Texnik ta'minlash ma'lumotlarni qayta ishlovchi texnik vositalar yig'indisidan tashkil topib, ular asosini turli EHM hamda boshqa iqtisodiy

ob'ektlar va tizimlar bilan o'zaro aloqalarda axborotlar uzatilishini ta'minlovchi vositalar tashkil etadi.

Dasturiy ta'minot o'z ichiga soliq organlari tomonidan turli masalalarni echish uchun kerak bo'ladigan umumiy va amaliy xarakterga doir turli dasturiy vositalar kompleksini olgan.

Rossiya Federatsiyasi soliq xizmatining avtomatlashtirilgan informatsion tizimi katta tizimlar sinfiga kirib, ularga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi.

AMALIY MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

1-MAVZU: “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANINING PREDMETI VA O‘RGANISH USULLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: soliq, soliqqa tortish ob’ekti, soliq tizimi, soliq to’lovchilar, soliq xizmati, solikli va soliqsiz to’lovlar, yig’im, to’lovlar, davlat budjeti, budjet daromadlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining predmeti nima?
2. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining boshqa fanlar bilan bog’liqligi izohlang.
3. Soliqlar deganda nimani tushunasiz?
4. Soliqlar tizimi deganda nimani tushunasiz?
5. Soliqlar qaysi davlat organi tomonidan joriy qilinadi?
6. Umumdavlat soliqlari tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
7. Mahalliy soliqlar tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
8. Qaysi soliqlar mahalliy budjetlar o’rtasida taqsimlanadi va qanday tartibda?
9. Qaysi mahalliy soliqlar O’zbekiston Respublikasining butun hududida undiriladi?
10. Soddalashtirilgan soliq tizimiga qanday yuridik va jismoniy shaxslar o’tgan?
11. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini qachondan boshlab yagona soliq to’lovini to’lovchilari hisoblanishadi?
12. Budjetdan tashqari jamg’armalarni sanab bering?
13. Yagona ijtimoiy to’lov qaysi jamg’armalar o’rtasida taqsimlanadi?
14. Soliqlarni umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi nimada deb o’ylaysiz?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Soliqlar – deganda.....

- a) davlat budjetiga undiriluvchi majburiy to'lovlar tushuniladi
- b) yuridik shaxslar tomonidan budjetga undiriladigan to'lovlar tushuniladi
- c) jismoniy shaxslar tomonidan budjetga to'lanadigan majburiy to'lovlar tushuniladi
- d) muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi

2. Soliq stavkalarining turlarini aniqlang.

- a) to'g'ri, egri, resurs
- b) o'sib boruvchi, bazaviy stavkalar, egri
- c) proporsional, progressiv, regressiv
- d) regressiv, qat'iy bo'lmagan, bazaviy stavkalar

3. Soliqqa tortishning qanday usullari mavjud?

- a) kadastrli, deklaratsiya, manba oldida soliqqa tortish
- b) to'g'ri va egri
- c) bevosita va bilvosita
- d) to'lov manbaida soliqqa tortish

4. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi printsiplarini ko'rsating.

- a) oddiylik va xolislik
- b) soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi
- c) tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash
- d) tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, hamma daromadlarni soliqqa tortish

5. Soliqlarning fiskal funksiyasi nimani anglatadi?

- a) soliqlar yordamida davlatning moliyaviy mablag'larni tashkil qilishni
- b) davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini
- c) ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatishini
- d) soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni

6. Resurs to'lovlariga qaysi soliqlar kiradi?

- a) yer solig'i, mol-mulk solig'i, daromad solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq

b) yer solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

c) yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

d) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

7. Soliq agenti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir

b) zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir

c) davlat soliq xizmati organlari

d) boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari

8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

a) 1991 yil 15 fevral

b) 1997 yil 24 aprel

c) 1997 yil 29 avgust

d) 1993 yil 6 may

9. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qachon kuchga kirdi?

a) 2008 yil 1 yanvar

b) 2007 yil 1 yanvar

c) 2009 yil 1 yanvar

d) 2006 yil 1 yanva

10. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi nechta moddadan iborat?

a) 185-modda

b) 390-modda

c) 192-modda

d) 392-modda

2-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALDA BO'LGAN SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: soliq, soliqqa tortish ob'ekti, soliq tizimi, soliq to'lovchilar, soliq xizmati, soliqli va soliqsiz to'lovlar, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, yig'im, to'lovlar, davlat budjeti, budget daromadlari, to'g'ri soliqlar, egri soliqlar, soliq yuki, soliq stavkalari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliqqa tortish ob'ektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
2. Oborotdan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
3. Daromaddan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
4. Mol-mulk va yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlarni kiritish mumkin?
5. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qanday guruhlanadi?
6. To'g'ri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi va u nima uchun to'g'ri soliq deb ataladi?
7. Egri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
8. Egri soliqlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsating?
9. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farqi nimadan iborat?
10. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning o'ziga xos xususiyatlari nima?
11. Soliq to'lovchilar qanday huquqlarga ega?
12. Soliq to'lovchilar qanday majburiyatlarga ega?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini aniqlang.

- a) Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarida namoyon bo'ladi
- b) Davlatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda namoyon bo'ladi
- c) Sohalar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashda namoyon bo'ladi
- d) Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslarini tashkil etishda namoyon bo'ladi

2. Davlat budjeti daromadlarining asosiy manbalarini ko'rsating.

- a) Soliqlar
- b) Majburiy to'lovlar
- c) Soliqsiz daromadlar
- d) Hamma javoblar to'g'ri

3. Soliqlarning qanday o'ziga xos belgilari mavjud?

- a) Majburiylik, foizlilik, muddatlilik
- b) Majburiylik, davlat budjetiga tushishlik, qat'iylik, ekvivalentsizlik
- c) Majburiylik, muddatlilik
- d) Davlat budjetiga tushishlilik

4. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?

- a) Fiskal, tartibga solish, nazorat, budjetga tushish
- b) Fiskal, tartibga solish, rag'batlantirish, nazorat, axborot bilan ta'minlash
- c) Foiz olish, tartibga solish, rag'batlantiruvchi, axborot bilan ta'minlash
- d) Rag'batlantiruvchi, nazorat, axborot bilan ta'minlash, budjetga tushish

5. Qaysi satrda soliq elementlari keltirilgan?

- a) Soliq turlari
- b) Soliq agenti, soliq to'lovchi va soliq solish ob'ekti
- c) Soliq solish ob'ekti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, to'lash tartibi
- d) Soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblash va to'lash tartibi

6. Soliq stavkasining turlarini aniqlang.

- a) To'g'ri, proportsional
- b) O'sib boruvchi, kamayib boruvchi
- c) Proportsional, progressiv, regressiv
- d) Regressiv, qat'iy

7. Soliqqa tortishning klassik tamoyillarini ko'rsating.

- a) Tenglik, maqbullik, qulaylik, arzonlik
- b) Soliq stavkalarini qiyoslash
- c) Majburiylik
- d) Ijtimoiy adolat tamoyili

8. Soliqlarning soliqqa tortish ob'ekti bo'yicha guruhlarini ko'rsating.

- a) Mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlari
- b) Oborotdan, daromaddan, mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
- c) Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
- d) Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar, xarajatlariga qarab olinadigan soliqlar


9. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida egri soliqlarning salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 53,6%
- b) 54,6%
- c) 54,8%
- d) 54,1%


10. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida to'g'ri soliqlarning salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 24%
- b) 23%
- c) 22%
- d) 25%

Quyidagi chizmaga izoh bering



**Mahalliy budjetlarning tartibga solinadigan daromadlarini
izohlab bering**



3-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: yuridik shaxslarning foydasi, foyda solig'i, soliq to'lovchilar tarkibi, rezident va nerezidentlar, soliq stavkasi, soliq ob'ekti, soliq imtiyozlari, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish muddatlari, soliqni to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekistonda foyda solig'i qachon joriy qilingan?
2. 2017 yilda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i davlat byudjeti daromadlarida qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?
3. Yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lovchilari kimlar?
4. Rezident va nerezident yuridik shaxslar va ular qandan tartibda soliqqa tortiladi?
5. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i soliq ob'ekti qanday aniqlanadi?
6. Yuridik shaxslarning qaysi daromadlari soliq ob'ekti sifatida qaralmaydi?
7. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining bazasi qanday aniqlanadi?
8. Yuridik shaxslarning qaysi daromadlari jami daromadlar tarkibiga kiritiladi?
9. Korxonaning moliyaviy faoliyat natijalari qanday aniqlanadi?
10. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
11. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qanday stavkalar belgilangan?
12. Yuridik shaxslar deidentlardan qanday tartibda soliqqa tortiladi?
13. Qanday yuridik shaxslar foyda solig'idan to'liq ozod etiladi?
14. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi?
15. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi qachon taqdim etiladi?
16. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar qachon amalga oshiriladi?
17. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i qachon byudjetga to'lanadi?
18. Nerezident yuridik shaxslar qanday tartibda foyda solig'ini to'laydilar?
19. Nerezident yuridik shaxslar qanday stavkada foyda solig'ini to'laydilar?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Ishlab chiqarish korxonasi ikkinchi yil faoliyat yuritmoqda, uning foyda solig'i to'lagungacha bo'lgan daromadi 150000000 so'm bo'lgan.

Hisobot davri uchun qo'shimcha ravishda quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- Xokimiyatga homiylik yordami ko'rsatilgan – 18000000 so'm;
- qariyalar uyiga yordam ko'rsatish uchun – 9000000 so'm;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun – 24900000 so'm (yil davomida to'plangan eskirish – 28100000 so'm);
- soliq stavkasi 7,5 foiz.

Talab qilinadi:

1. Hisobot davri uchun korxonaga to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i necha so'mga teng?
2. Hisobot davrida korxonaning foydasini aniqlang?

Masala. Hisobot davrida korxonaga quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

1. Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum – 43800000
2. Qo'shilgan qiymat solig'i – 6880000
3. Aksiz solig'i – 5000000
4. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – 26950000
5. Sotish xarajatlari – 350000
6. Ma'muriy xarajatlar – 830000
7. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad – 350000
8. Olingan dividendlar – 750000
9. Valyuta kursi bo'yicha musbat farq – 290000
10. Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar – 150000
11. Favqulotda foyda – 50000
12. Chegirilmaydigan xarajatlar – 3120000
13. Soliq imtiyozlari – 1000000
14. Soliq stavkasi – 7,5%

Talab qilinadi:

1. Hisobot davri uchun korxonaga to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i necha so'mga teng?
2. Hisobot davrida korxonaning foydasini aniqlang?
3. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Korxonaga mahsulotlarini erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilish bilan birga mahalliy bozorlarga ham sotadi. Hisobot davrida quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

1. Sotishdan olingan sof tushum – 31920000
- shundan eksport faoliyatidan – 6700000
2. Soliq to'langunga qadar olingan foyda – 5080000
3. Olingan dividendlar – 750000

4. Soliq bo'yicha imtiyozlar – 1000000

5. Soliq stavkasi – 7,5%

Talab qilinadi:

1. Hisobot davri uchun korxonaga to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i necha so'mga teng?

2. Hisobot davrida korxonaning foydasini aniqlang?

3. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

4. Eksport faoliyatidan foyda solig'i qanday hisoblanadi?

Masala. Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonaga ikkinchi yil faoliyat yuritmoqda, uning foyda solig'i to'langunga qadar foydasi 105000000 so'm bo'lgan. Bundan tashqari korxonaga bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ham berilgan:

1. Hisobot davrida mahalliy davlat hokimiyati organlariga homiylik yordami ko'rsatilgan - 18000000 so'm;

2. Nuroniylar oromgohiga yordam ko'rsatish uchun – 9000000 so'm ajratilgan.

Talab qilinadi:

1. Hisobot davri uchun korxonaga to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i necha so'mga teng?

2. Hisobot davrida korxonaning foydasini aniqlang?

3. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchisi bo'lgan ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonaga 2017 yil hisobot davri uchun quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

• ichki bozorda mahsulotni sotishdan tushgan tushum – 128000000 so'm;

• chet el valyutasiga sotilgan mahsulot miqdori - 14000 AQSH dollari (yuk orilgan vaqtda 1 AQSH dollari - 3625 so'mga teng bo'lgan).

• omborxonalarni ijaraga berishdan olingan sof daromad - 27000000 so'm;

• uskunalarni o'z vaqtida olib kelib o'rnatilmagani uchun sotuvchi korxonadan tushgan jarima va shartnomada ko'rsatilgan qo'shimcha to'lov – 9980000 so'm;

• yordamchi korxonadan olingan dividendlar (dividenddan undirilgan soliq haqidagi ma'lumotnoma mavjud) – 13390000 so'm;

• "KOMPYUTER-XIZMAT" firmasi tomonidan xodimlar bo'limiga tegishli 17510000 so'mlik kompyuter dasturi tekinga o'rnatib berilgan;

• 2016 yilda qonunchilikka asosan chegirmaga olib borilgan 3050000 so'mlik sotilgan mahsulotning puli kelib tushgan.

• sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi – 113750000 so'm, shu jumladan, ishlab chiqarishda ishlatiladigan asosiy vositalarning eskirishi

belgilangan me'yorga nisbatan 2 koeffitsient qo'llanilgan bo'lib, 21000000 so'mni tashkil etgan.

O'tgan davr uchun quyidagi xarajatlar ham amalga oshirilgan:

- o'z mahsulotini reklama qilish uchun – 1250000 so'm sarflangan;
- boshqaruv xodimlari uchun ish haqi bo'yicha xarajat – 44950000 so'm;
- xizmat safari xarajatlari, me'yordagisi – 3920000 so'm, me'yordan yuqori – 850000 so'm;
- xizmat avtomobilini saqlash uchun xarajatlar – 1450000 so'm;
- uyali telefon uchun qilingan xarajatlar – 1345000 so'm;

Talab qilinadi:

1. Hisobot davri uchun korxonaga to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i necha so'mga teng?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.
3. Korxonaning hisobot davri uchun foydasini hisoblang.

Masala. Korxonaga hisobot davrida quyidagi ko'rsatkichlarga erishgan:

- tovar (ish, xizmatlar) realizatsiyasidan olingan sof tushum – 31920000 (shundan, eksport faoliyatidan – 6700000);
- foyda solig'i to'langunga qadar foyda – 5080000 so'm;
- chegirilmaydigan xarajatlar umumiy summasi – 2056000 so'm;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan dividendlar summasi – 750000 so'm;
- soliq solinadigan foydani kamaytirish bo'yicha imtiyozlar – 1000000 so'm.

Talab qilinadi:

1. Hisobot davri uchun korxonaga to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i necha so'mga teng?
2. Hisobot davrida korxonaning foydasini aniqlang?
3. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 3,5%
- b) 3,1%
- c) 3,2%
- d) 2,9%

2. To'g'ri soliqlar tarkibida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 12,1%
- b) 13,1%
- c) 13,2%
- d) 13,3%

3. Yuridik shaxslarning foyda solig'i solish ob'ektini aniqlashda jami daromaddan moliyaviy jarima va penya summolari chegirib tashlanadimi?

- a) chegirib tashlanadi
- b) chegirib tashlanmaydi
- c) faqat moliyaviy jarima summasi chegirib tashlanadi
- d) faqat penya summasi chegirib tashlanadi

4. Xayriya maqsadlariga o'tkazilgan mablag'lar soliqqa tortiladimi?

- a) soliqqa tortilmaydi
- b) soliq solinadigan foydaning 1 foizi miqdoridan oshgan qismi tortiladi
- c) soliq solinadigan foydaning 2 foizi miqdoridan oshgan qismi tortiladi
- d) soliq solinadigan foydaning 5 foizi miqdoridan oshgan qismi tortiladi

5. Yuridik shaxslarning mahsulot (ish, xizmat)larni eksporti hajmi umumiy sotish hajmida 30 foiz va undan yuqorini tashkil etsa, foyda solig'ini qanday stavkada to'laydilar?

- a) belgilangan stavka 10 foizga kamaytiriladi
- b) belgilangan stavka 20 foizga kamaytiriladi
- c) belgilangan stavka 30 foizga kamaytiriladi
- d) belgilangan stavka 2 baravarga kamaytiriladi

6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblashda soliq solinadigan baza qanday tartibda belgilanadi?

a) soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi

b) jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida boshqa qonunlarda, qarorlarda nazarda tutilgan imtiyozlar hamda soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summolari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi

c) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar sifatida belgilanadi

d) O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi sifatida belgilanadi

7. Yuridik shaxsning jami daromadlari tarkibini ko'rsating?

- a) realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan mablag'lar
- b) olingan grantlar va insonparvarlik yordami
- c) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar va boshqa daromadlar
- d) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar

8. Quyidagilardan qaysi biri soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi?

- a) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar
- b) ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to'lovining qismi tariqasida olgan moliyaviy ijara (lizing) ob'ekti qiymatining qoplamasi
- c) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar
- d) majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar

9. Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlarga qanday daromadlar kiradi?

- a) soliq to'lovchining budjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzining qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summalari
- b) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlari
- c) fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da'vo muddati o'tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar; soliq to'lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar
- d) fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da'vo muddati o'tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar; sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar

10. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi qaysi yuridik shaxs ozod qilinadi?

- a) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari
- b) notijorat tashkilotlari
- c) yagona soliq to'lovi to'lovchilari
- d) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar

11. Yuridik shaxslarning quyidagi qaysi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi?

- a) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi

b) dengiz, daryo va havo kemalaridan, temir yo‘l yoki avtomobil transporti vositalaridan xalqaro tashishlarda foydalanishdan olinadigan daromadlar

c) oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar

d) asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar

12. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

a) ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

b) ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

c) ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

d) ortib boruvchi yakun bilan yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi

13. Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi haqida ma‘lumotnoma davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

a) joriy hisobot davri birinchi oyining 5-kunigacha

b) joriy hisobot davri ikkinchi oyining 10-kunigacha

c) joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha

d) joriy hisobot davri ikkinchi oyining 5-kunigacha

14. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlar qanday muddatlarda to‘lanadi?

a) joriy to‘lovlar har oyning 5-kuniga qadar

b) joriy to‘lovlar har oyning 10-kuniga qadar

c) joriy to‘lovlar har oyning 15-kuniga qadar

d) joriy to‘lovlar har oyning 25-kuniga qadar

15. Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining 200 baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to‘lovchilar...

a) joriy to‘lovlarni to‘lamaydi

b) joriy to‘lovlarni to‘laydi

c) joriy to‘lovlarni ikki muddatga bo‘lgan holda to‘laydilar

d) joriy to‘lovlarni bir yilda bir marta to‘laydilar

16. 2017 yilda auksionlar o'tkazishdan, tomosha-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar foyda solig'ini qanday stavkada to'laydilar?

- a) 7,5%
- b) 20%
- c) 15%
- d) 35%

17. 2017 yilda tijorat banklari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini qanday stavkada to'laydilar?

- a) 9%
- b) 20%
- c) 15%
- d) 35%

18. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- b) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi
- c) O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri
- d) O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri

19. Yuridik shaxsga Soliq kodeksining qaysi moddasida ta'rif berilgan.

- a) Soliq kodeksining 16-moddasida
- b) Soliq kodeksining 6-moddasida
- c) Soliq kodeksining 26-moddasida
- d) Soliq kodeksining 46-moddasida

20. Notijorat tashkilotlari deganda.....

a) foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.

b) chet el investitsiyalari asosida tashkil topgan yuridik shaxslar tushuniladi.

c) olingan dividendlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.

d) foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan yuridik shaxslar tushuniladi.

4-MAVZU: SODDALASHTIRILGAN SOLIQ TIZIMI

Quyidagi atamalarga izoh bering: mikrofirma, kichik korxonalar, yagona soliq, yagona soliq to'lovi, yagona soliq to'lovini to'lovchilari, yagona soliq to'lovining ob'ekti, yalpi tushum, yagona soliq to'lovi stavkalari, yagona soliq to'lovidan imtiyozlar, yagona soliq to'lovini hisoblash tartibi, yagona soliq to'lovini to'lash tartibi, umumovqatlanish korxonalari, savdo korxonalari, yalpi daromad, qat'iy belgilangan soliq, eng kam ish haqi miqdori, qat'iy belgilangan soliq stavkalari, qat'iy belgilangan soliqni hisoblash tartibi, qat'iy belgilangan soliqni to'lash tartibi, yagona yer solig'i, yagona yer solig'i to'lovchilari, yagona yer solig'i stavkalari, yagona yer solig'idan imtiyozlar, yagona yer solig'ini hisoblash tartibi, yagona yer solig'ini to'lash tartibi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotida tatbiq etishning zarurligi nimada?
2. Soliq amaliyotida ilk bor qachon soddalashtirilgan soliq rejimi joriy qilingan va qaysi me'yoriy hujjat asosida?
3. Kichik biznes sub'ektlari tarkibi qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
4. Yagona soliq to'lovi qachon joriy etildi?
5. Yagona soliq bilan yagona soliq to'lovining farqi nimada?
6. Yagona soliq to'lovini to'lovchilari kimlar?
7. Yagona soliq to'lovi soliq stavkalari qaysi mezon asosida belgilanadi?
8. Qanday yuridik shaxslar yagona soliq to'lovidan imtiyozga ega?
9. Yagona soliq to'lovi budjetga qaysi muddatlarda to'lanadi?
10. Yagona soliq to'lovini budjetga kechiktirib to'lash tartibi qanday?
11. 2007 yil 1 yanvargacha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari qanday soliq rejimida ishlagan?
12. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini yagona soliq to'lovini to'lovchilar tarkibiga o'tishning ahamiyati va zarurligi nimada?
13. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan tashqari yana qanday to'lovlar, yig'imga saqlab qolingan?
14. Savdo faoliyati deganda nimani tushunasiz?
15. Umumiy ovqatlanish faoliyati deganda nimani tushunasiz?
16. Yagona soliq to'lovini to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining soliqqa tortish ob'ekti qanday aniqlanadi?
17. Yagona soliq to'lovini hisoblashda yalpi tushum tarkibi qanday aniqlanadi?
18. Yalpi tushum tarkibidan nimalar chegiriladi?

19. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 2017 yilda qanday belgilangan?
20. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to'lovi qaysi muddatlarda to'lanadi?
21. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i qachon joriy etilgan. Uning ahamiyati qanday?
22. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig'ini to'lashga o'tishlari bilan ular qanday soliqlar va yig'implarni to'lashdan ozod etildi?
23. Qanday yuridik shaxslar yagona yer solig'ining to'lovchilari hisoblanadi?
24. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat turi bilan shug'ullanganda ham yagona yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadimi?
25. Yagona yer solig'ining ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
26. Yagona yer solig'ining stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtiriladi?
27. Yagona yer solig'ini to'lashdan kimlar ozod etiladi?
28. Yagona yer solig'i bo'yicha hisob-kitoblar qaysi muddatda soliq idoralariga topshiriladi?
29. Hisoblangan soliq summalarini qaysi muddatda budjetga o'tkaziladi?
30. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari kimlar?
31. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi mezon asosida tabaqalashtiriladi?
32. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
33. Qat'iy belgilangan soliq miqdorini budjetga to'lash davri qanday?
34. Tadbirkor faoliyatini vaqtincha to'xtatganda qanday tartibda xujjatlarni rasmiylashtiradi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Yagona soliq to'lovini to'lovchi ishlab chiqaruvchi korxonaga joriy yilda quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarini sotish natijasidagi tushum – 65000000 so'm;
- nolikvid materiallarni tannarxi 8500000 so'm bo'lganda, ularni 1530000 so'mdan sotildi;
- davlat qimmatbaho qog'ozlaridan olingan daromad - 350000 so'm;
- musbat kurslardagi farq - 520000 so'm;
- manfiy kurslardagi farq - 450000 so'm;
- sud tomonidan ushbu korxonaga berilgan jarima – 3680000 so'm;
- da'vo qilish muddati o'tgan kreditor qarzi – 5500000 so'm;
- tekinga mulk olingan – 2800000 so'm.

Talab qilinadi:

1. Joriy davr uchun yagona soliq to'lovining summasini hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.
3. Hisobot davrida korxonaning sof foydasini aniqlang?

Masala. Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yagona soliq to'lovi to'lovchisi bo'lgan korxonaga bo'yicha joriy yilda quyidagi ma'lumotlar berilgan:

- tovar (ish, xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum – 65 000 000 so'm;
- tovar (ish, xizmat)lar tannarxi – 48 000 000 so'm;;
- davr xarajatlari – 3 500 000 so'm;

Talab qilinadi:

1. Joriy davr uchun yagona soliq to'lovining summasini hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.
3. Hisobot davrida korxonaning sof foydasini aniqlang?

Masala. Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi korxonaga shartnoma bo'yicha kontrakt qiymati 400 000 AQSh dollari bo'lgan shokolad qandolat mahsulotni import bo'yicha oldi. Olingan tovarning bojxonadagi qiymati 460 000 dollar. Bojxona deklaratsiyani rasmiylashtirish vaqtidagi kursi 1 AQSh dollari 3625 so'm. Import bojxona bojining stavkasi - 10%, bojxona xujjatlarini rasmiylashtirilgani uchun undiriladigan yig'im - 0,2%, tovar muayyan bir mamlakatda ishlab chiqarilganligi bo'yicha kelib chiqishiga doir sertifikat bilan tasdiqlanmagan.

Talab qilinadi:

1. Import bojxona bojining qiymati necha so'mga teng?
2. Olingan tovar partiyasining haqiqiy tannarxini aniqlang?
3. Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi korxonada to'langan qo'shilgan qiymat solig'i uning hisobotida qanday aks ettiriladi?

Masala. Yuridik shaxs Toshkent shahrida 500 kv metrlik avtomobillarni qisqa muddatga saqlash joyiga va 4 ta bolalar o'ynaydigan avtomatlari mavjud bo'lgan o'yin avtomatlari zaliga ega. 2017 yil uchun eng kam ish haqining qiymati – 149 775 so'm.

Talab qilinadi:

1. Avtomobil saqlash joyiga qat'iy belgilangan soliqni va bolalar o'yin avtomatlari bo'yicha hisoblang?
2. Qat'iy belgilangan soliqni avtomobil saqlash joyiga va bolalar o'yin avtomatlari bo'yicha hisoblang?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Yagona soliq to'lovini to'lovchilarini aniqlang.

- a) Yuridik shaxslar
- b) Jismoniy shaxslar
- c) Banklar va sug'urta kompaniyalari
- d) Mikrofirma va kichik korxonalar (shu jumladan, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari)

2. Soddashtirilgan soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadimi?

- a) Mol-mulk solig'ini belgilangan tartibda to'laydilar
- b) Mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanmaydi
- c) Ijaraga berilgan mol-mulklari qiymatidan soliq to'laydilar
- d) Faqat asosiy vositalari bo'yicha to'laydilar

3. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari to'laydigan soliqlarni ko'rsating.

- a) Yer va mol-mulk solig'i
- b) Yalpi daromadidan soliq va mol-mulk solig'i
- c) Yalpi tushum (tovaroborot)dan yagona soliq to'lovi
- d) Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

4. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari qo'shilgan qiymat solig'ini.....

- a) Ixtiyoriy ravishda to'laydilar
- b) Umum belgilangan tartibda to'lashga majbur
- c) Nollik stavkada to'laydilar
- d) Pasaytirilgan stavkada to'laydilar

5. Savdo korxonalariga qo'llaniladigan soliq stavkalarini tabaqalanishining asosiy mezonini ko'rsating.

- a) Joylashgan joyiga qarab
- b) Ishchilar soniga qarab
- c) Daromadlik darajasiga qarab
- d) Aholi soniga qarab

6. Yagona soliq to'lovining ob'ekti nima?

- a) Korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda
- b) Sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq
- c) Davr xarajatlari
- d) Yalpi tushum

7. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llaydigan mikrofirma va kichik korxonalar quyidagi qaysi soliqlarni to‘laydilar?

- a) Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i
- b) Mol-mulk solig‘i
- c) Yer solig‘i
- d) Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i

8. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qaysi soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi?

- a) Yagona soliq to‘lovi, yer solig‘i, yer qat‘idan foydlanganlik uchun soliq
- b) Yagona soliq to‘lovi, mol-mulk solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq
- c) Yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq
- d) Yagona soliq to‘lovi, yer solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq

9. Yagona soliq to‘lovida soliq solish ob‘ekti sifatida qaralmaydi:

- a) Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta to‘lovi (sug‘urta summasi) tariqasida olingan mablag‘lar
- b) O‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum
- c) O‘yin chiptalarini ularda ko‘rsatilgan narx bo‘yicha tarqatishdan tushgan tushum
- d) Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasi

10. Yagona yer solig‘i soliq tizimiga qachon joriy etilgan:

- a) 1991 yil 1 maydan
- b) 2004 yil 1 yanvardan
- c) 1998 yil 1 maydan
- d) 1999 yil 1 yanvardan

11. Yagona yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lgan sub‘ektlarni aniqlang.

- a) Fermer va dehqon xo‘jaliklari, o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari
- b) Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi o‘quv-tajriba xo‘jaliklari
- c) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, dehqon xo‘jaliklari
- d) Faqatgina paxta etishtirish bilan shug‘ullanuvchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari

12. Yagona yer solig'ini to'lash muddatlarini ko'rsating.

- a) Hisobot yilining 1 iyuligacha 50 % va 1 dekabrigacha qolgani
- b) Hisobot yilining 1 iyuligacha 20%, 1 sentyabrgacha 30% va 1 dekabrgacha qolgani
- c) Hisobot yilining har choragida, chorakdan keyingi oyning 25 kuniga qadar
- d) Hisobot yilining 1 sentyabrgacha 30% va 1 dekabrgacha qolgani

13. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarida mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 3,6%
- b) 3,1%
- c) 3,2%
- d) 2,9%

14. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 3,9%
- b) 3,1%
- c) 3,2%
- d) 3,6%

15. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliqning salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 1,8%
- b) 1,6%
- c) 1,9%
- d) 1,5%

16. Savdo faoliyati- bu.....

- a) qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat
- b) faqat o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sotishga doir faoliyat
- c) tovarlarni qayta ishlash orqali sotishga doir faoliyat
- d) sotish maqsadida tovarlar ishlab chiqishga doir faoliyat

17. 2016 yilda yagona yer solig'i bo'yicha soliq stavkasini aniqlang.

- a) me'yoriy qiymatdan 0.95 foiz
- b) me'yoriy qiymatdan 2 foiz
- c) me'yoriy qiymatdan 5 foiz
- d) me'yoriy qiymatdan 6 foiz

18. Aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda faoliyat yuritayotgan chakana savdo korxonalari (chakana dorixona tashkilotlaridan tashqari) yagona soliq to'lovini qanday stavkada to'laydilar?

- a) 4%
- b) 2%
- c) 1%
- d) 3%

19. Aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda faoliyat yuritayotgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari yagona soliq to'lovini qanday stavkada to'laydilar?

- a) 3%
- b) 2%
- c) 1%
- d) 4%

20. Qat'iy belgilangan soliq bo'yicha soliq davrini aniqlang?

- a) bir oy
- b) olti oy
- c) bir chorak
- d) bir yil

21. Qat'iy belgilangan soliq bo'yicha soliq solish ob'ektini aniqlang?

- a) fizik ko'rsatkich
- b) yalpi daromad
- c) yalpi tushum
- d) sof foyda

22. Qaysi javobda qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) yakka tartibdagi tadbirkorlar va ayrim turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar
- b) tomosha-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lganlar
- c) dehqon xo'jaliklari
- d) fermer xo'jaliklari

23. Quyidagilardan qaysilari yagona yer solig'i to'lovchisi sifatida qaralmaydi?

- a) yuridik shaxs tashkil etgan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari
- b) qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari
- c) qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi o'quv tajriba xo'jaliklari
- d) qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar

24. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida quyidagi qaysi hollarda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritadilar?

- a) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda
- b) fors-major holatlarida
- c) soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritilmaydi
- d) soliq to'lovchining bankdagi hisobraqamida etarli mablag' bo'lmasa

25. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida uchun yagona soliq to'lovini to'lash belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda biroq ular egallagan yer maydonlaridan kelib chiqib hisoblangan yer solig'ining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lash tartibi qachon joriy qilindi.

- a) 2011 yil 1 iyul
- b) 2011 yil 1 sentyabr
- c) 2011 yil 1 yanvar
- d) 2011 yil 1 aprel

5-MAVZU: QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: rezident va nerezident yuridik shaxslar, qo'shilgan qiymat tushunchasi, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliq stavkasi, nollik stavka, soliq imtiyozlari, import mahsulotlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona yuk deklaratsiyasi, hisobvara-q-faktura, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lash, qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish, qo'shilgan qiymat solig'i summasini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Qo'shilgan qiymat qanday tarkib topadi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qaysi davlatda kim tomonidan joriy etilgan?
3. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
4. Qo'shilgan qiymat solig'ini qanday shaxslar to'laydi?
5. Qo'shilgan qiymat solig'i ob'ekti qanday aniqlanadi?
6. Soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?
7. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
8. Nollik stavka qaysi tovarlar (ish va xizmatlar)ga nisbatan qo'llaniladi?
9. Hisobvara-q-fakturalar qanday to'ldiriladi va unda qo'shilgan qiymat solig'i qaysi punktlarda ko'rsatiladi?
10. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?
11. Import tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'i qaysi formula orqali aniqlanadi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan korxonaga 12000000 so'mga qo'shilgan qiymat solig'i bilan 400 kg bo'yoq sotib olgan. Sotib olingan bo'yoqdan:

- 50 kg sifati yomon bo'lganligi uchun sotuvchiga qaytarib berilgan;
- 100 kg tekinga bolalar bog'chasiga berilgan;
- 20 kg korxonaga klubini ta'mirlash uchun ishlatilgan;
- 180 kg ishlab chiqarish uchun ishlatilgan;

Talab qilinadi:

1. Korxonaga qo'shilgan qiymat solig'i qaysi qismini hisobga kiritish huquqiga ega?
2. Korxonaga to'lashi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang?
3. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan qayta ishlash korxonasi joriy yilda quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

- mahsulotni sotishdan tushgan tushum – 24000000 so'm;
- bunda qaytarib berilishi lozim bo'lgan idishning narxi - 1500000 so'm;
- tekinga (tannarxi bo'yicha) - 100000 so'mlik maxsulot berilgan;
- olingan jarima summasi - 30000 so'm;
- bankdan olingan foizlar - 12000 so'm;
- 200000 so'mga korxonaga tomonidan nomoddiy aktivlar sotilgan (boshlang'ich narxi - 600000 so'm, to'plangan amortizatsiya - 420000 so'm);
- nolikvid xom-ashyo zaxiralari sotishdan tushgan tushum - 96000 so'm, ularning tannarxi - 85000 so'm;

Hisobvaraqa-faktura bo'yicha olingan qo'shilgan qiymat solig'i:

- xom ashyo uchun - 480000 so'm;
- ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga berishdan - 150000 so'm;
- uyali aloqadan - 60000 so'm;

Talab qilinadi:

1. Korxonaga to'lashi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan korxonaga ko'rpa tikib realizatsiya qiladi. Bitta ko'rpaning tannarxi – 35000 so'm. Qo'shilgan qiymat solig'isiz bitta ko'rpaning sotish narxi – 45000 so'm.

2017 yil hisobot davrida sotilgan ko'rpalar:

- 300 tasi ichki bozorda sotilgan;
- 500 tasi erkin valyutaga eksport qilingan (45 000 so'mga ekvivalent bo'lgan narxda).

Bundan tashqari 10 tasi bolalar bog'chasiga tekinga berilgan. 40 tasi korxonada ishchi va xizmatchilariga 30000 so'mdan sotilgan. 5 tasi xodimlar bo'limi boshlig'ining tug'ilgan kunida (yubiley) hadya qilingan.

Talab qilinadi:

1. Korxonada qo'shilgan qiymat solig'i qaysi qismini hisobga kiritish huquqiga ega?
2. Korxonada to'lashi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang?
3. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lgan korxonada bo'jxonadagi narxi 340 AQSH dollari bo'lgan asbob-uskunani import qilmoqda. Bo'jxona deklaratsiyasini to'ldirish vaqtidagi 1 AQSh dollarining kursi 3625 so'mni tashkil etgan. Bo'jxona boji – 30 foiz, aksiz solig'ining stavkasi – 10 foiz, bo'jxonada rasmiylashtiruv yig'imi bo'jxona qonunchiligida belgilangan tartibda hisoblangan.

Talab qilinadi:

1. Import qilingan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.
3. Asbob-uskunaning haqiqatdagi tannarxini aniqlang?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish ob'ekti nima?

- a) soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import
- b) muomala xarajatlari
- c) ishlab chiqarish tannarxi
- d) sof foyda

2. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

- a) realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritgan holda belgilanadi
- b) realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi
- c) realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini kiritgan holda belgilanadi
- d) realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi asosida

3. Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

a) qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati va qayta ishlashga berilgan xom-ashyoning qiymati asosida belgilanadi

b) qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritgan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati va qayta ishlashga berilgan xom-ashyoning qiymati asosida belgilanadi

c) qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida belgilanadi

d) qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritgan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida belgilanadi

4. Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan baza qanday belgilanadi?

a) realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilgan shartnoma qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi

b) realizatsiya qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi

c) realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilgan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi

d) realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi

5. Chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadimi?

a) soliq solinadigan oborot bo‘lmaydi

b) ozod etilgan

c) 20%

d) 0%

6. Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qanday aniqlanadi?

a) hisobga olinadigan soliq summasi sifatida

b) soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinmaydigan soliq summasi o‘rtasidagi farq sifatida

c) soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o‘rtasidagi farq sifatida

d) realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar, xizmatlarga hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i sifatida

7. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadigan import tovarini belgilang.

a) O‘zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro‘yxatida mavjud bo‘lmagan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlarni kiritish

b) qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha yog‘och-taxta materiallari va yog‘och

c) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan me‘yorlari doirasidan tashqari olib kirilayotgan tovarlar

d) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan tijorat maqsadida olib kirilayotgan tovarlar

8. Qanday hollarda hisobvaraqa-faktura taqdim etilishi shart?

a) qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan oborotni va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lmagan yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga

b) yo‘lovchilar tashishni yo‘l chiptalari bilan rasmiylashtirish jarayoniga

c) tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitansiya berish holatiga

d) tovarlarning eksport-import tarzida etkazib berilishini rasmiylashtirish jarayoniga

9. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi budjetga qachon o‘tkaziladi.

a) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

b) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

c) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

d) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

10. Shahar yo‘lovchi transporti xizmatlari (taksi va yo‘nalishli taksidan tashqari) qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladimi?

a) Nollik stavkada soliqqa tortiladi

b) 20 foizli stavkada soliqqa tortiladi

c) Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladi

d) 10 foizli stavkada soliqqa tortiladi

11. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda nollik stavka qachon qo‘llaniladi?

a) Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportiga

b) Stenografiya xizmatlariga

c) Geologiya va topografiya ishlariga

d) Ma'lumotlarni ishlash va axborot ta'limotiga doir xizmatlariga

12. Qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- a) 1991 yil 15 fevraldan
- b) 1992 yil 1 yanvardan
- c) 1993 yil 6 maydan
- d) 1997 yil 24 apreldan

13. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 30,2%
- b) 31,1%
- c) 32,2%
- d) 29,9%

14. Egri soliqlar tarkibida qo'shilgan qiymat solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 55,3%
- b) 53,1%
- c) 53,2%
- d) 52,9%

15. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda nollik stavka qachon qo'llaniladi?

- a) tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish
- b) mol-mulkni operativ ijaraga berish
- c) intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish
- d) Aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlarga

16. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha quyidagi qaysi hollarda soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritiladi?

- a) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda
- b) soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritilmaydi
- c) ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilganda
- d) hisobvara-faktura yozib berilganda

17. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini aniqlang?

- a) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs
- b) realizatsiya qilingan joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lmagan oborotlarga ega yuridik shaxslar
- c) notijorat tashkilotlari

d) o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar

18. “Bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlarga, ko‘rsatilgan xizmatlarga qanday stavkada qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi?

- a) 0%
- b) 20%
- c) 10%
- d) 8%

19. Chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) qanday stavkada qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi?

- a) 0%
- b) 10%
- c) 15%
- d) 20%

20. Hisobvaraqq-faktura qanday hujjat hisoblanadi?

- a) qat‘iy hisobot hujjati
- b) 2-shaklga ilova hujjati
- c) reestr hujjati
- d) qo‘shilgan qiymat solig‘iga ilova hujjati

6-MAVZU: AKSIZ SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: “aktsiz” ma’nosi, soliq to’lovchilari, soliq sub’ekti, soliq ob’ekti, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, import mahsulotlari uchun aktsiz solig’i, bojxona yuk deklaratsiyasi, hisobvaraqa-faktura, import qilinadigan tovarlarga aktsiz solig’i, aktsiz markalari, aktsiz solig’i hisob-kitoblarini taqdim etish, aktsiz solig’i summasini to’lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Aksiz solig’i qachon joriy etildi?
2. Aksiz solig’i to’lovchilar qanday guruhlanadi?
3. Aksiz osti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aksiz solig’i ob’ekti nimalardan iborat?
5. Aksiz solig’ining bazasi qanday aniqlanadi?
6. Aksiz solig’ini to’lashdan kimlar ozod etilgan?
7. Aksiz solig’i stavkalari va aktsizosti tovarlar ro’yxati kim tomonidan belgilanadi?
8. Aksiz solig’ini hisobga olish tartibi qanday?
9. Alohida tovarlar bo’yicha budjetga to’lanadigan aktsiz solig’ini hisoblab chiqishning xususiyatlari nimada?
10. Aksiz solig’i hisobini taqdim etish va soliqni to’lash muddatlari qanday?
11. Aksiz markalari nima va u qachon joriy etilgan?
12. Qanday holatda aksizga tortiladigan tovarlar markalanmaydi?
13. Markalarni xarid qilishga doir buyurtmanoma qaysi bank orqali amalga oshiriladi?

MAVZU BO’YICHA MASALALAR

Masala. Korxonada aroq mahsulotini ishlab chiqarmoqda. Hisobot davrida korxonada 20 000 butilka (0,5 litrdan) aroq mahsulotini ishlab chiqargan. Aroq mahsulotida spirtning hajmi (quvvati) 40 foizni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. 20 ming butilka aroq mahsuloti uchun korxonada budjetga qancha aktsiz solig’i to’laydi?
2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Aksiz osti tovari bo'lgan mahsulot bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'ini hisoblang, agarda korxonaning bir dona mahsulot ishlab chiqarishi uchun barcha xarajatlari – 1 800 000 so'mni, foyda me'yori – 25 foizni, aksiz solig'i stavkasi – 29 foizni tashkil etsa.

Talab qilinadi:

1. Korxonaga budjetga to'lashi lozim bo'lgan aksiz solig'i so'mmasini hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Import qilinayotgan 1 litr aroq mahsulotining (Germaniyada ishlab chiqarilgan) bojxona qiymati – 60 000 so'm. Bojxona qiymati o'z ichiga yukni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, ortish, tushirish, o'lchash va sug'urta qilish va boshqa summalarni oladi.

Talab qilinadi:

1. Import qiluvchi korxonaning firma do'konida mazkur bir butilka aroq mahsuloti necha so'mdan sotiladi, agarda korxonaning qo'shimcha xarajatlari aroq mahsulotini omborga olib kelishga va boshqa zarur xarajatlarni (sertifikatsiya qilish va h.k) olingan tovarning haqiqiy tannarxiga ya'ni bojxona qonun xujjatlariga muvofiq hisoblab chiqilgan (aksiz va qo'shilgan qiymat soliqlarini hisobga olgan holda), nisbatan taxminan 12 foiz (ushbu xarajatlarni hisobga olmagan holda), savdo ustamasi – 15 foiz. Ushbu masalani echishda bojxona bojlari hisobga olinmaydi.
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Aksiz solig'ini to'lovchi korxonaga hisobot davrida quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

- korxonaning hisobli bahosi – 12 000 000
- mahsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 29 foiz.

Talab qilinadi:

1. Hisobot davrida korxonaga qancha miqdorda aksiz solig'i summasini to'laydi?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Korxonaga aksizosti tovar ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Hisobot davrida quyidagi ko'rsatkichlarga erishgan:

- hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materillar qiymati – 18 000 000;
- korxonaning hisobli bahosi – 50 000 000;
- mahsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 15 foiz.

Talab qilinadi:

1. Hisobot davrida korxonaga qancha miqdorda aksiz solig'i summasini to'laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Aksiz solig’i O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- a) 1991 yil
- b) 1992 yil
- c) 1995 yil
- d) 1998 yil

2. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig’i to‘lovi hisobiga ...

- a) Kiritiladi
- b) Faqat alkogolli mahsulotlar uchun kiritiladi
- c) Kiritilmaydi
- d) Faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi

3. Aksiz markalarining joriy etilish yilini ko‘rsating.

- a) 1992 yil 1 yanvar
- b) 1993 yil 6 may
- c) 1995 yil 1 yanvar
- d) 1996 yil 1 oktyabr

4. Aksiz solig’ini to‘lash muddatlarini ko‘rsating.

- a) Har oyda
- b) Har 15 kunlikda
- c) Har 10 kunlikda
- d) 1 yilda 1 marta

5. Aksiz solig’i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
- c) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- d) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi

6. Aksiz solig’ining to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?

- a) Aksiz solig’iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar
- b) Aksiz solig’iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar
- c) Aksiz solig’iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- d) Aksiz solig’iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar

7. Aksiz solig’i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?

- a) Aksiz to‘lanadigan tovarlarning eksportiga
- b) Aksiz to‘lanadigan tovarlarning importiga
- c) Berilgan xom ashyodan tayyorlangan mahsulotga
- d) Vino va vinomateriallariga

8. Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs qaysi vakolatli organ tomonidan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.?

- a) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- c) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- d) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi

9. Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza nimani o'z ichiga oladi.

- a) Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini
- b) Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini
- c) Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini
- d) Tovarlarining naturada ifodalangan hajmini

10. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarida aksiz solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 15,5%
- b) 12,3%
- c) 13,2%
- d) 12,9%

11. Egri soliqlar tarkibida aksiz solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 28,3%
- b) 23,1%
- c) 26,2%
- d) 25,3%

12. «Jeneral Motors O'zbekiston» AJ ishlab chiqargan avtomobillar uchun aksiz solig'ining 2017 yilda stavkasi qancha belgilangan?

- a) 29%
- b) 25%
- c) 11%
- d) 28%

13. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari uchun aksiz solig'ining 2017 yilda stavkasi qancha belgilangan?

- a) 29%
- b) 25%
- c) 11%
- d) 28%

14. Zargarlik buyumlari uchun aksiz solig'ining 2017 yilda stavkasi qancha belgilangan?

- a) 29%

- b) 25%
- c) 11%
- d) 28%

15. Tabiiy gaz uchun aksiz solig'ining 2017 yilda stavkasi qancha belgilangan?

- a) 29%
- b) 25%
- c) 11%
- d) 24%

16. Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i qanday muddatlarda to'lanadi?

- a) aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi
- b) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi
- c) aksiz markalari olingandan so'ng to'lanadi
- d) har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay to'lanadi

17. Aksiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lash muddatlarini ko'rsating.

- a) har oyda, keyingi oyning 10 kunidan kechiktirmay
- b) joriy oyning 13, 23 kunidan va kelgusi oyning 3 kunidan kechiktirmay
- c) har oyning 25-kunidan kechiktirmay
- d) har oyda, keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay

18. Aksiz solig'i qanday soliqlar guruhiga kiradi?

- a) egri soliqlar
- b) resurs soliqlari
- c) bonuslar
- d) to'g'ri soliqlar

19. Aksiz solig'i to'lovchilari tomonidan aksiz solig'ining hisob-kitobi qanday muddatda taqdim etiladi?

- a) har oyda soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- b) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- c) har oyda soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay
- d) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

20. Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilanganda soliq bazasi qanday aniqlanadi?

- a) aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida
- b) aksiz to'lanadigan tovarlarning qiymatiga nisbatan foizlarda
- c) bojxona hududida belgilangan qiymat asosida
- d) aksizosti tovar ishlab chiqaruvchi belgilagan qiymat asosida

7-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: rezident va norezident yuridik shaxslar, mol-mulk, soliq to'lovchilari, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, asosiy vositalar, soliq solish bazasi, o'rtacha yillik qoldiq qiymat, me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar, soliq stavkasi, eksport, soliq imtiyozlari, mol-mulk solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish, mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Mol-mulk solig'i qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko'zlangan maqsad nima?
2. Mol-mulk solig'ini davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?
3. Mol-mulk solig'ini to'lovchilari kimlar?
4. Soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat bilan shug'ullanganlarida mol-mulk solig'ini to'lashadimi?
5. Mol-mulk solig'ining ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
6. Korxonalar mol-mulking o'rtacha yillik qoldiq qiymati qanday tartibda topiladi?
7. Mol-mulk solig'i stavkalari qanday belgilangan?
8. Mahsulotni eksport qilayotgan korxonalarga mol-mulk solig'ini hisoblanishi qanday tartibda amalga oshiriladi, agarda eksport hajmi mahsulotni sotishda 40 foizni tashkil etgan bo'lsa?
9. Mol-mulk solig'idan kimlar imtiyozga ega?
10. Soliq idoralariga qaysi muddatlarda mol-mulk solig'i bo'yicha hisob-kitob topshiriladi?
11. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ekti uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibi qanday belgilangan?
12. Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibi qanday belgilangan?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. 2017 yil 1 yanvar holatiga mol-mulk solig'i to'lovchi korxonada asosiy vositalar bo'lmagan. 13 yanvarda korxonalar 580000 so'mga kompyuter, 25 martda esa 220000 so'mga printer sotib olgan.

Talab qilinadi:

1. 2017 yil birinchi chorak uchun mol-mulk solig'ini hisoblang?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Korxonada mol-mulkingning o’rtacha qoldiq qiymati 80 000 000 so‘mni tashkil etadi, bundan:

- me‘yoriy muddatlarda tugatilmagan qurilishning qiymati – 20 000 000 so‘m;

- 25 000 000 so‘mni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qaroriga binoan konservatsiya qilingan.

Joriy davr uchun umumiy tushum 25 300 000 so‘m, bundan 5 400 000 so‘mli korxonada o‘z mahsulotini erkin valyutaga eksportga sotgan.

Talab qilinadi:

1. Hisobot davrida korxonada qancha mol-mulk solig‘ini to‘laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Korxonada asosiy vositalarining 31 yanvar holati buyicha qiymati 800 000 so‘mni tashkil etib, aprel oyining birinchi kunligida yana 150 000 so‘mlik asosiy vosita kiritilgan. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 31 yanvar holatiga 100 000; 28 fevral holatiga 115 000; 31 mart holatiga 130 000 so‘mni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. 2017 yil birinchi chorak uchun mol-mulk solig‘ini hisoblang?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Yuridik shaxs oktyabr oyining so‘ngi o‘n kunligida ta‘sis etilgan. Uning asosiy vositalari 845 000 so‘mni tashkil etadi. Korxonada mulki yangi bo‘lganligi uchun eskirish hisoblanmagan. Har bir oy uchun o‘rtacha ularning boshlang‘ich qiymatidan 10% eskirish hisoblanadi.

Talab qilinadi:

1. Korxonada hisobot davrida korxonada qancha mol-mulk solig‘ini to‘laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Korxonada asosiy vositalarining 31 yanvar holati bo‘yicha qiymati 4 350 000 so‘mni tashkil etib, 10 fevralda 150 ming so‘mlik qiymatdagi asosiy vositalar kiritildi va 20 fevralda 250 000 so‘m qiymatdagi asosiy vositalar realizatsiya qilindi. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 31 yanvarga 500 000, 28 fevralga 600 000, 31 martga 750 000 so‘mni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. Korxonada hisobot davrida korxonada qancha mol-mulk solig‘ini to‘laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini soliqqa tortiladigan bazasini aniqlang.

- a) asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati
- b) asosiy vositalarning eskirish summasi
- c) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o’rtacha yillik qoldiq qiymati
- d) asosiy vositalarning o’rtacha yillik qoldiq qiymati

2. Yuridik shaxslarning mol-mulklaridan soliq qanday stavkada undiriladi?

- a) 5%
- b) 8%
- c) 9%
- d) 15%

3. Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulklaridan olinadigan soliq bo‘yicha joriy to‘lovlar budjetga qachon to‘lanadi?

- a) yilning har choragi uchinchi oyining 5-kunidan kechiktirmay
- b) yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay
- c) yilning har choragi uchinchi oyining 15-kunidan kechiktirmay
- d) yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay

4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilarini aniqlang.

- a) notijorat tashkilotlar
- b) O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar
- c) yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalar
- d) yagona yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar

5. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq bo‘yicha soliq solish ob‘ektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymat) qanday tartibda aniqlanadi?

- a) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish ob‘ektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik qiymatlarini) qo‘shishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida
- b) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish ob‘ektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik qiymatlarini) qo‘shishdan olingan summaning to‘rtidan bir qismi sifatida

c) hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida

d) hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning to'rtidan bir qismi sifatida

6. Mol-mulk solig'ini to'lashdan quyidagi qaysi yuridik shaxslar ozod qilinadi?

a) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar

b) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, madaniyat va san'at tashkilotlari

c) savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar

d) mikrofirma va kichik korxonlar

7. Yangi tashkil etilgan korxonalarga mol-mulk solig'idan imtiyozlar nazarda tutilganmi?

a) imtiyozlar nazarda tutilmagan

b) imtiyozlar nazarda tutilgan, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida ozod etiladi

c) imtiyozlar nazarda tutilgan, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran besh yil mobaynida ozod etiladi

d) imtiyozlar nazarda tutilgan, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran etti yil mobaynida ozod etiladi

8. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

a) ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

b) ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

c) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

d) yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

9. Mulk qilib olingan yer uchastkalari va (yoki) nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinadigan ulardan foydalanish huquqi mol-mulk solig'i solish ob'ekti sifatida qaraladimi?

a) soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi

b) soliq solish ob'ekti sifatida qaraladi va belgilangan stavkada soliqqa tortiladi

c) soliq solish ob'ekti sifatida qaraladi va belgilangan stavkaning 30 foizi miqdorida soliqqa tortiladi

d) soliq solish ob'ekti sifatida qaraladi va belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida soliqqa tortiladi

10. Norezident yuridik shaxslar tomonidan mol-mulk solig'i qaysi muddatda to'lanadi?

- a) hisobot davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmasdan
- b) hisobot davridan keyingi yilning 5 fevralidan kechiktirmasdan
- c) har oyning 15 kundan kechiktirmasdan
- d) har oydan keyingi oyning 25 kundan kechiktirmasdan

11. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani qanday muddatda taqdim etadi?

- a) hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmay
- b) joriy yilning 5 yanvaridan kechiktirmay
- c) joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmay
- d) hisobot yilidan keyingi yilning 15 yanvaridan kechiktirmay

12. Qaysi javobda mol-mulk solig'ining soliqqa tortish ob'ekti berilgan.

- a) asosiy vositalar, normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar
- b) pul mablag'lari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, muddatida ishga tushirilmagan uskunalar
- c) asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar
- d) kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar, muddatida ishga tushirilmagan uskunalar

13. Quyidagilarning qaysi biri mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi?

- a) soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar
- b) O'zbekiston Respublikasi hududida mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari
- c) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir
- d) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan notijorat tashkilotlari

14. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadimi?

- a) mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanmaydi
- b) mol-mulk solig'ini belgilangan tartibda to'laydilar
- c) faqat asosiy vositalari bo'yicha to'laydilar
- d) mol-mulk solig'ini yarmini to'laydilar

15. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchi belgilangan shakldagi ma'lumotnomani davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etadi?

- a) joriy yilning 10 yanvarigacha
- b) joriy yilning 1 yanvarigacha
- c) joriy yilning 1 apreliyigacha
- d) joriy yilning 1 fevraligacha

16. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq bo'yicha soliq davrini aniqlang?

- a) kalendar yil
- b) 10 kun
- c) oy
- d) chorak

17. Yuridik shaxslarning mol-mulklaridan olinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan budjetga qachon to'lanadi?

- a) yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay
- b) har chorakda chorakdan keyingi oyning 5 kunidan kechiktirmay
- c) har oyning 5 kunidan kechiktirmay
- d) har oydan keyingi oyning 5 kunidan kechiktirmay

18. Qanday holatda mol-mulk solig'i bo'yicha penya va jarimalar hisoblash to'xtatib turiladi.

- a) Yuridik shaxs xo'jalik sudi tomonidan bankrot deb topilgan taqdirda, tugatishga doir ish yuritishning butun davrida
- b) Yuridik shaxs pochta manzilini o'zgartirgan bo'lsa
- c) Yuridik shaxs xo'jalik sudida shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun javobgar sifatida qatnashayotgan bo'lsa
- d) Yuridik shaxs rahbari vazifasidan ozod qilingan davr mobaynida

19. Soliq qarzini soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish qanday tartibda amalga oshiriladi.

- a) davlat soliq xizmati organining da'vo arizasi asosida sud tartibida
- b) banklarning da'vo arizasi asosida sud tartibida
- c) moliya bo'limining da'vo arizasi asosida sud tartibida
- d) g'aznachilik bo'limining da'vo arizasi asosida sud tartibida

20. Moliyaviy sanksiyalar-bu.....

- a) soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.
- b) javobgarlik chorasi bo'lib, statistika organlari tomonidan undiriladi.
- c) javobgarlik chorasi bo'lib, moliya organlari tomonidan undiriladi.
- d) soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, natura ko'rinishida qo'llaniladi.

8-MAVZU: JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: chet el fuqarolari, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari, mol-mulk, soliq to‘lovchilari, soliq sub‘ekti, soliq ob‘ekti, soliq solish bazasi, inventarizatsiya qiymat, soliq stavkasi, mol-mulkning shartli qiymati, soliq imtiyozlari, soliq solinmaydigan maydon, mol-mulk solig‘ini hisoblash tartibi, mol-mulk solig‘ini to‘lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining to‘lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulklari soliq solish ob‘ekti va bazasi hisoblanadi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari kimning qarori bilan belgilanadi?
4. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i stavkasi 2017 yilda necha foiz qilib belgilangan?
5. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo‘yicha inventarizatsiya qiymati bo‘lmasa soliq undirish qandan tartibda amalga oshiriladi?
6. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i summasi qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?

MAVZU BO‘YICHA MASALALAR

Masala. Fuqaro Alimov Komil Toshent shahar Yunusobod tumani S-2, 24-uydan xarid qilgan 4 xonali kvartirasining texnik inventarizatsiyalash byurosi tomonidan narxlangan bahosi 5850000 so‘mni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. Fuqaro 2017 yilda qancha mol-mulk solig‘i to‘laydi?
2. Muddatida soliq summasini to‘lamasa qanday chora ko‘riladi?

Masala. Fuqaro Valiyev Farrux 2017 yil sentyabr oyida Toshent shahar Chilonzor tumanidan 4,0 sotix maydonga ega bo‘lgan turarjoy sotib oldi. Sotib

olingan turarjoyning texnik inventarizatsiyalash byurosi xodimlari tomonidan narxlangan qiymati 2450000 so'mni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. Mol-mulk solig'i summasini hisoblang va fuqaro Valiyev Farrux 2017 yil uchun qancha miqdorda soliq to'lashi lozim bo'ladi.
2. Soliq summasini qaysi muddatda amalga oshiriladi.

Masala. Fuqaro Baxromov Baxodir 2017 yilda o'z shaxsiy avtomashinasi uchun garaj sotib oldi. Garajning narxlangan qiymati 8 480 000 so'mni tashkil etdi.

Talab qilinadi:

1. Mol-mulk solig'i summasini hisoblang va fuqaro Baxromov Baxodir 2017 yil uchun qancha miqdorda soliq to'lashi lozim bo'ladi.
2. Soliq summasini qaysi muddatda amalga oshiriladi.

Masala. Fuqaro ikkinchi guruh nogironi hisoblanadi. Fuqaroning Toshkent viloyati Yangi yo'l tumanida 4 xonali uyi bo'lib, umumiy maydoni 180 kv metr. Inventarizatsiya qiymati 4 300 000 so'mni tashkil etdi.

Talab qilinadi:

1. Mol-mulk solig'i summasini hisoblang va fuqaro 2017 yil uchun qancha miqdorda soliq to'lashi lozim bo'ladi.
2. Soliq summasini qaysi muddatda amalga oshiriladi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. 2017 yil uchun jismoniy shaxslarning turar joylari, kvartiralar (shaharlarda joylashgan umumiy maydoni 200 m². dan ortiq bo'lganlari bundan mustasno) dala hovli, garajlar va boshqa imoratlariga belgilangan mol-mulk solig'ining stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

- a) 1,7
- b) 0,5
- c) 1,5
- d) 0,75

2. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solinadigan ob'ekti to'g'ri keltirilgan?

- a) motoaravachalar
- b) uy joylar, kvartiralar, garajlar, bog' uylari, bino va inshootlari
- c) avtomobillar
- d) motorli qayiqalar

3. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solinadigan bazasi to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati
- b) soliq solish ob'ektlarining fizik ko'rsatkichdagi soni

- c) soliq solish ob'ektlarining bozor qiymati
- d) soliq solish ob'ektlarining birja bahosi

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari..... bilan belgilanadi.

- a) Moliya vazirligining qarori
- b) Vazirlar Mahkamasining qarori
- c) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
- d) Davlat soliq qo'mitasining qarori

5. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ... tomonidan hisoblab chiqariladi.

- a) jismoniy shaxslar
- b) Davlat soliq boshqarmasi
- c) davlat soliq xizmati organlari
- d) Davlat soliq qo'mitasi

6. Mol-mulkka mulk huquqi bir mulkdordan boshqasiga o'tganda, yangi mulkdor soliqni ... e'tiboran to'laydi

- a) mulk huquqini qo'lga kiritgandan keyingi yildan
- b) mulk huquqini qo'lga kiritgandan keyingi oydan
- c) mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan
- d) mulk huquqini qo'lga kiritgandan 3 oydan keyin

7. 2017 yil uchun jismoniy shaxslarning shaharda joylashgan umumiy maydoni 200 m² dan oshiq va 500 m² gacha bo'lgan turar joylar va kvartiralariga belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi necha foiz?

- a) 1,3%
- b) 2,1%
- c) 1,8%
- d) 1,2%

8. Quyida keltirilgan jismoniy shaxslardan qaysilari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etilgan?

- a) O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar
- b) madaniyat va xalq ta'limi xodimlari
- c) O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar, madaniyat va xalq ta'limi xodimlari
- d) og'ir mehnat sharoitida ishlovchilar

9. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan soliq solish ob'ektlariga nisbatan....

- a) qo'llanilmaydi
- b) qisman qo'llaniladi
- c) qo'llaniladi
- d) tegishli vazirlik qarorlari asosida qo'llaniladi

10. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar.....

- a) mulkdorning barcha mol-mulk ob'ektlariga taalluqli bo'ladi
- b) mulkdorning tadbirkorlik maqsadlarida foydalanayotgan mol-mulk ob'ektlariga taalluqli bo'ladi
- c) mulkdorning tanloviga binoan faqat bitta mol-mulk ob'ektga taalluqli bo'ladi
- d) mulkdorning ijaraga bergan mol-mulk ob'ektlariga taalluqli bo'ladi

11. Jismoniy shaxslarning mol-mulkleri qaysi tashkilot tomonidan baholanadi?

- a) soliq inspeksiyalari tomonidan
- b) Davlat soliq qo'mitasi tomonidan
- c) texnik inventarizatsiyalash byurosi
- d) Davlat notariuslari tomonidan

12. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq qachondan undiriladi?

- a) mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran
- b) mulk huquqi vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab
- c) mulk huquqi vujudga kelgan yildan keyingi yil boshidan
- d) mulk huquqi vujudga kelgan kundan boshlab

13. 2017 yilda jismoniy shaxslar mol-mulkini inventarizasiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun boshqa shahar va qishloq joylarda qanday shartli qiymat qabul qilinadi?

- a) 8833,0 ming so'm
- b) 8030,0 ming so'm
- c) 16480,0 ming so'm
- d) 6080,0 ming so'm

14. Mol-mulk yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor to'laydi.

- a) yilning 1 yanvaridan e'tiboran mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar
- b) mulk huquqini yo'qotgan yilning oxirigacha
- c) mulk huquqini yo'qotgan oydan keyingi oygacha
- d) mulk huquqini yo'qotgan chorakning oxirigacha

15. Jismoniy shaxslarga mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomasi qaysi muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi?

- a) joriy yilning 5 yanvarigacha
- b) joriy yilning 25 apreiligacha
- c) joriy yilning 15 iyunigacha
- d) joriy yilning 1 mayigacha

16. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini qaysi muddatlarda to'laydilar?

- a) 15 yanvarga qadar
- b) 15 noyabrga qadar
- c) 15 oktyabrga qadar
- d) 15 iyun va 15 dekabrga qadar

17. 2017 yil uchun jismoniy shaxslarning shaharda joylashgan umumiy maydoni 500 kv.m.dan oshiq bo'lgan turar joylar va kvartiralariga belgilangan mol-mulk solig'ining stavkasi necha foiz?

- a) 2,5
- b) 2,9
- c) 1,6
- d) 2,4

18. 2017 yilda agar jismoniy shaxslar mol-mulkining inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida qanday shartli qiymat qabul qilinadi?

- a) 20480,0 ming so'm
- b) 20328,0 ming so'm
- c) 18480,0 ming so'm
- d) 18550,0 ming so'm

19. Qaysi javobda pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) umumiy maydonning 62 m² hajmida
- b) umumiy maydonning 60 m² hajmida
- c) umumiy maydonning 65 m² hajmida
- d) umumiy maydonning 55 m² hajmida

20. Mol-mulk butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'ini undirish ... to'xtatiladi.

- a) mol-mulk butunlay vayron bo'lgandan keyingi yildan e'tiboran
- b) mol-mulk butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran
- c) mol-mulk butunlay vayron bo'lgandan keyingi oydan e'tiboran
- d) mol-mulk vayron bo'lgan kundan e'tiboran

9-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi, ijara huquqi, rezident va norezident yuridik shaxslar, soliq to'lovchilari, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliq solish bazasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq solinmaydigan yerlar, yer solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish, yer solig'ini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yer solig'ini yuridik shaxslardan undirishning sababi nimada?
2. Yer solig'ining huquqiy asoslari O'zbekistonda qachon shakllangan?
3. O'zbekistonda yer fondi qanday tarkib topgan?
4. Kimlar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi?
5. Alohida soliq rejimiga o'tgan yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadimi?
6. Yer solig'ini undirish ob'ekti nima?
7. Soliq stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
8. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
9. Qanday yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi?
10. Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari qanday belgilangan?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonaga 2016 yil 18 dekabrda ro'yxatdan o'tgan, ushbu korxonaga 2017 yil 15 mart qabul qilish dalolatnomasiga asosan O'zbekiston tomoni korxonaning ustav jamg'armasiga jamg'arma sifatida ishlab chiqarish tsexini bergan.

Talab qilinadi:

1. Ishlab chiqarish sexi egallagan yer uchastkasi uchun qaysi davrdan boshlab va kim tomonidan yer solig'i to'lana boshlanishi kerak?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Toshkent shaxrining 3 zanosida joylashgan ishlab chiqarish korxonasi shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 4.5 ga. ni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Zarafshon shahrida joylashgan korxonaga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 2.75 ga, haqiqiy foydalanilishdagi yer maydoni esa 3.5 ga ekanligi aniqlandi.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Toshkent shahrining 2 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 0.8 ga. ni tashkil etadi. Soliq idorasi xodimlari tomonidan aniqlanishicha korxonaning amalda foydalanishda 1.2 ga yer uchastkasi mavjud.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan bazasini aniqlang.

- a) yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni
- b) yuridik shaxs tasarrufida bo'lmagan yer uchastkalari
- c) yer uchastkasining umumiy maydoni
- d) yuridik shaxs tasarrufida bo'lgan barcha yer uchastkalari

2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq stavkalarini qo'llashda Toshkent shahri necha zonaga bo'lingan?

- a) 7 zonaga
- b) 10 zonaga
- c) 15 zonaga
- d) 5 zonaga

3. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha soliq ob'ektini aniqlang.

- a) aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari
- b) mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari
- c) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar
- d) kommunal-maishiy yerlar

4. Yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari uchun yer solig'idan qanday imtiyozlar taqdim etiladi?

- a) to'liq ozod qilinadi
- b) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga ozod qilinadi
- c) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran besh yilga ozod qilinadi
- d) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran etti yilga ozod qilinadi

5. Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- a) belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalari
- b) ijaraga berilgan ko'chmas mulklar egallagan yer uchastkalari
- c) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari
- d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari

6. Yer solig'ini to'lash yuridik shaxslar tomonidan qanday muddatlarda amalga oshiriladi?

- a) yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar
- b) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay
- c) yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 25-kuniga qadar
- d) har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay

7. Yer solig'ini to'lashdan quyidagi qaysi yuridik shaxslar ozod qilinadi?

- a) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar
- b) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari
- c) savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar
- d) mikrofirma va kichik korxonlar

8. Yuridik shaxslar yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish qancha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi?

- a) yer solig'i summasining ikki baravari miqdorda
- b) yer solig'i summasining uch baravari miqdorda
- c) yer solig'i summasining besh baravari miqdorda
- d) yer solig'i summasining bir yarim baravari miqdorda

9. O'zbekiston Respublikasida zaxira yerlar yer solig'iga tortiladimi?

- a) soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi
- b) soliqqa tortiladi
- c) soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga kiradi

d) soliq solishdan ozod qilinadi

10. Quyidagilarni qaysi biri yer solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi?

- a) soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar
- b) ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari
- c) foydalanish huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar
- d) tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan yer uchastkalari bo'yicha notijorat tashkilotlari

11. Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- a) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari
- b) belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalari
- c) ijaraga berilgan ko'chmas mulklar egallagan yer uchastkalari
- d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari

12. Yagona soliq to'lovini to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonlari ijaraga olingan yer uchastkalari uchun budjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadimi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bo'yicha ijaraga olingan yer uchastkalari uchun ozod qilinadi
- b) ozod qilinmaydi
- c) ozod qilinadi
- d) imtiyozli stavkalarda to'laydilar

13. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonlari tomonidan yer solig'ini to'lash qanday tartibda amalga oshiriladi?

- a) hisobot yilining 1 sentyabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi; hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqning qolgan summasi
- b) yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 25-kuniga qadar
- c) hisobot yilining 1 iyuliga qadar - yillik soliq summasining 50 foizi; hisobot yilining 1 sentyabriga qadar - soliqning qolgan summasi
- d) yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar

14. Yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari uchun yer solig'idan qanday imtiyozlar taqdim etiladi?

- a) imtiyozlar taqdim etilmagan
- b) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran etti yilga ozod qilinadi
- c) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga ozod qilinadi
- d) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran besh yilga ozod qilinadi

15. Yer solig'ini joriy etishdan ko'zlangan maqsadlarni ko'rsating.

- a) davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- b) yuridik shaxslarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish
- c) budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash
- d) yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tartibga solish

16. Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati kimning zimmasiga yuklatiladi?

- a) ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi
- b) yer uchastkalari ichki xo'jalik pudratiga ijaraga berilmaydi
- c) ijaraga oluvchining zimmasiga yuklatiladi
- d) yagona yer solig'ini to'lash majburiyati yuzaga kelmaydi

17. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar tatbiq etiladimi?

- a) tatbiq etiladi
- b) yer uchastkalari ijaraga olingan oydan e'tiboran ikki yil mobaynida tatbiq etiladi
- c) tatbiq etilmaydi
- d) qisman tatbiq etiladi

18. Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan taqdirda soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatgacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart?

- a) hisobot yilining 1 dekabrigacha
- b) hisobot yilining 1 fevraligacha
- c) hisobot yilining 1 iyuligacha
- d) hisobot yilining 1 sentyabrigacha

19. Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i qaysi muddatdan boshlab to'lanadi?

- a) yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab
- b) yer uchastkasi berilganidan keyingi chorakdan boshlab
- c) yer uchastkasi berilgan oydan boshlab
- d) yer uchastkasi berilgan kundan boshlab

20. Qanday holatda yer solig'i, shuningdek avval hisoblangan va undirilmagan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penya va jarimalar hisoblash to'xtatib turiladi.

- a) Yuridik shaxs xo'jalik sudi tomonidan bankrot deb topilgan taqdirda, tugatishga doir ish yuritishning butun davrida
- b) Yuridik shaxs pochta manzilini o'zgartirgan bo'lsa
- c) Yuridik shaxs xo'jalik sudida shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun javobgar sifatida qatnashayotgan bo'lsa
- d) Yuridik shaxs rahbari vazifasidan ozod qilingan davr mobaynida

10-MAVZU: JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi, ijara huquqi, soliq to'lovchilari, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliq solish bazasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, yer solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish, yer solig'ini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining to'lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday yerlari soliq solish ob'ekti bo'laoladi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari qanday belgilanadi?
4. Jismoniy shaxslar berilgan yerlardan foydalanmagan holatda qanday tartibda ulardan soliq undiriladi?
5. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan qanday tartibda soliq undiriladi?
6. Qanday toifadagi fuqarolar yer solig'idan ozod etiladi?
7. Jismoniy shaxslarning yer solig'i qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?
8. Dehqon xo'jaliklari yer solig'ini budjetga to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?
9. Yer solig'i bo'yicha to'lov xabarnomalari soliq to'lovchilarga qaysi muddatgacha etkaziladi?
10. Yer solig'i qaysi muddatda mahalliy budjetga to'lanadi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Fuqaro Komilova Nargiza 2017 yil 10 yanvarda Toshkent viloyati Qibray tumanidan 6 sotix yer uchastkasini uy-joy qurish uchun sotib oldi.

Talab qilinadi:

1. Fuqaro Komilova Nargiza sotib olgan yer uchastkasi uchun qancha miqdorda yer solig'ini to'lashi lozim?
2. Yer solig'i summasini hisoblang.

Masala. Fuqaro Saidov Akmal Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashaydi. Uning yer uchastkasi 15 sotixni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. Fuqaro Saidov Akmal yer uchastkasi uchun qancha miqdorda yer solig'ini to'lashi lozim?
2. Yer solig'i summasini hisoblang.

Masala. Fuqaro Abbasov Komil Toshkent viloyatining Angren shahrida yashaydi. Uning yer uchastkasi 8 sotixni tashkil etadi. Fuqaro urush nogironlari hisoblanadi.

Talab qilinadi:

1. Fuqaro Abbasov Komil yer uchastkasi uchun qancha miqdorda yer solig'ini to'lashi lozim?

2. Yer solig'i summasini hisoblang.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

a) egaligida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar

b) foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar

c) mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir

d) o'z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir

2. Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini soliq solish ob'ekti bo'ladimi?

a) ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi

b) ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'ladi

c) Vazirlar Mahkamasining qarori asosida ayrim ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'ladi

d) Davlat soliq qo'mitasining qarori asosida ayrim ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'ladi

3. Jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomasini taqdim etish muddati qaysi satrda to'g'ri ko'rsatilgan.

a) joriy yilning 1 mayigacha

b) joriy yilning 25 apreliyigacha

c) joriy yilning 15 iyunigacha

d) joriy yilning 5 yanvarigacha

4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari qanday me'yoriy hujjat bilan tasdiqlanadi?

a) Vazirlar Mahkamasi qarori

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

c) Moliya vazirligi qarori

d) mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori

5. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysilari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'idan ozod etilmagan?

- a) uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar
- b) II guruh nogironlari
- c) Sovet Ittifoqi Qaxramoni
- d) yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar

6. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan bazasi to'g'ri berilgan?

- a) yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlar
- b) yer uchastkalarining inventarizatsiya qiymati
- c) yer uchastkalarining bozor qiymati
- d) yer uchastkalarining me'yoriy qiymati

7. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini budjetga to'lash muddatini ko'rsating

- a) hisobot yilining 15 iyuli, 15 noyabriga qadar
- b) hisobot yilining 15 iyunigacha, 15 dekabrigacha
- c) hisobot yilining 15 dekabrigacha
- d) hisobot yilining 15 oktyabriga qadar

8. To'langan jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i summasi belgilangan tartibda qaysi byudjetga tushadi?

- a) Respublika budjetiga
- b) mahalliy budjetga
- c) pensiya jamg'armasiga
- d) yo'l jamg'armasiga

9. Yer solig'ini joriy etishdan ko'zlangan maqsadlarni ko'rsating.

- a) davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash
- b) davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- c) fiskal funksiyani bajarish
- d) mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash

10. Yer uchastkalarini Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar tadbiiq etiladimi?

- a) tadbiiq etiladi
- b) qisman tadbiiq etiladi
- c) tadbiiq etilmaydi
- d) pasaytiruvchi koeffitsientlar qo'llaniladi

11. Quyida keltirilgan jismoniy shaxslardan qaysilari yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan?

- a) I va II guruh nogironlari
- b) madaniyat va xalq ta'limi xodimlari
- c) yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar
- d) og'ir mehnat sharoitida ishlovchilar

12. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan obyektini qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari
- b) ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari
- c) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yer uchastkalari
- d) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yer uchastkalari

13. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i..... tomonidan hisoblab chiqariladi

- a) jismoniy shaxslar
- b) Davlat soliq qo'mitasi
- c) Davlat soliq boshqarmasi
- d) Davlat soliq xizmati organlari

14. Jismoniy shaxslar yer solig'ini amalga oshirish maqsadida Toshkent shaxri nechta zonaga bo'linadi?

- a) 14 zona
- b) 13 zona
- c) 5 zona
- d) 4 zona

15. Jismoniy shaxslar yer solig'ini Toshkent shaxrining birinchi zonasi uchun 2017 yildagi stavkasi qancha miqdorida belgilangan?

- a) 654 so'm
- b) 555,1 so'm
- c) 456,3 so'm
- d) 357,4 so'm

11-MAVZU: JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARIDAN OLINADIGAN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: jismoniy shaxs, norezident jismoniy shaxs, soliq to'lovchilari, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliq solish bazasi, moliya yili, moddiy naf tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlar, devident, aliment, kompensatsiya, ustama, pul mukofotlar, eng kam ish haqi, soliq stavkalari, deklaratsiya, soliq imtiyozlari, soliq solinmaydigan daromadlar, daromad solig'ini hisoblash tartibi, daromad solig'ini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyatini tushuntirib bering?
2. Qanday shaxslarni jismoniy shaxslar deb atashadi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i budget daromadlari tarkibida qanday ahamiyatga ega?
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lovchilari kimlar?
6. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Jismoniy shaxsga 2017 yilning may va iyun oylarida 1900000 so'm (950000 + 950000) ish haqi hisoblangan. Eng kam ish haqi miqdori 149775 so'm.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan may oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan iyun oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini aniqlang?

Masala. O'zR Soliq kodeksi bo'yicha har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxsga 2017 yil may oyida 1150000 so'm ish haqi hisoblangan. Eng kam ish haqi miqdori 149775 so'm.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxs qancha miqdorida daromadga ega bo'ladi?

Masala. Kompensatsiya to'lovlarini (xizmat safari xarajatlarini) hisobga olgan holda soliq hisob-kitobi bo'yicha masala.

Korxonaga xodimiga 2017 yil yanvar oyi uchun 800000 so'm ish haqi hisoblangan. Korxonaga rahbarining O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarida bo'lish vaqtidagi kundalik xarajatlarni qoplash to'g'risidagi buyrug'i bilan respublikada belgilangan EKIHMning 40 foizga teng bo'lgan kundalik xarajatlar miqdori belgilangan. Xodim Navoiy shahriga sakkiz kunga xizmat safariga yuborilgan. Tegishli ravishda kundalik xarajatlar miqdori 479280 so'mni ($149775 \times 40\% \times 8$) tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar summasini aniqlang?

Masala. Oyiga EKIHMning 6 baravaridan oshmaydigan daromadlar bo'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisob-kitobi bo'yicha masala.

Xodimga 2017 yil yanvar oyi uchun 700 000 so'm miqdorida ish haqi hisoblangan.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar summasini aniqlang?

Masala. Oyiga EKIHMning 10 baravaridan oshmaydigan daromadlar o'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisob-kitobi bo'yicha masala.

Xodimga 2017 yil yanvar oyi uchun 1400 000 so'm miqdorida ish haqi hisoblangan.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar summasini aniqlang?

Masala. Oyiga EKIHMning 10 baravaridan ziyod bo'lgan daromadlar bo'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisob-kitobi bo'yicha masala.

Xodimga 2017 yil yanvar oyi uchun 1 800 000 so'm ish haqi hisoblangan.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar summasini aniqlang?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash ma'suliyati kimga yuklatilgan?

- a) jismoniy shaxsning o'ziga
- b) ish beruvchi yurudik shaxsga
- c) soliq xizmati organlariga
- d) tijorat banklariga

2. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilari kimlar?

- a) moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining rezident va norezident jismoniy shaxslari
- b) fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslar
- c) daromadga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslari
- d) xorijiy davlatlar fuqarolari

3. Jismoniy shaxsning quyida keltirilgan qaysi daromadlari daromad solig'idan ozod qilingan?

- a) dividend ko'rinishida olingan daromadlar
- b) mehnat haqi tarzidagi daromadlar
- c) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar
- d) davlat pensiyalari

4. 2017 yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining quyi stavkasi necha foiz?

- a) 9%
- b) 8,5%
- c) 0%
- d) 7,5%

5. Ish vaqtdan tashqari tungi vaqtda, dam olish, bayram kunlarda ishlaganlik uchun to'lovlar qanday to'lovlarga kiradi?

- a) rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlarga
- b) kompensatsiya to'lovlarga
- c) ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga
- d) mulkiy daromadlarga

6. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga tortiladimi?

- a) soliqqa tortiladi
- b) ozod etilgan
- c) soliqqa tortilmaydi
- d) qisman tortiladi

7. Jismoniy shaxslarning qanday daromadlari soliq solish ob'ekti hisoblanadi?

a) O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari

b) yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar

c) O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar

d) O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromadlari

8. Quyidagi qaysi to'lovlar rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar jumlasiga kiradi?

a) xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq

b) ta'tilga qo'shimcha haqlar

c) belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti

d) o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash

9. Vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar soliqqa tortiladimi?

a) soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda ozod etiladi

b) soliq davri uchun eng kam ish haqining olti baravarigacha miqdorda ozod etiladi

c) agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa soliqqa tortilmaydi

d) quyi stavkada soliqqa tortiladi

10. Vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari soliqqa tortiladimi?

a) soliqqa tortiladi

b) ozod etiladi

c) soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda ozod etiladi

d) soliq davri uchun eng kam ish haqining to'rt baravarigacha miqdorda ozod etiladi

11. Jismoniy shaxslarning quyidagi qaysi daromadiga belgilangan eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi?

a) grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar

b) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga

c) musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari

d) yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar

12. 2017 yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi necha foiz?

a) 25%

b) 20%

c) 16%

d) 23%

13. Quyidagilardan qaysi biri jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan to'liq ozod etilgan?

a) budget tashkilotlari xodimlari

b) nodavlat tashkiloti xodimlari

c) halqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari, agar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa

d) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari xodimlari

14. Qaysi daromad jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish ob'ekti bo'lmaydi?

a) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar

b) moddiy naf tarzidagi daromadlar

c) mulkiy daromadlar

d) yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar

15. Qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalardan soliq undiriladimi?

a) eng kam ish haqining 4 baravari miqdorigacha ozod etiladi

b) soliq davri uchun eng kam ish haqining 12 baravari miqdorigacha ozod etiladi

c) soliqqa tortiladi

d) soliqdan ozod etiladi

16. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 10,1%
- b) 13,1%
- c) 13,2%
- d) 12,9%

17. To'g'ri soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 42,0%
- b) 43,1%
- c) 43,2%
- d) 43,3%

18. Soliq kodeksining qaysi moddasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilari keltirilgan?

- a) 167-modda
- b) 168-modda
- c) 169-modda
- d) 170-modda

19. Soliq kodeksining qaysi moddasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ob'ekti keltirilgan?

- a) 167-modda
- b) 168-modda
- c) 169-modda
- d) 170-modda

20. Soliq kodeksining qaysi moddasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish bazasi keltirilgan?

- a) 167-modda
- b) 168-modda
- c) 169-modda
- d) 170-modda

12-MAVZU: OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: rezident yuridik shaxs, soliq to'lovchilari, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliq solish bazasi, soliq stavkasi, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish, joriy to'lovlar, soliqni to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday yuridik shaxslar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining to'lovchilari hisoblanishadi?
2. Korxonaga bir necha faoliyat turi bilan shug'ullansa ushbu soliqning to'lovchisi bo'la oladimi?
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi necha foizni tashkil etadi?
5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasini qanday holatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi?
6. Qanday holatda korxonaga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini budjetga to'lamaydi?
7. Tabaqalashtirilgan stavkalarni belgilash uchun nimalarni oldindan belgilab olish lozim?
8. Soliq hisobotlari qachon soliq organlariga topshiriladi?
9. Soliqni budjetga to'lash muddatlari qachon amalga oshiriladi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Barcha umumdavlat va mahalliy soliqlarni to'lovchi yuridik shaxsda foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi 490000 so'mni tashkil etadi. Korxonaga hech qanday imtiyozlarga ega emas; bazaga q'ayta qoshiluvchi xarajatlar yo'q.

Talab qilinadi:

1. 2017 yil uchun obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasini hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Korxonaning hisobot davrida foyda solig'i to'langunga qadar foydasi (2-shakl 240-satr) – 5080000 so'mga teng, foyda solig'i summasi (2-shakl 250-satr) – 3000000 so'm.

Talab qilinadi:

1. Korxonaga hisobot davrida qancha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Hisobot davrida bolalar bog’chasini tutib turish xarajatlari 1000000 so’mni tashkil etadi. Foyda solig’i to’langunga qadar foyda (2-shakl 240-satr) – 5000000 so’mdan iborat. Foyda solig’i summasi (2-shakl 250-satr) – 2000000 so’m. Foyda solig’i stavkasi 8%.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot davrida qancha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i to’laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Hisobot davrida sog’liqni saqlash muassasasini tutib turish xarajatlari 1500000 so’mni tashkil etadi. 2-shakl bo’yicha 240-satr soliq solinadigan foyda 40000000 ming so’mdan iborat. Foyda solig’i summasi 2-shakl bo’yicha 250-satr - 14000000 so’m. Foyda solig’i stavkasi – 35 foiz.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot davrida qancha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i to’laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Korxonaning hisobot davridagi soliq solinadigan foydasi: 240-satr – 0 ga teng. Foyda solig’i summasi 250 satr – 750000 so’m.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot davrida qancha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i to’laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Hisobot davrida korxonalarning umumiy ta’lim maktabini tutib turish xarajatlari 1000000 so’mni tashkil etadi. Soliq solinadigan foyda (2-shakl 240 satr) 8000000 so’mdan iborat. Foyda solig’i summasi 500000 so’m. Korxonaning eksportga tovar realizatsiya qilganligi uchun imtiyozga ega.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot davrida qancha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i to’laydi?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Quyidagi yuridik shaxslardan qaysi biri obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'laydi.

- a) ulgurji va chakana savdo korxonalari
- b) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari
- c) soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar
- d) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar

2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish ob'ektini ko'rsating.

- a) mahsulot sotishdan tushgan tushum, qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda
- b) foyda solig'i to'langandan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qolgan foyda
- c) muomala xarajatlari
- d) asosiy faoliyatdan olingan foyda

3. Obodonlashtirish ishlari va infratuzilmani rivojlantirish solig'ining stavkasini aniqlang.

- a) 8%
- b) 10%
- c) 16%
- d) 12%

4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi qaysi muddatda davlat soliq organlariga taqdim etiladi?

- a) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- b) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- c) har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- d) har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar qanday muddatdan kechiktirmay to'lanadi?

- a) hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 5-kunidan kechiktirmay
- b) hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay
- c) hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay
- d) hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 25-kunidan kechiktirmay

6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash muddatlarini aniqlang.

a) yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

b) 1 dekabrga qadar

c) yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

d) 1 fevralga fadar

7. Quyidagi yuridik shaxslarning qaysi biri obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi?

a) notijorat tashkilotlari, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydasi mustasno

b) qurilish tashkilotlari

c) sanoat korxonalarini

d) xizmat ko'rsatish korxonalarini

8. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilarini belgilang.

a) Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir.

b) notijorat tashkilotlari

c) soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

d) Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini

9. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish bazasini ko'rsating.

a) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda

b) Yalpi daromad

c) Yalpi tushum

d) muomala xarajatlari

10. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

a) 1,9%

b) 2,1%

c) 2,2%

d) 2,9%

11. To'g'ri soliqlar tarkibida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 7,8%
- b) 8,1%
- c) 8,2%
- d) 8,3%

12. Soliq kodeksining qaysi moddasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish bazasi keltirilgan?

- a) 296-modda
- b) 299-modda
- c) 295-modda
- d) 300-modda

13. Soliq kodeksining qaysi moddasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish ob'ekti keltirilgan?

- a) 296-modda
- b) 299-modda
- c) 295-modda
- d) 300-modda

14. Soliq kodeksining qaysi moddasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari keltirilgan?

- a) 296-modda
- b) 299-modda
- c) 295-modda
- d) 300-modda

15. Soliq kodeksining qaysi moddasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining to'lash tartibi keltirilgan?

- a) 296-modda
- b) 299-modda
- c) 295-modda
- d) 300-modda

16. Soliq kodeksining qaysi moddasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisoblash tartibi keltirilgan?

- a) 296-modda
- b) 299-modda
- c) 295-modda
- d) 300-modda

17. Soliq kodeksining qaysi moddasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliq davri keltirilgan?

- a) 296-modda
- b) 299-modda
- c) 295-modda
- d) 300-modda

18. Soliq kodeksining qaysi moddasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisobot davri keltirilgan?

- a) 296-modda
- b) 299-modda
- c) 295-modda
- d) 300-modda

19. Qaysi yuridik shaxslar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'idan joriy to'lovlarni amalga oshirmaydi?

- a) Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar
- b) Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining uch yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar
- c) Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining to'rt yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar
- d) Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz ellik baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar

20. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish bazasi qanday summalarga kamaytiriladi?

- a) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar summasiga
- b) yalpi tushum
- c) sotish xarajatlari
- d) foyda solig'i summasiga

13-MAVZU: SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: rezident yuridik shaxs, soliq to'lovchilari, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, yer usti suv manbalari, yer osti suv manbalari, soliq solish bazasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq bazasini kamaytirish, joriy to'lovlar, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish, soliqni to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan ko'zda tutilgan maqsad nima?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari kimlar?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni davlat budjetiga ta'minlab beradigan asosiy soliq to'lovchilarni bilasizmi?
4. Soliqqa tortish ob'ekti qanday tartibda aniqlanadi?
5. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida o'rnatilgan?
6. Qanday yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqdan ozod etiladi?
7. Dehqon xo'jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni budjetga to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Toshkent shahar "Suvoqava" trestining bergan ma'lumotlariga ko'ra shahar vodoprovod tarmog'iga suv 72% yer yuzasidagi va 28% yer osti manbalaridan kelib tushadi. Faraz qilaylik, korxonada bir oy davomida 10 ming kub metr suv olgan.

Talab qilinadi:

1. Korxonada davlat budjetiga suv resurslaridan foydalanganligi uchun o'tkazishi lozim bo'lgan soliqni hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Sanoat korxonasi hisobot davrida jami 30000 kub.metr suv resurslaridan foydalangan bo'lib, shundan 40 foizi yer osti manbalaridan, qolgan qismi esa yer usti manbalaridan olingan.

Talab qilinadi:

1. Korxonada davlat budjetiga suv resurslaridan foydalanganligi uchun o'tkazishi lozim bo'lgan soliqni hisoblang?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Elektrostantsiya hisobot davrida 450000 kub.metr yer usti suv resurslaridan, 50000 kub.metr yer osti suv resurslaridan foydalangan.

Talab qilinadi:

1. Elektrostantsiya hisobot davrida davlat budjetiga suv resurslaridan foydalanilganligi uchun o’tkazishi lozim bo’lgan soliqni hisoblang?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

Masala. Kommunal xo’jaligi hisobot davrida 150 000 kub.metr hajmida aholi punktlarini suv bilan ta’minlangan. Shuningdek o’z iste’moli uchun 25 000 metr.kub yer usti suv resurslaridan foydalangan.

Talab qilinadi:

1. Kommunal xo’jaligi hisobot davrida davlat budjetiga suv resurslaridan foydalanilganligi uchun o’tkazishi lozim bo’lgan soliqni hisoblang?

2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to’g’risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to’ldiring.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad:

- a) ishlab chiqarish sub’ektlarini qo’llab-quvvatlash
- b) davlat budjetini moliyaviy mablag’lar bilan ta’minlash va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag’batlantirish
- c) mahsulot tannarxini pasaytirish
- d) mahsulot narxini pasaytirish

2. Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqning to’lovchilarini aniqlang.

- a) notijorat tashkilotlari
- b) o’z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, norezidentlar
- c) yagona soliq to’lovi to’lovchilari
- d) barcha yuridik va jismoniy shaxslar

3. Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq bazasini aniqlang.

- a) yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
- b) yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
- c) foydalanilgan suvning hajmi
- d) chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

4. Yuridik shaxs o'z faoliyatida ro'yxatdan o'tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi hududga to'laydi?

- a) ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga
- b) Davlat soliq qo'mitasiga
- c) davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar suvdan foydalanish hududiga
- d) ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuviga muvofiq

5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatlarda taqdim etiladi?

- a) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- b) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- c) yilda bir marta hisobot davrining 1 iyunigacha
- d) yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay

6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan belgilanadi.

- a) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan
- b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan
- c) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan
- d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

7. Yuridik shaxs o'z faoliyatida ro'yxatdan o'tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi soliq organiga to'laydi.

- a) Ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga
- b) Davlat soliq qo'mitasiga
- c) Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga
- d) Ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuviga muvofiq

8. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 0,5%
- b) 0,1%
- c) 0,2%
- d) 0,9%

9. Mol-mulk va resurs soliqlari tarkibida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 3,5%
- b) 3,1%
- c) 3,2%

d) 3,3%

10. Dehqon xo‘jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qanday muddatlarda to‘laydilar?

- a) yilda bir marta, keyingi yilning 1 mayigacha
- b) yilda to‘rt marta, har chorakda
- c) yilda ikki marta, har olti oyda
- d) yilda bir marta, 31 dekabrgacha

11. Soliq kodeksida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan ozod etish bo‘yicha imtiyozlarni aniqlang.

- a) suv uchun budjetga soliq to‘lagan yuridik shaxslardan suv olgan iste‘molchilar
- b) xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar
- c) savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar
- d) vositachilik, ta‘minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar

12. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob‘ektini aniqlang.

- a) yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari
- b) yer usti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari
- c) yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari
- d) chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv

13. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi qaysi suv resurslari hajmiga kamaytiriladi?

- a) gidroelektr stantsiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga
- b) savdo tarmog‘ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmiga
- c) ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmiga
- d) ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmiga

14. Suv resurslarining yer osti manbalariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- a) skvajinalar
- b) daryolar, ko‘llar
- c) kanallar va hovuzlar
- d) suv omborlari

15. Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- a) daryolar, ko‘llar
- b) vertikal va gorizonta drenaj tarmoqlari
- c) artezian quduqlari
- d) skvajinalar

16. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi (yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklaridan tashqari) qanday aniqlanadi?

- a) suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida
- b) davlat soliq xizmati organlari ma'lumotlari asosida
- c) davlat bojxona xizmati organlari ma'lumotlari asosida
- d) suv etkazib beruvchi yuridik shaxslar ma'lumotlari asosida

17. Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

- a) joriy soliq davrining 15 dekabrigacha
- b) har oyda keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay
- c) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay
- d) yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

18. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq qaysi muddatda to'lanadi?

- a) yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay
- b) har oyda keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay
- c) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay
- d) har chorakda chorak ikkinchi oyining 5 kunidan kechiktirmay

19. Yuridik shaxs o'z faoliyatida ro'yxatdan o'tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi hududga to'laydi?

- a) davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar suvdan foydalanish hududiga
- b) ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga
- c) davlat soliq qo'mitasiga
- d) ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuviga muvofiq

20. Soliq kodeksining qaysi moddasida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliqqa tortish bazasi keltirilgan?

- a) 259-modda
- b) 265-modda
- c) 266-modda
- d) 258-modda

14-MAVZU YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ VA MAXSUS TO'LOVLAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: yuridik shaxs, soliq to'lovchilari, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, qo'shimcha foyda solig'i, bonus, imzoli bonus, tijorat va topilma bonusi, soliq solish bazasi, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish, soliqni to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligi nimada?
2. Bonuslar nima?
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi asosan qaysi yer osti qazilma boyliklari hissasiga to'g'ri keladi?
4. Respublikamizda eng yirik soliq to'lovchilar jumlasiga qaysi korxonalar kiradi?
5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining asosiy qismi respublikamizning qaysi xududlari hissasiga to'g'ri keladi?
6. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
7. Qaysi mezonlar asosida soliq stavkalari tabaqalashtiriladi?
8. Hozirgi vaqtda yer osti qazilma boyliklarning nechta turiga nisbatan soliq stavkalari belgilangan?
9. Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilganmi?
10. Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qanday tartibda soliq majburiyatlarini amalga oshiradilar?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Neft qazib oluvchi korxonada hisobot davrida 1000 tonna neft qazib olgan. Korxonada qayta ishlash 12000000 so'mga (QQS va aksiz solig'isiz) realizatsiya qilgan.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Ko'mir qazib oluvchi korxonada hisobot davrida 1800 tonna ko'mir qazib olgan va uning 45 foizini 84000000 so'mga realizatsiya qilgan.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Korxonada hisobot davrida 500 tonna temir rudasini qazib olib, uning bir qismini 12000000 so'mga QQS bilan realizatsiya qilgan.

Talab qilinadi:

1. Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar qanday soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar?

- a) qo'shimcha foyda solig'i
- b) imzoli va tijoratbop bonuslar
- c) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- d) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shimcha foyda solig'i va bonuslar

2. Bonus ta'rif qaysi javobda to'g'ri keltirilgan

- a) yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan doimiy to'lov
- b) yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan har oylik to'lov
- c) yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan har choraklik to'lov
- d) yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov

3. Qaysi yuridik shaxslar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari bo'lmaydi.

- a) yuridik shaxslar
- b) notijorat tashkilotlar
- c) mikrofirma va kichik korxonalar
- d) yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar

4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilarni aniqlang.

- a) Yuridik shaxslar
- b) Jismoniy shaxslar
- c) Yuridik va jismoniy shaxslar
- d) Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar

5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solinadigan bazasini belgilang.

a) Yuridik shaxslar sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar qiymati

b) Jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida kavlab olgan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi

c) Kavlab olingan tayyor mahsulot hajmining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymat

d) Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mahsulotni sotishdan tushgan tushumi

6. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisoblash tartibini aniqlang.

a) Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq uni to'lovchilar tomonidan mustaqil hisoblab chiqariladi

b) Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblanadi

c) Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq alohida ruxsatnomaga ega bo'lgan yuridik shaxs tomonidan hisoblanadi

d) Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq faqat qayta ishlovchi korxonalar tomonidan hisoblanadi

7. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi budjetga qachon o'tkaziladi?

a) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

b) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

c) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

d) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

8. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qaysi muddatlarda taqdim etiladi?

a) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

b) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

c) har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

d) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

9. Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilari kimlar hisoblanadi.

a) ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar

b) yer qa'ridan foydalanuvchi barcha yuridik shaxslar

c) mikrofirma va kichik korxonalar

d) mahsulot btaqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar

10. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan
- b) Oliy Majlis senati tomonidan
- c) Oliy Majlis qonunchilik palatasi tomonidan
- d) Vazirlar Mahkamasi tomonidan

11. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisoblash tartibini aniqlang.

- a) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar tomonidan mustaqil hisoblab chiqariladi
- b) hudud hokimiyatlari tomonidan hisoblanadi
- c) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblanadi
- d) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq alohida ruxsatnomaga ega bo'lgan yuridik shaxs tomonidan hisoblanadi

12. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solinadigan bazasini belgilang.

- a) ajratib olingan tayyor mahsulot hajmining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymat
- b) foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mahsulotni sotishdan tushgan tushumi
- c) jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida kavlab olgan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi
- d) jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi

13. Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan qancha muddatda to'lanadi?

- a) o'ttiz kundan kechiktirmay
- b) o'n kundan kechiktirmay
- c) besh kundan kechiktirmay
- d) uch kundan kechiktirmay

14. Soliq kodeksining qaysi moddasida er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari keltirilgan?

- a) 243-modda
- b) 244-modda

- c) 245-modda
- d) 246-modda

15. Soliq kodeksining qaysi moddasida er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish bazasi keltirilgan?

- a) 243-modda
- b) 244-modda
- c) 245-modda
- d) 246-modda

16. Soliq kodeksining qaysi moddasida er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ob'ekti keltirilgan?

- a) 243-modda
- b) 244-modda
- c) 245-modda
- d) 246-modda

17. Soliq kodeksining qaysi moddasida qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilari keltirilgan?

- a) 248-modda
- b) 244-modda
- c) 245-modda
- d) 246-modda

18. Soliq kodeksining qaysi moddasida qo'shimcha foyda solig'i ob'ekti keltirilgan?

- a) 249-modda
- b) 248-modda
- c) 255-modda
- d) 246-modda

19. Soliq kodeksining qaysi moddasida qo'shimcha foyda solig'i bazasi keltirilgan?

- a) 248-modda
- b) 244-modda
- c) 250-modda
- d) 246-modda

20. Soliq kodeksining qaysi moddasida tijoratbop topilma bonusu keltirilgan?

- a) 254-modda
- b) 249-modda
- c) 253-modda
- d) 256-modda

15-MAVZU: TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN, DIZEL YOQILG‘ISI VA GAZ ISHLATGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: yuridik shaxs, soliq to‘lovchilari, soliq sub‘ekti, soliq ob‘ekti, soliq solish bazasi, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish, soliqni to‘lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliqni budjetga bevosita to‘lovchilar kimlar?
2. Soliq solish ob‘ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
3. Benzin, dizel yonilg‘isi va gazni sotish deganda nima tushuniladi?
4. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliq stavkalari qaysi davlat organlari tomonidan belgilanadi?
5. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
6. Soliq summasi qaysi formula yordamida topiladi?
7. Soliq summasi jismoniy shaxslardan qaysi vaqtlarda undiriladi?
8. Soliq to‘lovchilar soliq idoralariga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga solig‘i bo‘yicha qaysi muddatda hisobot topshiradi?
9. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliq tushumi qaysi budjetga tushadi?
10. Soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlaridagi ma‘lumotlarning xaqqoniyligiga kim javobgar hisoblanadi?

MAVZU BO‘YICHA MASALALAR

Masala. Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisobot davrida 12000 letr benzin realizatsiya qildi.

Talab qilinadi:

1. Korxonada hisobot davrida qancha miqdorda transport vositalariga benzin uchun soliq to‘laydi?
2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to‘ldiring.

Masala. Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisobot davrida 9800 letr dizel yoqilg‘isi realizatsiya qildi.

Talab qilinadi:

1. Korxonada hisobot davrida qancha miqdorda transport vositalariga dizel yoqilg'isi uchun soliq to'laydi?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisobot davrida 11200 letr benzin va dizel yoqilg'isi realizatsiya qildi.

Talab qilinadi:

1. Korxonada hisobot davrida qancha miqdorda transport vositalariga benzin va dizel yoqilg'isi uchun soliq to'laydi?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq qachon joriy etilgan?

- a) 2002 yil
- b) 2004 yil
- c) 2005 yil
- d) 2006 yil

2. Transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilari qaysi javobda keltirilgan?

- a) Jismoniy shaxslar
- b) Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi norezidentlari
- c) Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar
- d) Notijorat tashkilotlari

3. Transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning bazasi qaysi javobda keltirilgan?

- a) Benzin, dizel yonilg'isi va gazning tannarxi
- b) Benzin, dizel yonilg'isi va gazning narxi
- c) Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazning natura holiday realizatsiya qilingan hajmi
- d) Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning foydasi

4. Soliq kodeksining qaysi moddasida transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilari keltirilgan?

- a) 301-modda
- b) 302-modda
- c) 303-modda
- d) 304-modda

5. Soliq kodeksining qaysi moddasida transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni soliq solish ob'ekti keltirilgan?

- a) 301-modda
- b) 302-modda
- c) 303-modda
- d) 304-modda

6. Soliq kodeksining qaysi moddasida transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni soliq solinadigan bazasi keltirilgan?

- a) 301-modda
- b) 302-modda
- c) 303-modda
- d) 304-modda

7. Soliq kodeksining qaysi moddasida transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq davri keltirilgan?

- a) 301-modda
- b) 302-modda
- c) 303-modda
- d) 304-modda

8. Soliq kodeksining qaysi moddasida transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni hisoblab chiqarish tartibi keltirilgan?

- a) 301-modda
- b) 302-modda
- c) 303-modda
- d) 304-modda

9. Soliq kodeksining qaysi moddasida transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisob-kitoblarini taqdim etish keltirilgan?

- a) 301-modda
- b) 302-modda
- c) 303-modda
- d) 304-modda

10. Soliq kodeksining qaysi moddasida transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lash tartibi keltirilgan?

- a) 301-modda
- b) 302-modda
- c) 303-modda
- d) 304-modda

11. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 4,3%
- b) 4,1%
- c) 4,2%
- d) 4,9%

12. Egri soliqlar tarkibida transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning salmog'i 2017 yilda qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?

- a) 8,0%
- b) 8,1%
- c) 8,2%
- d) 8,3%

13. 2017 yil uchun transport vositalari uchun benzin iste'moliga olinadigan soliq stavkalari miqdori qancha?

- a) 1 litr uchun 465 so'm
- b) 1 litr uchun 455 so'm
- c) 1 litr uchun 445 so'm
- d) 1 litr uchun 475 so'm

14. 2017 yil uchun transport vositalari uchun dizel yoqilg'isi iste'moliga olinadigan soliq stavkalari miqdori qancha?

- a) 1 litr uchun 465 so'm
- b) 1 litr uchun 455 so'm
- c) 1 litr uchun 445 so'm
- d) 1 litr uchun 475 so'm

15. 2017 yil uchun transport vositalari uchun suyultirilgan gaz iste'moliga olinadigan soliq stavkalari miqdori qancha?

- a) 1 litr uchun 230 so'm
- b) 1 litr uchun 465 so'm
- c) 1 litr uchun 275 so'm
- d) 1 litr uchun 225 so'm

16-MAVZU: MAHALLIY YIG'IMLAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: mahalliy byudjet, yig'im, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yig'imni to'lovchilari, patta to'lovi, chakana savdo, mahalliy yig'im stavkalari, yig'implardan imtiyozlar, to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Mahalliy yig'im deganda nimani tushunasiz?
2. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im soliq kodeksining qaysi moddasiga tegishli?
3. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari kimlar?
4. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
5. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi qancha muddatga beriladi?
6. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im qancha miqdorda undiriladi?
7. Patta to'lovi qanday hisoblanadi?
8. Mahalliy yig'implar va ularning amal qilish xususiyatlari haqida ta'rif bering?
9. Mahalliy yig'implar mahalliy budjetlarni shakllantirishdagi o'rni qanday?
10. Mahalliy yig'implarni to'lovchilar tarkibini ayting.
11. Mahalliy yig'implarni hisoblash va to'lash tartibini ayting.
12. Patta haqi to'lovlarini kimlar to'laydi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Toshkent shahrida bitta va Samarqand viloyati hududida uchta avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joyi ro'yxatga olingan. Toshkent shahrida ro'yxatga olinayotgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joyi uchun tuman hokimiyati tomonidan eng kam ish haqining 5 minimal miqdorida yig'im undirilishi belgilangan. Eng kam ish haqi miqdori 149775 so'm.

Eslatma, barcha avtotransport vositalarini vaqtincha to'xtash joyi 2016 yilda tashkil qilingan.

Talab qilinadi:

1. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan mahalliy yig'im miqdorining amaldagi qonunchilikka mos kelishiga xulosa bering.
2. Mahalliy yig'implarni hisoblash va to'lash tartibi va undagi mavjud muammoalar haqida o'z fikringizni bering.

Masala. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida hamda Mitan shaharchasida tashkil qilingan avtotransport vositalarini vaqtincha to'xtash joyi uchun eng kam ish haqining 1,5 barobari miqdorida, Samarqand shahrida tashkil qilingan avtotransport vositalarini vaqtincha to'xtash joyi uchun esa eng kam ish haqining 2,5 barobari miqdorida yig'im undirilishi belgilandi. Eng kam ish haqi miqdori 149775 so'm.

Eslatma, barcha avtotransport vositalarini vaqtincha to'xtash joyi 2016 yilda tashkil qilingan.

Talab qilinadi:

1. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan mahalliy yig'im miqdorining amaldagi qonunchilikka mos kelishiga xulosa bering.

2. Mahalliy yig'implarni hisoblash va to'lash tartibi va undagi mavjud muammoalar haqida o'z fikringizni bering.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning to'lovchilari qaysi javobda keltirilgan?

a) yakka tartibdagi tadbirkorlar

b) yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini va xizmatlar ko'rsatishni belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar

c) yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi norezidentlari

d) yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar

2. Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning ob'ekti qaysi javobda keltirilgan?

a) tovarlar va xizmatlarning belgilangan narxi

b) tovarlar va xizmatlar realizatsiyasidan tushgan tushum

c) sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq

d) tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxati

3. Soliq kodeksining qaysi moddasida tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im to'lovchilar keltirilgan?

a) 345-modda

b) 346-modda

c) 347-modda

d) 348-modda

4. Soliq kodeksining qaysi moddasida tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im ob'ekti keltirilgan?

a) 345-modda

- b) 346-modda
- c) 347-modda
- d) 348-modda

5. Soliq kodeksining qaysi moddasida tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im hisoblab chiqarish tartibi keltirilgan?

- a) 345-modda
- b) 346-modda
- c) 347-modda
- d) 348-modda

6. Soliq kodeksining qaysi moddasida tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im to'lash tartibi keltirilgan?

- a) 345-modda
- b) 346-modda
- c) 347-modda
- d) 348-modda

7. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun qachon to'lanadi?

- a) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyni 25-kunidan kechiktirmasdan
- b) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyni 15-kunidan kechiktirmasdan
- c) har chorakda, hisobot oyidan keyingi oyni 25-kunidan kechiktirmasdan
- d) har chorakda, hisobot oyidan keyingi oyni 15-kunidan kechiktirmasdan

8. Alkogolli mahsulotlar, shu jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogolli mahsulotlarning realizatsiya qilinish uchun chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im 2017 yildagi stavkasi qancha?

- a) 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari
- b) 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari
- c) 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 1,5 baravari
- d) 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 0,5 baravari

9. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar uchun chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im 2017 yildagi stavkasi qancha?

- a) 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari
- b) 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari
- c) 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 1,5 baravari
- d) 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 0,5 baravari

10. Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im 2017 yildagi stavkasi qancha?

- a) har bir oy uchun eng kam ish haqining 8 baravari
- b) har bir oy uchun eng kam ish haqining 5 baravari
- c) har bir oy uchun eng kam ish haqining 3 baravari
- d) har bir oy uchun eng kam ish haqining 10 baravari

17-MAVZU: DAVLAT BUDJETNING SOLIQSIZ DAROMADLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: davlat byudjeti, byudjet, soliqsiz daromadlar, yig'implar, davlat boji, bojxona boji, yakka tartibdagi tadbirkor, chakana savdo.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliqsiz daromadlarning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Soliqsiz daromadlarning tarkibini ayting.
3. Soliqsiz daromadlar qanday shakllanadi?
4. Soliqsiz daromadlarning davlat budjeti daromadlarida tutgan salmog'i qancha?
5. Davlat budjeti daromadlari tarkibida soliqsiz daromadlarning hajmini oshirish masalalari.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning to'lovchilari qaysi javobda keltirilgan?

- a. yakka tartibdagi tadbirkorlar
- b. Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi norezidentlari
- c. Yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar
- d. Yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini va xizmatlar ko'rsatishni belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar

2. Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning ob'ekti qaysi javobda keltirilgan?

- a. Tovaralar va xizmatlar realizatsiyasidan tushgan tushum
- b. Sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq
- c. Tovarlar va xizmatlarning belgilangan narxi
- d. Tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxati

18-MAVZU: IJTIMOYIY JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: yagona ijtimoiy to'lov, yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, sug'urta badallari, soliq solish ob'ekti, soliq solinadigan baza, imtiyozlar, soliq davri, hisobot davri, yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi, sug'urta badallarini hisoblab chiqarish tartibi, yagona ijtimoiy to'lovni to'lash tartibi, sug'urta badallarini to'lash tartibi, yakka tartibdagi tadbirkor, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solinadigan bazasi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitoblarini taqdim etish, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash tartibi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yagona ijtimoiy to'lov to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanishadi?
2. Fuqarolarning ish haqidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallarining to'lovchilari kimlar?
3. Yagona ijtimoiy to'lov mablag'lari qanday tartibda jamg'armalarga taqsimlanadi?
4. Yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalini ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
5. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?
6. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarning to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
7. Respublika yo'l jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil topgan?
8. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari kimlar?
9. Majburiy ajratmalarni to'lovchilar hisob-kitoblarni qaysi tashkilotga taqdim etadilar?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala. Toshkent shahrida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar ishchilariga hisoblangan ish haqi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

- Direktor – 650000 so'm (1 oyga);
- Hisobchi – 500000 so'm (1 oyga);
- Sotuvchi – 450000 so'm (1 oyga);

Talab qilinadi:

1. Savdo korxonasining 2017 yil 1 chorak uchun yagona ijtimoiy to'lov summasini hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonada 3 kishi ishlaydi. 2017 yilning 1-choragi uchun ularga jami 2700000 so'm ish haqi hisoblangan.

Talab qilinadi:

1. Savdo korxonasining 2017 yil 1 chorak uchun yagona ijtimoiy to'lov summasini hisoblang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot shaklini (2-shakl) to'ldiring.

Masala. Toshkent shahrida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonada ishchilariga hisoblangan ish haqi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

- Direktor – 950000 so'm (1 oyga);
- Hisobchi – 800000 so'm (1 oyga);
- Sotuvchi – 550000 so'm (1 oyga);

Talab qilinadi:

1. Savdo korxonasining 2017 yil 1 chorak uchun yagona ijtimoiy to'lov summasini hisoblang?
2. Fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari summasini hisoblang.

Masala. 2017 yil yanvar oyi uchun ishchi va xizmatchilarning mehnatga haq to'lash shaklida quyidagi xarajatlar qildi:

- ish haqi hisoblangan – 11600 ming so'm;
 - ishchi va xizmatchilarning yo'l pattalariga ajratilgan xarajatlar – 600 ming so'm;
 - ishchilarga moddiy yordam ajratilgan – 10600 ming so'm;
 - ishchilarning tushlik ovqatlariga – 930 ming so'm;
 - kunlik xarajatlar berilgan:
 - me'yor chegarasida – 8950 ming so'm;
 - me'yordan yuqori – 7500 ming so'm;
 - yarim yil yakuniga asosan mukofot puli hisoblangan – 250 ming so'm.
- Eng kam ish haqi miqdori – 149775 so'm.

Talab qilinadi:

1. Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lov summasini aniqlang?
2. Fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari summasini hisoblang.

Masala. Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralariga qarashli tumanlararo baza 2017 yil birinchi chorakda 52500000 so‘m yalpi daromadga ega bo‘ldi.

Talab qilinadi:

1. Baza qancha miqdorda Pensiya jamg‘armasiga ajratma to‘lashi lozimligini aniqlang?

2. Pensiya jamg‘armasiga ajratma to‘lash muddatini belgilang.

Masala. Alskom sug‘urta kompaniyasi 2017 yil 1 chorakda sug‘urta xizmatlaridan 32 000000 so‘m miqdorida daromadga ega bo‘ldi.

Talab qilinadi:

1. Kompaniya Pensiya jamg‘armasiga qancha ajratma to‘lashi lozimligini aniqlang?

2. Pensiya jamg‘armasiga ajratma to‘lash muddatini belgilang.

Masala. Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar ishchilariga 2017 yil 6 oylik yakun bo‘yicha quyidagi miqdorlarda ish haqlari hisoblandi:

Yanvar oyi uchun – 6500000 so‘m;

Fevral oyi uchun – 6500000 so‘m;

Mart oyi uchun – 6500000 so‘m;

Aprel oyi uchun – 850000 so‘m;

May oyi uchun – 850000 so‘m;

Iyun oyi uchun – 850000 so‘m;

Talab qilinadi:

1. Savdo korxonasi 2017 yil 6 oylik yakun bo‘yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summasini?

2. Fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari summasini hisoblang.

MAVZU BO‘YICHA TESTLAR

1. Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallarining soliq solish ob‘ektini ko‘rsating.

a) yalpi tushum

b) rag‘batlantirish xususiyatiga ega ish haqi tarzidagi daromadlar

c) yalpi daromad

d) tovaroborot

2. Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

a) har chorakda, chorakdan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan

b) har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan

c) har chorakda, chorak ikkinchi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan

d) har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan

3. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solinadigan bazasini aniqlang.

- a) asosiy faoliyatdan olingan foyda
- b) sof tushum
- c) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda
- d) favqulodda foyda

4. Advokatlarning hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari zimmasida quyidagilarning qaysi birini to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi?

- a) yagona ijtimoiy to'lov
- b) yer solig'i
- c) mol-mulk solig'i
- d) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

5. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash qachon amalga oshiriladi?

- a) hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan
- b) hisobot oyining 10-kunidan kechiktirmasdan
- c) hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan
- d) hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan

6. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmaning soliq solinadigan bazasini aniqlang.

- a) sof tushum
- b) asosiy faoliyatdan olingan foyda
- c) favqulodda foyda
- d) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda

7. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilarni aniqlang.

- a) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs
- b) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari
- c) umumiy ovqatlanish korxonalari
- d) savdo korxonalari

8. Ishonchli shaxs birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish oborotlari bo'yicha davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar to'laydimi?

- a) to'laydi
- b) to'lamaydi
- c) imtiyozli stavkalarda to'laydi
- d) 5 yil muddatga ozod etiladi

9. Ko'rsatilgan yuridik shaxslardan qaysilari budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilari bo'lmaydi.

- a) yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar
- b) foyda solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar
- c) yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar

d) mol-mulk solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar

10. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan yagona ijtimoiy to'lovning hisob-kitobi qanday muddatda taqdim etiladi?

a) har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

b) har oyda soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

c) har oyda soliq davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

d) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

11. Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi qanday muddatda taqdim etiladi?

a) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

b) har oyda soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

c) har oyda soliq davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

d) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

12. Sug'urta badallarining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan qanday muddatda taqdim etiladi?

a) har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

b) har oyda soliq davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

c) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

d) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

13. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi ko'rsatilgan qaysi to'lovga hisoblanmaydi.

a) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli xayriya jamg'armalarga o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlarga

b) ilmiy unvon va faxriy unvon uchun qo'shimcha to'lovlarga

c) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar

d) predmeti ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar

14. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining soliq solish ob'ektini ko'rsating.

a) rag'batlantirish xususiyatiga ega ish haqi tarzidagi daromadlar

b) yalpi tushum

c) tovar oborot

d) yalpi daromad

15. Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi.

a) yuridik shaxslar-O'zbeiston respublikasi rezidentlari va norezidentlari

b) jismoniy shaxslar

- c) faqat mikrofirma va kichik korxonalar
- d) faqat fermer va dehqon xo'jaliklari

16. Yagona ijtimoiy to'lovni to'lash qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

- a) har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan
- b) har chorakda, chorakdan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan
- c) har oyda, keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmasdan
- d) har chorakda, chorak ikkinchi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan

17. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash quyidagi qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

- a) hisobot yilining 1 oktyabrigacha
- b) hisobot yilining 15 fevraligacha
- c) har oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay
- d) har oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15-kunidan kechiktirmay

18. Qanday holatda majburiy to'lovlar bo'yicha penya va jarimalar hisoblash to'xtatib turiladi.

- a) Yuridik shaxs xo'jalik sudi tomonidan bankrot deb topilgan taqdirda, tugatishga doir ish yuritishning butun davrida
- b) Yuridik shaxs pochta manzilini o'zgartirgan bo'lsa
- c) Yuridik shaxs xo'jalik sudida shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun javobgar sifatida qatnashayotgan bo'lsa
- d) Yuridik shaxs rahbari vazifasidan ozod qilingan davr mobaynida

19. Soliq kodeksining qaysi moddasida yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari keltirilgan?

- a) 305-modda
- b) 306-modda
- c) 307-modda
- d) 308-modda

20. Soliq kodeksining qaysi moddasida Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar keltirilgan?

- a) 312-modda
- b) 313-modda
- c) 317-modda
- d) 318-modda

19-MAVZU: RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY TO‘LOVLAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lovchilar, yuridik shaxslar, notijorat tashkilot, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob‘ekti, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solinadigan bazasi, soliq davri, hisobot davri, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobini taqdim etish, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lash tartibi, Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im, Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imni to‘lovchilari, Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imni ob‘ekti, yig‘imni stavkalari, imtiyozlar, yig‘imni to‘lash tartibi

NAZORAT SAVOLLARI

1. Respublika yo‘l jamg‘armasi qachon va nima maqsadda tashkil topgan?
2. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lovchilari kimlar?
3. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning ob‘ekti nima?
4. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning ba‘zasi qanday aniqlanadi?
5. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning stavkasini ayting?
6. Majburiy ajratmalarni to‘lovchilar hisob-kitoblarni qaysi tashkilotga taqdim etadilar?
7. Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imni to‘lovchilari kimlar?
8. Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imni ob‘ekti nima?
9. Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imni bazasi qanday aniqlanadi?
10. Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imni stavkalarini qanday?
11. Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imni hisob-kitoblariqachan taqdim etiladi?
12. Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imni to‘lash tartibini ayting?

MAVZU BO‘YICHA MASALALAR

Masala. Ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi korxonada ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug‘ullanadi. 2017 yilning hisobot davri uchun tovar sotishdan

tushgan tushum 60000000 so‘m, korxonada o‘zi ishlab chiqargan mahsulotini sotish natijasida tushgan tushum 3600000 so‘m. Engil avtomobil sotib olingan 5900000 so‘m.

Talab qilinadi:

1. Yo‘l jamg‘armasiga to‘lanishi lozim bo‘lgan summani aniqlang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to‘ldiring.

Masala. Korxonada xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan ham shug‘ullanadi. 2017 yilning hisobot davri uchun xizmat ko‘rsatishdan tushgan tushum 46000000 so‘m, korxonada mol-mulkinini ijaraga berish natijasida tushgan tushum 3600000 so‘m.

Talab qilinadi:

1. Yo‘l jamg‘armasiga to‘lanishi lozim bo‘lgan summani aniqlang?
2. Korxonaning hisobot davri uchun “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobot shaklini (2-shakl) to‘ldiring.

MAVZU BO‘YICHA TESTLAR

1. Yuridik shaxslar uchun respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmaning bazasini aniqlang.

- a) yalpi tushum
- b) tovar oboroti
- c) sof foyda
- d) tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar

2. Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imning soliq solinadigan bazasini belgilang.

- a) faoliyatining asosiy turi yo‘lovchilar tashish bo‘lgan avtotransport korxonalar tasarrufidagi vositalar qiymati
- b) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalar tasarrufidagi vositalar qiymati
- c) ishlab chiqaruvchi korxonada tomonidan qo‘l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobillar va motoaravachalar qiymati
- d) avtotransport vositalari dvigatelinin ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati va tranzit vositalar

3. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lovchilarni aniqlang.

- a) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari
- b) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs
- c) ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar
- d) savdo korxonalari

4. Vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmaning bazasini aniqlang.

a) tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati

b) ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlanmagan holdagi mukofot summasi

c) mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi

d) ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi

5. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi qanday muddatda taqdim etiladi?

a) har oyda soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

b) har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

c) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

d) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

6. Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

a) Ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im

b) konsullik yig'imi

c) Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im

d) chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im

7. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash qanday muddatda amalga oshiriladi?

a) hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

b) hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

c) hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

d) hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

8. Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilarning qaysi biri ozod qilinadi?

a) ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar

b) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) tibbiyot muassasalari

c) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmagan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar

d) yuridik shaxslar - qirq tonnagacha yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha

9. Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'imni to'lash muddatlarini aniqlang?

a) ular texnik ko'rikdan o'tkazilayotganda

b) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

c) ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda

d) har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

10. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kiradigan soliq to'lovchilar tomonidan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi qanday muddatda taqdim etiladi?

a) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

b) har oyda soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

c) har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

d) yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

20-MAVZU: ELEKTRON HISOBOT VA UNI JO'NATISH TARTIBI

Quyidagi atamalarga izoh bering: elektron hisobot, elektron hujjatdagi axborot, axborot, elektron raqamli imzo, moliyaviy hisobotlar, elektron hujjat.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Hisobotlarni elektron ko'rishda topshirishning zarurligini to'shirtirib bering.
2. Elektron hisobotlarning me'yoriy huquqiy asoslarini ayting.
2. Elektron raqamli imzo (ERI) nima. Qanday tartibda elektron raqamli imzo olinadi.
3. "Soliq to'lovchilarga interaktiv xizmatlar" tizimi ("Shaxsiy kabinet")ga kirish paytida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar oynasini tushuntiring.
4. Elektron hisobotlarni tuzish tartibiga izoh bering.
5. Elektron hisobotlarni jo'natish tartibidagi muammolarni ayting.
6. Hisobotlarni tekshirish va xatolarni tuzatish tartibi haqida batafsil tushuncha bering.
7. Hisobotning o'z vaqtida topshirilganligi va soliq inspektori tomonidan imzolangani to'g'risidagi ma'lumot qanday tartibda olinadi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Soliq xizmati organlari axborot tizimi necha bosqichdan iborat?

- a) 1 bosqichdan: Davlat soliq qo'mitasi
- b) 2 bosqichdan: Davlat soliq qo'mitasi; Davlat soliq boshqarmasi
- c) 3 bosqichdan: Davlat soliq qo'mitasi; Davlat soliq boshqarmasi; Davlat soliq inspeksiyasi
- d) 4 bosqichdan: Davlat soliq qo'mitasi; Davlat soliq boshqarmasi; Davlat soliq inspeksiyasi; Davlat bojxona qo'mitasi

2. "Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi – "Yuridik shaxs" (SIAIJ-"YuSh")" dasturiy majmuasi qanday maqsadlarda yaratilgan?

- a) tuman(shahar) Davlat soliq inspeksiyalarida yuridik shaxslarni qayd qilish va hisobga olish, shaxsiy hisob varaqalarni avtomatlashtirilgan holda yuritish maqsadida yaratilgan
- b) shahar Davlat soliq inspeksiyalarida yuridik va jismoniy shaxslarni qayd qilish va hisobga olish maqsadida yaratilgan
- c) tuman Davlat soliq inspeksiyalarida jismoniy shaxslarni qayd qilish va hisobga olish maqsadida yaratilgan
- d) banklarda yuridik shaxslarning shaxsiy hisob varaqalarni avtomatlashtirilgan holda yuritish maqsadida yaratilgan

3. Elektron raqamli imzo (ERI) – bu ...

- a) elektron hujjatdagi axborotni ERI yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda ERI ochiq kaliti yordamida

elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va ERI yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo

b) kriptografik almashtirish algoritmlari yordamida amalga oshiriladigan axborotning to'la-to'kisligi, qulayligi va maxfiyligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui

c) axborot xavfsizligini ta'minlash uchun uning kriptografik almashtirilishini amalga oshiruvchi texnik, dasturiy va dasturiy-texnik vositalar

d) elektron shaklda taqdim etiladigan soliq hisobotlari tarkibi va ko'rsatkichlar tuzilmasining formaga keltirilgan tavsifi

4. "Soliq to'lovchi yuridik shaxslar varaqasi" dasturiy mahsulining tashkil etuvchi manbalari bo'lib qanday hujjatlar hisoblanadi?

a) moliyaviy hisobotlar, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar, soliq to'lovchilarning shaxsiy varaqalari

b) yuridik shaxslarning ustavi

c) Soliq kodeksi va qonunlar

d) O'zR.DSQ va DBQ yo'riqnomalari

5. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 4 avgustdagi «Soliq to'lovchilarga axborot xizmati ko'rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini yanada takomillashtirish» to'g'risidagi 157-sonli qarorining asosiy mazmuni nimadan iborat?

a) Soliq to'lovchilarga axborot xizmatlar ko'rsatishni yanada takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy hisobotlar va hisob-kitoblar taqdim etishda elektron hujjat aylanishini joriy etish maqsadida qabul qilingan.

b) Budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni tahlil etish va prognoz qilish maqsadida qabul qilingan.

c) Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishini kameral nazorat qilish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralariga yuklatilgan vazifalarning ijrosini nazorat qilish uchun axborot ta'minoti maqsadida qabul qilingan.

d) Soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish maqsadida qabul qilingan.

6. Elektron hujjat – bu ...

a) elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot

b) yagona kompyuter tizimi

c) moliyaviy hisobot shakllari

d) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitob shakllari

7. Soliq xizmati organlari axborot tizimlari – bu ...

a) soliq organlariga yuklatilgan vazifalarni to'liq va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida soliqqa oid axborotlar, ularni yig'ish, qayta ishlash va soliq,

moliya hamda boshqaruv organlarini ma'lumotlar bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan texnik, texnologik va telekommunikatsiya vositalarining o'zaro bog'langan majmuasi

b) mamlakat doirasida (hududida) to'lovchilardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar hamda ularning tarkibiy tuzilishining shakl va uslublari yig'indisi

c) yagona kompyuter tizimi

d) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisobotlarni topshirishning elektron shakli

8. Davlat soliq xizmati organlari global axborot tizimining asosiy vazifasi qaysi javobda keltirilgan?

a) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisobotlarni o'z vaqtida elektron topshirishni ta'minlashdan iborat

b) mamlakat miqyosida soliqqa oid umumlashtiruvchi axborotlarni saqlash, unga ishlov berish va qidirish hamda kompyuterlarda axborotlarni to'plash, tayyorlash va uzatish, shuningdek axborotni iste'molchiga chiqarib berish bilan bog'liq amallarni bajarishdan iborat

c) kompyuterlarda axborotlarni to'plash, tayyorlash va uzatishdan iborat

d) soliqlar va yig'imlar tushumi haqida ma'lumotlar statistikasini olib borishdan iborat

9. O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri bu ...

a) soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi

b) soliq to'lovchilar va undiruvchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi

c) soliq undiruvchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi

d) soliq'larga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi

10. "Respublika tekshirishlar reja-jadvalini shakllantirish va bajarilishini nazorat qilish" dasturiy mahsulini joriy qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?

a) nazorat organlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlarga zid ravishda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga asossiz ravishda aralashishlarining oldini olish; dasturdan foydalanuvchilar uchun qo'shimcha qulayliklarni yaratish va tuzilayotgan tekshirishlar reja-jadvali sifatini oshirish

b) mol-mulk va yer solig'i to'lovchi yuridik shaxslarni to'liq hisobga olishni, soliqlarni hisoblanishi va byudjetga o'z vaqtida to'liq undirilishini nazorat qilish

c) shahar Davlat soliq inspeksiyalarida yuridik shaxslarni qayd qilish va hisobga olish maqsadida yaratilgan

d) tuman Davlat soliq inspeksiyalarida jismoniy shaxslarni qayd qilish va hisobga olish

Adabiyotlar ro'yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
6. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 b.
7. Vahobov A.V., Jo‘raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: «Sharq», 2009 y. -448 b.
8. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 b.
9. Gadoev E. va b. Bilvosita soliqlar. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 –b.
10. Gadoev E.F., Kuzieva N.R., Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012. – 336 b.
11. Gadoev E.F., Kuzieva N.R., Ashurova N.B, O‘rmonov J.J. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. - T.: IQTISOD-MOLIYA. 2013. 592 b.
12. Jo‘raev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.
13. Sanakulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni solikka tortish. O‘quv qo‘llanma. T.: Noshir 2012., 236 b.
14. Пансков В. Налоги и налогообложение: теория и практика. Учебник. – М.: “Юрайт”, 2012 г. – 680 с.
15. Deborah Schanz, Sebastian Schanz. Business Taxation and Financial Decisions (Germany), Springer. 2011
16. Advanced Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, 2014
17. Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2015
18. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2014. – 46 b.
19. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr –O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2015 y.

20. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2014 y.
21. Gataulin Sh.Q. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. T.: 1996. – 303 b.
22. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
23. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Akademiya. - T.: 2007. - 214 b.
24. Гадоев Е. и др. Упрощённая система налогообложения. Учебно-практическое пособие. - T.: Норма, 2011.- 324 с.
25. Eshboev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho'lpon” 2013, 296 b.
26. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник М.:Инфра-М. 2007.-507 с.
27. O'rmonov J. Kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. –T.: El-Press. 2011. – 132 b.
28. Musagaliev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 b.
29. Попова Л.В. и др. Теория и история налогообложения. Учебник. Дело и Сервис. 2011. - 368 с.
30. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. Учебник - М.: МЦФЕР, 2007-528 с.
31. O'zbekiston davlat soliq tizimi – islohot va rivojlanish yo'lida. Albom-kitob. – T.: “Sharq” NMAK, 2007. – 209 b.
32. O'zbekiston soliq tizimi mustaqillik yillarida. Rasmiy nashr. O'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2011.– 150 b.

Internet saytlari

33. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
34. www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
35. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
36. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
37. www.soliq.uz– O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
38. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
39. www.norma.uz- Informatsion huquqiy tizim dasturi.
40. www.ziynet.uz- Axborot ta'lim tarmog'i.
41. www.nalog.ru- Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

KIRISH

Oliy ta'limning davlat standartlari, malaka talablariga asosan "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining ixtisoslik blokida "Soliqlar va soliqqa tortish" fani o'qitiladi. Ushbu fanni o'qitish jarayonida yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarga tavsifi, shu jumladan, soliqlar va ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarni hisoblash va budjetga to'lash tartibi singari mavzular o'rganib chiqiladi. Xususan, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartiblari amaliyotga bog'langan holda chuqur o'rganiladi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmaga "Kasb ta'limi" (Moliya, Bank ishi, Buxgalteriya hisobi va audit, Sug'urta ishi); "Bank ishi"; "Sug'urta ishi"; "Pensiya ishi"; "Baholash ishi", "Moliya", "Buxgalteriya hisobi va audit" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun "Soliqlar va soliqqa tortish" fanidan mustaqil ta'limni bajarish va ularni baholash tartibiga doir tavsiyalar keltirilgan.

Uslubiy ko'rsatmada keltirilgan tavsiyalar mustaqil ta'limni bajarish doirasidagi uslubiyat hamda shakllar asosida o'rganib chiqilgan bo'lib, ularning ifodasi ko'rsatmada o'z aksini topgan. Barcha ishlanmalarda bo'lgani holda ushbu uslubiy ko'rsatma ham kamchiliklardan xoli emas, shuning uchun ko'rsatma yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni mualliflar e'tirozsiz qabul qiladi.

1. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim talabani bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayonini o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabani o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta'lim uchun o'quv va ishchi o'quv rejada 72 soat ajratilgan.

Mavzuni yoritish jarayonida moliyaviy boshqaruv, moliyaviy nazorat, davlat byudjeti, sug'urta hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga taaluqli va ularni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni o'rganishga alohida ahamiyat qaratish lozim. Bunda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlarining asosiy mazmuni talabalarga etkazilishi, ularning mavzuga oid qismlaridan ko'chirmalar tarqatma material sifatida o'rganilishi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlarini o'rganishda axborot tizimlaridan foydalanish mumkin. Internet saytlari ma'lumotlaridan samarali foydalanish, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi hamda ularning rasmiy saytlaridan yangi ma'lumotlarni olib foydalanish lozim.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli bo'lib quyidagilar hisoblanadi: taqdimot tayyorlash, ilmiy loyiha yozish, tarqatma materiallar (jadval, grafik, chizma, sxemalar) tayyorlash. Bundan tashqari, fan mazmunini boyitish va uning ma'lumotlarini yangilab borishda axborot resurslaridan foydalanishni yo'lga qo'yish; fanning mazmunini yanada takomillashtirish maqsadida tavsiya etilgan chet el adabiyotlari ma'lumotlarini tarjima qilish va fanni chuqurroq o'rganish; talabalar fanni mukammal o'zlashtirish maqsadida mazkur fanga oid muammolarni hal qilish yo'llarini izlab topish va muammolarni maqolalar orqali yoritishlar ham kiradi.

II. Mustaqil ta'limni bajarilishi

Mustaqil ta'limni bajarilishi jarayonida turli manbalardan axborotlar yig'ish va ularni jamlashda, yozma ravishda o'zining fikrini bayon etishda, auditoriya oldida o'zining ravon nutqi bilan chiqishda talabaning malakasi shakllanadi va oshadi. Talaba kutubxonalarda faqat adabiyotlar bilan ishlashda cheklanmasdan, balki davlat tashkilotlari, statistika boshqarmasi, jurnal, ro'znoma va internet saytlari ma'lumotlaridan foydalanishini bilish lozim.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- bitiruv malakaviy ishi uchun materiallar to'plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash.

Fan hususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat kiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa,

adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, toshpiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Mustaqil ta'limni bajarishning keng tarqalgan shakli *taqdimot*dir. Talabalar taqdimotni seminar darslariga tayyorlab kelishlari mumkin. Taqdimotni adabiyotlarni o'rganib, tanlangan mavzuga chuqur yondashib, o'z kuzatishlarini ham ishlata bilgan holda tayyorlashlari kerak.

Taqdimot tayyorlash jarayonida talaba adabiyotlar bilan ishlash, turli manbalardan olgan materiallarini umumlashtirish va xulosa qilishga o'rganadi. Taqdimot tayyorlash uchun talaba, avvalo, fanni nazariy jihatdan puxta

o'zlashtirishi kerak. Tanlab olingan mavzuni yoritish uchun kirish, 3-4 reja tuziladi va shu reja asosida mavzu yoritiladi.

Mustaqil ta'lim bajarilishida talaba bu ishga ijodiy yondoshmog'i kerak. Talabalarni fanini mustaqil o'zlashtirishlari uchun quyidagi talablar qo'yilgan:

- ✚ Referat reja asosida va talab darajasida tayyorlangan bo'lib, har bir reja bo'yicha talaba o'z fikr mulohazalarini bayon etishi shart;

- ✚ mavzuni yoritishda keltirilgan statistik ma'lumotlar aniq va to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun manbasi ko'rsatilishi shart;

- ✚ Referat tarzda (kompyuterda) yoziladigan bo'lsa (A4 format qog'oz, chap-3 sm, yuqori-2 sm, past-2,5 sm, o'ng-1,5 sm va 14 shriftda, 1 intervalda yozilishi kerak) 14-15 betdan va taqdimot ko'rinishida 10-15 slayddan iborat bo'lishi kerak, tarqatma materiallar esa 8-10 tadan kam bo'lmasligi lozim.

III. Mustaqil ta'limni baholash tartibi

Talabalarining reyting asosida baholash tizimida mustaqil ta'limning bajarilishi yakuniy sinov sifatida xizmat qiladi. Albatta, mustaqil ta'limning talabalar tomonidan bajarilish muddati, yozma yoki Ilmiy loyiha ishlariga qo'yilgan talabga qay darajada javob berilishi, tavsiya etilgan adabiyotlardan qanday foydalanganligi baholash me'zonida nazarda tutiladi.

Mustaqil ta'limning bajarilishini nazorat qilish va baholash tizimi o'quv guruhi darajasida tashkil etilayotgan ilmiy seminarda, amaliy mashg'ulotlarda, joriy va oraliq nazoratlarda olib boriladi. Mustaqil ta'limlarning baholash me'zoni quyidagicha tashkil etish mumkin: barcha ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun - oraliq nazoratga ishchi dastur bo'yicha maksimal 34 (24/10) ball belgilangan bo'lib, shundan mustaqil ta'lim soatlarida bajargan ishlari, qilgan taqdimoti hamda iqtisodiy tahlil bo'yicha berilgan qo'shimcha topshiriqlarni bajarishi uchun maksimal 10 ball ajartilgan. Bu maksimal 10 ball oraliq nazorat o'tkaziladigan vaqtlarda ikki marta maksimal 5 ballga ajratilgan holda rasmiylashtiriladi.

Mustaqil ta'lim bo'yicha talabaning ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagi mezonlarga asosan aniqlanadi:

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
8,6-10,0	A'lo	Mustaqil ta'lim talablari 86-100% bajarilgan, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mushohada yuritish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
7,1-8,5	Yaxshi	Mustaqil ta'lim talablari 71-85% bajarilgan, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, amalda soliqlarni hisoblash uslubiyatlarini qo'llay olish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
5,5-7,0	Qoniqarli	Mustaqil ta'lim talablari 55-70% bajarilgan, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, tasavvurga ega bo'lish.

0-5,4	Qoniqarsiz	Mustaqil ta'lim talablari 54% bajarilgan, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilishda aniq tasavvurga ega emaslik, bilmaslik, shuningdek belgilangan muddat va tartibda mustaqil ta'limni bajarmaslik.
-------	------------	---

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR

1. "Soliqlar va soliqqa tortish" fanining predmeti, vazifalari va o'rganish usullari.
2. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni o'ziga xos o'xshashlik hamda farqli jihatlari.
3. Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarga umumiy tavsifnoma.
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga undirish tartibi.
5. O'zbekistonda mol-mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni va ahamiyati.
7. Qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
8. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqning o'ziga xos xususiyatlari.
9. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i va uni soliq tizimida tutgan o'rni.
10. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va uning stavkalarini belgilash mezonlari.
11. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirish tartibini takomillashtirish.
12. Aksiz solig'ini hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi.
13. Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi.
14. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va hisob-kitoblarni taqdim qilish jarayoni.
15. Kichik biznesni rivojlantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyati.
16. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va uning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri.
17. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
18. Tijorat banklarini soliqqa tortish uslubiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari.
19. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblash hamda to'lash tartibi.
20. O'zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig'implarning amal qilish mexanizmi.

21. O‘zbekiston Respublikasida umumdavlat soliqlarining amal qilish mexanizmi.
22. Kichik korxonalarni soliqqa tortish tartibi.
23. Yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat soliqlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
24. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari va uni o‘ziga xos xususiyatlari.
25. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va uni undirish tartibi.
26. Soliq yukini aniqlash tartibi va uni maqbullashtirish yo‘llari.
27. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga bo‘lgan ta‘siri.
28. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida soliqlarning tutgan o‘rni va ahamiyati.
29. Yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish, uning o‘ziga xos xususiyatlari.
30. Soliqqa tortish jarayonida deklaratsiyalash usuli, uning o‘ziga xos xususiyatlari.
31. Yagona yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartiblarini takomillashtirish.
32. Soliq amaliyotida moliyaviy jazo choralarini qo‘llash tartiblari.
33. Foyda solig‘i bazasini aniqlash usullari, soliqni hisoblash va to‘lash tartiblari.
34. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
35. Aksiz osti tovarlarini belgilash va ularni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari.
36. O‘zbekistonda qo‘shilgan qiymat solig‘ini joriy qilishning iqtisodiy sabablari.
37. Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi va muddatlarini takomillashtirish.
38. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i, uni hisoblash va byudjetga undirish.
39. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari.
40. Yagona yer solig‘ini to‘lovchilari, stavkalari, hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi.
41. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalarini takomillashtirish masalalari.
42. Dehqon va fermer xo‘jaliklarini soliqqa tortish masalalari.
43. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash tartibi
44. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash tartibi
45. Transport vositalardan benzin dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz ishlatilganlik uchun soliqni hisoblash tartibi

46. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik hamda jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish yig'imi va uni hisoblash jarayoni.

47. Soliqlarning o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash masalalari.

48. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'ini joriy qilishning iqtisodiy sabablari.

49. O'zbekiston Respublikasida egri soliqlarni undirish amaliyoti va uni takomillashtirish masalalari.

50. Soliq organlarining iqtisodiy nochor korxonalarini tugatish jarayonidagi ishtiroki.

51. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjet oldidagi qarzdorligini kamaytirishda soliq organlarining roli.

52. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash tartibi

53. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash tartibi

54. Transport vositalardan benzin dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatilganlik uchun soliqning joriy etilish sabablari va amal qilish mexanizmi.

55. Soliq yuki va uni optimallashtirish.

56. Soliqlarning o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash masalalari.

57. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

GLOSSARIY

O'ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O'ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
Budjet tizimi	Budget system	Бюджетная система	Turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, ularni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, shuningdek budjet jarayonida paydo bo'ladigan ular o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.
Budjet dotatsiyasi	Budget subsidies	Бюджетные субсидии	O'z daromadlari va budjet tomonidan tartibga solinadigan barcha mablag'lar etishmagan holda quyi budjetning harajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag'lari.
Budjet profitsiti	Budget surplus	Бюджетный избыток	Muayyan davrda budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.
Budjet ssudasi	Budget loan	Бюджетный кредит	Yuqori budjetdan quyi budjetga yoki respublika budjetdan rezident – yuridik shaxsga yoki xorij davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.
Budjet subventsiyasi	Budget subventions	Бюджетных субвенций	Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ma'lum maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga tekingi (haq olmay) ajratiladigan pul mablag'lari.
Davlat budjeti	State budget	Госбюджет	Davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli fondlari mablag'larining) markazlashtirilgan fondi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Daromad solig'i	Income tax	Подоходный налог	To'g'risoliqlarning asosiy shakli. Jismoniy yoki yuridik shaxslarning jami daromadidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarini chegirgan holda foizdahisoblangan ulushi.
Daromadlar to'g'risida deklaratsiya	Income declaration	Декларация о доходах	Dvidentlar – taqsimlashga mo'ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxonada sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma'lum davrdan so'ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to'lanadigan daromad.

Dotatsiya	Subsidy	Субсидия	Davlat budjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablagʻlari, (ziyon) larni qoplash uchun korxonalar va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonaga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra vujudga kelgan paytda istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.
Daromad soligʻining shedulyar shakli	Shedulyar income tax form	Shedulyar форма налог на доход	Daromadning manbaini inobatga olgan holda uning qismlarga (shedulyarga) boʻlinishini taqozo etadi. Har bir shedul oʻziga manbai oldida "tutish"ni maqsad qilib qoʻyadi. Mamlakatda bu sohada olti shedul amal qilib, ularning ayrimlari Yana ichki taqsimlanishga ham egadir.
Jarima	Penaltu	Санкция	Soliqqa oid jinoyatlar uchun javobgarlik oʻlchovidir.
Ikki marta soliqqa tortish	Doubletaxation	Двойное налогообложение	1. Turli soliqlarni daromad (kapital)ning yagona manbaidan olinishi; 2. Qoʻshma korxonalar xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga oʻtkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xudi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3. Sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) v undan toʻlanadigan dividendlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda toʻlangan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbaini ikkinchi mamlakatda oʻliqqa tortishdan ozod qilish yoʻli bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin.
Investitsion soliq krediti	Investment tax credits	Инвестиционные налоговые кредиты	Soliq toʻlovchi tomonidan maʼlum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi boʻyicha juda muhim buyurtmani bajarilganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun unga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan engillik, imtiyoz (soliq toʻlovini kechiktirilish). Bu kredit soliq toʻlovi va mahalliy maʼmuriyat oʻrtasida tuziladigan soliq bitimi bilan rasmiylashtiriladi. Investitsion soliq kreditini taqdim etish (berish), rasmiylashtirish va qaytarish tartibi "Investitsion soliq kredit toʻgʻrisida" gi qonunga muvofiq belilanadi.
Imtiyoz	Privilege	Льгота	Maʼlum bir majburiyatlarni bajarishdan

			qisman (yoki to'liq) ozod etish, ma'lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo'lish, masalan, soliq imtiyoziga.
Import solig'i	Import tax	Налог на импорт	Bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Boj poshlinalarini ham iste'mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa bir qismi mahalliy budjetlarga borib tushadi.
Yig'imlar	Tolls	Пошлины	Qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan tegishli darajadagi budjetlarga yoki budjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar kiradi.
Mahalliy soliqlar va yig'imlar	Local taxes and fees	Местные налоги и сборы	Mahalliy budjetga olinadigan jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy to'lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i, yer solig'i, savdo-sotiq qilish huquqi uchun qig'im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar.
Mahalliy budjet	The local budget	Местный бюджет	Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Ma'muriy javobgarlik	Administrative responsibility	Административная ответственность	Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri.

Ortiqcha to'lovlar	Payment	Переоплата	To'lovning budjetga tushgan ortiqcha summasi. Odatda soliq to'lovchining boshqa to'lovlar bo'yicha mavjud bo'lgan boqimondalarini uzish uchun hisobga olinadi va bu to'g'rida unga ma'lum qilinadi yoki moliya organining qarori nusxasi va bankning tegishli ko'chirmasi asosida soliq to'lovchiga qaytariladi.
Penya	Fine/surcharge	Пеня	Qonunchilikda nazarda tutilgan yoki shartnoma majburiyati bo'yicha belgilangan vaqtdan kechikkan har bir kun uchun bitim bo'yicha qayd etilgan summaning foizdagi ulushi ko'rinishida qo'llaniladi.
Regressiv soliqqa tortish	Regressivetaxation	Регрессивное налогообложение	Soliq asosi (bazasi)ning o'sib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og'irligi daromadga teskari proportsionaldir: daromad qancha kam bo'lsa, soliq to'lovchi uchun soliqning og'irligi shuncha og'irdir. Hozirgi paytda qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.
Real soliq	Real tax	Реальный налог	Soliqto'lovchining ayrim mulklarini soliqqa tortadigan to'g'ri soliqlardan iboratdir.
Rezidentlar	Residents	Резиденты	Kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo'lmagan muddatda yashagan, O'zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va bo'lmagan soliq to'lovchilar (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.
Respublika budjeti	Republican budget	Республиканский бюджет	Davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda adromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Soliq agenti	Taxagent	Налоговый агент	Yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunda yuridik shaxslar, ular o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to'lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va

			byudjetga o'tkazib beradi. Soliq agenti adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida e'tirof etiladi.
Soliqlar	Taxes	Налоги	Qonunda beliglangan tartibdastavka bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolar (yuridik va jisoniylar) dan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy budjetga olinadigan majburiy to'lovlar. Soliq, yig'im, poshlina va boshqa to'lovlar deyilganda qonuniy aktlar asosida beliglangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan tegishli darajadagi budjetlarga yoki budjetdan tashqaridagi fondlarga majburiy badallarning to'lanishi tushuniladi. Belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar, poshlinalar va boshqa to'lovlarning yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi.
Soliq bazasi	The tax base	Налоговая база	Soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan ob'ektning miqdoriga ham bog'liq bo'ladi.
Soliq kontseptsiyasi	The concept of tax	Понятие налога	Bu soliqlarni yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarning yaxlitligidir.
Soliq siyosati	Tax policy	Налоговая политика	Bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.
Soliq siyosati strategiyasi	Tax policy	Стратегия налоговая политика	Soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig'indisidir.
Soliq siyosati taktikasi	Tax policy and tactics	Тактика налоговая политика	Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasi - soliq

			siyosati taktikasi sifatida qaraladi.
Soliq sub'ekti	The subject of tax	Субъекти налога	Soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq sub'ekti - bu soliqqa oid munosabatlarning tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi.
Soliq ob'ekti	The object of the tax	Объект налогообложения	Soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq ob'ekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi.
Soliq organlari	Tax authorities	Налоговые органы	Soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o'rnatilgan) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, ularning to'liq va o'z vaqtida budjetga o'tkazilishi ustidan nazoratni ta'minlovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim. Davlat soliq qo'mitasining yagona tizimiga kiruvchi soliq organlari davlat boshqaruvining markaziy organi (Davlat soliq qo'mitasi), viloyat, tuman va shahar soliq inspeksiyalaridan iboratdir.
Soliq imtiyozlari	Tax incentives	Налоговые льготы	Soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil engilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin.
Soliq manbai	A source of tax	Источник налога	Bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbai, ya'ni daromadi. Soliq ob'ekti va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, daromad (foyda)ga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq ob'ekti ham soliq manbai ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima ob'ekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.
